O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KIBERHUQUQ: MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

konferensiya materiallari

ТОШКЕНТ 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

Tezkor-qidiruv faoliyati va kiberhuquq kafedrasi

“KIBERHUQUQ: MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy

KONFERENSIYA

materiallari

TOSHKENT- 2025

UO‘K 343. 98+343.2/.7(575.1)

BBK 67.408

K 43

Mazkur to’plam O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida 2024-yilning 25-sentabr kuni “Kiberhuquq: muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusida otkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi yakunlari doirasida tayyorlangan.

To’plam O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kengashining 2024-yilning “24”-dekabr kungi “14”-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Kiberhuquq: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. /Mas’ul muxarrir M.M.Mamasiddiqov. “Lesson press”. 2025. – 402 b.

Mas’ul muharrir: **M.M.Mamasiddiqov**

Tahrir hay’ati:

kafedra boshlig’i	**F.A.Nazarov**
yu.f.d.prof.	**V.Karimov**
yu.f.d.prof.	**I.R.Astanov**
yu.f.f.d., dotsent	**Sh.I.Shayzakov**

Nashrga tayyorlovchilar: **A.A. Turg‘unov**
J.R.Shukurov

To’plamda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida 2024-yilning 25-sentabr kuni “Kiberhuquq: muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusida o’tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari o’rin olgan. Unda kiberhuquqni rivojlantirishning dolzarb nazariy va tashkiliy-amaliy masalalari hamda ushbu soha bo’yicha tadqiqot natijalarini amaliyotda qo’llash muammolariga bag‘ishlangan konferensiya maqola va maqola ilmiy-ommabop tarzda bayon etilgan.

To’plam fan va ta’lim sohasini boshqarishga vakolatli davlat organlari, yuridik fan va huquqni qo’llash amaliyoti bilan bog’liq mutasaddi tashkilotlar xodimlari, oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar hamda ushbu masalalarda qiziquvchi mutaxassislar va keng jamoatchilik uchun mo’ljallangan.

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik va boshqa ma’lumotlar, me’yoriy hujjatlar sanasinng to’g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o’zlari mas’uldir.

@ O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2025.

PROKURATURA ORGANLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI

Samadov Salom Ismatovich,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.,
3-darajali Davlat adliya maslahatchisi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli jamiyatimiz yangi davrga – raqamli inqilob davriga qadam qo'ymoqda. Har bir sohada yuz bergan tub o'zgarishlar bizdan yangi, innovasion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda kiberhuquq mavzusi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyamizda Huquqni muhofaza qilish akademiyasining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, Hindiston Milliy sud ekspertizasi universiteti, Qozog'iston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va boshqa nufuzli ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari vakillari ishtirok etishmoqda.

Hayotimizning deyarli barcha jabhalari raqamli texnologiyalar bilan bog'liq holda o'zgarmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat odamlar o'rtasidagi muloqot shakllarini, balki iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvi kabi muhim sohalarni ham qamrab olmoqda. Ammo bu yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqardi.

Raqamli dunyoda paydo bo'layotgan yangi tahdidlar orasida kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot maxfiyligi va kiberjinoyatchilik kabi masalalar alohida o'rin tutadi. Shuning uchun kiberhuquq sohasini rivojlantirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham muhimdir. Jamiyatlar va davlatlar o'rtasida raqamli xavf-xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish uchun umumiy huquqiy normalarni ishlab chiqish va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur bo'lmoqda.

Yangi raqamli reallikda, davlatlarning mustaqil yondashuvlari axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik va raqamli xavf-xatarlarning global xarakterga ega ekanligi sababli, davlatlar o'rtasidagi integrasiya va hamkorlikning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bu konferensiya, kiberhuquq sohasida global hamkorlikni mustahkamlash uchun platforma vazifasini o'taydi.

Bugungi tadbirning asosiy maqsadi – raqamli rivojlanishning huquqiy oqibatlarini chuqur o‘rganish, kiberhuquq sohasida mavjud muammolarni aniqlash va ularga amaliy echimlar topishdir. Umid qilamizki, ushbu konferensiya kiberhuquq sohasida yangi fikrlar va amaliy echimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy muhokamalar va mulohazalarni ilgari suradi.

Ayni vaqtda prokurorlik faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uning dolzarbligi, avvalo, nazorat faoliyatini optimallashtirishga, ya’ni birlamchi ma’lumotlarni qayta ishlashga, qonun ustuvorligini ta’minlashga, prokuratura organlarining nazorat faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish nuqti nazaridan o‘ta muhim hisoblanadi.

Buning uchun nazarimizda prokuratura organlarining nazorat faoliyatida sun’iy intellektni joriy etish bo‘yicha davlat vazifalarini bajarishda prokuratura xodimlarining yagona yondashuvini ishlab chiqish zarur. Nazorat amaliyoti tajribasi va prokurorlik nazorati sohasidagi mavjud ilmiy muammolarni tezroq hal etish zaruratini hisobga olgan holda, nazorat faoliyatini takomillashtirish uchun tegishli tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu prokuratura faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, nazariy-huquqiy va texnologik xarakterdagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Bu yerda prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatini huquqiy tartibga solish; prokurorlik nazorati nazariyasini takomillashtirish (prokurorlik nazoratining ilmiy muammolarini nazariy-amaliy tadqiqotlar orqali o‘rganish); nazorat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning shakl va usullarini takomillashtirish, shu jumladan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda amalga oshirish; raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellektni qo‘llash orqali nazorat faoliyatini optimallashtirish nazarda tutiladi. Buning doirasida ilmiy va amaliy tajribalar natijalariga asoslangan harakatlar algoritmini maxsus dastur orqali bajarish, vujudga kelgan vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish, ushbu qarorlarni to‘plash, saqlash, qo‘llash va ma’lumotlarni himoya qilishni ta’minlash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Ma’lumki, nazorat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tegishli huquqiy va nazariy bazaning mavjudligiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ushbu yo‘nalishdagi nazorat amaliyotining ijobiy tajribasi va prokuratura nazorat faoliyatining sifat va natijadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari orqali shakllanadi.

Bu yerda, ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarning nazorat faoliyatini takomillashtirishdagi rolini alohida ta’kidlash zarur. Ilmiy tadqiqotlar

nazorat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning yangi shakl va usullarini, shu jumladan sun’iy intellektdan foydalangan holda, ishlab chiqishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko‘ra, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi.[1]

Biz so‘z bilan aytganda, jamiyatning ilmiy rivojlanishi masalasi ham davlat vazifalari doirasiga kiradi.

Qonun ustuvorligini ta’minlash prokurorlik nazorati samaradorligini talab etadi, bu esa nazorat faoliyatining sifati va natijadorligiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Nazorat faoliyati sifati esa faqatgina nazorat tadbirlarining hajmi va chuqurligi, ya’ni nazorat mavzusi bilan belgilangani bilan emas, balki nazorat jarayonining o‘ziga xos xususiyati bilan ham belgilanadi. Bu, avvalo, prokuror tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning bosqichma-bosqichligi, izchilligi va nazorat faoliyatining har bir bosqichida belgilangan maqsad va vazifalarning to‘liq amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Biz prokuratura organlarining nazorat faoliyatini tizimli ravishda tashkil etilgan va izchil amalga oshiriladigan prokuror harakatlari majmui sifatida tushunamiz. Ushbu harakatlar belgilangan maqsad va vazifalar bilan bog‘liq bo‘lib, qonun buzilishlari va ularga olib keluvchi holatlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan. Qonun ustuvorligini to‘liq tiklash uchun ushbu harakatlar amalga oshiriladi.

Nazorat faoliyati samaradorligi va sifatiga erishishda asosiy omillardan biri taktikani to‘g‘ri qo‘llashdir. Taktika prokuror harakatlarining mufassal va tizimli bo‘lishini ta’minlaydi, nazorat holatining mavjud sharoitlarini doimiy tahlil qilish orqali tanlangan usul va harakatlar tartibini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘ladi.

Hozirgi kunda prokurorlik faoliyati taktikasi nazariya va amaliyotda yetarli darajada o‘rganilmagan va bu raqamli texnologiyalar asrida tezkor yechim talab etuvchi ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu ilmiy muammoni hal etish maqsadida biz muayyan harakatlarni amalga oshirdik va prokurorning nazorat faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishda taktikadan foydalanish borasida ilmiy-amaliy tadqiqot o‘tkazdik. Ushbu tadqiqot natijasida dastlabki asosiy xulosalar qo‘lga kiritildi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145

Biz prokurorlik nazorat faoliyati taktikasi tushunchasini nazorat faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda eng maqsadga muvofiq usul va harakatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan oqilona yechimlarni topish va amalga oshirish jarayoni sifatida tushunamiz.

Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, prokurorlar faoliyatini optimallashtirish maqsadida, qonun ustuvorligi holati to‘g‘risida obyektiv ma’lumotlarni yig‘ish uchun maxsus elektron kartalarni yaratish taklif etilmoqda. Ushbu kartalarda nazorat faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha har bir nazoratdagi obyektga tegishli ma’lumotlar alohida qayd etiladi.

Nazorat obyektining ma’lumotlarini tizimli va kompleks tahlil qilish hamda ularni doimiy ravishda yangilash quyidagilarga yordam beradi:

tekshiruvlarni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha oqilona taktikani ishlab chiqish va amalga oshirish;

nazorat ostidagi obyektda qonun ustuvorligi holati va prokuratura nazorati samaradorligi to‘g‘risida dolzarb ma’lumot-larni olish va saqlash, shuningdek, nazorat faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishning ratsional usullarini ishlab chiqish.

Ushbu tahlil natijalari nazorat faoliyatini rejalashtirish, nazorat holatlarini prognoz qilish, qonun ustuvorligi holati va uning dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ma’lum bir davrdagi statistik va tahliliy ma’lumotlarga asoslangan qonun ustuvorligi holatini shakllantirish uchun asos bo‘ladi.

Qonun ustuvorligi holati bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni qayta ishlashdan tashqari, elektron kartada aniq nazorat obyektiga doir barcha yakuniy ma’lumotlar saqlanishi tavsiya etiladi. Ushbu ma’lumotlar tekshiruv va profilaktik faoliyat natijalarini, idoralararo hamkorlik samaradorligi baholarini hamda har bir tekshiruv tadbiri natijalarini o‘z ichiga oladi.

Elektron karta mazmunini prokuraturaning nazorat faoliyati sifatini, samaradorligini va natijadorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulot sifatida joriy etish mumkin. Ilgari ayrim olimlar prokurorlarning tahliliy faoliyatida yordam beradigan tizimli kompyuter dasturlaridan foydalanishni taklif qilgan. Ushbu dasturiy ta’minotga quyidagi asosiy masalalarni tahlil qilish kiritilgan: qonun ustuvorligi holati, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, prokurorlik aralashuvini talab etuvchi ma’lumotlar va h.k.

Elektron kartada prokurorlar tomonidan nazorat obyekti va mavzulari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni qayd etish tavsiya etiladi:

Nazorat obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlar (faoliyat sohasi, huquqiy tartibga solish, tuzilma va h.k.);

Prokurorlik tekshiruvlarini o‘tkazish asoslari va davriyligi;

Prokuror tomonidan amalga oshirilgan ishlar xususiyati (tekshiruv o‘tkazish, nazorat ostidagi obyekt tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan tekshiruvda qatnashish, profilaktik tadbirlar, obyektga tashrif buyurish, qo‘shma yig‘ilishlarda ishtirok etish, profilaktik faoliyat va h.k.).

Bunday ma’lumotlar bazasini yuritish prokurorlarning faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi va quyidagi jarayonlarda zarur ma’lumotlarni tezkor olishni ta’minlaydi:

tekshiruvlarni tashkil qilish va o‘tkazishda;

yuqori prokuraturalar tomonidan berilgan shoshilinch topshiriqlarni bajarishda;

amalga oshirilgan tekshiruvlar sifatini va prokurorlik ta’sir choralarini tahlil qilishda;

qonun ustuvorligi holatini prognoz qilish va nazorat tadbirlarini rejalashtirishda;

tanlangan taktika va nazorat tadbirlarining samaradorligini baholashda va boshqalarda.

Elektron kartalarni yuritishni prokuratura tizimining barcha bo‘g‘inlarida, yuqoridan boshlab quyi darajalargacha, amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Elektron kartalarga o‘zgartish kiritish huquqi tegishli prokurorlar kompetensiya va vakolatlariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim.

Biroq, elektron kartalardan to‘liq foydalanish prokuratura nazorat faoliyati taktikasi ishlab chiqilmasdan imkonsizdir. Nazorat faoliyati taktikasi prokurorlik nazoratining sifat va samaradorligining asosiy omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan prokurorlik nazorati taktikasi asoslarini ilmiy-amaliy o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish zarur. Bunday tadqiqotning asosiy maqsadi – prokuratura nazorat faoliyati taktikasi ishlab chiqish va amalga oshirishda yagona algoritmni yaratishdir. Ushbu algoritm (yoki taktikani ishlab chiqish va amalga oshirish formalizatsiyasi) prokuratura organlari nazorat faoliyatiga sun’iy intellektni joriy etish uchun asos sifatida tavsiya etiladi.

Prokuratura organlari nazorat faoliyatini takomillash-tirish uchun sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi[2]ga muvofiq keladi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori // https://www.lex.uz/docs/7158604

Prokuratura organlari nazorat faoliyatiga sun’iy intellektni joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Qonunchilik darajasida:

prokuratura organlarining nazorat faoliyatining asosiy bosqichlarini, ularning maqsad va vazifalarini belgilash;

prokuratura organlari faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va uni tekshiruvlar o‘tkazishda nazorat faoliyati taktikasidan foydalanish bo‘yicha qoidalar bilan to‘ldirish. Taktikani ishlab chiqish va amalga oshirish algoritmini O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug‘i bilan tasdiqlash.

Prokuratura organlari amaliyotida:

nazorat obyektlarining elektron karta ma’lumotlarini qayta ishlash bo‘yicha dasturni joriy etish va ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha choralarni ko‘rish.

Prokuror nazorati nazariyasida:

prokuror nazorati taktikasi asoslari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni davom ettirish va ularning natijalarini prokuratura organlari amaliyotiga joriy etish, nazorat faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ ОХРАНЫ ПРАВОПОРЯДКА

Коленко Евгений Вячеславович
Первый заместитель начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан, PhD, доцент

Аннотация. *The article analyzes current innovative technologies in law enforcement activities. It examines the role of artificial intelligence (AI) in the legal protection system, as well as the legal and ethical aspects of its application. The contribution of AI to the development of legal norms, crime fighting, law enforcement activities, and legal analysis is described. The article also highlights the challenges and prospects of using AI to safeguard human rights and ensure the objectivity of judicial processes. The legal foundations for implementing AI in practice and the need for its legal regulation are discussed. The study is relevant and important for legal professionals, policymakers, and anyone interested in innovative technologies.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровая криминалистика, киберпреступность, киберправо, цифровые доказательства, международное сотрудничество, образовательные программы, цифровая безопасность.*

Аннотация. *Мақолада ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятида замонавий инновацион технологияларни таҳлил этади. Унда сунъий интеллект (СИ)нинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизимларидаги ролини, шунингдек, ушбу технологиянинг қонуний ва этик жиҳатларини кўриб чиқиш мумкин. Мақолада*

сунъий интеллектнинг ҳуқуқий нормалар, жиноятчиликка қарши кураш, полиция фаолияти ва ҳуқуқий таҳлил соҳасидаги амалиётларга қўшган ҳиссаси тавсифланади. Яна, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва суд жараёнларидаги объективликни таъминлашда СИнинг муаммолари ва истиқболларига эътибор қаратилган. Мақола, шунингдек, сунъий интеллектни амалиётда жорий қилишнинг ҳуқуқий асосларини ва қонуний тартибга солишнинг зарурлигини муҳокама қилади. Бу тадқиқот, ҳуқуқий соҳадаги профессионаллар, сиёсатчилар ва инновацион технологиялар билан қизиқувчилар учун долзарб ва муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: *суниий интелект, рақамли криминалистика, кибержиноятчилик, киберҳуқуқ, рақамли далиллар, халқаро ҳамкорлик, таълим дастурлари, рақамли хавфсизлик.*

Abstract. *The article examines the current issues of digital forensics development in the Republic of Uzbekistan through the example of the Law Enforcement Academy's activities. It analyzes modern challenges and threats in the field of cybercrime, as well as measures taken to counter them. Special attention is paid to describing the Academy's technical and methodological equipment, including specialized software and hardware for digital investigations. The article discusses educational programs for training specialists in cyber law and digital forensics, including plans to introduce a new master's program. The Academy's international cooperation and its role in developing methodological materials and regulatory legal acts are highlighted. Specific examples of successful assistance to law enforcement agencies in solving cybercrimes are presented. The article emphasizes the importance of further developing capabilities in digital forensics for effectively countering modern cyber threats.*

Keywords: *artificial intelligence, digital forensics, cybercrime, cyber law, digital evidence, international cooperation, educational programs, digital security.*

Искусственный интеллект (ИИ) становится важным инструментом для повышения эффективности работы правоохранительных органов. Его потенциал позволяет улучшить анализ данных, автоматизировать рутинные процессы и ускорить расследование преступлений. В этой статье рассматриваются основные преимущества ИИ для правоохранительной деятельности и его вклад в обеспечение безопасности общества.

Осознавая важность этих угроз, 13 января 2023 года на расширенном заседании Совета безопасности Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил, что в условиях растущих геополитических противостояний обостряются проблемы в различных сферах — экономической, социальной, политической, а также информационной безопасности. Президент подчеркнул, что защита информационной безопасности становится одной из приоритетных задач для обеспечения стабильности и устойчивости страны в условиях увеличивающейся цифровой уязвимости.

Применение ИИ делает возможным более точное и быстрое проведение оперативных мероприятий. Алгоритмы позволяют правоохранительным органам эффективно управлять временем, выделять приоритетные задачи и принимать меры на основе анализа в реальном времени.

Для безопасного и справедливого использования ИИ необходимо соблюдать этические нормы и стандарты. Органам важно обеспечивать защиту конфиденциальности данных и исключать предвзятость алгоритмов. Прозрачность и независимые проверки помогут минимизировать риски и повысить доверие общества.

Искусственный интеллект открывает новые возможности для правоохранительных органов, способствуя повышению их эффективности и обеспечению безопасности. При этом важно учитывать этические и правовые аспекты, чтобы технологии использовались справедливо и защищали права граждан. Умное и ответственное внедрение ИИ в работу органов правопорядка станет залогом улучшения качества услуг и укрепления общественной безопасности.

К примеру, программное обеспечение «Magnet Axiom» обеспечивает комплексный подход к обработке цифровых данных, интегрируя информацию из различных источников в единую систему анализа. Это повышает точность и удобство работы с разрозненными цифровыми доказательствами. Также НИИ цифровой криминалистики получила доступ к специализированным информационным системам, таким как DarkWebMonitor, Elliptic ICAC-COPS и Arthropod. Эти системы позволяют отслеживать незаконную активность в даркнете, анализировать криптовалютные транзакции и существенно расширяют возможности расследования киберпреступлений, связанных с незаконными операциями в онлайн-пространстве, включая борьбу с распространением детской порнографии и другими серьёзными угрозами.

Для создания криминалистических копий цифровой информации и защиты данных было приобретено специализированное оборудование — комплекты дубликаторов и блокираторов Tableau, которые позволяют выполнять побитовое копирование данных без риска их повреждения или изменения. Это особенно важно при работе с цифровыми доказательствами, где

требуется максимальная точность и сохранность данных.[3] С целью восстановления данных с повреждённых и сложных носителей информации академия приняла в эксплуатацию аппаратно-программный комплекс PC-3000 Portable PRO, обладающий высокой функциональностью для работы с физическими носителями данных, что позволяет восстанавливать информацию даже с повреждённых или частично неработоспособных устройств.

Такие программные продукты и оборудование значительно расширяют технический потенциал академии и обеспечивает возможность эффективной работы с широким спектром цифровых носителей, что повышает качество и достоверность анализа цифровых доказательств.

В Академии ведется подготовка специализированной лаборатории для работы с цифровыми носителями, отвечающей международным стандартам ISO/IEC 17025-201[4] и ISO 14644-1:201[5]. Лаборатория будет оборудована герметичной конструкцией, обеспечивающей защиту от проникновения пыли и внешнего электромагнитного излучения. Такая защита необходима для создания стабильных условий, в которых можно проводить анализ цифровых данных и экспертизы без риска внешнего воздействия на информацию.

Правоохранительная академия Республики Узбекистан придает особое значение методическому сопровождению деятельности правоохранительных органов, что позволяет эффективно интегрировать новые подходы и технологии в повседневную работу по противодействию цифровой преступности.

Несмотря на относительно короткую историю работы, академия уже имеет ряд успешных примеров содействия в раскрытии преступлений. Так, проведено изучение, направленное на противодействие распространению детской порнографии. В ходе этого исследования специалисты академии сосредоточились на выявлении и анализе каналов распространения данного контента на территории Республики Узбекистан. По результатам работы полученные сведения были оперативно переданы в правоохранительные органы для принятия необходимых мер. Этот

[3] Пастухов П. С. О необходимости развития компьютерной криминалистики // Пермский юридический альманах. – 2018. – №1 – С. 450-260.

[4] ISO/IEC 17025:2019 General requirements for the competence of testing and calibration laboratories [Электронный ресурс] – https://www.iasonline.org/wp-content/uploads/2021/02/ISO-IEC-17025-2017-IAS.pdf Дата доступа: 05.11.2024 г.

[5] ISO 14644-1:2015 General requirements for the competence of testing and calibration laboratories [Электронный ресурс] – https://antoandoluong.com/Files/Docs/20203181613304.pdf Дата доступа: 05.11.2024 г.

подход позволил не только выявить в двух регионах станы источники распространения и привлечь виновных лиц к ответственности, но и наладить эффективное взаимодействие с правоохранительными органами для защиты общества и особенно уязвимых категорий граждан.

Также, был проведен анализ вредоносного программного обеспечения, используемого для несанкционированного доступа к банковским картам через фиктивные сайты транспортных компаний, инициированы исследования, направленные на изучение активности денежных мулов и предотвращение незаконных транзакций и др. Исследования выявили методы, применяемые злоумышленниками для обмана пользователей и хищения данных. Полученная информация и методики противодействия были также переданы правоохранительным органам.

Сотрудники института совместно с экспертами-криминалистами Министерства внутренних дел разработали, утвердили и внесли в государственный реестр методику проведения экспертных исследований мобильных устройств. Эта методика стандартизирует процесс исследования мобильных устройств, обеспечивая высокий уровень качества и точности проводимых экспертиз.[6]

В настоящее время ведется разработка методики экспертно-криминалистического анализа больших данных (Big Data). Эта методика направлена на повышение эффективности обработки и анализа цифровой информации, что имеет особое значение при расследовании преступлений, связанных с большими массивами данных, например, в случаях киберпреступности или финансовых преступлений.

Особое значение придается базовой подготовке следователей и прокуроров на основе программ бакалавриата. В рамках образовательных направлений «Следственная деятельность» и «Прокурорская деятельность» на протяжении всего обучения осуществляется преподавание дисциплин, посвященных киберправу, расследованию киберпреступлений и другим ключевым аспектам цифровой криминалистики. Эти предметы позволяют студентам овладеть теоретическими знаниями и практическими навыками, необходимыми для успешной работы в условиях стремительно меняющегося цифрового мира.

[6] Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tanqidiy ko’rib chiqilgan va sud-ekspertlik sohasiga oid yagona reestrga kiritilgan uslubiy qo‘llanmalar [Электронный ресурс]. - https://sudex.uz/?page_id=4801 Дата доступа: 06.11.2024 г.

В учебный процесс Правоохранительной академии внедрен модуль «Киберправо», который охватывает 60 учебных часов в рамках 6 курсов общей продолжительностью 360 часов. В рамках модуля «Киберправо» в учебный процесс включены специализированные курсы «Основы цифровой криминалистики в борьбе с киберпреступностью», «Информационные технологии», «Параллельное расследование», «Оперативно-розыскное право», «Киберправо» и др.

Введение профильных учебных дисциплин по киберправу и кибербезопасности, а также их постоянное обновление с учетом актуальных вызовов, позволит будущим следователям и прокурорам эффективно противостоять современным угрозам и активно участвовать в развитии правовой системы для обеспечения цифровой безопасности.

Аналогичная работа проводится и по образовательным программам магистратуры, включающих такие направления, как «Прокурорская деятельность», «Следственная деятельность», «Международное право прав человека» и «Противодействие коррупции». Эти программы дают слушателям возможность углубленно изучать специфику различных аспектов правоприменительной практики в цифровой среде, осваивать современные методики и подходы, а также развивать навыки аналитической и исследовательской работы.

В соответствии с решением Президента Республики Узбекистан, с 2025/2026 учебного года в Правоохранительной академии планируется внедрение программы магистратуры по новой специальности «Киберправо». Это нововведение позволит готовить высококвалифицированных специалистов, обладающих углубленными знаниями в области правового регулирования цифровой среды и кибербезопасности и обеспечит их актуальными навыками для работы с новейшими технологиями, а также для создания и реализации правовых норм, направленных на защиту интересов государства и общества в условиях цифровизации.[7]

Так, в 2024 году авторским коллективом Правоохранительной академии и Ташкентского государственного юридического университета подготовлен учебник «Киберправо», ставшим важным шагом в создании современной образовательной базы для

[7] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-381 «О мерах по усилению защиты прав потребителей цифровой продукции (услуг) и борьбы с правонарушениями, совершаемыми посредством цифровых технологий» от 1 декабря 2024 г. [Электронный ресурс]. - https://lex.uz/docs/6681115 Дата доступа: 06.11.2024 г.

подготовки специалистов в области киберправа и цифровой криминалистики. Учебник охватывает ключевые аспекты правового регулирования киберпространства и знакомит читателей с отраслевыми международными стандартами, практиками и правовыми нормами.[8]

Планируется, что в ближайшем будущем учебник будет опубликован на английском и узбекском языках, что позволит использовать его как на национальном уровне, так и в международной академической среде. Двухъязычное издание сделает учебник доступным для широкого круга специалистов, обучающихся и работающих в сфере киберправа, и будет способствовать укреплению сотрудничества с зарубежными партнерами в области цифровой безопасности и правоприменительной деятельности в киберпространстве.

Ранее, при технической поддержке Офиса координатора проектов в Узбекистане ОБСЕ создано первое учебное пособие по цифровой криминалистике, являющийся уникальным учебным пособием для специалистов в этой области. Это издание, подготовленное на русском и узбекском языках, стало важнейшим инструментом для формирования базовых и углубленных знаний среди следователей, занимающихся расследованием преступлений в цифровой среде. Пособие включает в себя основные методы и приемы цифрового анализа, принципы сбора, сохранения и обработки цифровых доказательств, а также раскрывает особенности расследования киберпреступлений.[9]

Пособие было распространено среди всех следователей республики, что позволило обеспечить их необходимыми знаниями и практическими навыками для эффективного противодействия киберпреступности.

Разработано и внедрено в учебный процесс пособие по исследованию мобильных устройств, которое включает в себя научно обоснованные алгоритмы и протоколы исследования информации в мобильных устройствах.

Правоохранительная академия Республики Узбекистан стала одним из разработчиком законопроекта о введении в национальное законодательство понятия «электронное (цифровое)

[8] O’zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida Kiberhuquq bo’yicha xalqaro konferensiya o’tkazildi. [Электронный ресурс]. - https://gulyamov.org/ru/international-conference-on-cyber-law-held-at-the-academy-of-law-enforcement-of-uzbekistan/ Дата доступа: 06.11.2024 г.

[9] Г. Ф. Мусаев [ва бошқ.]. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар (кибержиноятлар): турлари, квалификацияланиши ва уларга нисбатан тергов ҳаракатларини ўтказиш тактикаси. [Электронный ресурс] - https://proacademy.uz/ru/e-library/index?alias=628 Дата доступа: 06.11.2024 г.

доказательство». Этот законопроект призван урегулировать правовой статус цифровых данных, используемых в качестве доказательств в уголовных и других видах производства, что является важным шагом в обеспечении правовой определенности и эффективности расследования преступлений, связанных с использованием цифровых технологий.[10]

Особое внимание в Правоохранительной академии Республики Узбекистан уделяется укреплению основ международного сотрудничества, что позволяет эффективно реагировать на глобальные вызовы, связанные с цифровой криминалистикой и киберпреступностью. Академия активно взаимодействует с международными организациями и правоохранительными структурами других стран, что способствует обмену знаниями, опытом и передовыми технологиями.

Развитие международного сотрудничества позволяет академии интегрировать в учебный процесс лучшие мировые практики, а также адаптировать международные стандарты к национальной правовой системе. Укрепление таких связей играет ключевую роль в повышении квалификации узбекских специалистов и создает основу для формирования надежной системы противодействия киберпреступности на глобальном уровне.

В Правоохранительной академии Республики Узбекистан были проведены многочисленные конференции, семинары и тренинги по тематике расследования киберпреступлений, использования OSINT, работы с цифровыми активами, а также проблем Darkweb, криптовалют и блокчейн, с участием ведущих экспертов из США, Великобритании, России, Беларуси, Латвии, Казахстана, Турции, Грузии, Республики Корея и других стран[11]. Эти мероприятия стали важной площадкой для обмена знаниями и передовыми практиками в области цифровой криминалистики, кибербезопасности и правового регулирования в цифровой среде.

Участие международных экспертов позволило студентам и сотрудникам академии ознакомиться с различными подходами к расследованию киберпреступлений, освоить новейшие методы и технологии, применяемые в других странах, а также укрепить профессиональные связи с зарубежными коллегами.

---

[10] Депутаты приняли закон о цифровых доказательствах с третьего раза. [Электронный ресурс] - https://www.gazeta.uz/ru/2024/08/27/digital-evidence/ Дата доступа: 06.11.2024 г.

[11] Состоялся семинар-тренинг по проведению следственных действий в отношении криптоактивов // Официальный сайт правоохранительной Академии Республики Узбекистан [Электронный ресурс] – https://proacademy.uz/ru/news/view?alias=1775 Дата доступа: 06.11.2024 г.

В заключение необходимо отметить, что Правоохранительной академией проделана определенная работу по формированию потенциала в развитии и укреплении цифровой криминалистики, заложив фундамент для подготовки высококвалифицированных специалистов, способных эффективно противостоять современным цифровым угрозам.

Однако, несмотря на все достигнутые результаты, многое еще предстоит сделать. В условиях стремительно развивающихся технологий и постоянного появления новых форм киберпреступности академии необходимо продолжать совершенствовать свои программы, расширять научно-исследовательскую деятельность и укреплять международное сотрудничество. Предстоит работа по созданию дополнительных методик, внедрению практики использования современного оборудования и развитию комплексных образовательных программ, чтобы соответствовать глобальным стандартам и новейшим достижениям в сфере цифровой криминалистики. Эти усилия позволят академии и в дальнейшем эффективно содействовать обеспечению правопорядка и верховенства права, готовя специалистов, способных решать сложные задачи правоохранительной деятельности в цифровом пространстве на самом высоком уровне.

ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Бобоев Миршод Муротович,
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси
Ахборот-коммуникация технологияларини жорий
этиш ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш бошқармаси бошлиғи,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мақолада прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилишнинг мақсадлари, вазифалари, асосий йўналишлари ҳамда ташкилий-ҳуқуқий асослари ўрин олган. Прокуратура органлари фаолиятига ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижроси таҳлил қилинган. Прокуратура органлари ахборот тизимлари вазифалари, уларда фаолият шаффофлигини таъминловчи механизмлар кўриб чиқилган. Прокуратура органлари инфратузилмасининг жорий этилган элементлар кўрсатилган. Бош прокуратуранинг ихтисослаштирилган бошқармаси ҳақида маълумот берилган. Вазирлик, идоралар ахборот тизимлари ва ресурслари билан интеграция қилиш зарурати, бу борада*

қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва бажарилган ишлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *рақамли трансформация, прокуратура органлари, ахборот-коммуникация технологиялари, тенденциялар, миллий қонунчилик, Маълумотларни қайта ишлаш маркази, корпоратив ҳисоблаш тармоғи, ахборот тизимлари.*

Аннотация: *В статье учтены цели, задачи, основные направления, организационно-правовые основы цифровой трансформации деятельности органов прокуратуры. Проанализировано исполнение нормативно-правовых актов по внедрению информационно-коммуникационных технологий в деятельность органов прокуратуры. Рассмотрены задачи информационных систем и механизмы, обеспечивающие прозрачность деятельности. Показаны внедренные элементы инфраструктуры органов прокуратуры. Дана информация о специализированном управлении Генеральной прокуратуры. Проанализирована необходимость интеграции с информационными системами и ресурсами министерств и ведомств, принятых в этой связи нормативно-правовых актов и выполненные работы.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, органы прокуратуры, информационно-коммуникационные технологии, тенденции, национальное законодательство, Центр обработки данных, корпоративная вычислительная сеть, информационные системы.*

Abstract: *The article considers the goals, objectives, main directions, and organizational and legal foundations of the digital transformation of the activities of the prosecutor's offices. It analyzes the implementation of regulatory acts on the introduction of information and communication technologies in the activities of the prosecutor's offices. The tasks of information systems and mechanisms ensuring transparency of activities are examined. The implemented elements of the prosecutor's office infrastructure are presented. Information is provided about the specialized department of the General Prosecutor's Office. The necessity of integration with the information systems and resources of ministries and departments, the regulatory acts adopted in this regard, and the work carried out are analyzed.*

Keywords: *digital transformation, prosecutor’s offices, information and communication technologies, trends, national legislation, Data processing center, corporate computer network, information systems.*

Сўнгги йилларда республикамизда суд-ҳуқуқ соҳасини демократ-лаштириш ва либераллаштириш, ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишда прокуратура органларининг ролини кучайтириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Ислоҳотлар самараси ўлароқ жисмоний ва юридик шахсларнинг судлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ишончи ортиб, мурожаатлар кўпайиб бораётганида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Дарҳақиқат, барча соҳа ва тармоқларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалигида

фаолият шаффофлигини ошириш, коррупция хатарларини камайтириш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда аҳоли учун қулайлик яратиш мақсадида маъмурий жараёнларни рақамлаштириш бўйича ислоҳотлар олиб борилмоқда.

Шу билан бирга, мамлакатимизнинг, шунингдек хорижий ва халқаро ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар фаолияти натижадорлигини фаол жорий этилаётган ахборот-коммуникация технологияларисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Албатта, бу тенденциялар Ўзбекистон прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилинишини тақозо этади.

“Прокуратура тўғрисида”ги Қонунда прокуратура органлари фаолиятининг 9 та асосий йўналишлари белгиланган.

Ушбу йўналишларни рақамли трансформация қилишдан кўзланган мақсадлар фаолият самарадорлиги, тезкорлиги ва шаффофлигини ошириш, қонун ҳужжатлари ижроси устидан назоратни амалга ошириш усулларини такомиллаштириш, фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлашдан иборат.

Шундан келиб чиқиб, прокуратура органлари фаолиятини рақамлаштириш бўйича бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Фаолиятни рақамлаштириш билан боғлиқ дастлабки ҳуқуқий ҳужжатлар бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 16 ноябрдаги ПҚ-2433-сонли Қарори билан тасдиқланган “Прокуратура органлари фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар дастури” бўлди.

Ундан кейин эса Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016йил 29 июлдаги ПҚ-2568-сонли қарорига мувофиқ, Бош прокуратура тузилмасида Ахборот-коммуникация технология-ларини жорий этиш ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш бошқармаси ва унинг жойлардаги тармоқлар ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг юқорида қайд этилган ҳужжат ларига ҳамда Бош прокурорнинг буйруқ ва топшириқлари билан прокуратура органларининг ахборот инфратузилмаси яратилиб, фаолиятнинг асосий йўналишларини рақамлаштириш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилди.

Хусусан, Бош прокуратурада замонавий, барча талабларга жавоб берадиган Маълумотларни қайта ишлаш маркази ташкил этилди.

Прокуратура органларида локал ҳисоблаш тармоқлари яратилди. Уларни ўзаро боғлаш учун оптик толали линиялар ўтказилиб, корпоратив тармоқ ишга туширилди. IP-телефония ва аудио-конференцалоқа тизимлари яратилиб, республика миқёсида жорий этилди, видео-конференцалоқа тизимлари ишга туширилди. Ишчи ўринлар замонавий компьютер ва офис техникаси билан жиҳозланди.

Ушбу чоралар 2019-2024 йилларда 35 та ахборот тизими ишлаб чиқишга ва 100 дан ортиқ ахборот тизимлари билан интеграция қилинишига ҳамда уларни узлуксиз ва барқарор ишлаши учун асос бўлди.

Прокуратура органларининг тузилмаси ва фаолияти ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда “Электрон ҳужжат айланиши” тизими ишлаб чиқилди. Ахборот тизимининг жорий этилиши ҳужжатлар билан ишлашнинг шаффофлиги, тезкорлиги, самарадорлиги ва ҳужжатлар ижроси устидан назоратни оширди, уларни йўқотиш хавфини олдини олиб, ҳужжатларни жўнатиш ва журналларда рўйхатдан ўтказиш каби қиммат ва кўп вақт талаб қилувчи жараёнларни бартараф этди.

Ўтган 5 йил давомида 22 млн. 283 мингта ҳужжат кирим қилиниб, бу билан 21 млрд. сўмдан ортиқ яъни 667 тонна офис қоғози иқтисод қилинди.

Қайд этиш жоизки, фаолиятга жорий этилган ахборот-коммуникация технологиялари нафақат прокуратура, балки бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятига ҳам ижобий таъсир қилди.

Биринчидан, 2019 йилгача жиноий-ҳуқуқий статистика тизими ва жиноятлар ҳисобини юритиш жараёнлари рақамлаштирилмаган эди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 октябрдаги ПФ-5566-сонли Фармони ижроси доирасида “Электрон жиноий-ҳуқуқий статистика” ягона ахборот тизими ишлаб чиқилди ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятига жорий қилинди.

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 13.12.2019 йилдаги ПҚ-4551-сонли Қарори ижроси доирасида 2020 йил 1 июлдан бошлаб процессуал мажбурлов чоралар электрон шаклда ҳисобга олиниши бошланди.

Учинчидан, 2021 йилгача жиноятга оид ариза, хабар ва бошқа маълумотларни электрон рўйхатга олиш ва уларни кўриб чиқиш

натижаларининг ҳисобини юритиш махсус рўйхатга олиш китобларида қайд қилиш билан кирим қилиниб келинган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.08.2020 йилдаги ПФ-6041-сонли Фармонидан кейин эса 2021 йил 1 январдан бошлаб барча терговга қадар текширув материаллари ва уларнинг натижалари ҳақидаги маълумотлар рақамлаштирилиб, “E-material” ахборот тизими жорий этилди.

Тўртинчидан, 2022 йилгача ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимлари ўртасида интеграция бўлмаган. Шу боис, жиноятлар ҳақида хабарларни кўриб чиқиш ва жиноят ишларини юритишда суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан зарур маълумотлар қоғоз шаклида олинар эди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПҚ-105-сонли Қарори ижроси доирасида 2022 йил 1 августдан бошлаб суриштирув ва дастлабки тергов органлари учун жиноятни тезкор фош этиш учун муҳим бўлган маълумотларни ягона ахборот тизими орқали тезкор олиш имконияти яратилди.

Ушбу тизим орқали жиноятни тезкор ва тўлиқ фош этиш учун муҳим бўлган маълумотларни тезкор олиш мақсадида ўтган 2 йил давомида 1 млн.дан ортиқ сўров юборилди.

Бешинчидан, 2023 йилга қадар Бош прокуратура ва Олий суд ахборот тизимлари ўртасида ўзаро ҳужжат алмашинуви рақамлаштирилмаган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 январдаги ПФ-12-сонли Фармони ижроси доирасида Бош прокуратура ва Олий суд ахборот тизимлари ўртасида ҳужжат алмашинуви йўлга қўйилди ҳамда “Судларда прокурор иштироки" ахборот тизими яратилди. Бу судларда жиноят ишлари, фуқаролик ишларини, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ҳамда иқтисодий низоларни кўришда ҳужжатлар билан алмашинувига имконият берди.

Олтинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 майдаги ПФ-77-сонли Фармони ижроси доирасида "Прокурор назорати" ахборот тизими ишга туширилди. Қонунчилик ижроси устидан прокурор назорати тадбирлари ҳамда уларнинг натижаси бўйича қўлланилган прокурор назорати ҳужжатларининг ҳисобини юритиш имконияти яратилди.

Прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилиш бўйича амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар:

Биринчи, прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилишни изчил давом эттириш мақсадида бу борадаги Стратегияни қабул қилиш. Бош прокуратура томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Рақамли прокуратура — 2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Фармони лойиҳаси ҳам ишлаб чиқилди.

Иккинчи, прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилишнинг яна бир мақсади – давлат органларида коррупция хатарларини камайтириш, коррупцияга оид қонун бузилишларининг олдини олишдир. Бироқ, вазирлик, идора, ҳокимликларда ахборот тизимлари ва ресурслари мавжуд бўлсада, улар ва прокуратура органлари билан электрон ҳамкорлик ҳанузгача тўлақонли йўлга қўйилмаган. Бунинг сабаблари бири – интеграция жараёнлари давлат органларидан меҳнат ресурслари, вақт ва маблағ сарфлашни талаб қилади.

Шунга кўра, интеграция қилиш жараёнларини жадаллаштириш ҳамда техник топшириқларда "рақамли назорат"ни таъминлаш бўйича алоҳида тартиб жорий қилиш назарда тутилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ҳамда айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш таклиф этилади.

Учинчи, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида электрон ҳужжатлар айланишини ягона ахборот тизимини яратиш.

Тўртинчи, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан биргаликда "Электрон жиноят иши" ахборот тизимлари комплексини ишлаб чиқиш.

Бешинчи, жиноятга оид ариза, хабар ва бошқа маълумотларни электрон рўйхатга олиш ва уларни кўриб чиқиш тартиби жиноят процессуал қонунчилигида ўз аксини топмаганлигидан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига жиноятга оид ариза, хабар ва бошқа маълумотлар бўйича "электрон реестри" тушунчасини киритиш.

Олтинчи, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини электрон тарзда қабул қилиш ва кўриб чиқиш, мурожаатларни сунъий интеллект ёрдамида таҳлил қилиш, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасида тақсимлаш ҳамда етказиб бериш

тартибини ўрнатиш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш.

Ушбу мақола якунида таъкидлаш мумкинки, Ўзбекистон прокуратура органлари фаолиятини рақамли трансформация қилиш стратегик аҳамиятга эга жараён бўлиб, уларнинг шаффофлиги, самарадорлиги ва тезкорлигини ошириш учун зарур қадам ҳисобланади.

Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш марказлашган маълумотларни қайта ишлаш маркази ва локал ҳамда корпоратив тармоқларни ривожлантириш каби сезиларли ўзгаришларга олиб келди. Шу билан бирга, турли ахборот тизимларини жорий қилиш асосий жараёнларни автоматлаштириш, ҳужжатларни бошқаришни яхшилаш ва фаолиятнинг шаффофлигини ошириш имконини берди.

Бу чора-тадбирлар ҳужжатларни бошқаришни яхшилашга, маъмурий вазифаларни бажаришга кетадиган вақтни қисқартиришга, қонун ижроси устидан назоратни мустаҳкамлашга, фуқаролар ва тадбиркорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишни кучайтиришга хизмат қилмоқда. Натижада, прокуратура органларига бўлган ишонч ошмоқда.

Бизнинг фикримизча, рақамли трансформацияни муваффақиятли давом эттириш учун норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш ва бошқа давлат органларининг ахборот тизимлари билан интеграция қилиш ишларини давом эттириш зарур.

Шунингдек, фақат комплекс ва мувофиқлаштирилган ёндашув орқали рақамлаштириш жараёнидаги технологияларнинг тўлиқ салоҳиятини очиш мумкин. Шу муносабат билан, барча ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун ягона ахборот тизимини яратиш муҳим вазифалардан бири бўлиб, бу тизим улар ўртасидаги ҳамкорликни яхшилашга, маълумот ва жараёнларни самарали бошқаришни таъминлашга имкон беради.

CYBERCRIME AND CYBER LAW

Naeem AllahRakha
Tashkent State University of Law
Chaudharynaeem133@gmail.com

С.Гулямов И.Рустамбеков фикрича, “ҳуқуқнинг янги комплекс соҳаси – “Кибер-ҳуқуқ” вужудга келганини ишонч билан қайд этиш мумкин. Кибер-ҳуқуқнинг ҳуқуқий тартибга солиш предметига кибермаконда юзага келадиган ва турли ҳуқуқ соҳаларининг нормалари билан тартибга солинадиган ижтимоий муносабатлар мажмуи ёки йиғиндиси киради.” [19]

Умумий тарзда қайд этишимиз мумкинки, киберҳуқуқ – бу кибермакондаги ижтимоий-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солувчи алоҳида ҳуқуқ тармоғи сифатида шаклланиб улгурди ва ривожланиб бормоқда. Ушбу соҳадаги ҳуқуқнинг аҳамияти шундаки, у технологиялардан кенг фойдаланиш натижасида келиб чиқадиган мураккаб муаммоларни бошқариш ва тартибга солиш имкониятига эга ҳамда жамиятдаги ахборот хавфсизлиги, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш, кибержиноятларга қарши курашиш

---

[14] Волков В.Э. Цифровое право. Общая часть: учебное пособие / В. Э. Волков. – Самара: Издательство Самарского университета, 2022. – С. 24.

[15] Цифровое право: учебник / под общ. ред. В.В.Блажеева, М.А.Егоровой. М.: Проспект, 2020. С. 640.

[16] Карцхия А.А. Цифровые права и правоприменение // Мониторинг правоприменения. 2019. № 2(31). С. 45.

[17] Белых В. С., Болобонова М. О. Понятие, значение и тенденции развития цифрового права // Юрист. 2020. №1. С. 10–11.

[18] Цифровое право. Учебник / Под ред. В.В. Блажеева, М.А. Егоровой. – М.: Проспект, 2023.

[19] С.Гулямов, И.Рустамбеков “Кибер-ҳуқуқ” - янги комплекс ҳуқуқ соҳаси сифатида”. “Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили” журнали. 2020 №4.

ва интернетдаги фаолиятнинг қонунийлигини таъминлаш вазифаларини бажаради.

Киберҳуқуқ шахслар ва ташкилотларни кибер таҳдидлардан ҳимоя қилиш, рақамли операцияларнинг махфийлиги ва хавфсизлигини таъминлаш ҳамда кибер маконда этика ва ҳуқуқий фаолиятга йўл-йўриқлар кўрсатиш учун асос яратади.

Рақамли дунё ривожланиб боргани сари, киберҳуқуқнинг аҳамияти ортиб бормоқда ва у рақамли ресурслардан масъулиятли ва қонунчиликка мувофиқ фойдаланиш учун пойдевор сифатида хизмат қилади.

Маълумки, киберҳуқуқ киберхавфсизлик, интеллектуал мулк, махфийлик, маълумотларни ҳимоя қилиш, электрон ҳукумат, электрон тижорат, электрон контрактлар, блокчейн ва сунъий интелект, солиқлар ва реклама, кибержиноятчилик, рақамли криминалистика ва бошқа кўплаб ҳуқуқнинг турли соҳаларини ўз ичига олади.

Мамлакатимизда киберҳуқуқ дунёдаги трансформацияларга узвий равишда ривожланиб бормоқда. Биргина, қонунчилик мисолида кўрадиган бўлсак, рақамли технологияларни тартибга солувчи 16 та қонун, ушбу соҳага дахлдор Ўзбекистон Республикаси Президенти, Вазирлар Маҳкамасининг 100 дан ортиқ қарорлари амал қилмоқда.

Киберҳуқуқ соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш бугунги кунда айни долзарб масала ҳисобланади. Бу соҳада етук мутахассисларнинг етишмаслиги киберҳуқуқий муносабатларда мураккабликларнинг келиб чиқишига олиб келиши мумкин. Профессионал кадрларнинг тайёрланганлиги эса жамиятда киберхавфсизликни таъминлаш, кибержиноятларни камайтириш ва қонунчиликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Таъкидлаш лозимки, дунёда кибержиноятлар, кибертерроризм ва кибертаҳдидлар тобора ортиб бормоқда.

Экспертларнинг хулосасига кўра, кибержиноятлардан кўрилган зарар дунё бўйича 2022 йилда 8 триллион АҚШ долларини ташкил этган бўлса, йўқотишлар миқдори 2025 йилда 10,5 триллион долларга етиши прогноз қилинган.

Биргина, 2017 йилда WannaCry номли киберҳужум бутун дунё бўйлаб 150 дан ортиқ давлатдаги компьютер тизимларини зарарлантирган. Ушбу ҳужумнинг оқибатида катта иқтисодий зарар келтирилган. Кибертерроризм эса давлатларнинг ахборот тизимларига ҳужум қилиш ва уларни издан чиқариш орқали катта

таҳдид солмоқда. Кибертаҳдидлар эса ҳар куни янгича кўринишда намоён бўлиб, жамиятнинг барча соҳаларига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Мамлакатимизда бу турдаги жиноятлар сўнгги уч йилда қарийб 25 баробарга ошган. Биргина, 2022 йилда АКТдан фойдаланган ҳолда 4 080 та жиноят содир этилган.

Ушбу маълумотлар таҳлили соҳадаги ижтимоий эҳтиёж ва заруратнинг кўламини кўрсатадиган омиллардан бири ҳисобланади.

Маълумки, соҳада кадрларни тайёрлаш деганда учта йўналиш назарда тутилади. Жумладан:

Биринчи йўналиш – амалиёт кадрларни тайёрлаш.

Иккинчи йўналиш – педагог ходимларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш.

Учинчи йўналиш – илмий салоҳиятли кадрларни етиштириш.

Тадқиқотлар натижаларига кўра, киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш жараёни ўзига хос хусусиятларга эгалиги кўринади.

Киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш жараёни ҳам ўзига хос хусусиятларига эга:

киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлашда ихтисосликка эътибор қаратиш жуда муҳим. Мутахассислар киберҳуқуқнинг турли йўналишларида билим ва кўникмаларга эга бўлишлари лозим;

киберҳуқуқ соҳасидаги мутахассислар нафақат ҳуқуқий билимларга, балки техник билимларга ҳам эга бўлишлари керак. Бу уларга кибержиноятларни таҳлил қилиш, киберхавфсизлик чораларини кўриш ва соҳага оид бошқа жараёнларни амалга оширишда ёрдам беради;

киберҳуқуқ соҳасида мутахассисларни тайёрлаш жараёнида таҳлил ва тадқиқот фаолиятига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу уларнинг соҳадаги янгиликлар ва трендларни кузатиб боришлари ва таҳлил қилишлари учун муҳимдир.

Киберҳуқуқ соҳаси ривожланиб бориш билан биргаликда, бу йўналишда фаолият юритувчи кадрлар билан боғлиқ қатор муаммолар ҳам сақланиб қолмоқда.

Бугунги кунда киберҳуқуқ соҳасида профессионал кадрларнинг етишмаслиги долзарб муаммо ҳисобланади.

Ҳар соҳада бўлганидек, киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш масаласига комплекс ёндашув зарур ва соҳа ривожи учун аниқ

вазифа ва механизмларни назарда тутувчи яхлит концепция ишлаб чиқилиши керак.

Бу соҳадаги кадрларни тайёрлаш учун етарли даражада маблағ ва ресурсларни ажратиш керак.

Шунингдек, кадрлар тайёрлашда таълим сифатига эътибор қаратиш муҳим. Бунинг учун замонавий ўқув дастурлари, малакали ўқитувчилар ва илғор технологиялардан фойдаланиш лозим.

Айниқса, соҳасида кадрлар тайёрлашда амалий машғулотлар ва тажриба алмашиш жараёнларига кўпроқ эътибор қаратиш зарур. Бу уларнинг назарий билимларини амалда қўллаш кўникмаларини оширишга ёрдам беради.

Ваҳоланки, киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш масаласи дунё бўйлаб кўплаб давлатларда юқори даражада аҳамият касб этмоқда. Хусусан, АҚШ, Европа Иттифоқи мамлакатлари, Япония ва Жанубий Корея каби ривожланган давлатларда киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлашга катта эътибор қаратилмоқда. Бу давлатларда киберҳуқуқ бўйича махсус ўқув дастурлари, таълим муассасалари ва тадқиқот марказлари ташкил этилган.

Маълумки, киберҳуқуқни ривожлантириш, кибержиноятларни тергов қилиш илмий методлар орқали махсус билимлардан фойдаланиш асосида амалга оширилади.

Шу боис, хорижий давлатларда бу борадаги илмий-амалий тадқиқотларга, кадрларларни тайёрлашга жиддий эътибор қаратилган.

Тергов амалиётини илмий жиҳатдан таъминлаш учун алоҳида илмий марказ ва тадқиқот институтлари ташкил этилиб, юриспруденция ва замонавий ахборот технологиялари соҳасида малакали мутахассислар тайёрлаш тизими шакллантирилган.

Масалан, Италияда Европа рақамли тадқиқот институти (European Institute for Digital Investigation, EIDI) рақамли криминалистика, киберхавфсизлик ва рақамли тергов соҳасида қўшма тадқиқотлар олиб бориш учун Европанинг турли давлатларидан мутахассисларни бирлаштирган, худди шундай вазифадаги халқаро нотижорат ташкилот – Рақамли криминалистика институти (Digital Forensics Institute, DFI) ҳам ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва хусусий компаниялар учун рақамли криминалистика соҳасида мутахассислар тайёрлаш билан шуғулланади.

Шу каби, Европа кибержиноятчиликка қарши ўқитиш ва таълим гуруҳи (ECTEG – European Cybercrime Training and Education

Group) Европа Иттифоқига аъзо давлатларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари, Европа иқтисодий зонаси, халқаро ташкилотлар, илмий доиралар, хусусий бизнес ва экспертлардан иборат.

Ўзбекистонда ҳам киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу соҳада кадрлар тайёрлаш учун махсус ўқув дастурлари ишлаб чиқилмоқда ва улар амалга оширилмоқда.

2023 йилда Ўзбекистондаги нуфузли олий таълим муассасаларидан Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси, Тошкент давлат юридик университетида киберҳуқуқ бўйича махсус кафедралар ташкил қилиниб, бу соҳада мутахассислар тайёрланишни бошлаган. Бу қадам Ўзбекистоннинг киберҳуқуқ соҳасидаги салоҳиятини оширишга ёрдам бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 21 июндаги “Рақамли криминалистика соҳасида илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-229-сонли Қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясига рақамли криминалистика соҳасида инновацион тадқиқотлар олиб бориш, катта ҳажмдаги маълумотлар (“Big Data”), сунъий интеллект ва бошқа илғор технологияларни таҳлил қилиб, амалиётга жорий этиш вазифаси юклатилди[20].

Ҳозирда, Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясида талабалар ва тингловчиларга киберҳуқуқ, киберхавфсизлик ва рақамли криминалистика йўналишларида таълим берилмоқда.

Таъкидлаш лозимки, бакалавр йўналишида киберҳуқуқ модулини муваффақиятли тамомлаган талабалар киберҳуқуқ соҳасидаги асосий қонунчиликни тушуниш ва уни амалий ҳаётда қўллаш, кибер жиноятлар ва уларга қарши кураш усулларини билиш, интернетда шахсий маълумотларни муҳофаза қилиш бўйича билимларга эга бўлиш, халқаро киберҳуқуқий меъёрларни ва уларнинг миллий қонунчиликка таъсирини тушуниш, электрон тижорат ва онлайн хизматлар учун ҳуқуқий асосларни тушуниш ва уларни қўллаш назарий ва амалий компетенцияларга эга бўлишлари зарур.

Бу йўналишда ўқув дастурларини такомиллаштириш зарурати вужудга келган. Киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш учун ўқув дастурларини замонавий талабларга, жаҳон стандартларига мос

[20] (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.06.2024 й., 07/24/229/0438-сон)

равишда такомиллаштириш лозим. Бунинг учун илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш ва амалиётга жорий этиш муҳим.

Малакали ўқитувчилар тайёрлаш ҳам бу йўналишдаги долзарб масалалардан биридир. Киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлашда малакали ўқитувчиларни тайёрлаш ва уларнинг билимларини доимий равишда ошириб бориш керак. Бу уларнинг талабаларга сифатли таҳсил беришини таъминлайди.

Мамлакатимиздаги киберҳуқуқ йўналишида ўқув-таълимни амалга ошираётган тармоқлар фаолиятини такомиллаштириш, уларнинг штат бирликларини кенгайтириш, амалдаги ходимларнинг малакасини ошириш тизимини йўлга қўйиш, ушбу тармоқлар ишига юқори малакали хорижий эксперт ва мутахассисларни жалб қилиш кечиктириб бўлмас энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясида киберҳуқуқ йўналишида бакалавриат ва магистратура факультетлари фаолиятини йўлга қўйиш соҳада кадрлар тайёрлашдаги навбатдаги илдам қадам бўлади.

Бундан ташқари, соҳавий тармоқларнинг моддий-техника базасини тубдан яхшилаш, профессор-ўқитувчиларни замонавий ўқув, илмий ресурслар ва техник воситалар билан таъминлаш муҳим мақсаддир.

Киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлашда халқаро ҳамкорликка алоҳида эътибор қаратиш зарур. Хорижий университетлар ва тадқиқот марказлари билан ҳамкорлик қилиш, тажриба алмашиш жараёнларини кучайтириш лозим.

Ушбу соҳадаги илғор илмий мактаблар билан мулоқотни йўлга қўйиш, соҳада фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчиларни бу йўналишда илғор тажрибага эга бўлган хорижий таълим муассасаларида малакасини оширишга юбориш мақсадга мувофиқдир. Киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлашда амалий машғулотлар ва стажировкаларни ташкил қилиш жуда муҳим. Бу талабаларнинг амалиётдаги кўникмаларини оширишга ёрдам беради.

Таъкидлаш лозимки, Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясида ўтказилаётган халқаро конференция киберҳуқуқни ривожлантириш учун қулай платформа вазифасини ўтайди.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, киберҳуқуқ соҳасида кадрлар тайёрлаш бугунги кунда жамиятнинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Бу соҳада етук мутахассисларни

тайёрлаш учун ўқув дастурларини такомиллаштириш, малакали ўқитувчиларни тайёрлаш, халқаро ҳамкорликни кучайтириш ва амалий машғулотларга алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Бу орқали киберҳуқуқ соҳасида профессионал кадрларни тайёрлашни самарали амалга оширишни таъминлаш ва соҳада ҳуқуқий тартиботни мустаҳкамлаш мумкин.

ВНЕДРЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМУ ЭЛЕКТРОННОГО УГОЛОВНОГО ДЕЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

Тургунов Асроржон Анварович
Старший преподаватель кафедры
Оперативно-розыскной деятельности и киберправа
Правоохранительной академии Республики Узбекистан.
E-mail: turgunov.a.a@proacademy.uz

Аннотация: *В статье рассматриваются актуальные вопрос внедрение искусственного интеллекта в систему электронного уголовного дела в Узбекистане, Освещаются основные ключевые аспекты, такие как правовые, технические и организационные барьеры, с которыми сталкивается система, а также перспективы ее развития.*

Ключевые слова: *Электронное уголовное дело, информационные технологии, искусственный интеллект, законодательство, безопасность данных, перспективы.*

Аннотация: *Мақолада Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишга эътибор қаратиилган ҳолда жиноят ишларининг электрон тизимини жорий этишнинг долзарб масалалари кўриб чиқилган. Тизимда дуч келадиган ҳуқуқий, техник ва ташкилий тўсиқлар, шунингдек унинг ривожланиш истиқболлари каби асосий асосий жиҳатлар таъкидланган.*

Таянч сўзлар: *Электрон жиноят иши, ахборот технологиялари, сунъий интеллект, қонунчилик, маълумотлар хавфсизлиги, истиқболлар*

Annotation: *The article examines the current issues of implementing artificial intelligence in the electronic criminal case system in Uzbekistan. It highlights the main key aspects, such as legal, technical, and organizational barriers faced by the system, as well as its development prospects*

Keywords: *Electronic criminal case, information technology, artificial intelligence, legislation, data security.*

В нашей стране реализуются комплексные меры по широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий во все сферы жизни, созданию дополнительных удобств для граждан, обеспечению оперативности и прозрачности в деятельности государственных органов. В Узбекистане применение

технологий искусственного интеллекта имеет особое значение при использовании современных информационных технологий.

В соответствии со Стратегией «Цифровой Узбекистан — 2030» и в целях создания благоприятных условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта и их широкого применения в стране, обеспечения доступности и высокого качества цифровых данных в указанной сфере утверждено ряд мер по изучению и внедрению технологий искусственного интеллекта.

Искусственный интеллект (ИИ) – это область компьютерных наук, направленная на создание систем и программ, способных выполнять задачи, требующие человеческого интеллекта. Эти задачи включают обучение, понимание речи, принятие решений, решение проблем и распознавание объектов. ИИ может имитировать различные аспекты человеческого мышления и поведения, что позволяет системам взаимодействовать с внешней средой и самостоятельно адаптироваться к новым данным.

Технологии искусственного интеллекта формируют комплекс технологических решений, позволяющих имитировать когнитивные функции человека (в том числе, самообучение и поиск решений при отсутствии заранее заданного алгоритма) и при выполнении задач достигать результатов, как минимум сопоставимых с результатами интеллектуальной деятельности человека, а как максимум значительно превосходящих человеческие возможности[1].

Под ИИ понимаются платформы, обеспечивающие анализ и прогнозирование в судебной и правоохранительной сферах на основе обработки больших данных с использованием машинного обучения, нейронных сетей и методов распознавания образов с выводом результатов в визуальном или любом ином понятном для конечных пользователей виде. Выделяется несколько направлений практического использования ИИ в судебной и правоохранительной сферах. Конкретно речь идет о:

- продвинутых семантических корпоративных поисковых системах;

- системах поиска и анализа ситуаций, содержащихся в юридических документах;

- системах поддержки разработки юридических документов на основе автоматического генерирования шаблонов;

[1] Филипова И.А. Правовое регулирование искусственного интеллекта: учебное пособие Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2020. – 90 с.

- системах предиктивной судебной аналитики, ориентированных на адвокатские компании;

- юридических чат ботах, осуществляющих информирование сторон в ходе первоначальных контактов по тем или иным делам на естественных языках[2].

Искусственный интеллект может переводить допросы и очных ставок в текст, а также может помочь установить ведомственный контроль и прокурорский надзор за проведением доследственной проверки и уголовного расследования.

Но главная проблема использования ИИ в судебной практике – это то, что ИИ базируется не на ситуационной логике, а на вычислительных процедурах. ИИ не умеет работать с контекстами. Соответственно, в каждом государстве политические силы должны прийти к компромиссу и установить, в каких сферах и в каких аспектах судебной системы и правоохранительной деятельности можно использовать ИИ, а в каких использование этого инструмента опасно для политического консенсуса[3].

Искусственный интеллект невозможно реализовать в простой информационной системе. Одним из шагов к внедрению искусственного интеллекта является его обучение. Искусственный интеллект должен изучить ранее введенные данные и документы, выполненные действия.

Для обучения искусственного интеллекта документы должны быть в читаемой цифровой форме, и должно быть достаточно данных (реквизитов), описывающих документы.

В условиях современного мира, где цифровизация охватывает все сферы жизни, системы уголовного правосудия также требуют изменений. Системы электронного уголовного дела (далее – ЭУД) становятся неотъемлемой частью современного правосудия во многих странах мира.

Электронное уголовное дело представляет собой цифровую систему, которая позволяет автоматизировать процессы сбора, хранения и обработки информации, связанной с уголовными делами. Основные компоненты ЭУД включают электронные

---

[2] Б.Исмаилов, А.Атажанов. «Зарубежный опыт внедрения современных технологий в систему правосудия» Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue - 2, №01 (2020) / ISSN 2181-1415 https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-vnedreniya-sovremennyh-tehnologiy-v-sistemu-pravosudiya/viewer

[3] 3 Goodman B., Harder J. Four areas of legal ripe for disruption by smart startups (англ.). Law Technology Today. ABA Journal (16 December 2014).

документы, базы данных, системы управления делами и платформы для обмена информацией между участниками уголовного процесса.

Внедрение искусственного интеллекта в систему электронного уголовного дела в Узбекистане открывает новые горизонты для повышения эффективности и качества правосудия. Рассмотрим ключевые сферы, где ИИ может быть применен:

1. Автоматизация обработки данных.

ИИ может значительно ускорить процесс обработки больших объемов данных, связанных с уголовными делами. Системы на основе машинного обучения способны анализировать текстовые документы, выявлять ключевые факты и автоматически классифицировать материалы.

2. Предсказательная аналитика.

Использование алгоритмов предсказательной аналитики позволяет прогнозировать вероятность совершения преступлений на основе исторических данных. Это может помочь правоохранительным органам в планировании патрулирования и профилактических мерах.

3. Анализ судебной практики.

ИИ может анализировать судебные решения и выявлять тенденции в практике судов. Это поможет юристам и судьям принимать более обоснованные решения, основываясь на предыдущих делах и их исходах.

4. Поддержка расследований.

Системы ИИ могут помочь в расследовании преступлений, анализируя данные из различных источников (например, социальных сетей, финансовых транзакций) и выявляя связи между подозреваемыми и жертвами.

5. Улучшение доступа к правосудию.

Чат-боты и виртуальные помощники на базе ИИ могут предоставлять гражданам информацию о процессе уголовного дела, их правах и обязанностях, а также помогать в подготовке необходимых документов.

6. Обнаружение мошенничества.

Алгоритмы машинного обучения могут быть использованы для выявления аномалий в финансовых данных, что поможет в борьбе с экономическими преступлениями и мошенничеством.

7. Обработка жалоб и обращений.

Системы ИИ могут автоматизировать процесс обработки жалоб граждан, анализируя их содержание и направляя на соответствующие уровни для дальнейшего рассмотрения.

Ожидаемые результаты от внедрения искусственного интеллекта в ЭУД включают повышение доступности правосудия, улучшение защиты прав граждан и сокращение временных затрат на рассмотрение дел. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, в своих выступлениях, также уделил этому особое внимание. “Мы должны укреплять открытости и прозрачности деятельности судов, реализации концепции "электронных и цифровых судов"[4].

Использование технологий ИИ позволит повысить уровень прозрачности судебных процессов. Это может снизить уровень коррупции и повысить доверие граждан к судебной системе. Применение аналитических инструментов для оценки работы судов, поможет выявить возможные проблемы и устранить их.

А также могут значительно упростить процесс сбора, хранения и обработки информации, что приведет к более быстрой и эффективной работе правоохранительных органов. Автоматизация процессов позволит сократить время на обработку дел и снизить вероятность ошибок. Это приведет к более быстрому разрешению дел и сокращению нагрузки на сотрудников.

В органах прокуратуры Республики Узбекистан началась работа по внедрению современных технологий и искусственного интеллекта в информационные системы. Основная цель внедрения технологий искусственного интеллекта – оптимизация нагрузки сотрудников.

В 2023 году начато разработка новую версию информационной системы «E-material», а также в опытном порядке внедрить технологии искусственного интеллекта.

Сегодня существует необходимость цифровизации доследственной проверки и уголовного расследования. Процесс регистрации преступлений автоматизирован, но остальные процессуальные действия не фиксируются в электронной форме. В настоящее время для работы информационных систем и интеграций требуется много ресурсов.

Если искусственный интеллект внедрится в информационные системы типа «электронное уголовное дело», то он может

[4] Ш.М.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси” Тошкент – “Ўзбекистон” нашриёти - 2021 й. 464-бет. Ст. 109.

предоставлять следователям и дознавателям рекомендации по первоначальной квалификации преступлений.

В перспективе планируется в органах прокуратуры создать совершенно новую систему распознавания, классификации, распределения и направления, анализа и рассмотрения поступивших обращений, обобщения повторных обращений с помощью технологий искусственного интеллекта.

Открывает возможности для разработки новых решений на базе ИИ, таких как автоматизированные системы предсказания исходов дел или анализатор судебной практики. Эти инструменты могут помочь юристам в подготовке дел и повышении качества правовой помощи.

Но внедрение новых технологий требует подготовки специалистов, что может привести к повышению квалификации сотрудников правоохранительных органов. Перспективы международного сотрудничества также открывают новые возможности для обмена опытом и лучшими практиками. Важно отметить, что успешная внедрения искусственного интеллекта в ЭУД может стать основой для дальнейших реформ в области уголовного правосудия. Тем не менее, реализация этих перспектив потребует значительных инвестиций в инфраструктуру, обучение персонала и разработку безопасных технологий для защиты данных.

Внедрение искусственного интеллекта в электронное уголовное дело в Узбекистане имеет потенциал для значительного улучшения работы правоохранительных органов и судебной системы. Однако важно учитывать этические аспекты и необходимость обеспечения прозрачности и справедливости при использовании ИИ-технологий.

Одним из ключевых аспектов внедрения ИИ в уголовное судопроизводство является обеспечение справедливости и недискриминационного подхода в принимаемых решениях. Алгоритмы ИИ могут унаследовать предвзятости или ошибки, заложенные в исходных данных, что приводит к искажению результатов. Поэтому важна прозрачность алгоритмов и возможность их проверки, чтобы избежать дискриминации по половым, расовым или другим признакам. Также встает вопрос о том, кто несет ответственность за решения, принятые ИИ, что требует ясного правового регулирования.

Уголовные дела обычно содержат множество конфиденциальной информации, включая личные данные участников процесса. Безопасность данных становится критически важной задачей при внедрении ИИ в уголовное производство. Необходимо разработать системы защиты, которые предотвратят утечку данных или их несанкционированное использование. Особое внимание уделяется шифрованию данных, а также регламентации доступа к ним, чтобы минимизировать риски вмешательства в правовые процессы.

Для эффективного и безопасного применения ИИ в уголовном правосудии требуется разработка четкой правовой базы. Это включает регулирование использования технологий, определение ролей и ответственности всех участников, а также стандартизацию методов обработки данных и принятия решений. Правовая система должна адаптироваться к новым вызовам, которые ставят перед ней технологии ИИ, чтобы обеспечить баланс между автоматизацией процессов и защитой прав граждан.

КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИККА ВА БОШҚА ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ИМКОНИЯТЛАР ВА ҲУҚУҚИЙ ЧЕКЛОВЛАР, ЭРИШИШ МУМКИН БЎЛГАН НАТИЖАЛАР

Шукуров Жахонгир Раббонаевич
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Тезкор-қидирув фаолияти ва киберҳуқуқ кафедраси ўқитувчиси

Аннотация *Ҳозирги рақамли асрда интернет ва ахборот технологиялари ҳаётимиздаги аксарият соҳаларни қамраб олди. Инсонларнинг турмуш тарзи, иш жараёнлари, бизнес фаолияти ва давлат бошқаруви интернет ва рақамли воситалар орқали амалга оширилиб, бу орқали жамиятдаги самарадорлик ва инновациялар юксалмоқда. Бироқ, бу ривожланиш кибержиноятчиликнинг ортишига ҳам сабаб бўлмоқда.*

Сунъий интеллект (СИ) киберхавфлардан ҳимоя қилишда муҳим восита сифатида жорий этилмоқда. Унда автоматлаштирилган таҳлил, хулоса чиқариш ва паттернларни аниқлаш қобилиятлари орқали киберҳужумларни олдиндан аниқлаш ва уларнинг олдини олиш бўйича самарали ечимлар ишлаб чиқилмоқда. Бу тезисда кибержиноятчиликка қарши курашда СИнинг имкониятлари, ҳуқуқий чекловлар ва жаҳондаги қатор илғор давлатларнинг бу йўналишдаги тажрибалари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: *кибермакон, кибержиноят, интеллект, сунъий интеллект, киберхавф, таҳлил, фишинг, DDoS, машинавий ўрганиш,*

автоматлаштирилган таҳлил, дастур, паттерн, прогнозлаш, реал вақт, ҳужум.

Аннотация *В настоящее цифровое время интернет и информационные технологии охватывают большинство сфер нашей жизни. Образ жизни людей, рабочие процессы, бизнес-деятельность и государственное управление осуществляются через интернет и цифровые инструменты, что способствует повышению эффективности и внедрению инноваций в обществе. Однако этот рост также привёл к увеличению киберпреступности.*

Искусственный интеллект (ИИ) внедряется как важный инструмент для защиты от киберугроз. Благодаря возможностям автоматизированного анализа, выводов и выявления паттернов разрабатываются эффективные решения для заблаговременного обнаружения кибератак и их предотвращения. В данной работе рассматриваются возможности ИИ в борьбе с киберпреступностью, правовые ограничения и опыт ряда передовых стран в этой сфере.

Ключевые слова: *киберпространство, киберпреступление, интеллект, искусственный интеллект, киберугроза, анализ, фишинг, DDoS, машинное обучение, автоматизированный анализ, программа, паттерн, прогнозирование, реальное время, атака.*

Annotation *In today's digital era, the internet and information technologies have permeated most aspects of our lives. People's lifestyles, work processes, business activities, and government administration are carried out through the internet and digital tools, enhancing efficiency and fostering innovation in society. However, this development has also contributed to the rise of cybercrime.*

Artificial Intelligence (AI) is being introduced as a vital tool for protecting against cyber threats. Through automated analysis, inference, and pattern recognition capabilities, AI enables the early detection of cyberattacks and provides effective solutions for their prevention. This thesis explores the potential of AI in combating cybercrime, the legal limitations, and the experiences of several leading countries in this field.

Keywords: *cyberspace, cybercrime, intelligence, artificial intelligence, cyber threat, analysis, phishing, DDoS, machine learning, automated analysis, software, pattern, forecasting, real-time, attack.*

Аввалambор, кибержиноятчиликнинг моҳиятига тўхталиш ва унинг тушунчасини кўриб чиқиш муҳим масаладир.

Кибержиноятчилик — бу интернет ёки ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган жиноий фаолиятлар тоифаси бўлиб, у шахсий маълумотларни ўғирлашдан тортиб, корпоратив маълумотларга тажовуз қилиш, давлат ва бизнес маълумотларини бузиш, молиявий фирибгарлик, тижорат ва давлат сирларига тажовуз қилишгача бўлган кенг қамровли жиноятларни ўз ичига олади. Бу ҳужумлар замонавий технологиялардан кенг фойдаланган ҳолда амалга оширилади ва уларни аниқлаш ҳамда олдини олишни жуда қийинлаштиради.

Бунинг натижасида киберхавфсизликни таъминлаш ҳар бир замонавий давлатлар ва мавжуд бизнес соҳаси вакилларининг энг муҳим вазифаларидан бирига айланиб бормоқда.

Бугунги кунда кибержиноятчилик бир қанча турларга бўлинади, жумладан:

Фишинг – бу фирибгарлик йўли билан фойдаланувчининг шахсий ёки молиявий маълумотларини олиш мақсадида фирибгар электрон хабарлар ёки веб-саҳифалардан фойдаланиши.

DDoS (Distributed Denial of Service) - бу тизимга орттиқча юкламани юбориш орқали уни ишдан чиқариш ёки ишлаш қобилиятини пасайтириш.

Зарарли дастурлар орқали маълумотларни бузиш ёки шифрлаш орқали уларни қайтариб бериш учун товон талаб қилиш.

Зарарли дастурлар - бу компьютер ёки серверларга кириб, уларни бузиш ёки маълумотларни ўғирлашга қаратилган дастурий таъминот.

Кибержиноятлар ёки бошқа турдаги жиноятлар бўладими уларга қарши курашишда ривожланиб бораётган рақамли воситалар, айниқса, сунъий интеллектнинг имкониятларидан кенг фойдаланиш зарурияти ортиб бормоқда.

Сунъий интеллект технологиялари киберхавфларга қарши курашишда инсоннинг когнитив қобилиятларини автоматлаштириш орқали катта кўламдаги маълумотларни тез ва самарали таҳлил қилиш имкониятини беради. Машинавий ўрганиш алгоритмлари ва катта маълумотлар таҳлили (big data) жиноятчиликка қарши курашда ҳамда киберхавфсизликни таъминлашда муҳим воситалар ҳисобланади. СИ имкониятларидан кибержиноятларга, умуман кибертаҳдидларга қарши курашда фойдаланишимиз юқори афзалликларга эришишда қўл келиши мумкин. Жумладан:

Машинавий ўрганиш ва автоматлаштирилган таҳлил.

Бу анъанавий инсоннинг ўзидаги бу қобилятларига қараганда анча тез ҳамда аниқликда амалга оширилади.

СИ дастурлари кенг миқдордаги маълумотларни инсон аралашувисиз таҳлил қилиш ва улар асосида таҳдидларни аниқлаш имконини беради. Ҳар бир ҳужумни қўлда таҳлил қилиш инсон қобилиятидан ташқари бўлиши мумкин, аммо СИ бу жараённи автоматлаштириб, тезкорлик билан маълумотлар орасидаги аномалияларни (ноўрин ёки кутилмаган ҳолат) аниқлаб беради. Мисол тариқасида, IBMнинг “Watson for Cybersecurity” тизими катта

маълумотларни таҳлил қилиб, кибержиноятларга қарши ҳимоя стратегияларини ишлаб чиқишда фойдаланилади.

Паттернларни аниқлаш ва таҳдидларни олдиндан кўриш.

Паттерн — бу муайян қонун-қоидалар, қонуниятлар ёки такрорланувчи схемалар асосида намоён бўладиган тузилма ёки тенденция.

СИнинг муҳим имкониятларидан бири — паттернларни аниқлаш ва таҳдидларни олдиндан кўра олиш қобилиятидир. Машинавий ўрганиш алгоритмлари турли сценарийлар орқали киберҳужумларга хос бўлган паттернларни топади ва уларнинг қайталанишини олдиндан аниқлайди.

Паттернларни аниқлаш ва жиноятларни олдиндан кўриш – бу маълумотларни таҳлил қилиш (data analytics) ва сунъий интеллект (AI) соҳасидаги концепция бўлиб, у инсоннинг қонунбузарлик ёки хавфли ҳаракатларини олдиндан тахмин қилишни мақсад қилади. Бу тушунчани яхшироқ тушуниш учун уни икки қисмга ажратиб кўрамиз: **паттернларни аниқлаш** ва **жиноятларни прогноз қилиш**.

Паттернларни аниқлаш. Тасаввур қилинг, сиз изқуварсиз ва шаҳарда жиноятлар билан боғлиқ юзлаб ҳодисалар юз беради. Ҳар бир жиноятни алоҳида қараганда, улар фақат битта ҳодиса бўлиб туюлади, аммо сиз ҳамма маълумотни тўплаб таҳлил қила бошласангиз, маълум қонуниятларни (паттернлар) аниқлайсиз. Бу худди ҳаётингизда оддий юз берадиган одатларни кузатишга ўхшайди. Бу жараёнда маълумотлар орасидан такрорланувчи қонунлар, алоқадорликлар ва тенденцияларни излаймиз. Масалан, бир маҳалладаги жиноятлар асосан кечки соат 20-22 лар атрофида юз бериши ва улар асосан пайшанба куни содир бўлишини кузатсак, бу паттерн ҳисобланади. Демак, бу вақт ва жойда хавф юқори бўлишини кутиш мумкин.

Жиноятларни олдиндан кўриш (прогнозлаш). Энди паттернлар аниқлангандан сўнг, компьютер моделлари ва статистикадан фойдаланиб, қайси вақтда ва қаерда жиноят содир бўлиши мумкинлигини тахмин қилиш (прогнозлаш) мумкин. Бу концепция хорижда “Predictive Policing” деб аталади, яъни – прогноз асосида полицияни ташкил этиш номи билан танилган.

Масалан, сиз ҳар куни эрталаб ҳароратга қараб қачон ёмғир ёғишини прогноз қиласиз.

Энди тахминлаш моделлари қандай ишлайди?-деган саволга қуйидагича жавоб беришимиз мумкин.

Биринчи қадам, машинавий ўқитиш (machine learning). Бунда моделлар тарихий маълумотларни ўрганиб, паттернларни аниқлайди. Масалан, ўтмишда ўғирликлар асосан якшанба кунлари маълум бир ресторан яқинида ёки ҳудудда юз берган бўлса, алгоритмлар шу каби ҳолатлар яна содир бўлиш эҳтимолини ҳисоблайди.

Иккинчи қадам, таҳлил ва қарор қабул қилиш. Агар маълум бир жой ва вақтда жиноят содир бўлиши эҳтимоли юқори бўлса, хизматга жалб этилган ходимлар ва кучларни ўша ерга олдиндан жўнатиш мумкин.

Техник жараён мураккаб ҳисобланиб, жиноятлар ҳақидаги тарихий маълумотлар, видеокамералардан олинган маълумотлар, ижтимоий тармоқлардаги хабарлар ва бошқалар маълумотлар манбасини ташкил этиши мумкин.

Бироқ, бундай прогнозларда хато эҳтимоли мавжуд. Тўпланган маълумотларда хатолик ҳам бўлиши мумкин. Ҳар доим тўғри маълумотлар йиғилмайди. Нотўғри маълумотлар нотўғри прогнозларга олиб келиши мумкин. Масалан, компьютерга тақдим этилган нотўғри маълумот асосида нотўғри қарорлар қабул қилиниши мумкин. Шунинг учун, бундай тизимлар ҳар доим инсон кузатуви ва аниқ таҳлил билан бирга қўлланилиши керак.

Реал вақтда жиноятларга, ҳужумларга қарши кураш.

Реал вақтда ҳужумларга қарши кураш – бу жиноятлар содир бўлишидан олдин ёки уни содир бўлаётган вақтда тезкорлик билан чора кўришни англатади. Бундай тизимлар маълумотларни доимий равишда кузатиб боради, таҳлил қилади ва тезкор қарорлар қабул қилишга ёрдам беради. Бундай тизимлар жуда катта миқдордаги маълумотлар билан ишлаш ва сунъий интеллект орқали таҳлил қилиш қобилиятига эга.

СИ воситалари ҳужумлар рўй берган вақтда уларни тезкорлик билан аниқлайди ва олдини олиш чораларини кўради.

Бу тизимлар ҳужумлар ва жиноятлар содир бўлиши мумкин бўлган жойларни онлайн кузатиб, хавф пайдо бўлиши биланоқ ҳушёрлик билан реакция қилади. Бундай жараёнлар асосан

4 босқичда амалга оширилади:

маълумотларни реал вақтда йиғиш;

хавфларни аниқлаш ва таҳлил қилиш;

автоматик хавф сигналларини бериш;

тезкор чора кўриш ва қарорлар қабул қилиш;

маълумотларни реал вақтда йиғиш;

Маълумотлар турли хил манбалардан, яъни видеокамералар ва дронлар, сенсорлар ва сигнализациялар, GPS қурилмалари, ижтимоий тармоқлардан доимий равишда тушиб туради.

Юзага келиши мумкин бўлган хавфларни аниқланиб, таҳлил қилинади. Маълумотлар катта миқдорда йиғилгани учун сунъий интеллект алгоритмлари бу маълумотни таҳлил қилади. Бундай тизимлар паттернларни аниқлаб, шубҳали фаолиятни топади.

Реал вақтдаги хавфни аниқлаш ҳам шундай ишлайди. Агар одамларнинг ҳаракати одатдаги оқимдан кескин фарқ қилса (масалан, инсонлар номувофиқ тезликда юра бошласа), алгоритмлар буни хавф сифатида баҳолайди. “Machine Learning” моделлари жиноятларни олдинги маълумотлар асосида таҳлил қилиб, анъанавий ва шубҳали фаолиятни ажратиб беради.

Автоматик хавф сигналларини беришда агар камералар кўп одам йиғилишини ёки кутилмаган тезликда ҳаракатларни кузатса, автоматик равишда хабар берилади. Банк ёки бирор-бир омборхонада сигнализация ёқилса, қўриқлаш гуруҳи реал вақтда ўша ерга жўнатилади.

Тезкор чора кўриш ва қарорлар қабул қилишда маълумотлар таҳлил қилинганидан сўнг, тизим ички ишлар ёки маълум бир хавфсизликни таъминловчи хизматларига чора кўриш бўйича тавсиялар беради. Бундай тавсиялар автоматик ёки қўлда бажарилиши мумкин.

Автоматик реакцияларларда, овозли огоҳлантириш тизимлари ёқилади, сигнализациялар автоматик ишга тушади ёки камералар хавфли объектни яқинлаштириб суръатга олади ва бошқалар.

Қўлда реакцияда эса, ички ишлар идораси навбатчилик қисми воқеа жойига экипажни жўнатади ёки бошқа чораларни кўришга қарор қилади.

Бугун бу тизимлардан реал ҳаётда шаҳар хавфсизлиги таъминлашда, банк ва молия муассасаларида, жамоат тадбирларида қўллаш мумкин.

Масалан, Лондон каби шаҳарларда кўчалардаги камералар реал вақтда одамлар оқимини кузатади. Агар шубҳали ҳаракатлар ёки нотўғри ҳаракатлар кузатилса, полицияга жўнатилади.

Бундан ташқари, банк ва молиявий муассасаларида сигнализациялар ва сенсорлар ёрдамида ўғриликлар ва турли ҳужумлар олдини олиш мумкин. Жамоат тадбирларида, яъни стадионлар ёки концертларда одамларнинг шубҳали ҳаракатлари

кузатиб борилиб, хавф содир бўлишидан олдин чора кўрилиши мумкин.

Тадбиқ этиш жараёнида айрим хавф ва чекловларни ҳам инобатга олиш муҳим. Ҳар доим ҳам автоматик тизимлар аниқ прогноз бера олмаслиги мумкин. Доим инсон омилидан фойдаланиш керак. Масалан, камера нотўғри таҳлил қилиб, одамларнинг оддий ҳаракатини хавф сифатида баҳолаши мумкин. Натижа шахсий ҳаётнинг бузилишига олиб келиши, ижтимоий тармоқлар ва камералар орқали кузатувлар баъзида одамларнинг шахсий ҳаётини чеклаб қўйиши мумкин.

СИ имкониятларидан фойдаланиб жиноятчиликка қарши курашни амалга ошириш жараёнида ҳуқуқий чекловлар ва муаммолар юзага келиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Жараёнда маълумотларнинг махфийлиги ва шахсий ҳаёт дахлсизлиги, алгоритмларнинг шаффофлиги ҳамда халқаро ҳуқуқий меъёрларга алоқадор муаммолар юзага келиши мумкин. Бу чеклов ва муаммоларни бартараф этишда миллий қонунчилик ва халқаро ҳужжатларга асосланган ҳолда чоралар кўриш лозим бўлади.

СИдан киберхавфларга қарши курашда фойдаланиш жараёнида маълумотлардан кенг фойдаланиш талаб этилади. Кўпгина давлатларда шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунлар мавжуд. Бу қонунлар маълумотларни қайта ишлаш жараёнида шахсий ҳаёт дахлсизлигини таъминлашга қаратилган.

СИ алгоритмлари мураккаб ва кўпинча тушунарсиз бўлиб, улар қандай қарорлар қабул қилаётганини тушуниш қийин. Бу ҳолат ҳуқуқий муаммоларни келтириб чиқаради, чунки инсон ҳуқуқлари бузилиши ёки номақбул қарорлар қабул қилиниши мумкин. Бу муаммолар ҳозирда халқаро даражада муҳокама қилинмоқда. Европа Комиссияси СИ алгоритмларининг шаффофлигини ошириш учун қонунларни такомиллаштириш устида ишламоқда.

Кибержиноятчиликнинг глобал характери халқаро ҳуқуқий меъёрларнинг ишлаб чиқилишини талаб этади. Аммо ҳозирги кунда турли давлатлар ўртасида ушбу йўналишда ягона қонунчилик базаси йўқ. Масалан, АҚШ, Хитой ва Европа Иттифоқи ўртасидаги СИ ва киберхавфсизликни тартибга солиш бўйича қонунлар бир-биридан фарқ қилади, бу эса халқаро киберхавфларга қарши самарали курашишга тўсқинлик қилади.

Тезис доирасида илғор давлатларнинг кибержиноятларга қарши курашдаги тажрибалари тўхталиш аҳамиятлидир.

Дунё миқёсида киберхавфсизликка эътибор қаратган ва бу соҳада илғор технологияларни жорий қилган давлатларнинг тажрибаси муҳим ҳисобланади.

АҚШ дунёдаги энг кучли киберхавфсизлик инфратузилмаларига эга давлатлардан бири ҳисобланади. АҚШ Миллий хавфсизлик агентлиги (NSA) ва ФТБнинг сунъий интеллектдан фойдаланиб амалга оширадиган киберхавфларга қарши дастурлари катта миқдордаги маълумотларни таҳлил қилиш ва ҳужумларни олдиндан аниқлаш имконини яратмоқда. Шунингдек, Хитой, Исроил, Германия, Япония, Буюк Британия, Канада, Франция, Корея, Сингапур каби давлатларнинг соҳадаги илғор тажрибаларини тадқиқ этиш ва эришилган ютуқларидан республикамизда бу борадаги ислоҳотларни амалга оширишда фойдаланишимиз мумкин.

СИ имкониятларидан фойдаланиш кибержиноятлар ва бошқа жиноятларга, киберхавфларга қарши курашда қатор ижобий натижаларга эришишни таъминлайди.

СИ технологиялари ёрдамида киберхавфсизлик тизимларини автоматлаштириш орқали инсон аралашувисиз тезкор ҳимояни амалга оширади. Бу эса давлат ва компанияларнинг хавфсизлик харажатларини сезиларли даражада камайтиради.

Ҳужумларни реал вақтда аниқлаш ва тўхтатиш имконини бериб, янги таҳдидларга тезкор жавоб қайтаришни таъминлайди. Бу эса катта муваффақиятларга эришиш имкониятини яратади.

Халқаро даражада СИ ва киберхавфсизлик бўйича ҳамкорликни кучайтириш билан хавфларни олдиндан аниқлаш ва уларга қарши самарали чоралар кўриш мумкин.

Хулоса қиладиган бўлсак, сунъий интеллект кибер-жиноятчиликка қарши курашишда катта имкониятларга эга бўлиб, унинг автоматлаштириш, тезкорлик ва аниқлик каби хусусиятлари давлатлар ва хусусий сектор учун жуда фойдали. Аммо ҳуқуқий муаммолар, хусусан, маълумотларнинг махфийлиги ва алгоритмларнинг шаффофлиги масалалари ҳал қилиниши керак. Илғор давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, СИ технологияларини жорий қилиш орқали кибержиноятларга ва киберхавфларга қарши самарали курашиш мумкин.

КИБЕРХАВФСИЗЛИК СОҲАСИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК ИМКОНИЯТЛАРИДАН КИБЕРЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Убайдуллаев Қудратилла Хабибуллаевич
сиёсий фанлар доктори (DSc), катта илмий ходим

Аннотация. *Ушбу мақолада киберхавфсизлик соҳасидаги хорижий давлатлар тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари ўрганилган. Хусусан, кибержиноятларга қарши курашда халқаро ҳамкорлик қилиш билан боғлиқ муаммолар тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар: *киберхавфсизлик, кибермакон, кибертаҳдидлар, кибержиноятлар, халқаро ҳамкорлик, ҳуқуқ-тартибот органлари, киберҳужумлар, трансчегаравий жиноятла*

Аннотация. *В данной статье изучена возможности использования опыта зарубежных стран в Узбекистане в сфере кибербезопасности. В частности, исследованы проблемы, связанные с международным сотрудничеством в борьбе с киберпреступностью.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, киберпространство, киберугрозы, киберпреступления, международное сотрудничество, правоохранительные органы, кибератаки, трансграничные преступления.*

Abstract. *This article examines the possibilities of using the experience of foreign countries in cybersecurity field in Uzbekistan. In particular, the problems related to international cooperation in the fight against cybercrime were studied.*

Keywords: *cybersecurity, cyberspace, cyberthreats, cybercrimes, international cooperation, law enforcement agencies, cyberattacks, cross-border crimes.*

Дунё цивилизацияси XXI асрнинг чорак қисмига яқинлашиб борар экан, кибермакондаги ижтимоий-иқтисодий ва ҳарбий-сиёсий муносабатлар тобора фаоллашиб, рақамли технологиялар билан ер шари аҳолиси ўртасидаги ўзаро трансформациялашув жараёнлари янада кучлироқ давом этишини кўрсатмоқда.

Инсониятнинг глобал Интернет тармоққа ижтимоийлашув жараёнлари тобора кучайиб бормоқда. Хусусан, ер юзи аҳолисининг 60 фоизи ва уларнинг суткалик ўртача 6 соат вақти Интернетда ўтмоқда. Шу билан бирга, сўнгги беш йилда глобал тармоқда ахборот алмашиш ҳажми икки каррага ошган.[1]

Айрим ҳукмрон давлатлар ўртасидаги сиёсий ўйинлар ва қарама-қаршиликларда иқтисодий санкциялар, энергетик ва бошқа ресурслардан босим кўрсатувчи восита сифатида фойдаланиш билан бир қаторда, махсус киберҳужумлар қўлланилмоқда.

[1] Global Business Data Platform Statista. https://www.statista.com/statistics/631151/worldwide-data-collected-by-smart-buildings/: 30.08.2024 йилда мурожаат қилинди.

Америкалик таниқли журналист Ш.Харрис кибермаконни ҳаво, қуруқлик, денгиз ва космосдан кейинги ҳарбий ҳаракатларнинг бешинчи театр майдони сифатида таърифлайди.[2]

БМТ Бош котиби А. Гутерриш таъкидлаганидек, “Афсуски, бугунги кунда давлатлар ўртасида киберуруш билан боғлиқ ҳолатлар кўзга ташланмоқда. Энг ёмони, бу каби урушларга чек қўядиган ва уларни тартибга соладиган универсал халқаро нормалар мавжуд эмас”.[3]

Биргина сунъий интеллектнинг амалиётда мақсадли қўлланилиши, кибержиноятларнинг анонимлик ва трансчегаравийлик хусусиятларига сезиларли туртки берди. Жумладан, кибержиноятчилар электрон манзилларни клонлаштирган ҳолда, исталган давлат фуқаросининг қиёфасида муҳим ахборот инфратузилмаси объектларига ёки персонал маълумотлар базасига киберҳужум уюштириш имкониятига эга бўлмоқда.

Бугунги кунда киберхавфсизликни таъминлаш ва кибержиноятларга қарши кураш масалалари ҳуқуқ-тартибот идораларнинг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Айниқса, ушбу соҳада миллий қонунчиликни тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги ҳамда халқаро нормаларнинг тартибга солинмаганлиги трансчегаравий кибержиноятларга қарши кураш бўйича саъй-ҳаракатларни мувофиқлаштиришда ўзига хос муаммоларни келтириб чиқармоқда.

Жумладан, ривожланган давлатлар тажрибасининг таҳлили шуни кўрсатмоқда-ки, иқтисодий соҳадаги кибержиноятларга (киберфирибгарлик, ўғирлик) қарши курашда Интерпол ва Европол каби халқаро полициянинг имкониятларидан самарали фойдаланган ҳолда, ўз вақтида зарур бўлган тезкор-қидирув ва махсус тергов ҳаракатларини амалга оширишни талаб этмоқда. Шунингдек, ноқонуний халқаро пул ўтказмалари билан боғлиқ банк транзакция операцияларини “музлатиб қўйиш” ҳамда уларнинг ҳақиқий эгаларини аниқлаш муаммоси сақланиб қолмоқда.

Хусусан, Ўзбекистонда киберфирибгарликлар билан боғлиқ жиноятларни содир этилиши натижасида, тўпланган пул маблағларини хорижий валюта пластик карталарига ўтказиш ва криптовалютага айирбошлаш операцияларидан сўнг, ўғирланган маблағларни ўзлаштирувчи шахсларга нисбатан тезкор-қидирув ва

[2] Харрис Шейн. Кибервойн@. Пятый театр военных действий. Пер. с англ. - М.: Альпина нон-фикшн, 2016. - 390 с.

[3] https://dfnc.ru/security/kibervojny-v-seroj-zone/: 30.08.2024 йилда мурожаат қилинган.

тергов ҳаракатларини амалга ошириш жараёнларида халқаро ҳамкорлик муаммолари юзага келмоқда.

Мазкур ҳолатларда, шунингдек, терроризмни молиялаштириш, кибертерроризм билан боғлиқ трансчегаравий жиноятларни фош этишда юқоридаги имкониятлар билан бир қаторда, халқаро ташкилотлар, давлат-хусусий шерикчилик секторидан фойдаланиш, хорижий давлатларнинг ҳуқуқ-тартибот идоралари ёрдамида гумонланаётган шахслар, уларнинг яқин алоқалари, электрон манзиллари, банк-ҳисоб рақамларини текширишдаги ҳамкорлик ишлари суст олиб борилмоқда.

Киберхавфсизлик муаммоси глобал аҳамиятга эга бўлганлиги боис, ривожланган давлатларда киберхавфсизлик стратегиялари қабул қилиниб, киберқуроллардан ҳарбий-сиёсий мақсадларда фойдаланилмоқда. Қолаверса, бугунги кунда 130 га яқин давлатларда киберхавфсизлик стратегиялари қабул қилинган.

Бу соҳада хорижий мамлакатларда илмий-тадқиқот институтлари ҳамда таҳлилий марказлар фаолият кўрсатмоқда. Жумладан, АҚШ, Буюк Британия, Хитой, Россия каби давлатларда квант криптографияси, кибернетик қурилларнинг замонавий турларини яратиш, графлар назариясини қўллаган ҳолда, кибермакондаги аноним фойдаланувчиларни аниқлаш, сунъий интеллектдан гибрид урушларда фойдаланиш бўйича фундаментал тадқиқотлар олиб борилмоқда.[4]

Ундан ташқари, глобал киберхавфсизлик муаммоларини тадқиқ этувчи марказларда, хусусан Европа Иттифоқи (ЕИ) давлатлари бўйича Интернетдан хавфсиз ва эркин фойдаланиш жамияти (Internet Society), тармоқлар ва ахборот хавфсизлиги бўйича ЕИ агентлиги (ENISA), АҚШ ички хавфсизлик вазирлиги таркибидаги миллий киберхавфсизликни бошқариш маркази (National Cyber Security Division) ва бошқа илмий-тадқиқот марказларида киберхавфсизликнинг амалий масалалари ўрганилмоқда.[5]

---

[4] Расторгуев С.П. Литвиненко М.В. Информационные операции в сети Интернет. – М.: 2014. – 133 с.; Макаренко С.И. Информационное противоборство и радиоэлектронная борьба в сетецентрических войнах начала XXI века. Монография. – СПб.: 2017. – 546 с.; Yoko Nitta. Review of the Japan Cybersecurity Strategy. ISPSW Strategy Series: Focus on Defense and International Security Review of the Japan Cybersecurity Strategy. Issue No. 290. September 2014. 1-8 pp.; Melissa E. Hathaway, Alexander Klimburg. National Cyber Security Framework Manual. NATO Cooperative Cyber Defence Centre of Excellence Tallinn, Estonia. 2012. – 44 p.

[5] Мелисса Хатауэй, Крис Демчак, Джейсон Кербен, Дженнифер МакАрдл, Франческа Спидальери. Киберготовность США: краткая информация. Сентябрь 2016, - 53 с. Опубликовано Потомакским Институтом политических исследований (Potomac Institute for Policy Studies) 901 N. Stuart St, Suite 1200 Arlington, VA 22203. potomacinstitute.org.; Keir Giles. Conflict Studies Research Centre, UK. Legitimation of Online Surveillance and Monitoring. Eighth International Forum “Partnership of State Authorities, Civil Society

Ўзбекистон Республикасида ҳам киберхавфсизликни таъминлаш соҳасига давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хавфсизлик кенгашининг 2023 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида Президент Ш. Мирзиёев томонидан сўзланган нутқда ахборот ва киберхавфсизликни таъминлаш миллий хавфсизлик соҳасидаги муҳим вазифа бўлиб қолишига урғу берилди.[6]

Сўнгги вақтларда, маҳаллий олимлар томонидан киберхавфсизликни таъминлашнинг сиёсий ва ҳуқуқий муаммоларини тадқиқ этиш бўйича бир қатор илмий тадқиқотлар амалга оширилди. Жумладан, А.У. Анорбоев, А.А. Матчанов, А.К. Расулев ва бошқалар томонидан кибержиноятларни олдини олиш ва киберхавфсизликни таъминлашнинг норматив-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш бўйича илмий изланишлар олиб борилди.[7]

CNN modeli xususiyatlarni ajratib olish uchun bir nechta konvolyutsion qatlamlardan, oʻlchamlarni kamaytirish uchun birlashtiruvchi qatlamlardan va tasniflash uchun toʻliq bogʻlangan qatlamlardan iborat[1]:

- **Konvolyutsion qatlamlar:** tasvirlardagi fazoviy ierarxiya va naqshlarni olish uchun.
- **Pooling qatlamlari:** fazoviy oʻlchamlarni kamaytirish va dominant xususiyatlarni ta'kidlash uchun.
- **Toʻliq bogʻlangan qatlamlar:** olingan xususiyatlar asosida yuqori darajadagi fikrlash va tasnifni amalga oshirish uchun.

Konvolyutsion neyron tarmogʻi (CNN) modeli kuzatuv videolaridagi shubhali harakatlarni aniqlashda mustahkam ishlashni namoyish etdi, masalan:

- **Bevositalik:** nozik joylarda aniq sabablarsiz qolgan shaxslarning aniqlangan holatlari, bu koʻpincha potentsial jinoiy niyatdan dalolat beradi.
- **Ruxsatsiz kirish:** noqonuniy faoliyatning boshlanishi boʻlishi mumkin boʻlgan cheklangan yoki nazorat qilinadigan zonalarga kirayotgan odamlar aniqlandi.

Model real vaqt rejimida video kuzatuv tizimiga integratsiya qilingan boʻlib, u jonli muhitda samarali ishlashni namoyish etdi:

[1]Krizhevsky, A., Sutskever, I., & Hinton, G. E. (2012). ImageNet classification with deep convolutional neural networks. Advances in Neural Information Processing Systems, 25, 1097-1105.

- **Real vaqt tahlili:** CNN modeli video tasmalarini real vaqt rejimida qayta ishladi va har bir kadrni doimiy ravishda tahlil qilib, shubhali harakatlar sodir bo‘lganligini aniqladi.
- **Hodisa haqida xabar berish:** Model tomonidan aniqlangan shubhali harakatlar huquq-tartibot idoralari tomonidan tekshirilishi uchun belgilandi va belgilandi. Bu qobiliyat potentsial tahdidlarni tezkor baholash va ularga javob berish imkonini berdi, kuzatuv operatsiyalari samaradorligini sezilarli darajada oshirdi[2]. Aniqlash, real vaqt rejimida qayta ishlash va samarali vizualizatsiya vositalarining kombinatsiyasi CNN modelining amaliy tushunchalarni taqdim etish va o‘z vaqtida aralashuvni osonlashtirish orqali jinoyatlarning oldini olish strategiyasini yaxshilash salohiyatini namoyish etdi. Ushbu batafsil natijalar bo‘limi huquqni muhofaza qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda qo‘llaniladigan modelning ishlashi, amaliy qo‘llanilishi va vizualizatsiya usullarining to‘liq ko‘rinishini taqdim etadi[3].

Konvolyutsion neyron tarmog‘i (CNN) modelining ishlashi bir nechta asosiy ko‘rsatkichlar yordamida baholandi. Matematik formulalar va natijalar quyidagicha:

Accuracy (Aniqlik): Aniqlik barcha misollar orasida to‘g‘ri tasniflangan misollarning (haqiqiy ijobiy va haqiqiy salbiy) ulushini o‘lchaydi. U quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Accuracy = \frac{TP + TN}{TP + TN + FP + FN} \qquad (1)$$

bu yerda TP haqiqiy ijobiylar soni, TN haqiqiy negativlar soni, FP noto‘g‘ri musbatlar soni va FN noto‘g‘ri salbiylar soni. CNN modeli 92% aniqlikka erishdi.

Precision (Aniqlik): Aniqlik ijobiy deb tasniflangan barcha misollar orasidagi haqiqiy musbatlar nisbatini bildiradi. U tomonidan beriladi:

$$Precision = \frac{TP}{TP + FP} \qquad (2)$$

model 0,87 aniqlikka erishdi, ya’ni belgilangan harakatlarning 87 foizi shubhali deb to‘g‘ri aniqlangan.

Recall (Eslab qolish): Recall barcha haqiqiy ijobiy holatlar orasida haqiqiy ijobiylarning ulushini o‘lchaydi. U quyidagicha hisoblanadi:

2 Girshick, R., Donahue, J., Darrell, T., & Malik, J. (2014). Rich feature hierarchies for accurate object detection and semantic segmentation. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), *580-587.*

3 Redmon, J., Divvala, S., Girshick, R., & Farhadi, A. (2016). You Only Look Once: Unified, Real-Time Object Detection. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 779-788.

$$Recall = \frac{TP}{TP + FN} \quad (3)$$

modelni chaqirib olish **0,91 ni** tashkil etdi, bu haqiqiy shubhali faoliyatning 91% aniqlanganligini koʻrsatadi.

F1-score (F1-ball): F1 balli Precision va Recall garmonik oʻrtacha koʻrsatkichi boʻlib, ikkalasini ham muvozanatlashtiradigan yagona koʻrsatkichni ta'minlaydi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$F1 = 2 \times \frac{Precision \times Recall}{Precision + Recall} \quad (4)$$

model shubhali harakatlarni aniqlashda muvozanatli ishlashni aks ettiruvchi **0,89** F1 balliga erishdi[4].

CNN arxitekturasi kuzatuv tasvirlarini samarali qayta ishlash va tasniflash uchun ishlab chiqilgan. Arxitektura tafsilotlari quyidagicha:

Kirish qatlami: kirish qatlami model arxitekturasi bilan mosligini ta'minlab, 224x224 piksel oʻlchamini oʻzgartirgan kadrlarni qabul qildi.

Konvolyutsion qatlamlar:

1-qatlam: yadro oʻlchami 3x3 boʻlgan 32 filtr, undan keyin ReLU faollashtirish funksiyasi.

2-qatlam: yadro hajmi 3x3 boʻlgan 64 ta filtr, undan keyin ReLU faollashtirish funksiyasi.

3-qatlam: yadro hajmi 3x3 boʻlgan 128 ta filtr, undan keyin ReLU faollashtirish funksiyasi.

Birlashtirish qatlamlari: Fazoviy oʻlchamlarni kamaytirish va muhim xususiyatlarni olish uchun har bir konvolyutsion qatlamdan keyin maksimal birlashtiruvchi qatlamlar (2x2) amalga oshiriladi.

Toʻliq bogʻlangan qatlamlar:

1-qatlam: ReLU faollashtirilgan 512 birlik.

2-qatlam: ReLU faollashtirilgan 256 birlik.

Chiqish qatlami: Softmax faollashtirish funktsiyasi shubhali va shubhali boʻlmagan toifalarga tasniflaydi.

Tartibga solish: Toʻliq bogʻlangan qatlamlarda haddan tashqari moslashishni oldini olish va modelni umumlashtirishni yaxshilash uchun tushirish (0,5) qoʻllanildi[5].

Optimizator: Modelni oʻrgatish uchun Adam optimallashtiruvchi 0,001 oʻrganish tezligi bilan foydalanilgan.

4 LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. Nature, 521(7553), 436-444.

5 Ronneberger, O., Fischer, P., & Brox, T. (2015). U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation. Proceedings of the International Conference on Medical Image Computing and Computer-Assisted Intervention (MICCAI), 234-241.

Vizualizatsiya natijalari. Model natijalarini talqin qilish va ulardan samarali foydalanish uchun vizualizatsiya usullari qo‘llanilgan:

Chegara qutilari: Aniqlangan shubhali harakatlar tegishli ob'yektlar yoki shaxslar atrofida cheklovchi qutilar bilan belgilangan. Bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga ehtimoliy tahdidlarni vizual tarzda tasdiqlash va baholash imkonini beradi[6].

1 - rasm. Kuzatuv kamerasi tasvirlarida aniqlangan shubhali harakatlarni ko‘rsatadigan chegaralovchi qutilarga misol

Issiqlik xaritalari: Aniqlangan shubhali harakatlarning fazoviy taqsimotini ko‘rsatish uchun issiqlik xaritalari yaratilgan. Issiq ranglar shubhali xatti-harakatlarning yuqori ehtimolini ko‘rsatib, yuqori xavfli hududlarni aniqlashga yordam beradi.



2 - rasm. Shubhali harakatlar ko‘proq bo‘lgan hududlarni ko‘rsatuvchi issiqlik xaritasi

Kadrlar tahlil jadvallari: Videokadrlar vaqt o‘tishi bilan shubhali harakatlarni ko‘rsatish uchun yaratilgan. Ushbu tahlil naqshlarni tushunishga va resurslarni taqsimlashni rejalashtirishga yordam beradi.

[6] Zeiler, M. D., & Fergus, R. (2014). Visualizing and Understanding Convolutional Networks. European Conference on Computer Vision (ECCV), 818-833.

3 - rasm. Vaqt o‘tishi bilan aniqlangan shubhali harakatlarni ko‘rsatadigan tahliliy kadrlar jadvali.

Ushbu vizualizatsiya amaliyotga taalluqli tushunchalarni taqdim etdi va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi, jinoyatchilikning oldini olish strategiyasining umumiy samaradorligini oshirdi[7].

Ushbu tadqiqot natijalari kuzatuv kameralaridagi shubhali harakatlarni aniqlashda konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) samaradorligini ko‘rsatadi. 92% aniqlik bilan CNN modeli kompyuterni ko‘rish texnikasi real vaqtda jinoyatlarning oldini olish uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Yuqori aniqlik (0,87) va eslab qolish (0,91) modelning noto‘g‘ri pozitivlarni minimallashtirish va haqiqiy tahdidlarni aniq aniqlash qobiliyatini yanada ta’kidlab, uni avtomatlashtirilgan kuzatuv tizimlarida ishonchli komponentga aylantiradi[8].

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter ko‘rish modellari turli xil va keng qamrovli ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilganda, potentsial jinoiy xatti-harakatlarni aniqlashni yuqori darajada oshirishi va shu bilan xavfsizroq jamoat muhitiga hissa qo‘shishi mumkin. Video tasmalarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyati hodisalarga zudlik bilan javob berish imkonini beradi, bu jinoyatlar avj olishidan oldin ularning oldini olishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi[9].

Xulosa. Ushbu tadqiqot kompyuterni ko‘rish texnikasi, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) shahar muhitida shubhali harakatlarni aniqlashda juda samarali ekanligi haqida ishonchli dalillarni taqdim etadi. Model yuqori darajadagi aniqlikka erishdi (92%) va noto‘g‘ri pozitivlarni minimallashtirish va potentsial tahdidlarni aniq aniqlash qobiliyatini namoyish etdi. Ushbu topilmalar CNN ning jamoat xavfsizligini kuchaytiruvchi proaktiv yondashuvni taklif qiluvchi

7 Viola, P., & Jones, M. (2001). Rapid object detection using a boosted cascade of simple features. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 511-518.
8Chawla, N. V., Bowyer, K. W., Hall, L. O., & Kegelmeyer, W. P. (2002). SMOTE: Synthetic Minority Over-sampling Technique. Journal of Artificial Intelligence Research, 16, 321-357.
9 Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

zamonaviy jinoyatlarning oldini olish strategiyalarida muhim tarkibiy qism bo‘lib xizmat qilish potentsialini ta’kidlaydi. Uzluksiz monitoring uchun inson operatorlariga bo‘lgan ishonchni kamaytirish orqali tizim huquqni muhofaza qilish organlariga o‘z resurslarini tasdiqlangan tahdidlarga yo‘naltirish, javob berish vaqtlarini yaxshilash va jinoyatlar sodir bo‘lishidan oldin oldini olish imkonini beradi. Ushbu integratsiya jamoat joylarini nazorat qilish usulini yaxshilashi mumkin, bu esa shaharlarni aholi va mehmonlar uchun xavfsizroq qilish imkonini beradi.

PROPOSAL OF SMART HOME SECURITY SYSTEM USING RASPBERRY PI 4

Mamirov Hudoyberdi Xomidjonovich
TATU Sun’iy intellekt kafedrasi tayanch doktoranti +998772625477
Boytemirov Asror Maxmado’stovich
TATU Sun’iy intellekt kafedrasi tayanch doktoranti +998912104199
Qobilov Sirojiddin Sherqulovich
TATU Sun’iy intellekt kafedrasi assistenti +998975324636

Abstract: *IoT (Internet of Things) technology, the core technology of the 4th industrial revolution, is currently being applied to various fields. Among them, the most basic application is the security system. The security system automatically detects a moving object or person approaching a restricted area, and if the object orperson moves, it can immediately take a picture and store it. By taking a picture and storing it, you can recognize what the moving object is and who it is if it is a person. You can open the door by checking who it is, and you can also find out what time someone came. In this paper, we propose a smart home security system based on Raspberry Pi 4. The proposed smart home security system uses a Raspberry Pi 4, a relatively easy-to-handle main processor, and a human body sensor (PIR sensor) to configure smart home security to determine intrusion. In addition, a web camera was connected to the Raspberry Pi 4 to record the intruder'svideo. As a result of verifying the efficiency by actually implementing the smart home security system proposed in this paper, it was possible for individuals to configure it more easily than the existing home security system. All sensors used inthis study were inexpensive and easily available on the market. The computer was configured using Raspberry Pi 4 so that Uzbekistan could have a lot of interest in Raspberry Pi. The PIR sensor detects if there is an object moving within the measuring range, and the detected data is transmitted back to the camera system tooperate camera and take a picture. The captured images are immediately displayedon the monitor and stored in the database. The computer program was written in Python language, and it was found that the implementation worked well*[1].

[1] Ye-Jin Jang, Young-Tae Chun, "Technology trend of Smart-home Security System", Korean Security Science Review, no.30, pp.119-138, 2012

Keywords: *IoT, Raspberry pi 4, camera, PIR sensor, smart home, security*

1. Introduction

Recently, the world is undergoing technological development in many fields under the influence of the 4th industrial revolution. The characteristics of the 4th Industrial Revolution technology are changing to make people's lives more effective and convenient, and for this purpose, the Internet of Things connected as one basedon the Internet forms the core. Also, in the 4th industry, cloud computing that can be connected to one computer around the world, artificial intelligence with self-determination, and virtual reality suitable for simulation are key technologies. Amongthese core technologies, IoT and artificial intelligence (AI) fields are particularly interested in many countries around the world, so universities and global companies are mainly researching them. These research results are also developing day by day. In addition, artificial intelligence and the Internet of Things are organically cooperating with each other to create new synergies. IoT technology, represented by smart cities, smart factories, smart farms, smart buildings, and security systems, is of great interest in cities and local governments in each country.

In particular, Korea's competitiveness in the field of IoT-based method systems, smart cities, smart factories, smart farms, and smart buildings has reachedthe world's highest level. There are many research presentations on the current system and many prototype presentations. [1] to [16]. The theoretical background is sufficient, and based on this technical background, each company makes prototypes and announces and sells them. However, Uzbekistan still imports and uses foreign technology because the competitiveness of IoT is still weak. In order to activate technology in the field of IoT in Uzbekistan, first, each university should pay attention to fostering experts in the field of IoT and produce them, and the discharged manpower should work professionally in this field. In addition, it is important for the government to spread awareness and R&D in the field of IoT.

This study aims to implement a basic Smart Home Security system as a basic step study to activate Uzbek's IoT technology. In order to induce interest in the IoT of students and related persons, a basic and easy system was created using the most general-purpose sensor and camera. A PIR sensor is used to detect motionin a designated area, and the detected data is transmitted to a computer, which activates another image sensor, the camera, to take pictures of moving objects. It isdisplayed directly on the monitor system and stored in the computer's database. If necessary, you can take a video and archive it. These digital technologies require skills to understand and use sensors. In order to operate the camera, you need to

understand the basics of the camera and have the skills to connect the camera to a computer. The program that directly controls these technologies was written as a Python program, and the necessary software libraries were written by directly downloading them from the outside. Raspberry Pi's RPi.GPIO, time, and opencv libraries were installed and used on the Raspberry Pi 4 computer.

As a result, this study implemented a basic IoT system for the security system, and measured and analyzed moving people or objects, which are the most basic data in the Smart Home Security System. A commonly used PIR sensor was used as the sensor, and a logitech webcam 270 model, a universal web camera, was usedas the camera. All of them are universally used and inexpensive, so students can easily purchase and use them. Although this study is still insufficient to induce interest in the new IoT field in Uzbekistan, it showed a lot of interest from students and professors by developing the most basic IoT system[2].

2. Smart Home security system (theoretical background)

2.1 Internet of Things (IoT)

The Internet of Things (IoT) is all network technology of things (Things) embedded with sensors, software, and other technologies for the purpose of connecting all computers and things through the Internet, transmitting data with other devices and systems, and improving efficiency. It is a wide range of technologies, including Such things range from ordinary household electronics to sophisticated industrial tools. Currently, more than 7 billion IoT devices are connected to the network worldwide, but experts predict that more than 20 billion things will be connected to the Internet by 2025. Most of these connections are connected to the servers of IoT specialist companies. There is, and it is expected that more servers will be connected in the future. Currently, many companies, led by Amazon, a representative IoT company, operate cloud computers and are connected to things around the world through the Internet. Cloud computer companies specializing in IoT are expected to appear in Uzbekistan in the future, and I think that Uzbekistan will show a lot of interest in IoT soon.

In the future living environment, the safety of people living in offices or homes becomes important. If an unauthorized person appears in a specific area, a big problem can occur, and when this situation occurs, information to effectively deal with it is very necessary. In addition, if a large computer is used to create such a system, efficiency may be a

[2] Han-Gook Kim, "Analysis of Entry Strategy and Market Trend of Home Security", Korea Entertainment Industry Association, pp.223-226, 2014.11.

problem, and the size of the system will become very large. For this system, the size can be configured very small by implementing the system using Raspberry Pi 4, which is exclusively used in the Internet of Things. In Uzbekistan, there are not many papers related to the Security System of the Internet of Things yet, and there is little interest.

2.2 Basic configuration of Smart Home Security System

The basic configuration of the Smart Home Security System requires a system that measures environmental data in a specific area. The changing information of a specific area is very important environmental data. A sensor is required to measure and analyze it, and a transmission system to transmit data is also required. In special cases, you need a camera to take pictures, and the programthat drives it is also important. This study can be divided into a sensor part that monitors a specific area, a camera that takes pictures, and a computer part that controls them all. A PIR sensor was used for the sensor, a logitech webcam 270 model was used for the camera, and a Raspberry Pi 4 was used for the computer to implement the system. Based on the Smart Home Security System and the basic theory of each sensor, a basic Smart Home Security System was produced, and thistechnology was studied at a university in Uzbekistan and was intended to be applied where necessary within the university.

3. Proposed Smart Home Security system function and operation algorithm

3.1 Implemented system block diagram



Figure 1. System block diagram

The block diagram of the implemented system is shown in Figure 1. The implemented system is largely divided into three divisions. It can be divided into PIR sensor part, camera part, and computer Raspberry Pi part. The computer part can create a database part inside and store the images taken from the camera in the database. A PIR sensor is connected to the Raspberry Pi 4, so when a person enters the limited range, the PIR sensor detects the person and informs the Raspberry Pi 4 that a person has entered the restricted area. The Raspberry Pi 4 sends a separate warning message to the monitor and activates another image sensor connected to the Raspberry Pi 4. Since the camera is used as an image

sensor, the camera is operated to take pictures of moving objects. The captured data is stored in a database. Since the stored data uses the saved time as a name, it is possible to check when a person was there.

3.2 Sensors and computers

3.2.1 PIR sensor

Figure 2. PIR sensor

Figure 2 is a picture of the PIR sensor. The PIR sensor weighs about 7g and is small, and the size is about 3.2cm x 2.4cm x 2.8cm. The range of operating voltage is about DC 4.5V ~ 20V, and the sensing distance is about 3 ~ 7m, which can be adjusted by volume within the sensor. The delay time can also be adjusted from 5 to 200 seconds. Since the most important working environment temperatureis around -20 ~ +80 ℃ everything operates normally within the normal range. These sensors are small in size, inexpensive, use low power, and are easy to use and connect[3].



Figure 3. PIR sensor operating principle

Figure 3 shows the operating principle of the PIR sensor. When a person emitting infrared rays comes within the detection distance, the sensor passes theinfrared rays of the person through the condensing lens, F-Lenz (Fresnel Lenz), and reaches the window located on the sensor surface. The window passes only infrared rays of a certain frequency band. The infrared signal passing through the window is converted into

[3] Woo-Sik Lee, Nam-Gi Kim, "Omnidirectional Distance Estimation using ultrasonic in Wireless Sensor Networks", The Journal of The Institute of Webcasting, Internet Television and Telecommunication vol.9, no.5, pp.85-91, 2009.

voltage through the sensor unit and amplified by the amplifier built into the sensor unit itself.

3.2.2 Camera

Figure 4. Camera

Figure 4 is the camera used in this study. The model name is Logitech webcam 270. This camera is a web camera and can be used by connecting to the USB connector of Raspberry Pi 4 in general, so it can be used very conveniently. It has a resolution of 1280 x 720 pixels, uses Logitech RightLight technology, and is available with Logitech Vid HD software. In this study, programming was done using the opencv library, which is a commonly used library.

3.2.3 Computer (Raspberry Pi 4)



Figure 5. Computer (Raspberry Pi 4)

Figure 5 is Raspberry Pi 4 used in this study. The Raspberry Pi 4 is a single board, capable of interfacing with a screen, keyboard and mouse. The computer used in this study has 8 MB of RAM. The operating system uses the Raspberry Pi OS, and the computer language mainly used in this computer is the Python language. There are two Micro HDMI ports that can connect a monitor to the outside, two USB 2.0 ports for general use, and two high-speed USB 3.0 ports. In addition, there is a jack that outputs

an audio signal to the outside, a connector that can connect a dedicated display device, and a camera port that can connect a dedicated Raspberry Pi camera. Since Bluetooth and Wi-Fi are built-in, it is possible to transmit data through wireless communication with the outside without connecting a separate device. The operating system used can be downloaded and installed from the Raspberry Pi website, and the Micro SD card used at this time can be used farther than 16GB. When installing the operating system, if you use theRaspberry PI Imager provided on the website, you can easily install the operating system on the Micro SD card[4].

3.2.4 Raspberry pi GPIO pins



Figure 6. Raspberry Pi 4 GPIO and 40 Pins

Figure 6 shows the PGIO and 40 pins of Raspberry Pi 4. Since it has 40 pins, it can send or receive data to the outside. A number is attached to each pin, and the user can connect them to the outside. It contains power, ground, and pins with special functions. In Raspberry Pi 4, all pins use +3.3V, so you should always be careful when connecting to other computers or connecting external circuits. In this study, the PIR sensor was connected to GPIO pin 7. Python and C languages are mainly used to control externally connected circuits, but in this study, the Python language was used for programming. The editor used the “Thonny” editor built into the Raspberry Pi OS.

4. Proposed Smart Home Security System Diagram and Implementation

[4] Kim Howon, "IoT technology and security", Information Security Journal, vol.22, no.1, 2012



Figure 7. The configuration diagram of the Smart Home Security System

Figure 7 shows the configuration of the proposed system. The PIR sensor can measure a range between 3 and 7m, and the camera takes a picture when aperson enters within the limited range. At this time, a warning message indicating an emergency is displayed on the monitor. Overall control for them is done by Raspberry Pi 4, and the main program is written in Python language. The captured image data is stored in the database set in the Raspberry Pi 4.

As a result of completing and implementing this system, the following results were confirmed.

1) Confirmation of basic Smart Home Security System configurability using Raspberry Pi

2) Check the possibility of measuring motion within a limited distance using a PIR sensor

3) Install OpenCV library to use camera and check operation

4) Automatically check camera shooting and saving[5]

[5] Wi Yukyeong, Kwak Jin, "Analysis of Smart TV Trends and Security Vulnerabilities to Use in the Smartwork", Korea Multimedia Society, 2012

Figure 8. Shooting and warning message when a person enters the limited range

Figure 8 shows the case where a person appears in a limited range, that is, in case of an emergency, the camera shoots and displays the “Motion detected” warning on the monitor. Depending on the camera installation location, you can take pictures from different angles, and if you use multiple cameras, you can take pictures from multiple angles.

5. CONCLUSION

The system proposed in this study used commonly and easily available parts. Also, a Raspberry Pi 4 computer was used to promote interest in Raspberry Pi in Uzbekistan. For those who are new to the Internet of Things, it is composed using the most common and low-cost parts, so anyone interested in the Internet of Thingsor the Smart Home Security System can implement it without spending a large amount of money. This study is a basic study to propose and arouse interest in the Smart Home Security system among the basic systems of the Internet of Things in developing country, so it can be implemented relatively cheaply. However, in order to implement a more precise and delicate system, more precise sensors and more diverse warning devices should be added. A more precise sensor can identify abnormal situations more quickly, and a better camera can take higher-resolution photos. In this study, two sensors were used, but I am sure that it will become a more effective Smart Home Security system if a system is created using more sensors in the future and connected with communication.

РАҚАМЛИ ДАЛИЛ. ЭКСТРЕМИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДАГИ РАҚАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИНГ ЎРНИ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети “Жиноий-ҳуқуқий фанлар” кафедраси доценти, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD),
Содиков Муҳамадбобур Алишер ўғли
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси,.

Аннотация. *Мақола ижтимоий тармоқлардаги профил/аккаунт фойдаланувчилари шахсига оид бошқа рақамли маълумотларни тўплаш, улардан фойдаланиш ҳамда экстремизм билан боғлиқ жиноятларни аниқлаш,*

тергов қилишда тезкор-қидирув тадбирлари натижаларидан фойдаланиш масалаларига бағишланган бўлиб, унда рақамли маълумотлардан далил сифатида фойдаланиш билан боғлиқ муаммолар ва хорижий давлатлар тажрибаси кўриб чиқилган.

Таянч сўзлар: *ижтимоий тармоқ, компьютер маълумотлари, электрон далил, рақамли далил, тезкор-қидирув фаолияти, суд қарори, интернет, ижтимоий тармоқ.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросам сбора и использования иной цифровой информации о личности пользователей профилей/аккаунтов в социальных сетях и использования результатов оперативно-розыскной деятельности при выявлении и расследовании преступлений, связанных с экстремизмом, в которых раскрываются проблемы, связанные с использованием цифровых данных в качестве доказательств и опыт зарубежных стран.*

Ключевые слова: *социальная сеть, компьютерные данные, электронные доказательства, цифровые доказательства, следственная деятельность, решение суда, Интернет, социальная сеть.*

Annotation. *The article is devoted to the issues of collecting and using other digital information about the identity of users of profiles/accounts on social networks and using the results of operational search activities in identifying and investigating crimes related to extremism, which reveal problems associated with the use of digital data as evidence and experience foreign countries.*

Keywords: *social network, computer data, electronic evidence, digital evidence, investigative activity, court decision, Internet, social network.*

Интернет ва замонавий ахборот тизимларини яратилиши билан бир қаторда, турли вирусли дастурларнинг тарқалиши, ҳимоя паролларни бузиш, қонунга зид бўлган ахборотларни тарқатиш, хакерлик ҳужумлари, давлат ва корхона-ташкилотларнинг расмий веб-сайтларига ноқонуний кириш, муаллифлик ҳуқуқини бузилиши, фирибгарлик ва банк карталарини ноқонуний эгаллаш ҳамда пул маблағларини талон-торож қилиш каби ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган жиноятлар – кибержиноятчилик тушунчасини пайдо бўлишига олиб келди.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясининг 33-моддаси 3-бандига кўра, эндиликда, “Давлат Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратади”, деб кўрсатилган.

Интернет ва ижтимоий тармоқларни назорат қилиш ва бошқаришнинг мураккаблиги экстремистик мазмундаги материалларни ушбу тармоқда эркин тарқалиш имконини бермоқда.

Диний экстремизм ва терроризм масаласи дунёдаги энг глобал муаммога айланиб бормоқда. Ўз тарафдорларини кенгайтириш мақсадида, тарғиботларда оммавий ахборот воситалари, замонавий

техналогиялар, интернет каби глобал тармоқлардан максимал фойдаланишмоқда.

Экстремизм билан боғлиқ жиноят содир этган шахсларни айбини исботлаш тезкор-қидирув фаолияти ва дастлабки тергов жараёнида гумонланувчининг интернет ва ижтимоий тармоқлардаги саҳифаларини кўздан кечириш ҳаракати орқали амалга оширилмоқда.

Кўздан кечириш ҳаракати давомида гумонланувчининг ижтимоий тармоқдаги саҳифасидан олинган қонунга зид ҳарактердаги маълумотлар мазмуни бўйича судга оид экспертиза тайинланиб, экспертлар олдига ҳал этиш учун саволлар берилади. Терговчилар томонидан эксперт хулосаси таянган ҳолда жиноят содир этган шахсга нисбатан айблаш ёки реабилиция қилиш масаласи кўриб чиқилмоқда.

Интернет ва ижтимоий тармоқ маълумотларини кўлга киритиш, улардан далил сифатида фойдаланиш ҳанузгача амалиётга жорий этилгани йўқ.

Таъкидлаш жоизки, амалдаги жиноят-процессуал қонунчиликда **рақамли далил** тушунчаси киритилмаган ҳамда ушбу **далилларни олиш, сақлаш ва исботлашда улардан фойдаланиш** тартиби ва шартлари ёритилмаганлиги, умумий бир бир сўз билан “Рақамли далил”нинг ҳуқуқий мақоми белгиланмаганлиги ҳозирги кунда ушбу турдаги далиллар билан ишлашда бир қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда.

Рақамли далил тушунчасининг таг маъносига назар ташласак, ушбу тушунчалар учун ягона таърифлар ва ечимлар борасида бир қанча қарашлар мавжудлиги кузатилмоқда. Лекин, далилларнинг янги турларини “Электрон далил” ёхуд “Рақамли далил” деб эътироф этишда олимлар гуруҳи томонидан турлича ёндашилмоқда.

Компьютер ва интернетдаги маълумотлардан жиноятларга қарши курашишда фойдаланиш, жумладан экстремизм билан боғлиқ жиноятлар мисолида кўрадиган бўлсак, сўнгги вақтларда аниқланган жиноятларнинг содир этиш усули сифатида интернет жаҳон ахборот тармоғи эканлигини кўришимиз мумкин.

Бу борада, хорижий давлатлар жумладан АҚШ, Туркия, Россия ва бошқа суд-тергов ҳуқуқи ривожланган давлатлар тажрибалари ўрганилганида, ижтимоий тармоқлардан профил ва унинг фойдаланувчисига оид маълумотларни олиш ва жиноят-процессуал

қонунчилик асосида ундан далил сифатида фойдаланиш амалиёти йўлга қўйилган.

Мисол тариқасида оладиган бўлсак, юқорида таъкидланганидек, юртимиз аҳолиси орасида кенг фойдаланиб келинаётган “Мета Platforms” корпорациясига тегишли “Facebook” ва “Instagram” ижтимоий тармоқларидаги профил фойдаланувчиси саҳифасида қонунга зид бўлган контентларни жойлаштириши натижасида ҳуқуқбузарлик содир этилганида, “Мета Platforms” ўзида мавжуд маълумотларни асослантилган **суд қарори** асосида ҳуқуқ-тартибот идораларига тақдим этади ва ушбу маълумотлардан рақамли далил сифатида фойдаланиб келинмоқда.

Бу бўйича “Facebook” ва “Instagram” платформаларида ҳуқуқ-тартибот идоралари учун тегишли тавсиялар ва кўрсатмалар бўлими мавжуд бўлиб, унда ҳамкорлик масалаларида тегишли давлатнинг расмий ҳуқуқ-тартибот идоралари томонидан суд қарори келтирилиши назарда тутилган [1].

“Мета Platforms” томонидан ҳуқуқ-тартибот идораларининг сўрови бўйича профил ва унинг фойдаланувчиси тўғрисида шахсга доир маълумотлар тақдим этилиши мумкин.

Ушбу маълумотлар улкан серверлар сақланишини инобатга олиб, улар доимий равишда сақланиб турмайди. Маълум муддат ўтганидан сўнг, эски маълумот ўрнига янгиси келиб тушганидан сўнг олдинги маълумотлар ўчириб юборилади. Бу эса, жиноий қилмишни исбот қилишда, ушбу маълумотларни олиш ва далил сифатида эътироф этиш масалаларини қонунчиликда мустаҳкамланишни тақозо этмоқда.

Россия Федерациясининг 1995 йилда қабул қилинган 144-ФЗ-сонли Федерал қонуни *(Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида)*га 2016 йил 6 июлда 374-ФЗ-сонли Федерал қонун билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчаларда 15-тезкор қидирув-тадбири сифатида **“Компьютер маълумотларини олиш”** тезкор-қидирув тадбири киритилган бўлиб, шахс ва фуқароларнинг дахлсизлигига бўлган конституциявий ҳуқуқларини чекловчи тезкор-қидирув фаолиятини *(шу жумладан, компьютер маълумотларини олиш)* етарли асослар мавжуд бўлганда **суд қарори** асосида ўтказилиши кўрсатиб ўтилган [2].

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, “рақамли далил” тушунчасини амалиётга жорий этиш орқали жиноятларни, жумладан экстремизм билан боғлиқ жиноятларни аниқлаш ва тергов қилишда компьютер серверида сақланаётган рақамли

далилларни қўлга киритиш, ундан исботлашда фойдаланиш бўйича тезкор-қидирув ва жиноят-процессуал қонунчиликни такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

КИБЕРЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ПРОКУРОР-КРИМИНАЛИСТЛАРНИНГ ЎРНИ

Ражабов Бекзод Халимович
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
катта ўқитувчиси
ТДЮУ мустақил изланувчиси

Аннотация: *Мақолада замон ва макон танламайдиган кибержиноятларни тергов қилишда, уларни фош этишда прокурор - криминалистлар институтининг ўрни, бу борада мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар ва жорий ҳолат таҳлил қилинган.*

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академиясида янги ташкил этилган Рақамли криминалистика илмий тадқиқот институти фаолиятини тартибга солувчи норматив – ҳуқуқий ҳужжатларда прокурор-криминалистнинг ҳуқуқий мақомига доир айрим муаммолар таҳлил қилинган.

Прокурор-криминалистлар фаолиятини тўғри йўлга қўйиш мақсадида, унинг ҳуқуқий мақомини такомиллаштиришга доир айрим таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *кибержиноятлар, ахборот технологиялари воситасида содир этиладиган жиноятлар, экспертиза, эксперт, эксперт-криминалист, прокурор-криминалист.*

Аннотация: *В статье анализируется роль института прокуроров-криминалистов в расследовании киберпреступлений, которые не выбирают время и пространство, реформы и текущая ситуация в нашей стране в связи с этим.*

Также в нормативных правовых документах, регламентирующих деятельность вновь созданного научно–исследовательского института цифровой криминологии при Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан, были проанализированы некоторые проблемы, связанные с правовым статусом прокурора- криминалиста.

Для того чтобы должным образом наладить деятельность прокуратуры-криминалиста, были внесены некоторые предложения по улучшению ее правового статуса.

Ключовые слова: *киберпреступления, преступления совершаемые с использованием информационных технологий, экспертиза, эксперт, эксперт-криминалист, прокурор-криминалист.*

Abstract: *this article analyzes the reforms and the current situation in the development of the institute of forensic-prosecutors.*

Also, in the regulatory legal acts, an analysis of some problems related to the legal status of the forensic-prosecutor was carried out and subsequently some proposals and considerations were put forward regarding the correct implementation of the activities of forensic-prosecutors and improving their legal status.

Key word: *cybercrimes, crimes committed using information technologies, examination, expert, forensic expert, forensic prosecutor*.

Жиноятлар содир этилиши борасидаги халқаро экспертлар таҳлилига кўра, ер юзида тахминан ҳар бир соатда 200 мингга яқин жиноятлар содир этилади”[1].

Кибержиноятлар XXI асрнинг энг муҳим жиноятларидан бири бўлиб, ушбу жиноятларни тергов қилиш самарадорлиги эса, атиги 0,05%ни ташкил қилмоқда[2].

Ушбу кўрсаткичлар таҳлили тергов соҳасини фан ва технологияларнинг янги замонавий ютуқлари билан қуроллантириб бориш лозимлигини талаб этмоқда.

Мамлакатимиз суд-тергов фаолиятини яхшилаш, тергов сифатини ошириш, суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтиришга қаратилган бир қатор ислоҳотлар амалга ошириб келинмоқда.

Жумладан, 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6041-сонли Фармонида, суд-тергов фаолиятини янада такомиллаштиришнинг асосий йўналиши сифатида процессуал ҳаракатларнинг сифатини ошириш, жиноят процессида далилларни тўплаш ва мустаҳкамлаш, уларга баҳо бериш тизимини илғор хорижий тажрибада кенг қўлланиладиган исботлаш стандартларини инобатга олган ҳолда қайта кўриб чиқиш белгиланган[3].

Шунингдек, Фармон билан прокуратура органларининг белгиланган штат бирлиги доирасида, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоят ва Тошкент шаҳар прокуратуралари тизимида прокурор-криминалист лавозимини жорий этиш ва Давлат бюджети параметрларида прокуратура органлари учун ажратилган маблағлар доирасида ва бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан прокурор-

[1] https://www.newsru.com/crime.

[2] Борба с киберпреступностью — что происходит с законом, когда закон не может быт приведен в исполнение? артислес/борба-с-киберпреступностью-что-происходит-с-законом-когда-закон-не-может-быт-приведен-в-исполнени.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6041-сонли Фармони//https://lex.uz/docs/4939467

криминалистларни замонавий махсус жиҳозлар билан таъминлаш чораларини кўриш назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон - 2030” Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон-2030” Стратегиясининг 87-мақсадида, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолиятини инсон манфаатлари, қадр-қиммати, ҳуқуқларини ҳимоя қилишга йўналтириш назарда тутилган.

2030 йилгача “Далилларни тўплаш ва мустаҳкамлаш фаолиятини замонавий технологиялар ва сўнгги илмий ютуқларни жорий қилиш орқали тўлиқ рақамлаштириш” 87-мақсадни амалга оширишнинг самарадорлик кўрсаткичи сифатида белгиланди.

Ушбу юксак мақсадларга эришиш ҳамда мамлакатимизда тергов сифатини оширишга қаратилган янги механизмларни жорий қилиш, жиноят ишлари бўйича судга қадар бўлган босқичда ечимини кутаётган процессуал муаммоларни ўрганиш ва қонунчиликдаги мавжуд муаммоларни ҳал қилиш, тергов органлари фаолиятида ўзига хос ўринга эга бўлган прокуратура органлари тизимида фаолият юритаётган прокурор - криминалистларнинг тергов сифатини оширишдаги ролини янада кучайтириш орқали мазкур мақсадларга эришиш мумкин.

Сўнги йилларда ахборот технологиялари соҳасида кўплаб жиноятлар содир этилаётганлиги, кибермаконда содир этилаётган жиноятларни фош этиш, тергов қилиш амалиёти прокурор – криминалистларни рақамли далиллар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириб уларни мунтазам равишда ошириб боришни тақозо қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 21 июндаги “Рақамли криминалистика соҳасида илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-229-сонли Қарори қабул қилиниши прокурор–криминалистлар институтининг тарихий ривожланишида янги босқични бошлаб берди.

Мазкур қарор асосида, Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Рақамли криминалистика илмий-услубий маркази негизида, Рақамли криминалистика илмий - тадқиқот институти ташкил этилиб, “Ихтисослаштирилган рақамли тадқиқот маркази”, “Рақамли терговга кўмаклашиш бўлими”, “Услубий ёрдам кўрсатиш бўлими” ва “Рақамли криминалистика лабораторияси” фаолияти йўлга қўйилди.

Институт таркибидаги марказ, бўлим, лабораторияда фаолият юритадиган янги прокурор-криминалистлар лавозимини жорий қилинди.

Уларнинг ваколатлари доирасига, рақамли криминалистика ва кибержиноятчиликка қарши курашиш соҳасига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, Бош прокуратура ҳайъати қарорлари, Бош прокурорнинг буйруқ, фармойиш ва кўрсатмалари, Академия бошлиғининг буйруқлари талабларини сўзсиз ижро этиш, рақамли криминалистика ва кибержиноятчиликка қарши курашиш соҳасига доир ўқув-услубий мажмуа ишлаб чиқиш, рақамли криминалистика ва кибержиноятчиликка қарши курашиш соҳасига доир ўқув-амалий машғулотларни сифатли ўтказилишини таъминлаш, рақамли криминалистика ва кибержиноятчиликка қарши курашиш соҳасига доир ўқув-услубий, илмий-амалий қўлланмалари, монографиялар ва диссертацияларга тақризлар бериш, фуқароларни қабул қилиш, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш ва қонунчиликни тарғиб қилишда иштирок этиш, рақамли криминалистика ва кибержиноятчиликка қарши курашиш фаолиятини такомиллаштириш жараёнига оид ҳисобот лойиҳаларини тайёрлаш, рақамли криминалистика соҳасида тадқиқотлар ўтказиш ва экспертиза хулосаларини тайёрлаш, тергов ҳаракатларида иштирок этиб, рақамли далилларни аниқлаш, олиб қўйиш, сақлаш ва тадқиқ қилиш бўйича тергов органларига амалий ёрдам кўрсатиш, рақамли далилларни йиғиш, таҳлил қилиш ва визуаллаштириш учун махсус дастурий воситаларни яратиш ва мавжудларини такомиллаштириш, рақамли далилларнинг яхлитлигини таъминлаш ва уларни сақлаш учун махсус воситаларни ишлаб чиқиш ва бошқа вазифаларни бажариш юклатилди[4].

Энди, прокурор-криминалистлар ананавий криминалистикага оид махсус билимларни пухта эгаллашидан ташқари, ахборот технологиялари, кибермаконда содир этиладиган жиноятларни фош этишга доир махсус билимларни эгаллашлари талаб этилади.

Кибержиноятларни, ахборот технологиялари воситалари билан содир этилаётган жиноятларни фош этишда, уларни аниқлашда, тергов ва тезкор-қидирув тадбирларини ташкиллаштиришда, экспертизалар тайинлаш ва ўтказишда прокурор-криминалистлар алоҳида ўринга эга бўлмоқда.

[4] Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси бошлиғининг 01.08.2024 йилдаги 59-Т-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясининг Рақамли криминалистика илмий-тадқиқот институти тўғрисида”ги НИЗОМнинг 23-банди.

Ҳозирги кунда прокурор-криминалистлар фаолиятини тартибга солувчи норматив - ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил қиладиган бўлсак, уларнинг фаолияти Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2021 йил 12 июлдаги 243-сонли буйруғи билан тасдиқланган «Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Прокуратура органлари тергов тармоқлари фаолияти устидан назорат бошқармаси тўғрисида»ги Низом[5] ва “Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси бошлиғининг 2024 йил 1 августдаги 59-Т-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясининг Рақамли криминалистика илмий-тадқиқот институти тўғрисида”ги Низом билан тартибга солинган.

Бироқ, ушбу ҳужжатларни бир-бирига мос равишда мувофиқлаштириш, Институтда фаолият кўрсатаётган прокурор-криминалист билан Бош прокуратуранинг Прокуратура органлари тергов тармоқлари фаолияти устидан назорат тармоғида (қуйи турувчи прокуратураларда) фаолият кўрсатаётган прокурор-криминалистларнинг фаолияти бўйича айрим мунозарали ҳолатни юзага келтирмоқда.

Бош прокурорнинг 243-сонли буйруғининг 15-хат бошида, бошқарма катта прокурор-криминалистига — тергов амалиётига илғор криминалистика–техника воситаларини, замонавий ахборот технологияларини, шунингдек, илмий ва экспертлик тадқиқотлари натижалари ҳамда хорижий тажрибани жорий қилиш юзасидан таклифлар тайёрлаши, терговда криминалистик техника воситаларидан, тергов ўтказишнинг илғор услублари ва илм-фан ютуқларидан самарали фойдаланилишини таъминлаши, мазкур соҳада мавжуд тизимли муаммоларни аниқлаш, бунга имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш чораларини кўриши, раҳбарият кўрсатмасига кўра оғир ва ўта оғир жиноятлар бўйича тезкор-тергов гуруҳлари таркибида иштирок этиши, жиноятларни фош этишга қаратилган кечиктириб бўлмас тезкор-тергов тадбирларини ўтказиши, жумладан ҳодиса жойини кўздан кечириш ҳамда далилларни аниқлаш ва олишда бевосита қатнашиши, прокуратура органларида мавжуд криминалистик-техника воситаларини ҳисобини юритиши, уларнинг бутлиги ва созлигини, шунингдек, улардан самарали фойдаланишни назорат қилиши, хизматда фойдаланиш учун зарур бўлган замонавий криминалистик техника

[5] Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорнинг 2021 йил 12 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Прокуратура органлари тергов тармоқлари фаолияти устидан назорат бошқармаси тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 243-сонли буйруғи.

воситаларига эҳтиёжини ўрганиб, тегишли таклифлар киритиши, қуйи прокуратуралар прокурор-криминалистларнинг фаолиятини мувофиқлаштириб бориши, уларга амалий ёрдам кўрсатиб, назорат қилиб боришни таъминлаш вазифалари юклатилган.

Фикримизча, Академияда янги ташкил этилган Институт прокурор - криминалистлари ваколатлари билан прокруатура органлари тергов тармоқлари фаолияти устидан назорат тармоғи прокурор-криминалистлари ваколатларини бир-бирига мос тарзда мувофиқлаштириш, прокурор-криминалистга хос бўлмаган айрим ваколатларни чиқариш мақсадга мувофиқ.

Жумладан, прокурор-криминалистлар экспертиза ўтказиш ваколатига эга бўлиши унинг ҳуқуқий мақоми нуқтаи назардан тўғри келмайди. Чунки, экспертизани шахсан эксперт мақомини олган, экспертлик вазифани амалга ошириш учун махсус малака ва рухсатномага эга бўлган муайян соҳа мутахассиси экспертиза ўтказиши мумкин.

Прокурор-криминалистга экспертиза ваколатини бериш фикримизча ноўрин бўлади, деб ҳисоблаймиз. Чунки, прокурор-криминалист ҳам терговда иштирок этиб, ҳам экспертизани ўзи ўтказиши ишнинг келгусида холисона олиб борилишига тўсқинлик қилишига, келгусида ўтказилган экспертиза тадқиқоти натижасида олинган далиллар бўйича суд томонидан ҳуқуқий баҳо берилишида айрим муаммолар келтириб чиқариши мумкин.

Келгусида, Рақамли криминалистика илмий-тадқиқот институтида фаолият юритадиган прокурор-криминалистлар экспертиза ўтказиш ҳуқуқини марказнинг бошқа ходимларига ёки прокурор-криминалист экспертиза ўтказиш ваколатига эга бўлган штатида фаолият кўрсатаётган ходимнинг лавозимни эксперт-криминалистга ўзгартириш ва прокурор-криминалист ваколатидан экспертиза ўтказиш ваколатини чиқариш таклиф қилинади.

Келгусида, бундай номувофиқликларни турли талқинларни олдини олиш мақсадида, прокурор-криминалистнинг процессуал ва криминалистик фаолияти бўйича уларнинг ҳуқуқий мақомини аниқ тартибга солишни назарда тутувчи нормаларни Ўзбекистон Республикаси “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунига, амалдаги Жиноят-процессуал кодексида қатъий белгилаш таклиф қилинади.

Шу билан бирга, прокурор-крминалистларнинг фаолиятини тартибга солувчи алоҳида Бош прокурорнинг янги буйруғини қабул қилишни лозим бўлади.

Прокурор–криминалистлар институтининг ривожланиш тенденцияларини амалга ошириш ва замонавий ҳолатини янги босқичга янада кўтариш учун мамлакатимиз томонидан қабул қилиниши кўзда тутилган янги Жиноят-процессуал кодексида унинг ҳуқуқий мақомини белгилаш, жиноят ишларини сифатли тергов қилинишини таъминлашда уни жиноят процессининг мустақил иштирокчиси сифатида қонунан мустаҳкамлашни лозим деб ҳисоблаймиз.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг прокуратура органлари тергов тармоқлари фаолияти устидан назорат бошқармасининг асосий фаолияти йўналишларидан бири бўлган криминалистик фаолият бўйича алоҳида штат ташкил қилиниши лозим бўлсада, 2020 йилда 28 сентябрдан бошқармадаги катта прокурор лавозими бошқарма катта прокурор-криминалистига ўзгартирилиб, ушбу штатга яна қўшимча иш ҳажми юклатилган.

Оқибатда прокурор-криминалистга юклатилган муҳим вазифалар ижросида муаммолар кузатилаётганлиги маълум бўлган.

Мазкур муаммоларни бартараф қилиш мақсадида, Бош прокуратурада прокурор-криминалистлардан иборат гуруҳ фаолияти юритиши учун ихтисослаштирилган “Криминалистика маркази”ни ташкил қилиш таклиф этилади.

Марказда замонавий криминалистика лабораторияси, терговнинг илғор техника ва технологияларидан иборат бўлган илмий-техник воситалар, терговчи, прокурор-криминалистлар жиноятларни фош этишда фойдаланиши учун янги замонавий техник жиҳозлари бўлган чемоданлар, рақамли далиллар қатнашган жиноят ишларининг фош этилиш ва терговига оид компьютер техника воситалар билан тўлиқ ҳажмда жиҳозлаш таклиф қилинади.

Сифатли терговни ташкил этиш орқали фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланади, жиноят ҳақиқатининг адолатли таъминланишига хизмат қилади.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ СОҲАСИДА КИБЕРХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ВА ҚЎЛЛАШ

Камалов Мадрасилла Эркинович
ИИВ Академияси рақамли технологиялар
ва ахборот хавфсизлиги кафедраси катта ўқитувчиси.

Аннотация: *ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни ривожлантириш ва қўллашни ўрганишнинг долзарблиги ахборот тизимлари кундалик ҳаётимизнинг ажралмас қисми бўлиши ва замонавий дунёда муҳимлигини ортишидир. Ушбу мақоланинг мақсади ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни ишлаб чиқиш ва қўллашни батафсил таҳлил қилишдир. Киберхавфсизликнинг асосий жиҳатлари, масалан, зарарли дастурлардан ҳимоя қилиш, тармоқ хавфсизлигига таҳдидлар, аутентификация ва маълумотларни шифрлаш, шунингдек, ахборот технологиялари хавфсизлигининг ташкилий жиҳатлари кўриб чиқилган.*

Таянч сўзлар: *киберхавфсизлик, ахборот кибержиноятлари, Internet, ахборот тизимлари, технологиялар, замонавий дунё.*

Аннотация: *актуальность изучения развития и применения кибербезопасности в сфере информационных технологий особенно важна в современном мире, где информационные системы являются неотъемлемой частью нашей повседневной жизни. Целью данной статьи является подробный анализ развития и методов применения кибербезопасности в сфере информационных технологий. Рассмотрены основные аспекты кибербезопасности, такие как защита от вредоносного программного обеспечения, угрозы безопасности сети, аутентификация и шифрование данных, а также организационные аспекты безопасности информационных технологий.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, информационные киберпреступления, Интернет, информационные системы, современный мир, технологии.*

Бугунги кунда глобал ахборот майдонида кибер макон билан боғлиқ янгидан-янги таҳдидлар юзага келмоқда. Шу боис виртуал оламдаги ҳужумлардан ҳимояланиш масаласи дунё ҳамжамиятини жиддий ташвишга солмоқда. Рақамли экотизимга таянадиган бугунги технологик ривожланган даврда киберхавфсизлик бўйича мустаҳкам чора-тадбирларни таъминлаш зарурати муҳим аҳамиятга эга. Кибертаҳдидлар табиатан турлича бўлиб, ўзаро боғланган тизимларимиздаги заифликлардан фойдаланишга доимо интилаётган зарарли шахслар сони ортиб бормоқда.

Компьютерлар сонининг кўпайиши ва Интернетнинг ривожланиши билан хавфсизликни бузиш билан боғлиқ янги таҳдидлар пайдо бўлмоқда. Кибержиноятчилар муҳим

маълумотларга рухсатсиз кириш учун тизимлар ва тармоқлардаги заиф томонлардан фаол фойдаланган ва фойдаланишда давом этмоқдалар.

Бу жисмоний шахслар учун ҳам, ташкилотлар ва давлатлар учун ҳам жиддий оқибатларга олиб келиши мумкин. Шунинг учун киберхавфсизликни ўрганиш ва қўллаш устувор вазифадир. Бу сизга маълумотларнинг оқиши ва рухсатсиз ишлатилишини олдини олиш, шунингдек тизимлар ва тармоқларни зарарли дастурлардан ва хакерлик ҳужумларидан ҳимоя қилиш имконини беради [2].

Ахборот технологиялари (АТ) соҳасида киберхавфсизликнинг муҳимлигини англаб етиш компаниялар ва ташкилотлар орасида тобора кўпайиб бу масалага катта эътибор берилмоқда. Ахборот ресурсларининг ишончли ҳимоясини таъминлаш учун киберхавфсизлик бўйича мутахассисларни ёлланган ҳолда махсус бўлимлар, бошқармалар очилмоқда. Бундан ташқари, киберхавфсизликни ўрганиш таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун янги усул ва технологияларни ишлаб чиқишга ёрдам беради. Кибержиноятчилар ўз усулларини доимий равишда такомиллаштириб борадилар, шунинг учун доимо олдинда бўлиш ва янги таҳдидларга мослашиш муҳимдир. Шундай қилиб, ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни ривожлантириш ва қўллашни ўрганишнинг долзарблиги аниқ. Бу бизнинг рақамли ҳаётимизни ҳимоя қилишга ва фойдаланувчилар, ташкилотлар ва давлатларнинг хавфсизлигини таъминлашга ёрдам беради [3].

Ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни ишлаб чиқиш ва қўллаш бизнинг давримизнинг энг долзарб вазифаларидан биридир. Интернет ва рақамли технологиялардан фойдаланишнинг кўпайиши туфайли киберхавфсизлик соҳасидаги таҳдидлар кенг тарқалиб янада жиддийлашмоқда. Киберхавфсизликни ривожлантиришнинг асосий мақсадларидан бири ахборот тизимларини ҳар хил турдаги киберҳужумлардан ва хакерлардан ҳимоя қилишни таъминлашдир [5]. Ахборот хавфсизлиги ахборот-коммуникация технологиялари ривожланишининг ажралмас қисми бўлиб ва турли ахборот технологияларининг тизимлари ва веб-хизматларнинг ишончи ва барқарорлигига таъсир қилувчи асосий омиллардан бири эгалигини тушуниш муҳимдир.

Ахборот технологиялари соҳасидаги киберхавфсизлик нафақат техник ҳимоя воситаларини, балки ташкилий чора-тадбирлар, ҳуқуқий нормалар ва таълим дастурларини ҳам ўз ичига олган комплекс ёндашувга асосланади. Бироқ, асосий компонент киберҳужумларни аниқлаш ва олдини олиш учун инновацион

технологиялар ва усулларни ишлаб чиқишдир. Киберхавфсизлик бўйича мутахассислар маълумотларни шифрлашнинг янги алгоритмлари, бошқариш ва мониторинг тизимлари, шунингдек аутентификация ва фойдаланувчини идентификация қилиш усулларини яратиш устида ишламоқдалар. Шунингдек, улар фойдаланувчиларнинг хатти-ҳаракатларидаги заифликларни бартараф этиш ва махфий маълумотларнинг тарқалишини олдини олиш учун ижтимоий муҳандислик ва фишингга қарши янги тизимларни ишлаб чиқмоқдалар.

Киберхавфсизлик ландшафти доимо янги таҳдид ва муаммоларга мослашиб, ривожланиб боради. Корхоналар, жисмоний шахслар ва ташкилотлар учун ўзларининг киберхавфсизлик амалиётларида хабардор ва фаол бўлишлари жуда муҳимдир. Киберхавфсизлик соҳасидаги муҳим жиҳатларни ўрганиб чиқиб, биз хавф-хатарларга самарали қарши тура оламиз ва рақамли ҳимоямизни мустаҳкамлай оламиз.

Бироқ, киберхавфсизликнинг ривожланиши кибержиноят-чилик ривожланишидан ажралган ҳолда ривожлана олмайди. Кибержиноятчилар ўзларининг ҳужум усулларини доимий равишда такомиллаштириб борадилар ва шунинг учун ахборот хавфсизлигини доимий равишда янгилаб туриш ва такомиллаштириш зарур. Бу мутахассислар янги таҳдидларга тезда жавоб бериш ва уларнинг пайдо бўлишининг олдини олишнинг ягона йўли. Шундай қилиб, ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни ишлаб чиқиш ва қўллаш ахборот хавфсизлиги ва АТ инфратузилмасининг ишончли ишлашини таъминлаш учун зарур шартдир. Бу турли тузилмалар, жумладан, давлат идоралари, компаниялар, таълим муассасалари ва умуман жамиятнинг ҳамкорлигини талаб қилади. Фақат биргаликда ишончли ва хавфсиз ахборот маконини яратишимиз мумкин.

Инновацион технологиялар ва киберхавфсизликни қўллаш усуллари замонавий ахборот технологиялари соҳасида муҳим рол ўйнайди. Онлайн жиноятчилик ва хакерлик ҳужумлари кенг тарқалган дунёда ахборот хавфсизлигини таъминлаш ҳар қандай ташкилот ёки шахс учун заруратдир. Киберхавфсизликни таъминлаш учун ишлатиладиган инновацион технологиялардан бири бу сунъий интеллект (СИ) технологияси. Ва у ҳужумларни аниқлаш ва олдини олиш, шунингдек, шубҳали фаолиятни аниқлаш учун катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш учун ишлатилиши мумкин. Бу ташкилотларга таҳдидларга тезда жавоб

бериш ва мумкин бўлган даражада зарарли оқибатларни минималлаштириш имконини беради.

Яна бир инновацион техника-бу блокчейндан фойдаланиш. Блокчейн-бу маълумотларнинг хавфсизлиги ва ўзгармаслигини таъминлайдиган марказлаштирилмаган маълумотларни сақлаш тизими. Бу блокчейнни ахборот технологияларида ахборот хавфсизлиги учун идеал воситага айлантиради. Блоскчейн рақамли идентификаторларни сақлаш ва текшириш, шунингдек молиявий операцияларни амалга оширишда ёки махфий маълумотларни узатишда хавфсизликни таъминлаш учун ишлатилиши мумкин. Машинани ўрганиш (англ. machine learning, ML) технологиялари ҳам инновацион киберхавфсизлик техникасининг муҳим қисмидир. Машинани ўрганиш компьютер тизимларини маълумотлардаги нақшларни таниб олиш ва таҳлил қилишга ўргатади, бу эса таҳдид ва тажовузкорларни самарали аниқлаш имконини беради. Масалан, машинани ўрганиш тизимлари веб-трафикни автоматик равишда таҳлил қилиши ва хакерлик уринишлари ёки фишинг ҳужумлари каби шубҳали ҳаракатларни аниқлаши мумкин [2].

Ахборот технологиялари соҳасида киберхавфсизликни қўллашнинг инновацион технологиялари ва усуллари маълумотлар ва тармоқларни зарарли фаолиятдан ҳимоя қилишда муҳим рол ўйнайди. Сунъий интеллект, блокчейн ва машинани ўрганиш технологияларидан фойдаланиб, биз ахборот хавфсизлигини таъминлашимиз ва кибертаҳдидларга қарши самарали курашишимиз мумкин.

КРИПТОАКТИВЛАРНИ ТИЖОРАТДА ПОРА ЭВАЗИГА ОҒДИРИБ ОЛИШ ЖИНОЯТИНИНГ ПРЕДМЕТИ СИФАТИДА ТАН ОЛИШ МУАММОЛАРИ

Облакулов Давлат Олтинбоевич
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси ўқитувчиси, мустақил изланувчи

Бизга маълумки, жиноятнинг предмети жиноят таркибининг факультатив белгиси бўлиб, у жиноят таркибида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Профессор Н.И.Коржанский жиноят предмети бу –маълум бир моддий объект бўлиб, унда ижтимоий муносабатларнинг айрим жиҳатлари, хусусиятлари (жиноят объекти) намоён бўлади, унинг

таъсири орқали ушбу ижтимоий муносабатлар соҳасига ижтимоий хавфли зарар етказиладидеган таърифни берган[1].

Профессор А.В.Наумов эса, жиноят содир этиш воситаси сифатида жиноятчи томонидан жиноят содир этиш учун фойдаланадиган нарсаларни тушунишни таклиф қилади[2].

Шуни айтиш мумкинки, юқорида қайд қилинган таърифлар жиноят ҳуқуқи назариясида энг кенг тарқалган.

М.Усмоналиев жиноятнинг предмети - у туфайли ёки унинг муносабати билан жиноят содир қилинадиган объектив ҳаётда мавжуд бўлган моддий маънодаги нарсалардир[3] деб такидлайди.

Юқоридагиларга кўра, жиноят пердмети- моддий тусдаги нарса, жисм бўлиб, жиноят содир этаётган шахснинг жиноий қилмиши натижасида унга бевосита таъсир кўрсатилади. Шу билан бирга, жиноятнинг объекти билан предмети бир хил тушунча эмас, яъни жиноят предмети жиноят объекти каби ижтимоий муносабат ҳисобланмайди.

Жиноят ҳуқуқида пора предмети деганда одатда мансабдор шахс нима эвазига оғдирилаётгани ёки у хизмат юзасидан пора берувчи манфаатларини кўзлаб қандайдир хатти-ҳаракат содир этгани ёки содир этмаслиги учун қандай ҳақ олаётгани тушунилади[4].

Тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг предмети-нодавлат тижорат ва бошқа нодавлат ташкилот мансабдор шахсига турли усул ва йўллар билан бериладиган мулкий қийматга эга бўлган буюмлар, жумладан пул бўлиши мумкин.

Тижоратда пора эвазига оғдириб олиш предмети ҳақида гап кетганда бу борада қонун чиқарувчи ЖКнинг 192[9]- моддаси диспозитциясида бевосита кўрсатган моддий қимматлик ёки мулкий манфаатдорликнитушуниш мумкин.Демак, мазкур жиноят предмети мулкий манфаат хусусиятига ёки муайян қийматга эга бўлиши талаб этилади.

Бунда иккинчи томон (нодавлат тижорат ёки нодавлат ташкилот мансабдор шахси) ундан қандайдир мулкий ёки бошқача мулкий характердаги манфаат кўриши лозим. Агар нодавлат тижорат ташкилотининг ёки бошқа нодавлат ташкилотининг мансабдор шахсига бирор моддий қимматликлар берилмаса ёки

---

[1]Коржанский Н. И. Объект и предмет уголовно-правовой охраны. М., 1980.

[2] Наумов А. В. Российское уголовное право. Общая часть. М., 1997.

[3] М.Усмоналиев Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм) Дарслик. Т.: “Янги аср авлоди” 2005. Б.160.

[4] Зуфаров Р.А. Порахўрлик учун жиноий жавобгарлик. // Масъул муҳаррир: ю.ф.д.профессор М.Х.Рустамбоев. - Т/.ТДЮИ., 2004.Б.29

мулкий манфаатдор этилмаса ёки ушбу ташкилотлар мансабдор шахси шундай моддий ёхуд мулкий манфаатдор бўлмаса ушбу қилмишни Жиноят Кодексининг 192[9]-моддаси билан квалификация қилиб бўлмайди.

Қайд қилиш керакки, ЖКнинг 192[9]-моддасида кўрсатилган тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг предмети ЖКнинг 210-моддаси пора олиш ва ЖКнинг 211-моддаси пора бериш, шунингдек, ЖКнинг 213,214-моддалари ҳамда 192[10]-моддасида назарда тутилган жиноятларнинг предмети билан бир хил бўлиб, бунда пора предмети сифатида моддий қимматлик сифатида пул, қимматбаҳо қоғозлар, кўчар ва кўчмас мулк ҳуқуқини ўтказиш, моддий бойликлар, шунингдек, пора оладиганга қайтармаслик шарти билан, лекин мулкий моҳиятга молик бўлган (масалан, таъмирлаш, қурилиш, қайта тиклаш ишларини бажариш ва бошқалар) хизматлар пора предмети бўлиши назарда тутилган.

Шунга кўра, ЖКнинг 192[9]-моддаси диспозициясидан келиб чиқиб, жиноят предметига моддий бойликлар, мулкий фойда, мулкий тусга эга фойдани киритиш мумкин. Бунда:

а) ***моддий бойликларга*** (пул, қимматли қоғозлар, акциялар, облигациялар бошқа мулк, шу жумладан валюта қимматликлари, қимматбаҳо металлар, нодир тошлар, кўчар ва кўчмас мулклар (ЎзРес ФКнинг 83-моддасига асосан мол-мулк фуқаролик ҳуқуқлари объекти сифатида кўчмас мулкка ва кўчар мулкка бўлинади деб белгиланган) уй ҳайвонлари, жумладан от, чорва моллари, хусусан, қорамол, қўй, эчки ва ҳ.к.)

в) ***мулкий фойда*****:** бунда нодавлат тижорат ва бошқа нодавлат ташкилот мансабдор шахсига текин тарзда ва (ёки) очиқчасига ўта пасайтирилган нархда амалга ошириладиган турли хил хизматлар ва (ёки) моддий наф келтириш тушунилади (масалан, кам фоизли кредит бериш, қарзидан воз кечиш, бошқа шахслар олдидаги мажбуриятларни бажариш)

с) ***мулкий тусга эга фойда:*** масалан, йўл чипталар олиб бериш, шу жумладан санаторий ёки туристик йўлланмаси (бепул ёки арзон нархларда), автомашинага текин бензин, газ (метан, пропан) қуйиб бериш, автотранспорт воситасини текинга таъмирлаб бериш, автотранспорт воситаларини вақтинча фойдаланиш учун бериш, қурилиш, таъмирлаш, қайта тиклаш, реставрациява бошқа ишларини бажариш тушунилади.

Мулкий характердаги хизмат ҳар қандай ҳаракат ёки маълум бир пул қийматига эга бўлган, шунингдек, одатдагидек пуллик ва

шахсий бўлмаган ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш бўлиши мумкин. Шу билан бирга, мазкур хизмат натижасида баъзан мансабдор шахс моддий натижага эга бўлмаслиги мумкин. Масалан юридик ёки тиббий хизмат ёхуд бошқа консалтинг хизмат аммо шунга қарамай, у пора олганлар учун маълум бир харажат ва тўлов аҳамиятга эга ва шунинг учун у порахўрлик передмети сифатида қаралади.

Пора предмети мулкий ҳуқуқлар бўлган ҳолларда, бундай ноқонуний ҳақ олган мансабдор шахс бошқа бировнинг мол-мулкига ўз мулки сифатида эгалик қилиш ёки тасарруф этиш, қарздордан мулкий мажбуриятларни ўз фойдасига бажаришни талаб қилиш, ҳужжатиз қимматли қоғозлардан ёки рақамли ҳуқуқлардан фойдаланишдан даромад олиш ва ҳ.к. тушуниш мумкин.

Бу борада Л.П.Тумаркина яхши фикрни илгари суради, унга кўра, мулкий характердаги хизматни умумий тушунчасидан ушбу хизмат нархига ўтказиш керак деб ҳисоблайди. Тақдим этилаётган хизмат мулкий хусусиятга эга ва шунга мос равишда ушбу хизмат учун тўлов унинг нархи миқдорини белгилайди. Хизмат нархи ҳар доим нархнинг универсал эквиваленти, яъни пул орқали аниқланади[5].

Биз ҳам олимани фикрига қўшилган ҳолда шуни айтишимиз мумкинки, тижоратда пора эвазига оғдириб олишда мулкий характердаги хизматни пул кўринишида баҳоланиши жиноятни квалификациясига ҳам таъсир қилади.

Хусусан, дейлик пора эвазига уйни таъмирдан чиқарди, биз бу борада мутахссис хулосасаси асосида таъмирлаб бериш хизматини нархини аниқласак, бу кўп миқдор ва жуда кўп миқдор билан квалификация қилиш учун асос бўлади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 24 сентябрдаги 19-сонли “Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарорида жиноятни тавсифлаш пора миқдорига боғлиқлигини эътиборга олган ҳолда, ҳар қандай пора предметининг қиймати товарларнинг нархи, хизматларнинг ҳақи ёки тарифи асосида, улар бўлмаганда экспертлар хулосаси асосида аниқланади деб кўрсатилганлиги фикримизни тасдиқлайди.

Агар тижорат пора эвазига оғдириб олиш жинояти предмети муомаладан чиқарилган ёки муомалада чекланган мулк бўлса, у ҳолда ушбу ҳаракат ЖК махсус қисмининг тегишли моддалари

[5] Л.П.Тумаркина Уголовная ответственностьзакоммерческий подкупдиссертации на соискание ученой степеникандидата юридических наукМосква2007

бўйича қўшимча равишда жиноятлар мажмуи бўйича квалификация қилиниши керак. Масалан, ўқотар қурол, гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар кўринишидаги порахўрликни ноқонуний ўтказиш ёки олиш ҳолатларида, шунингдек, ЖК 247, 273-моддаларида назарда тутилган жиноят содир этилади.

Жиноят ҳуқуқ назариясида умуман пора предмети ҳақида фикрлар мунозарали бўлсада, бироқ мамлакатимиз Жиноят Кодексида моддий қимматликлар ёки мулкий манфаатдорлик пора предмети бўлиши мумкинлиги белгиланган.

Бироқ, адбиётларда иккита мансабдор шахс ўртасида ўзаро ёрдам кўрсатиш шаклидаги хизматлар ҳам пора предмети бўлиши мумкинлиги ҳақида фикрлар ҳам бор. Шунингдек, интеллектуал мулк ҳам пора предмети бўлиши мумкин деган фикрлар учрайди. Масалан, профессорлар Р.А.Зуфаров, Б.Д.Ахрароввa У.М.Мирзаевлар“интелектуал мулк порахўрлик жиноятларининг предмети бўлиши мумкин, деган фикрга қўшилиш мумкин, чунки бундай мулк ўз эгасига моддий манфаат келтириши мумкин.Пора сифатида интеллектуал мулкни қабул қилаётган мансабдор шахс, кейинчалик бундай интеллектуал мулкдан моддий манфаатдор бўлишини мақсад қилган ҳолларда бу мулк жиноятнинг предмети бўлиши мумкин”,- деб қайд қилади[6].

Юқоридақайд қилган Олий суднинг Пленум Қарорига асосан назаримизда интеллектуал мулкни баҳолаш қиймати мавжуд, шу сабабли, Р.А.Зуфаров, Б.Д.Ахраров, У.М.Мирзаевларнинг фикрлари асосли кўринади. Шунга кўра, биз ҳам интелектуал мулкни пора предмети деб қараш фикрига қўшиламиз.

Умуман олганда жиноят ҳуқуқида порахўрлик ва тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг предмети ҳақида баҳсли фикрлар мавжуд. Масалан, В.Е.Зварыгин, А.С.Кондаковлар ушбу жиноят предметига ҳар қандай бошқа мулк (саноат товарлари, озиқ-овқат, кўчмас мулк), шунингдек моддий хизматлар (дам олиш, ҳордиқ чиқариш, маиший эҳтиёжларни қондириш учун тўлов) киритади[7].

И.Кузнецова[8] тижоратда пора эвазига оғдириб олишжиноятининг предметисифатида пул, қимматли қоғозлар,

---

[6]Р.А.Зуфаров, Б.Д.Ахраров, У.М.Мирзаев Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор М.Х.Рустамбоев. - Т.:ТДЮИ.-2011.-272 б., Б.123.

[7] В.Е.Зварыгин, А.С.КондаковУголовно-правовые проблемы привлечения к ответственности за преступления коррупционной направленностина примере коммерческого подкупа//Экономика и Право 2021. Т. 31, вып. 4 С.647-653

[8] И.А.Кузнецова Ответственность за коммерческий подкуп Авторефератдиссертации на соискание ученой степеникандидата юридических наук Москва-2003

бошқа мулк ва мулкий характердаги хизматларни тан олади.Бундай ёндашувни профессор А.И.Рарога[9] билдирган.

Умуман олганда аксарият жиноят ҳуқуқий адабиётларда[10]ҳам тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг предмети сифатида пул, қимматли қоғозлар, бошқа мулк ва мулкий характердаги хизматларни тан олади.

Демак, қайд қилинган ишлардамазкур жиноятнинг предмети сифатида фақат мулкий ва мулкий характердаги хизматлар назарда тутилмоқда. Номоддий наф эса передмет доирасига киртилмаган.

Бироқ, олимлар орасида моддий ёки ҳарқандай наф ёки афзалликни тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг передмети бўлиши мумкин деб ҳисоблайдиганлари мавжуд. Масалан П.В.Никонов[11] тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятини пора предмети сифатида мулкий ва номулкий имтиёзлар (афзаллик)ни тан олишни таклиф қилади.

П.В.Никонов мазкур таклифни илгари суришда коррупцияга қарши халқаро стандартлар ва хорижий давлатларнинг тажрибаси инобатга олган.

Л.П.Тумаркина кўриб чиқилаётган жиноятнинг предмети номоддий мулк эҳтиёжларини қондиришга қаратилган ҳаракатлар ёки муайян фаолиятни амалга ошириш деб тушуниладиган мулкий бўлмаган имтиёзлар сифатида ҳам тан олиниши мумкин деб ҳисоблайди[12].

Е.Н.Карабанова порахўрлик предметига ҳар қандай ноқонуний афзалликларни, шу жумладан, номоддий афзалликларни, уларнинг

---

[9] Уголовное право России. Части Общая и Особенная: учебник / под ред.А. И. Рарога. — 10-е изд., перераб. и доп. — Москва: Проспект, 2018. —944 с. С.633-634.;

[10] Преступления в сфера экономика: учебник для академического бакалавриата/ под ред.Н.Г.Иванов.- М.: Издательство Юрайт, 2018,-168с.- Серия: Бакалавр. Академический курс. С.155-156.; Уголовное право. Особенная часть: учебник для прикладного бакалавриата/В.Б.Боровиков, А.А.Смердов; под ред. В.Б.Боровикова. 3-е. изд., перераб. и.доп. М: ИздательствоЮрайт 2016.-364 с.С.143-145; Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (постатейный): в 2 т. / А. В. Бриллиантов, Г. Д. Долженкова, Э. Н. Жевлаков [и др.]; под ред. А. В. Бриллиантова. — 2-е изд. — Москва: Проспект, 2017.Т. 2 -704 с; *Квалификация*деяния. Тактика и методика расследования коррупционных преступлений. Настольная книга следователя: учеб, пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению «Юриспруденция» и специальности «Правоохранительная деятельность» / [Д.И. Аминов и др.]; под ред. Н.Д. Эриашвили. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Юнити-Дана, 2019. - 319 с.С.98.

[11]П.В.Никонов Теоретические основы уголовно-правового противодействия преступлениям, связанным с дачей и получением взятки и иными видами незаконного вознаграждения Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук Москва – 2024 568 с.

[12] Тумаркина Л.П. Уголовная ответственностьзакоммерческий подкупдиссертации на соискание ученой степеникандидата юридических наукМосква2007

баҳоланадиган бозор қийматига эга ёки йўқлигидан қатъий назар киритиш керак деган ғояни илгари сурган[13].

Бу борада профессор Р.А.Зуфаровнинг фикрлари қизиқиш уйғотади, унинг фикрига кўра,пора берувчи фоҳишанинг жинсий (олим томониданбошқа сўз ишлатилган) хизматларига ҳақ тўласа, пора олувчи эса бу хизматлардан фойдаланса, буларни пора предмети деб эътироф этиш лозим. Биз биламизки, бундай фикр олимлар ва амалиётчилар ўртасида тўлиқ қўллаб-қувватланмайди, лекин ҳуқуқий адабиётларда ушбу назариянинг ҳам ўз тарафдорлари бор деб, профессор Р.А.Зуфаровўзининг фикрини В.М.Хомичнинг мансабдор шахсга аён бўлган ҳолда унга кўрсатилган жинсий хизматлари иктисодий жихатдан фойдали дейишга асослар етарли деган фикри билан асослайди[14].Аммо назаримизда профессор Р.А.Зуфаровнинг фикри баҳсли кўринади, чунки, биринчидан мамлакатимизда қонунан бунақа турдаги хизматнинг ўзи йўқ (бундан кейин бўлмаслигини истаймиз албатта), иккинчидан бизнингчабу ерда олим барибир мулкий характердаги тўловни, юқорида санатория ёки саёҳатга бепул чипта олиб бериш каби хизматни назарда тутмоқда холос.

Лекин агар тасаввур қиладиган бўлсак, пора берувчи аёл нодавлат тижорат ва бошқа нодавлат ташкилот мансабдор шахсига порани ўрнига жинсий хизмат таклиф қилса, пора олувчи эса бу хизматлардан фойдаланса, буларни пора предмети деб эътироф этиб бўладими йуқми мана буниҳақиқий баҳсли, айни пайтда мунозарали масала деса бўлади.

Агарда хизмат бўйича тобе бўлган аёлни у манфаатдор бўлган хизмат юзасидан ҳаракатларни бажариш ёки бажармаслик хавфи остида жинсий алоқа қилишга мажбурлаш Жиноят Кодекси 121-моддасига биноан аёлни жинсий алоқа қилишга мажбур этиш учун жавобгарликка асос ҳисобланади.

1884 йилда немис олими А.Фейербах "Порахўрлик тўғрисида"ги асарида пора предмети (шунингдек, тижоратда пора эвазига оғдириб олиш) "умуман шаҳвонийликни қондириш ва ўзи учун хизмат қиладиган ҳар қандай нарса бўлиши мумкин, деб

---

[13] Карабанова Е.Н. Пробелы российского законодательства, регламентирующего уголовную ответственность за коррупцию // Пробелы в российском законодательстве. 2015. № 5. С. 109-111

[14] Зуфаров Р.А. Порахурлик учун жиноий жавобгарлик. // Масьул муҳаррир М.Х. Рустамбоевюридик фанлари доктори, профессор. - Т/.ТДЮИ., 2004. 221 - б.// Р.А.Зуфаров Порахўрликка қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: назария ва амалиёт ю.ф.д илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси Т.:2005

таъкидлаган, бунда буюртма ваъдаси, пора бериш, хизмат учун тўлов шаклида унинг танасининг сўровчи бир хизмат" деган[15].

Жинсий хизматларни пора предмети сифатида тан олиш масаласи жиноят ҳуқуқи назариясида узоқ вақтдан бери кўтарилган. Айтганча, мутахассислар "жинсий хизматлар" ни пора предмети сифатида тан олиш имкониятини муҳокама қилмоқдалар. Бу борада В.В.Качалов[16] ҳамда юқорида қайд қилиб ўтганимиздек профессорР.А.Зуфаров[17]нинг (жинсий жиноятлар бўйича Ф.Тохиров ишларини кўриш мумкин[18]) ишларида батафсилроқ кўришимиз мумкин, аммо мамлакатимиз қонунчилигида номоддий ҳақ (жумладанжинсий алоқа қилиш) умуман порахўрлик жиноятининг, шунингдек, тижоратда пора эвазига оғдириб олишнинг передмети бўлмайди.

Шунингдек, пора предмети сифатида хусусан ижобий тавсиянома, тақриз, тавсиянома бериш, нашрда чоп эттириш, телевидения орқали намойиш этиш ва бошқалар бўлмайди.

Бу борада С.Д.Красноусов тижоратда пора эвазига оғдириб олишнинг предмети сифатида номоддий имтиёзлар ва афзалликларни тақдим этиш, масалан, лавозимга тайинлаш, диссертацияларни ҳимоя қилиш, чиройли серияли автомобил рақамларини беришни тан олади[19] .

Назаримизда реклама, диссертация учун ижобий тақризни, мақола ёки монография ёзиш, илмий асарларга ҳаммуаллифликка қўшилишни ҳам тижорат пора предмети сифатида қараш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Шунингдек, қайд қилиш лозимки, инста блогерлар томонидан ижтимоий тармоқда маҳсулотларни реклама қилиб беришни ҳам пора предмети сифатида қараш мумкин. Чунки, у ҳам мулкий хизматнинг бир тури ҳисобланади.

Кейинги вақтларда олимлар орасида баҳс-мунозараларга сабаб бўлаётган криптоактивларни пора пердмети сифатида киритилиши долзарб масалалардан бири бўлиб тирибди, бу борада миллий

---

[15] Приградов-Кудрин А. Нематериальная выгода и взяточничество // Право и жизнь. 1925. Кн. 7-8. С. 95.//Л.П.Тумаркина Уголовная ответственностьзакоммерческий подкупдиссертации на соискание ученой степеникандидата юридических наукМосква2007 С.52

[16] Качалов В. В. Сексуальные услуги как предмет взятки // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2016. № 4-2. С. 118—124.

[17] Р.А.Зуфаров Порахўрлик учун жиноий жавобгарлик. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор М.Х.Рустамбоев. - Т.:ТДЮИ.- 2004. 221б., / Р.А.Зуфаров Порахўрликка қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: назария ва амалиёт ю.ф.д илмий даражасини олиш учун ёзилган Дисс. Т.:2005

[18] Тохиров Ф. Жинсий жиноятлар ва уларни квалификация қилиш асослари. Монография. – Т.: ТДЮИ, 2006.

[19] Красноусов С. Д. Коммерческий подкуп какформа коррупции в частном секторе. М., 2014.С. 24

олимларимиздан Е.В.Коленко ўзининг тадқиқотида рақамли мулк ҳуқуқи ёки бошқа моддий манфаатлар (фойдалар) сифатида криптоактивлар пора предмети эканлигини аниқ тушунтириб берган[20]. Тадқиқотчи, криптоактивларни рақамли мулк ҳуқуқи ёки бошқа моддий неъматлар (фойдаларни) сифатида пора олиш ва бериш предмети деб эътироф этиш тўғрисидаги позицияни асослайди. Биз ҳам Е.В.Коленконинг илгари сурган фикрларига қўшиламиз, чунки бу ҳам пора бериш усулини олдини олишда долзарб масала ҳисобланади.

Шунга яқин фикрни профессор А.В.Куликов, О.А.Шелег[21], П.В.Никонов[22], М.М.Долгиева[23]каби олимлар ҳам билдириб, улар назарий жиҳатдан крипто-активларни порапредмети бўлиши мумкин деган хулосага келадилар.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.07.2018 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ва крипто-активлар айланмаси соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832-сонли Қарорига кўра, а)крипто-актив мулкий ҳуқуқ ҳисобланиб, маълумотларнинг тақсимланган реестридаги рақамли ёзувлар йиғиндиси бўлган қиймати ва эгасига эга; б)крипто-активлар айланмаси соҳасидаги фаолият турлари қуйидагилардан иборат: майнинг; крипто-активлар айланмаси соҳасидаги хизматлар провайдерлар фаолияти; в)майнинг бу ҳисоблаш операцияларини бажариш орқали маълумотларнинг тақсимланган реестрини юритиш, блокларнинг яхлитлигини яратиш ва тасдиқлаш фаолиятидир[24].Шунга асосан бизнинг назаримиздабуни предмет сифатида баҳолаш мумкин.Бундан ташқари, крипто-актив баҳолаш қийматига эга.

Шундай қилиб, биз юқорида мамлакатимиз жиноят қонунида тижоратда пора эвазига оғдириб олиш жиноятининг предмети моддий ҳақ, шу билан бирга мулкий тусдаги турли хил хизматлар бўлиши мумкинлиги белгиланганлигини кўриб чиқдик. Бироқ, коррупцияга қарши халқаро стандартларда, жумладан, БМТнинг

---

[20] Батафсилроқ қаранг: Е.В.Коленко “Пора олиш учун жавобгарлик: ЎзбекистонРеспубликаси жиноят қонунчилигини халқаростандартларни ҳисобга олган ҳолдатакомиллаштириш истиқболлари” мавзусида юридик фанлар бўйича фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Автореф. Т.:2023 Б.36

[21] А.В.Куликов, О.А.Шелег К вопросу расширения субъектного состава и предмета коммерческого подкупа (ст.204 УК РФ)//Криминалистъ. 2024. № 1 (46). С. 56—62 • Criminalist. 2024;1(46):56-62

[22] П.В.Никонов Теоретические основы уголовно-правового противодействия преступлениям, связанным с дачей и получением взятки и иными видами незаконного вознаграждения Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук Москва – 2024 568 с.

[23] М.М.Долгиева Теоретические основания уголовной политики в сфере оборота криптовалюты Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук Москва 2023

[24] https://lex.uz/docs/3806053 Кириш санаси 31.08.2024 йил

Коррупцияга қарши Конвенциясида, шунингдек, Шарқий Европа ва Марказий Осиё учун коррупцияга қарши бўйича Истанбул ҳаракат режаси 5-босқич мониторинг сўровномаларига кўра, “ноқонуний афзалликлар” термини остида номоддий неъматлар[25] ҳам пора предмети сифатида қаралиши лозимлиги белгиланган.

Ўзбекистон Республикасининг ФКга кўра, номоддий неъматлар жумласига: 1)интеллектуал фаолият натижалари; 2)хизмат ва тижорат сири; 3)шахсий номулкий ҳуқуқлар ва бошқа номоддий неъматлар; 4)шаън, қадр-қиммат ва ишчанлик обрўсини ҳимоя қилиш киритилган. Бу борада назаримизда тадқиқ қилаётган жиноятнинг предмети сифатида интеллектуал фаолият натижалари ҳамда тижорат сирини предмет сифатида қабул қилса бўлади, шахсий номулкий ҳуқуқлар ва бошқа номоддий неъматлар; шаън, қадр-қиммат ва ишчанлик обрўсини ҳимоя қилиш шахснинг бевосита ўзи билан боғлиқ бўлганлиги ҳамда уни шахсдан айри ҳолда мавжуд бўлмаслигини инобатга олиб, жиноят предмети сифатида қараш бизнинг фикримизча унчалик тўғри эмас.

Бу борада Ф.З.Джалилов ўзининг тадқиқотида интеллектуал фаолият натижалари, хизмат ва тижорат сири ҳам жиноят предмети сифатида қаралиши лозимлиги асослаган. Шунингдек, у жиноят предмети нафақат мулк ҳуқуқи асосида, балки фойдаланиш ва эгалик қилиш ҳуқуқи асосида ҳам берилиши мумкинлигини билдирган[26].

Юқоридаги фикрларни умумлаштириган ҳолда БМТнинг Коррупцияга қарши Конвенцияси талабларидан келиб, қолаверса, олимлар томонидан илгари сурилган фикрларни[27]таҳлил қилган

---

[25] Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси 81-моддасига кўра, фуқаролик ҳуқуқларининг объектларига ашёлар, шу жумладан пул ва қимматли қоғозлар, бошқа буюмлар, мол-мулк, шу жумладан мулкий ҳуқуқлар, ишлар ва хизматлар, ихтиролар, саноат намуналари, фан, адабиёт, санъат асарлари ва интеллектуал фаолиятнинг бошқа натижалари, шунингдек шахсий номулкий ҳуқуқлар ва бошқа моддий ҳамда номоддий бойликлар киради.

[26] Батафсилроқ қаранг: Ф.З.Джалилов “Давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилотёки фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органихизматчисининг мулкий манфаатдорлиги биланбоғлиқ жиноий жавобгарлик” мавзусида ю.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Автореф. Т.:2023 Б.8.

[27] И.А.Кузнецова Ответственность за коммерческий подкуп Автореф.Дисс. на соискание ученой степеник.ю.н. Москва-2003, Э.С.Шимшилова Преступления коррупционной направленности, совершаемые в коммерческих организациях уголовно-правовое и сравнительно правовое исследование 12.00.08. Автореф.к.ю.н М.2019, Д.А.Кононов Злоупотребление полномочиями и коммерческийподкуп: уголовно-правовая характеристикаДисс. на соискание ученой степеник.ю.н. Москва – 2016;П.В.Никонов Теоретические основы уголовно-правового противодействия преступлениям, связанным с дачей и получением взятки и иными видами незаконного вознаграждения Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук Москва – 2024 568 с.; Ф.З.Джалилов “Давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилотёки фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органихизматчисининг мулкий манфаатдорлиги биланбоғлиқ жиноий жавобгарлик” мавзусида ю.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Автореф. Т.:2023 Б.8;Е.В.Коленко “Пора олиш учун жавобгарлик: ЎзбекистонРеспубликаси жиноят қонунчилигини

ҳолда, ЖК 192[9]-моддаси бўйича қонунни қўллаш амалиётини яхшилаш мақсадида қуйидаги ўзгартиришларни киритиш таклиф қиламиз:

Биринчидан, ЖК 192[9]-моддаси биринчи қисм диспозициясида “моддий қимматликлар бериш ёки уни мулкий манфаатдор этиш” деган сўзларни “ноқонуний афзалликларни, яъни моддий ёки номоддий ҳақ ёки мулкий тусдаги иш, хизмат ёки бошқа имтиёзлар ёхуд бошқача нафни ваъда қилиш, таклиф қилиш ёки тақдим этиш” деган сўзлар билан алмаштириш;

Иккинчидан, ЖК 192[9]-моддаси иккинчи қисм диспозициясида “моддий қимматликлар олиши ёки мулкий манфаатдор бўлиши” деган сўзларни “ноқонуний афзалликларни, яъни моддий ёки номоддий ҳақ ёки мулкий тусдаги иш, хизмат ёки бошқа имтиёзлар ёхуд бошқача нафни талаб қилиш ёки қабул қилиб олиш” деган сўзлар билан алмаштириш;

Бу эса мазкур жиноятни номоддий наф орқали содир этилишини олдини олишда хизмат қилади. Қолаверса ушбу ўзгартиришлар орқали Жиноят Кодекси 192[9]–моддаси Коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги БМТ Конвенциясига мувофиқлаштирилган бўлади.

ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР БИЛАН ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА МУОМАЛА ҚИЛИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Мирзаходжаев Даврон Атхамович
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси криминалистика ва суд экспертизалари кафедраси катта ўқитувчиси.
mirzaxodjayevdavron@gmail.com

Аннотация *Мақолада гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилиш жиноятларининг ўзига хос хусусиятлари ва уларнинг ноқонуний айланмалари тўғрисида илмий асосланган маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *гиёҳвандлик, психотроп моддалар, ҳуқуқий онг, ҳуқуқ, жиноят, ёшлар.*

халқаростандартларни ҳисобга олган ҳолдатакомиллаштириш истиқболлари” мавзусида ю.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Автореф. Т.:2023 Б.36

Аннотация *В статье представлены научно обоснованные данные об особенностях преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ, а также о незаконных каналах их распространения.*

Ключевые слова: *наркомания, психотропные вещества, правовое сознание, право, преступление, молодежь.*

Annotation: *The article presents evidence-based data on the distinct features of criminal offenses involving the illicit trafficking and circulation of drugs and psychotropic substances*

Keywords: *Drug addiction, psychotropic substances, legal consciousness, law, crime, youth*

Мамлакат ўз келажагини ёшларнинг жисмоний ва маънавий жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етишида кўриши табиий ҳолдир. Давлат тараққиётининг ривожи ёш авлоднинг таълим, тарбия даражаси билан бевосита боғлиқдир. Бунга эришиш учун аввало, жамият аъзоларининг, шу жумладан, ёшларнинг сиёсий, ижтимоий, маънавий ва ҳуқуқий савияси юқори даражада бўлиши талаб этилади. Республикасмизда ёшларнинг баркамол ва комил инсон бўлиб, улғайишига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилмоқда. Бу борада Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Бугунги мураккаб замонда ёшларни жисмоний ва маънавий баркамол инсонлар этиб тарбиялаш биз учун ғоят муҳим вазифа бўлиб қолмоқда”-деб таъкидлаб ўтди.

Бугунги кунда ёшларимизнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга зарур шарт-шароитлар ва имкониятларни яратиб бериш борасида мустаҳкам ҳуқуқий база яратилган.

Парламент томонидан ёшларга оид 40 дан зиёд қонун ҳужжатлари қабул қилинган бўлиб, 30 дан ортиқ халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ратификация қилинган.

Шунингдек давлат раҳбари томонидан ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги саъй-ҳаракатларни тизимли асосда йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббуснинг илгари сурилиши Ўзбекистон тарихида ёшлар таълим-тарбияси бўйича яна бир янги босқични бошлаб берди.

Биринчи ташаббус – ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади.

Иккинчи ташаббус – ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган.

Учинчи ташаббус – аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган.

Тўртинчи ташаббус – ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган.

Бешинчи ташаббус – хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутади.

Бугунги кунда мамлакат аҳолисининг 40 фоизини 18 ёшгача бўлган болалар, 64 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этган Ўзбекистон учун баркамол авлодни тарбиялаш, уларга эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучи сифатида ишонч билдириш, шунингдек уларнинг ҳаётда, жамиятда тинчлик ва осойишталикни, жамоат тартибини сақлаш, ҳар қандай кўринишдаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашда фаол иштирок этишини таъминлаш қанчалик долзарб эканлиги барчамизга маълум.

Республикамизда ёшлар учун кенг имкониятлар яратиб берилаётганига қарамасдан, улар орасида носоғлом муҳит таъсирига тушиб қолаётган ёшларимиз ҳам учраб турмоқда. Айниқса ёшлар орасида кенг авж олиб бораётган гиёҳванд ва психотроп моддаларни истеъмол қилиш, унинг таъсирига тушиб қолиш ҳолатлари жуда аянчли ҳолатдир.

БМТ Бош Ассамблеясининг 1987 йил 7 декабрда қабул қилган резолюциясига биноан ҳар йили 26 июнда Халқаро гиёҳвандлик ва бангифурушликка қарши кураш куни (International Day against Drug Abuse and Illicit Trafficking) нишонланади. Таҳлилчиларнинг фикрича, гиёҳванд моддаларнинг кенг тарқалиши бир қатор ижтимоий муаммоларга сабаб бўлади. Яъни, демографик фожеаларни келтириб чиқаради, ижтимоий-иқтисодий ҳаётда жиноятчилик кўзга ташланади. БМТ Бош Ассамблеясининг тан олишича, кўрилаётган чора-тадбирларга қарамай, жаҳонда гиёҳванд моддалар ноқонуний савдоси муаммолигича қолмоқда. Бу муаммо ҳамон жиддий таҳдид сифатида кўрилади.

Статистик маълумотларга кўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига йўлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилаётган жиноятларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади. Шу боисдан, гиёҳвандликка қарши қурашни кучайтириш мақсадида, БМТ томонидан “Наркотик моддалар

тўғрисида”ги, “Психотроп моддалар” ҳамда “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши қураш тўғрисида”ги конвенциялар қабул қилинган.

Маълумотларга кўра, бир йилда 211 мингта ўлим айнан гиёҳвандлик оқибатида келиб чиқади. Европада гиёҳвандлик оқибатида ҳалок бўлаётганларнинг ўртача ёши 35 ёшни ташкил қилади.

Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш билан боғлиқ хасталикларга учраганлар сони дунё бўйича 29 миллион кишидан ортиб кетган. Гиёҳванд моддалар истеъмоли сўзсиз аҳоли соғлиғи ва жамоат хавфсизлигига тахдид сифатида кўрилади. Бир қатор мамлакатларда бу иллат жамиятнинг барқарор ривожланишига халақит бераётганидан асло кўз юмиб бўлмайди.

Жумладан, гиёҳвандларни даволаш учун катта миқдорда маблағлар сарфланади. Бу маблағлар давлат бюджетидан ажратилади. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига қараганда, бугунги кунда ҳар олти гиёҳванднинг биттаси даволаниш имкониятига эга экан. Уларни даволаш учун ажратиладиган сарф-харажатлар ўз йўлига, аммо уларнинг жамият ҳаётига таҳдид солишларини ҳам асло ёддан чиқариш керак эмас. Шу сабабли ҳам гиёҳвандлар соғлиқни сақлаш тизимидан ташқари ижтимоий ҳаётга ҳам муаммо яратувчи сифатида тан олинади.

Гиёҳвандликка қарши кураш доирасида гиёҳванд моддаларни ноқонуний савдосига чек қўйиш ҳам асосий вазифалардан ҳисобланади. Трансмиллий гиёҳванд моддалар савдосига қарши курашда халқаро хуқуқни муҳофаза қилиш ташкилотлари, жумладан, Интерпол, Жаҳон Божхона ташкилоти каби ташкилотлар ҳамкорликда фаолият юритишмоқда. Экспертларнинг фикрича, гиёҳванд моддалар ноқонуний савдо айланмаси бир йилда 300 миллиард доллардан 800 миллиард долларни ташкил қилади.

Гиёҳванд моддалар савдоси ва уюшган жиноятчилик Осиё, Африка, Лотин Америкаси мамлакатларининг иқтисодий, сиёсий барқарорлигига катта хавф солмоқда. Гиёҳвандлик замонавий ҳаётнинг энг хавфли кўринишларидан бири ҳисобланади. Ҳар куни гиёҳвандлик деб аталмиш қўрқинчли қармоққа минглаб одамлар тушиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикаси гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича халқаро ҳамжамият олдидаги ўз мажбуриятларини тўлақонли бажаришга алоҳида эътибор қаратмоқда. Ўз ортидан бошқа қора иллатларни ҳам етаклаб

юрадиган гиёҳвандлик балосига қарши курашишда юртимизда мустаҳкам ҳуқуқий асослар ишлаб чиқилган.

Мамлакатимиз 1995 йил февраль ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1961 йилдаги “Наркотик моддалар тўғрисида”ги Ягона Конвенцияси, 1971 йилдаги “Психотроп моддалар тўғрисида”ги ҳамда 1988 йилдаги “Гиёҳвандлик воситалар ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисида”ги Конвенцияларига аъзо бўлган.

Бундан ташқари, 1999 йилда Ўзбекистон Республикасининг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинган бўлиб, мазкур қонунга мувофиқ гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга зид равишда муомалада бўлишнинг ҳар қандай кўринишларига қарши жиноий жавобгарлик белгиланган.

Мамлакатимизда гиёҳванд моддалар савдоси ва истеъмолига қарши кескин чоралар кўрилаётган бўлса-да, бугун гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний айланиши энг хатарли ва долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Гиёҳфурушлар янги усул ва найрангларни қўллаб, заҳри қотилни сотиш ҳаракатларини давом эттиришмоқда, яъни Интернет тармоғи орқали наркотик воситалар, психотроп моддалар ёки уларнинг аналогларини тарқатиш ноқонуний олди-сотдиси билан шуғулланмоқдалар. Бугунги кунда ёшлар орасида турли хил таблетка, пастилка, сақич ва бошқа кўринишидаги наркотик моддаларни 150-300 сўмга таклиф қилиш ҳолатлари тез-тез учраб турибди.

Афсуски, ҳозирги кунда ёшлар орасида таркибида гиёҳвандлик воситалари бўлган (“Трамадол”, “Налбуфин”, ва ҳ.к.) психафаол “Лирика”, “Регапен”, “Галара” ва ҳ.к.) дори воситаларини истеъмол қилиш ҳолатларининг учраб туриши ҳамда ёшларимизнинг руҳан ва жисмонан соғлом бўлиб етишишлари, замонавий билим ва касбга эга бўлишлари учун барча шарт-шароитлар яратилиб берилган бўлишига қарамай, наркотик моддалар билан боғлиқ жиноятларни содир қилишлари ва гиёҳвандлик йўлига кириб кетаётганлиги ачинарли ҳолдир.

Ўзбекистонда бугунги кунда ёшлар ўртасида анъанавий гиёҳвандлик моддаларидан воз кечиб, айниқса, психотроп ва кучли таъсир этувчи моддаларни истеъмол қилиш ҳолатлари кўпаймоқда. Ҳозирги ёшларда трамадол ва янги пайдо бўлган тропикамид ва бошқа дорилари истеъмоли ҳам кучаймоқда. Улар таъсирида эса ёшлар томонидан оғир турдаги жиноятлар содир этилмоқда, ушбу

турдаги моддаларини ва бошқа турдаги моддаларини ижтимоий тармоқдан фойдаланиб, тарқатиб келмоқда. Айрим турдаги наркотик воситалар турли хил чой ва шифобахш ўтлар сифатида ниқобланиб сотилмоқда. Бундан ташқари, интернет орқали наркотик воситалари учун нақд тўловсиз бевосита учрашмасдан тўловларни амалга ошириш имконияти мавжуд.

Ҳозирги кунда ер юзидаги наркобизнесда айланаётган пул маблағи дунё аҳолисининг озиқ-овқат, кийим-кечак, турар-жой, таълим тизими ва тиббий хизматга сарфланаётган харажатларидан анча кўплиги билан фарқланиши ҳеч кимга сир эмас. Энг ачинарлиси, гиёҳвандлик оғир жиноятларнинг содир этилишига, оилалар ва миллат генофондининг бузилишига сабаб бўлмоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, дунёқараши эндигина шаклланиб бораётган, бор куч-ғайратини фақат билим олишга, изланишга, ҳунар ўрганишга сарфлаши керак бўлган бир пайтда, ўсмирларни алдов йўли билан гиёҳвандлик қурбонига айлантираётган кимсалар озми? Қанчадан-қанча оилаларнинг ёстиғини қуритаётган гиёҳвандликка қарши ҳар бир инсон ўзи курашмоғи, ташқи таъсирлардан ҳимояланмоғи лозим. Вояга етаётган фарзандларимиз ўтмиши қадим, тупроғи олтин, осмони мусаффо Ўзбекистоннинг келажак ворисларидир. Уларни мана шундай соғлом муҳитда, эзгу тушунчаларни юракларига жойлаб вояга етказайликки, ҳеч қанақа ташқи салбий хуружлар ва қора иллатлар ўпқони уларни ўзига жалб қила олмасин.

ДИНИЙ ЭКСТРЕМИСТИК ТАШКИЛОТЛАР ТОМОНИДАН КИБЕРМАКОНДА СОДИР ЭТИЛАЁТГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Каримов Ифтихор Ибрагимович
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Криминалистика ва суд экспертизалари
кафедраси катта ўқтувчиси
E-mail: karimov.i.i@proacademy.uz

Аннотация: *Мақолада диний экстремистик ташкилотлар томонидан кибермаконда яъни Интернет жаҳон ахборот тармоғи ва ижтимоий тармоқлар орқали экстремистик ғоялар акс эттирилган материалларни тарғиб қилиш, тарқатиш орқали ўз сафларига шахсларни жалб этиш ҳолатлари ортиб бораётгани, мазкур ҳолатларни терговга қадар текширув ва тергов вақтида олиш, исботлаш билан боғлиқ долзарб масалалари кўриб чиқилган. Мазкур турдаги*

жиноятларга қарши курашувчи ходимларни ахборот технологиялари соҳасидаги зарурий билимларини ошириш ва зурурий компьютер техник воситалар билан таъминлаш муҳим ҳисобланади.

Таянч сўзлар: *диний экстремизм, терроризм, кибермакон, Интернет, Ижтимоий тармоқлар, терговга қадар текширув, тергов.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальная проблема роста случаев вербовки людей в экстремистские организации посредством пропаганды и распространения экстремистских материалов в киберпространстве, в частности, в социальных сетях. Анализируются вопросы, связанные с обнаружением, фиксацией и доказыванием таких фактов в ходе досудебной проверки и судебного расследования. Отмечается важность повышения уровня знаний сотрудников, занимающихся противодействием такого рода преступлениям, в области информационных технологий, а также обеспечения их необходимыми техническими средствами.*

Ключевые слова: *религиозный экстремизм, терроризм, киберпространство, Интернет, социальные сети, досудебная проверка, судебное расследование.*

Annotation: *The article examines the growing trend of religious extremist organizations using the cyberspace, particularly social media platforms, to propagate extremist materials and recruit individuals. It delves into the pressing issues related to the detection, investigation, and proof of such activities during pre-trial investigations and trials. The article highlights the critical need to enhance the knowledge of law enforcement officers combating these crimes in the field of information technology and to equip them with the necessary computer tools.*

Keywords: *religious extremism, terrorism, cyberspace, Internet, social media, pre-trial investigation, investigation.*

Бугунги глобаллашув шароитида ахборот инсоният ҳаётининг ажралмас қисмига айланган. Шу сабабли ҳалқаро экстремистик ташкилотлар ўз сафларига шахсларни ёллашда интернет жаҳон тармоғидан кенг фойдаланиб келмоқдалар.

Маълумотларга кўра, Ўзбекистон аҳолисининг интернет хизматидан фойдаланувчилари сони 31 миллиондан ортиб, улардан 29,5 миллиони мобил интернетдан фойдаланади[99]. Бу албатта, мамлакатимизда ахборот-коммуникация технологиялари жадаллик билан ривожланаётганидан, фуқароларимизнинг ахборот олиш, сақлаш, тарқатиш каби конституцион ҳуқуқларини амалга оширишда сифатли алоқа тизимларидан фойдаланиш имкониятлари ривожланаётганлигидан далолат беради.

Бу эса Интернет бутун жаҳон ахборот тармоғида аҳолини экстремистик оқимлар таъсирига тушиб қолишларини олдини олиш

[99] Ш. Шерматов. Ўзбекистонда интернетдан фойдаланувчилар сони 31 миллиондан ошди. https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/15/internet-users. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 19.11.2023)

зарурлигини, ёшларнинг ахборотдан фойдаланиши учун соғлом муҳит яратиш лозимлигини кўрсатмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ёшларимизнинг қалби ва онгида мафкуравий иммунитетни кучайтириш билан боғлиқ вазифаларга тўхталиб: “Бу вазифаларни амалга оширишда биз асрлар мобайнида шаклланган миллий анъаналаримизга, аждодларимизнинг бой меросига таянамиз[100]”, – деб таъкидлаган эди.

Бугунги кунда, экстремизм хусусиятига эга бўлган ишлар бўйича қўзғатилган жиноят ишлари таҳлили мазкур турдаги жиноятларнинг 90 фоизи интернет ижтимоий тармоқлари орқали содир этилаётганлигини кўрсатмоқда.

Таҳлилларга кўра, ҳозирги кунда дунёда диний экстремистик ташкилотлар тарғиботи асосан интернет ижтимоий тармоқлари, хусусан Telegram (48 фоиз), Youtube (14 фоиз), Facebook (13 фоиз), Odnoklassniki (13 фоиз), Instagram (11 фоиз), WhatsApp (1 фоиз) каби ижтимоий тармоқлар, мессенжерлар ва видеохостинглар орқали фаол олиб борилмоқда. Бу ҳаракатлар миллий, диний адоватни қўзғатишга, шахсларни ўз жонига қасд қилишга ундашга қаратилган бўлиб, бунинг оқибатлари ўта хавфли ва ташвишлидир.

Ҳозирда интернет глобал тармоғида 40 мингдан ортиқ шахсларни ёлловчи экстремистик сайтлар мавжуд бўлиб[101], БМТ Бош котибининг сиёсий масалалар бўйича ўринбосари Жеффри Фелтманнинг сўзларига кўра, “Twitter” ижтимоий тармоғида ИШИД (Ироқ Шом Ислом давлати) ғоялари ва фаолиятини қўллаб-қувватловчи 50 минг атрофида аккаунт мавжуд, уларнинг ҳар бири ўртача мингта “ҳамфикр” ва “издош”га эга[102]. Шу билан бирга ижтимоий тармоқлар орқали ИШИДнинг “Ал-Фурқон” ва “Ал-Ҳаёт” медиа марказлари асосан араб, инглиз, немис, француз, рус, ҳинд, урду, бенгал, турк, курд ва бошқа яна бир қатор тилларда тарғибот-ташвиқот хуружларини амалга ошириб келмоқда[103].

Бу ҳолат мазкур турдаги жиноятлар юзасидан терговга қадар текширув ўтказиш ва тергов қилишда муайян қийинчиликларни

---

[100] Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 24.10.2022 yil)

[101] В Интернете около 40 экстремистских сайтов URL https://www.pravda.ru/news/society/82120-internet_ekstremistskikh_saitov_40_miroshnikov. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 19.07.2023)

[102] А.Федоров. О некоторих аспектах информатсионной политики игил в сотсиалних сетях. https://cyberleninka.ru/article/n/onekotoryh-aspektah-informatsionnoy-politiki-igil1-vsotsialnyh-setyah. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 03.02.2024)

[199] Forensic Investigation Processes for Cyber Crime and Cyber Space / K.K. Sindhu, R. Kombade, R. Gadge, B.B. Meshram// Proceedings of International Conference on Internet Computing and Information Communications. 2012.Vol. 16. P. 193-206.

- простота в эксплуатации инструментов для совершения киберпреступлений в связи с огромным количеством «инструкций», таких как: как написать вирусы, взломать сервер, создать фишинговое письмо и так далее, при этом каких-либо специальных познаний и опыта работы совершенно не нужно;

- повышенная анонимность совершенного киберпреступления и низкая раскрываемость. Так, согласно статистике в Узбекистане в 2023 году около 90% киберпреступлений осталось нераскрытым. «По статистике, из общего числа поданных заявлений лишь 3 % доходят до возбуждения уголовных дел. Ответственность за свои действия несут лишь 5—7 преступников, а значит, доля привлеченных к ответственности не составляет и 0,1 % всех имевших место киберпреступлений. Это порождает чувство полной безнаказанности у киберпреступников»[200] ;

- возможность нанесения огромного ущерба без больших материальных затрат. Так по уголовному делу №260003/2019-15PG, размер ущерба составил 438.217 долларов США;

- транснациональность преступления так как в большинстве случаев преступники находятся на территории других государств, что делает труднодостижимым сбор доказательств для изобличения преступников;

- особая подготовленность преступников, организованный характер действий, преступники делятся на подгруппы, которые выполняют строго отведенные роли (колл-центры, кодеры, скаммеры и т.д.). «Современный киберпреступник уже не пират-одиночка, а звено в серьезном криминальном бизнес-процессе»[201];

- интеллектуальный характер преступной деятельности, что означает использование умственных навыков вместо грубой физической силы. Хотя встречаются случаи формирования «силовых» групп, состоящих из *спортиков.* Киберпреступники «тщательнее планируют свою деятельность, дополняя ее специализированными техническими возможностями, поэтому в результате таких действий затрагиваются интересы большего числа жертв»[202]*;*

---

[200] Аналитический отчет Norton report 2013 [Электронный ресурс]. — URL: http://www.symantec.com/ about/news/ resources/ press_kits/detail.jsp?pkid=norton-report-2013 (дата обращения: 03.05.2014).
[201] *Унучек Р.С., Чебышев В.В.* Мобильные угрозы // Вопросы кибербезопасности. 2014. № 3(4). С.57
[202] *Глотина И.М., Шевчук И.С.* Киберпреступность – проблема без границ // Экономика АПК Предуралья. 2019. № 1. С. 32

- киберпреступление совершается в автоматизированном режиме (in automated mode) и атака может происходить в одно и то же время в нескольких местах по принципу все, везде и сразу;

- трудность раскрытия киберпреступлений «традиционными» средствами, в частности когда дело касается отмывания денежных средств через дропов посредством крипто-валютных бирж, найти самих организаторов почти нереально. Как отметили некоторые ученые «злоумышленник при совершении хищений использует мобильные устройства, сим-карты, банковские карты, личные кабинеты, электронные кошельки, иные технические средства и предметы, которые оформлены на несуществующих либо третьих лиц, не причастных к совершению преступления (полученные в результате утраты, продажи, передачи сим-карт, банковских карт, личной информации третьим лицам и т. п.)»[203];

- очень высокий уровень латентности. В некоторых случаях, особенно касательно внедрения вредоносных программ, потерпевшие не знают, что на них была произведена кибератака и их устройства могут быть использованы для кибершпионажа, перенаправления IP-адреса и сокрытия следов. Но, в большинстве случаев латентность может быть в двух видах: скрытая (отсутствие обращения жертвы ввиду нежелания, малого ущерба и т.д.) и скрываемая («укрытие» преступления путем отказа в регистрации преступления из-за статистики, квалификация деяния как непреступного с вынесением постановления об отказе в возбуждении уголовного дела и т.д.), что приводит к тому, что киберпреступники, чувствуя свое превосходство и безнаказанность совершают все более опасные преступные деяния. «По оценкам специалистов, от 85 до 97% компьютерных преступлений остаются не обнаруженными или о них не сообщается по различным причинам в правоохранительные органы»[204].

Противодействие киберпреступности предполагает координацию всех сил и средств, совершенствование как уголовного, так и уголовно-процессуального законодательства, повышение квалификации сотрудников, оснащение всех подразделений современным оборудованием. Без комплексного подхода невозможно говорить о возможности даже уменьшения киберпреступлений.

---

[203] *Макаров, Роман А., Александр А. Кузнецов.* 2020. «Следственная профилактика хищений с банковских карт, совершаемых дистанционно с использованием средств сотовой связи». Алтайский юридический вестник 4 (32): 144–150.

[204] *Амелин Р.В.* Компьютерная безопасность.URL: https:// docviewer. yandex.ru/view/757079236

ЯРАТИЛАЁТГАН ИМКОНИЯТЛАР ЭНГ АВВАЛО ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШГА ХИЗМАТ ҚИЛМОҒИ ЛОЗИМ

Мавлонов Авазбек
Ўзбекистон Республикаси
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
мустақил изланувчиси
avtoritet-353@mail.ru

Аннотация:*Мақолада муаллиф томонидан тезкор-қидирув фаолиятида шахснинг ҳуқуқи ва эркинликларини қонун билан кафолатланганлиги ҳамда бу борада олиб борилаётган қонун ижодкорлиги, амалиётга татбиқ этилган янги ўзгаришлар ҳамда бу борада амалга оширилиши зарур бўлган чора-тадбирлар, тезкор-қидирув тадбирлари доирасида ахборот-коммуникация технологиялари орқали кибермаконда олиб бориладиган мониторинг ва уларнинг натижаларидан фойдаланиш ҳамда бу борада қонун устиворилигига амал қилиш ва адолатни таъминлаш масалалари батафсил ўрганилади, тезкор-қидирув фаолияти билан боғлиқ бўлган ҳуқуқий муносабатларни тартибга солувчи норматив ҳужжатлар таҳлил қилинади.*

Шунингдек, «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Қонунга киритилган қўшимчаларга мувофиқ тезкор-қидирув тадбирларини ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда, шу жумладан кибермаконда ва унинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда ўтказиш жараёнида ваколатли давлат органлари томонидан шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиниши таъминлаш, бунинг учун кўрилиши лозим бўлган чора-тадбирлар хусусида фикр ва мулоҳаза юритилади.

Бундан ташқари, тезкор-қидирув фаолиятига ахборот-коммуниказия технологияларини қўллаш жараёнида ваколатли органлар ходимлари томонидан алоҳида аҳамият қаратилиши лозим бўлган омиллар юзасидан таклифлар берилади.

Якунда амалдаги қонунчилик нормаларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар энг аввало инсон ҳуқуқлари ва манфаатларига хизмат қилиш лозимлиги юзасида ҳулоса билдирилади.

Калит сўзлар. *Тезкор-қидирув тадбирлари, ахборот-коммуникация технологиялари, киберхавфсизлик, кибермакон, виртуал-муҳит, веб-ресурс, ижтимоий тармоқлар, шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонунийлик, адолат*

Мақсадимиз – адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш орқали халқимизни рози қилиш.
Ш.Мирзиёев

Сўнги йилларда мамлакатимизда фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш

борасида яхлит ва мукаммал ҳуқуқий тизим яратиш бўйича кўп ишлар қилинди ва бу борадаги ишлар ҳануз давом эттирилмоқда.

Қайд этиш лозимки, жамиятда ахборот ахборот-коммуникация технологияларининг ўрни тобора мустаҳкамланиб, улар қамраб олаётган соҳалар соат сайин кенгайиб бормоқда. Бунинг натижасида жамият ва давлатда юз бераётган ижобий ўзгаришларни санаб саноғига етиш имконсиз.

Сир эмаски, бу жараёнлар шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ваколатли ташкилотлар зиммасига қўшимча маъсулият ва жавобгарлик юклайди. Қонун ижодкорлиги соҳасида ҳам ўта ҳассос ва зийрак бўлишни талаб этади.

Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси томонидан 2024 йил 13 мартда қабул қилинган Қонун билан «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятчиликка қарши курашишнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашни, тезкор-қидирув тадбирлари ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда, шу жумладан кибермаконда ва унинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда ўтказилиши мумкин эканлигини белгилашни назарда тутувчи қўшимча ва ўзгартиришлар киритилганлиги юқоридаги фикримизга яққол мисол бўла олади.

Мазкур қонунга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Қонуннинг 14-моддаси «тезкор-қидирув тадбирлари ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилган ҳолда, шу жумладан кибермаконда ва (ёки) унинг имкониятларидан фойдаланилган ҳолда ўтказилиши мумкин» жумлалари билан тўлдирилди.

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 14 апрелда қабул қилинган «Киберхавфсизлик тўғрисида»ги Қонунининг 3-моддасида кибермакон — ахборот технологиялари ёрдамида яратилган виртуал муҳит эканлиги кўрсатиб ўтилган.

Таъкидлаш жоизки, ҳозирда аксарият инсонлар ўзларини ижтимоий тармоқлардан айро ҳолда тасаввур эта олмайдилар. Кун сайин бу жараён тобора кучайиб бормоқда. «Киберхавфсизлик тўғрисида»ги Қонуннинг 3-моддасидаги тушинтиришдан келиб чиқадиган бўлсак, ижтимоий тармоқларни ҳам кибермаконнинг ажралмас бир қисми сифатида айта оламиз.

«Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Қонунга киритилган қўшимчага мувофиқ эндиликда тезкор-қидирув фаолиятини амалга

оширувчи давлат органлари тезкор ишловда бўлган шахслар тўғрисида ижтимоий тармоқларда ва виртуал муҳитнинг бошқа ресурсларида, яъни кибермаконда сақланаётган ёки учинчи шахслар томонидан тарқатилган маълумотларни ҳам алоҳида тезкор-қидирув тадбирлари натижасида олинган маълумотлар сифатида тезкор қидирув ишига қўшиши мумкин бўлди.

Бундан англашиладики, бу турдаги маълумотлар тезкор-қидирув тадбирларини натижалари бўйича ўтказиладиган суриштирув ва дастлабки тергов жараёнларида ҳуқуқий жиҳатдан баҳоланиши шарт. Жорий этилган янги тартиб, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи давлат органларига тезкор-ишловда бўлган шахслар тўғрисида маълумотлар тўплашда бир қатор қулайликлар тақдим этсада, шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш масаласида бир қатор нозик масалаларни муҳокама майдонига олиб киради.

Жумладан, кибермаконда олиб бориладиган мониторинглар давомида шахснинг мамлакатимиз ҳудудида тарқатилиши таъқиқланган маълумотлар жойлаштирилган ижтимоий тармоқлардаги гуруҳлар ва каналларга аъзо эканлиги аниқланди.

Бу ҳолат тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи давлат органлари томонидан ушбу шахснинг бузғунчи ғоялар таъсирига тушган шахс сифатида тавсифланиши учун етарли асос деб қаралмаслиги лозим.

Шунингдек, оператив ишловда бўлган шахс тўғрисида кибермакондаги барча маълумотларни ҳам тезкор-қидирув ишига жамлашга яроқли бўлган маълумот сифатида қабул қилиб бўлмаслигига жиддий аҳамият бериш зарур.

Бундан ташқари, ахборот-коммуникация технологиялари орқали, шу жумладан кибермаконда ва унинг имкониятларидан фойдаланилган ҳолда ўтказиладиган тезкор тадбирлар натижасида тўпланган маълумотлар шахсларнинг айнанлиги, яъни олинган маълумотлар айнан тезкор ишловда бўлган шахсга тааллуқли эканлиги ёки айнан ўша шахс ҳақида эканлиги, нуқтаи назаридан синчковлик билан таҳлил қилиниши шарт. Яъни, тезкор тадбир давомида тезкор ходим ўрганишда бўлган ресурсларни таҳлил қилиш давомида профил ва аккаунтлар бир шахсга доир биографик маълумотлардан фойдланган ҳолда бошқа бир шахс ёки гуруҳ томонидан очилмаганлигига ишонч ҳосил қилиш лозим.

Яна шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, кўп ҳолларда фуқаро-лар ўзлари томонидан ахборот-коммуникация технологиялари

орқали тарқатилаётган маълумотларнинг мазмун ва моҳиятини англаб етмайдилар. Ҳорижий тилларда жозибали оҳангда куйланган қўшиқ ёки жимжимадор шаклларга эга бўлган каллиграфик ёзувларни асл мазмунидан мутлақо бехабар бўлган ҳолда ўзларнинг танишларига, қариндошларига, ҳамкасбларига шунчаки юбориш ёки кибермакондаги ўзларининг саҳифаларига жойлаштириш орқали ҳам тезкор-қидирув тадбирлари объектига айланиб қолмоқдалар.

Энг ачинарлиси, тезкор-қидирув фаолияти давомида аниқланган фуқаролар томонидан содир этиладиган юқоридаги каби хатти-ҳаракатлар айрим ҳолларда Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 156, 159, 244^1, 244^3-моддалари билан квалификация қилишга асос сифатида баҳоланмоқда.

Қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13-моддасида Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланиши белгилганган.

Шунингдек, Қомусимизнинг 20-моддасида давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши кераклиги, инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилиши мустаҳкамланган.

Шундай экан, тезкор-қидирув тадбирлари ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда ташкил этилганида энг аввало Қомусимизда белгиланган инсон ҳуқуқларига оид юқорида қайд этилган нормалар талабларига оғишмасдан риоя этилиши лозим**.**

Бунинг учун тезкор-қидирув тадбирлари давомида ахборот технологияларини қўллаган ҳолда кибермаконда олиб бориладиган мониторинглар давомида эътиборга тушган шахсларга нисбатан ҳар қандай турдаги жавобгарлик масаласи кўтарилишидан аввал ушбу шахсларнинг ахборот технологиялари сохасидаги билим ва кўникмалари ўрганилиши, турли ҳил ижтимоий тармоқлардан ҳамда бошқа веб-ресурслардан фойдалана олиш имкониятлари мутахассислар иштирокида ҳолисона баҳоланиши лозим.

Шунингдек, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширишга ваколатли бўлган давлат ташкилотлари ахборот-коммуникация соҳасидаги ўзларнинг техник имкониятларидан қатъий равишда қонун доирасида ҳамда шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини бузмаган ҳолда фойдаланишлари алоҳида назоратга олиниши зарур.

Ҳулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, мамлакатимизда криминоген вазиятни яхшилаш, жиноятчиликка қарши курашиш ва уларнинг олдини олиш, шунингдек, латент жиноятлар сонини камайтириш мақсадида амалга оширилаётган барча ислоҳотлар, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи давлат органларига берилаётган ҳуқуқлар ва яратилаётган ҳар қандай шарт-шароит ҳамда имкониятлар энг аввало инсон ҳуқуқ ва эркинликларига хизмат қилиш зарур.

ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЁРДАМИДА СУД-ЭКСПЕРТЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Абдувахоб Зулфуқоров
Ички ишлар вазирлиги Академияси Криминалистик экспертизалар кафедраси доценти юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Аннотация:*Мақолада суд экспертлик фаолиятида иновацион технологияларни қўллашга оид муаммоли масалалар кўриб чиқилган. “Технология” атамасининг мазмун-моҳиятидан келиб чиқиб, “суд экспертиза технологияси” атамасига таъриф берилган. Суд-экспертлик фаолиятининг ахборот таъминотига оид муаммоларини кўриб чиқиб ва давлат суд экспертиза муассасаларининг ижобий тажрибалари, шунингдек, экспертлик амалиёти ва суд экспертизаси асосларини ўқитиш жараёнларини янгича ёндашувлар асосида суд-экспертлик фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари таклиф қилинган.*

Калит сўзлар: *услуб, услубиёт, ахборот таъминоти, суд-экспертлик фаолияти, инновацион технологиялар, суд экспертиза технологияси, тадқиқот услублари, суд экспертизасининг ахборот таъминоти, суд экспертиза мутахассисликлари бўйича ўқитиш, суд экспертизасининг назарий ва ҳуқуқий асослари.*

Аннотация: *Рассмотрены проблемные вопросы применения инновационных технологий в судебно-экспертной деятельности. Исходя из содержания термина “технология”, дается определение термину “технология судебной экспертизы”. Рассмотрены проблемы информационного обеспечения судебно-экспертной деятельности и предложены направления совершенствования судебно-экспертной деятельности на основе положительного опыта государственных судебно-экспертных учреждений, а*

также новых подходов к процессам обучения основам экспертной практики и судебной экспертизы.

Ключевые слова: *метод, методика, информационное обеспечение, судебно-экспертная деятельность, инновационные технологии, технология судебной экспертизы, методы исследования, информационное обеспечение судебной экспертизы, обучение по специальностям судебной экспертизы, теоретико-правовые основы судебной экспертизы*

Abstract: *Problematic issues of application of innovative technologies in forensic activity are considered. Based on the content of the term "technology", the definition of the term "technology of forensic examination" is given. Problems of information support of forensic activity are considered and directions of improvement of forensic activity on the basis of positive experience of state forensic institutions, and also new approaches to processes of training in the basics of forensic practice and forensic examination are offered.*

Key words: *method, methodology, information support, forensic activity, innovative technologies, forensic technology, research methods, information support of forensic examination, training in forensic specialities, theoretical and legal foundations of forensic examination.*

Илм-фан ва техниканинг замонавий ютуқлари мамлакатимизнинг суд экспертиза институтида мустаҳкам ўрин эгаллайди. Инновацион технологиялардан фойдаланиш туфайли нафақат суд экспертизасининг турли йўналишлари, балки умуман суд-экспертлик фаолияти ҳам такомиллаштирилмоқда.

Маълумки, технология деганда (юнонча techne – маҳорат, санъат + logos – таълимот) – 1) ишлаб чиқаришнинг бирор соҳасида хомашё, материал, яримфабрикат ва ш.к.ларга ишлов бериш ёки қайта ишлаш, уларнинг ҳолати, хоссалари ва шаклини ўзгартиришда қўлланиладиган усуллар, методлар мажмуи; 2) хомашё ва материалларга тегишли ишлаб чиқариш қуроллари ёрдамида ишлов бериш усул ва йўллари ҳақидаги фан тушунилади[1].

Бундан келиб чиқадики, суд экспертиза технологияси – бу махсус билимларга асосланган, белгиланган кетма-кетликдаги операциялар, ҳаракатлар тўплами. Ушбу операция ва ҳаракатлар суд экспертига ҳал қилиш учун берилган вазифаларни бажаришда ашёвий далиллар – тадқиқот объектларини тадқиқ қилишда амалга оширилади.

Суд экспертизасида инновацион технологиялар – бу белгиланган вазифаларни юқори сифатли даражада амалга оширишга

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т – ҳарф. / Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев (раҳбар), Н.Тўхлиев, Э.Умаров, Д.Худойберганова, А.Ҳожиев. А.Мадвалиев таҳр.ост. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2013 й. – 81-б.

ёрдам берадиган янги усул ва воситалардан фойдаланишдир.

Маълумки, янги техник воситалар, услублар ва тадқиқот услубиётининг ишлаб чиқилиши ёки мавжудларининг такомиллаштирилиши ҳисобига мамлакатимизда суд экспертизаси жадал ва доимий равишда ривожланиб бормоқда. Бу каби ёндашув кўп сабабларга боғлиқ. Бу жиноятчиликнинг ўсиши, жиноят содир этишнинг янги усуллари, янги тадқиқот объектларининг пайдо бўлиши кабиларда намоён бўлади. Жиноят содир этишнинг янги шакллари қанчалик ғайриодатий бўлса, эксперт тадқиқотлари ҳам шунчалик мураккаб бўлади.

Шунинг учун экспертизаларнинг тадқиқот услубларига қўйиладиган асосий талабларга – услубларнинг илмий асосланганлиги (тўғри натижалар олиш нуқтаи назаридан услубларнинг ишончлилиги); услубларнинг рухсат этилганлиги (услубнинг қонунийлиги ва этика қоидаларига риоя этилиши, эксперт учун хавфсизлиги) ва янги услубларни ишлаб чиқишда амал қилиниши лозим бўлган бошқа бир қатор талабларга риоя қилиш керак. Шу муносабат билан суд-экспертлик фаолиятини такомиллаштириш мақсадларига эришишга амалий экспертлик фаолиятига янги усул ва услубларни жорий этиш жараёнларини таҳлил қилиш ҳам ўз ҳиссасини қўшади.

Суд-экспертлик фаолиятининг ахборот таъминотига оид муаммоларни кўриб чиқишда унинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, бу жараён назарий, услубий ва ташкилий асосларни, янги усуллар, услублар ва техник воситаларни ишлаб чиқиш, инновацион технологияларни ривожлантириш орқали доимий равишда такомиллаштирилиши керак.

Суд экспертизасининг ахборот таъминоти суд экспертизалари вазифаларини ҳал қилиш учун зарур бўлган тизимлаштирилган илмий-техник маълумотларни танлаш, тайёрлаш ва беришнинг илмий ташкил этилган ва узлуксиз жараёни бўлиши керак.

Экспертлик амалиётини такомиллаштириш йўналишларидан бири экспертизалар ўтказиш жараёнларини автоматлаштиришдир. Бу жараён экспертизаларни ўтказиш давомида керакли маълумотларни олиш, қайта ишлаш, узатиш ва улардан фойдаланиш жараёнларида суд экспертини бевосита иштирок этишдан қисман ёки тўлиқ озод қиладиган техник воситалар, математик усуллар ва фаолият дастурларидан фойдаланишдан иборат. Шу сабабли ахборотни қидириш, йиғиш, қайта ишлаш, сақлаш, таҳлил қилиш ва тақдим қилиш самарадорлигини

оширишга ёрдам берадиган автоматлаштирилган ахборот тизимларини суд-экспертлик фаолиятига жорий этиш ва фаолият юритишга зарурат мавжуд. Бу каби автоматлаштирилган тизимларнинг фаолияти вазифаси минимал даражада вақт, куч ва меҳнат сарфлаган ҳолда максимал натижага эришишдан иборат бўлган техник воситалардан фойдаланиш орқали суд-экспертлик фаолиятини ахборот билан таъминлаш самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

Суд-экспертлик фаолиятини такомиллаштириш йўналишларидан яна бири суд экспертлари томонидан амалий иш фаолиятида йўл қўйиладиган хатоларнинг олдини олишдан иборат. Шу боисдан турли хил хатоларни аниқлаш, шу жумладан суд экспертизаларини ўтказишдаги янги усуллардан фойдаланиш ёки улардан фойдаланишни қўйилган саволларнинг ижобий ҳал этилишига олиб келмаган даражада эътиборсиз қолдириш ҳолатларини аниқлаш мақсадида суд экспертизасининг турли соҳалари бўйича экспертлик амалиётини даврий равишда умумлаштириш ва таҳлил қилиш зарур бўлади. Бунда комплекс экспертизалар, олинган натижаларни баҳолаш ва уларни расмийлаштиришнинг тўғрилигига алоҳида эътибор бериш лозим.

Инновацион технологиялар кўплаб таркибий қисмлардан иборат бўлиб, улар орасида ахборот дастурлари муҳим ўрин тутади. Ушбу ёндашув мураккаб тадқиқот услублари қўлланиладиган экспертизаларнинг, суд экспертизаларининг янги турлари ва синфларини илмий таъминотининг аҳамиятини оширади, бу эса уларни бажариш учун юқори малакали мутахассислар ва тадқиқотчиларни талаб қилади. Шу муносабат билан экспертизаларнинг илмий даражасини ошириш, илмий кадрлар (илмий даража ва илмий унвонга эга мутахассислар) ва суд экспертларини тайёрлаш масалалари ҳам муҳим аҳамиятга касб этади.

Ўзига хос касбий фаолият бўлган суд экспертизасининг моҳиятидан келиб чиқиб, суд экспертларини ўқитиш ўзига хос хусусиятларга эга бўлади.

Суд экспертиза мутахассисликлари бўйича ўқитиш самарадорлиги ўқитувчининг касбий маҳорати ва тажрибасига боғлиқ бўлади. У нафақат янги эксперт усулларини, янги ўқув ва илмий адабиётларни, суд-экспертлик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ барча соҳаларни қамраб олган замонавий процессуал қонунчиликни билиши, балки амалиётчи ходимлар – экспертизаларни ўтказувчи суд экспертлари ҳамда экспертизаларни тайинловчи шахслар (органлар) билан доимий ҳамкорлик қилиши

керак.

Суд-экспертлик фаолиятида касбий маҳорат ва малака даражасини ошириш бир неча йўналишларни қамраб олади.

Муҳим аҳамиятга эга бўлган ушбу йўналишларда бири, суд экспертизасининг янги тадқиқот услублари ва услубиёти, янги техник-криминалистик воситалар базаси билан таниш, аниқ ўтказилаётган экспертизаларни ўрганиш имконини берадиган ўқитувчиларнинг суд экспертиза муассасасида амалиёт ўташи ҳисобланади. Бу каби стажировкаларда махсус атамаларни, эксперт хулосаларининг якуний жавоблари шакли ва уларнинг қанчалик асосли ва ишончли эканлигини, ушбу якуний хулосаларни тасдиқловчи фотосуратларни ҳамда суд экспертлари билан аниқ бир турдаги суд экспертизаларини ўтказишда мавжуд бўладиган бошқа кўплаб ижобий ва салбий жиҳатларни муҳокама қилиш фойдалидир.

Ушбу ёндашув ўқитувчига суд экспертларини ўқитиш жараёнида, амалиётчи суд экспертига – суд экспертизаларини ўтказиш жараёнида ягона тактикани ишлаб чиқишга имкон беради. Шубҳасиз, стажировка жараёнидаги норасмий самимий мулоқот ҳар икки томонга ҳам ижобий таъсир кўрсатади ва фойда келтиради. Шунинг учун ўқитувчининг экспертлик амалиёти билан билан танишиши ва амалий фаолиятни ўрганиши чуқур ва мазмунли бўлиши керак.

Суд экспертизасининг турли йўналишлари бўйича мутахассисларни ўқитиш самарадорлигини ошириш учун ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари, бошқа турдош муассасалар ва халқаро ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорлик ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Республикамизнинг барча давлат суд экспертиза муассасаларида ушбу йўналишда ижобий тажриба мавжуд. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси маркази “лабораторияларини халқаро стандартларга мослаштириш мақсадида, 2020 йилда БМТнинг гиёҳвандлик ва жиноятчиликка қарши курашиш бўйича Марказий Осиёдаги минтақавий ваколатхонаси кўмагида “Тадқиқот ва калибровка лабораториялари ваколатига қўйиладиган умумий талаблар” ISO/IEC 17025 халқаро стандартига мувофиқ аккредитация қилиниб, мувофиқлик сертификатига эга бўлди. Мазкур аккредитация марказга тадқиқотларни халқаро стандартлар даражасида бажариш имконини беради, бу эса олинган натижаларнинг барча томонлар ва

иштирокчилар томонидан тан олинишини таъминлайди. Яъни ISO 17025 стандарт талаблари бўйича халқаро аккредитациядан ўтиш лабораториялар томонидан берилган тадқиқот натижаларининг (хулосаларнинг) халқаро миқёсда шубҳасиз тан олинишини, фуқароларнинг бузилган ҳуқуқ ва манфаатлари ишончли ҳимоя қилинишига ва одил судлов таъминланишига хизмат қилади”[2].

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси маркази бугунги кунда нафақат экспертиза тадқиқотларини ўтказиш билан, балки амалиётга янги экспертиза турларини жорий қилиш, давлат ва нодавлат суд экспертларини қайта тайёрлаш, ҳуқуқий билимларини ошириш ҳамда судлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга махсус билимларни қўллаш йўли билан кўмаклашиш бўйича ҳам фаолият кўрсатиб келмоқда. “Марказда суд экспертизасини ривожлантиришнинг замонавий босқичида биринчи навбатда экспертиза тадқиқотлари сифатига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Кўплаб хорижий давлатлардаги аксарият экспертиза лабораторияларида сифатни таъминлаш ва назорат қилиш мақсадида ISO/IEC 17025 халқаро стандартига мувофиқ сифат менежменти тизимлари жорий этилгани каби Марказда бу борада тегишли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, “Синов ва калибрлаш лабораториялари компетентлигига умумий талаблар” деб номланган, лабораториялар томонидан ишлаб чиқилган усуллар, стандарт ва ностандарт усуллар бўйича ўтказиладиган текширувлар ва калибровкаларга бўлган умумий талаблар ўрнатилган. Бундан ташқари, БМТнинг наркотиклар ва жиноятчилик бошқармасининг Марказий Осиёдаги минтақавий ваколатхонаси кўмагида Марказнинг 2 та лабораторияси, жумладан Одам ДНКси суд биологик экспертизаси ва Материаллар, ашёлар ва буюмлар криминалистик экспертизаси лабораториялари ўтган йили халқаро аккредитациядан ўтди. Ҳозирги пайтда Марказнинг яна 2 та лабораторияси, жумладан Ҳужжатлар криминалистик экспертизаси ва Суд-фонография экспертизаси лабораторияларини халқаро аккредитациядан ўтказиш бўйича тайёргарлик ишлари олиб борилмоқда”[3].

Х.Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси марказида Халқаро ҳамкорлик соҳасида ҳам бир қатор ижобий

[2] А.Халилов. Суд экспертизасида янги одимлар / “Ўзбекистон суд экспертизаси” ҳуқуқий, ижтимоий, илмий-амалий журнали, 2021 й., (1) №1. – 2-5-б.

[3] У.Х.Узаков. Республика суд экспертизаси маркази: бугунги кун ва истиқболи. / “Ўзбекистон суд экспертизаси” ҳуқуқий, ижтимоий, илмий-амалий журнали. 2021. (1) №1. – С.102-105.

ишлар амалга оширилиб, бир қатор хорижий суд экспертиза муассасалари билан ҳамкорлик ўрнатилиб, меморандумлар имзоланган. Жумладан, “Суд-экспертиза соҳасида халқаро ҳамкорликни кенгайтириш Марказнинг муваффақиятли ривожланишининг муҳим кафолати ҳисобланади. Чунончи, халқаро тажриба соҳа ривожланишининг интеграцион хусусиятга эгалигини кўрсатмоқда. Бу борада ҳозирги вақтда Европа суд экспертиза муассасалари тармоғи (ENFSI) ёки Осиё суд-экспертиза тармоғи (AFSN) каби бир қатор минтақавий халқаро суд-экспертиза жамиятлари, жаҳон миқёсида Суд-экспертиза халқаро ассоциацияси (IAFS) фаолият кўрсатмоқда. Шунингдек, дунё миқёсида катта нуфузга эга бўлган Суд-экспертиза фанлари Америка академияси (AAFS) номини алоҳида эътироф этиш лозим. Марказ Корея Республикаси, Япония, Малайзия, Сингапур, Хитой, Қозоғистон каби давлатларни ўзида жамлаган нуфузли Осиё суд-экспертиза тармоғига аъзо бўлиш, Европа суд экспертиза муассасалари тармоғи билан ҳамкорлик ўрнатиш йўлида дадил қадамлар ташламоқда”[4].

Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари суд экспертларини учун ташкил қилинаётган ўқув жараёнларида, тегишли семинар ва амалий машғулотларда қатнашадилар, ташкил этилаётган илмий-амалий анжуманлар, давра суҳбатлари, илмий-амалий семинарларга таклиф қилинадилар. Бу жараёнларда суд экспертизаларини тайинлаш ва ўтказишнинг процессуал жиҳатлари, тадқиқотлар ўтказиш учун зарур бўлган материаллар, шу жумладан таққослаш учун намуналар билан таъминлаш билан боғлиқ муаммоли масалаларни муҳокама қиладилар. Бундай учрашувлар суд экспертларини ўқитиш ҳамда алоҳида ўқув тергов ҳаракатларини (турли изларни аниқлаш ва уларни белгиланган тартибда олиш мақсадида ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш, ҳодиса содир бўлган жойда эксперт экспериментини ўтказиш ва ҳоказо) ўтказиш самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

Таълим билимларни ўзлаштириш, кўникма ва малакаларни эгаллаш бўйича ўқитувчи томонидан бошқариладиган жараёни

[4] Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд-экспертиза марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти тўғрисида низом. / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 22-ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х. Сулаймонова номидаги Республика суд-экспертиза марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 704-сон қарори.// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.11.2021-й., 09/21/704/1079-сон; 14.07.2022-й., 09/22/385/0643-сон.

эканлигини ҳисобга олган ҳолда таъкидлаш жоизки, суд-экспертлик фаолиятида касбий маҳорат ва малака даражасини оширишга нисбатан яна бир ёндашув тайёр шаклланган билимларни дарсликлар, ўқув қўлланмалари ҳамда турли дидактик воситалар ва техникалар ёрдамида беришдан иборатдир. Билим олиш ва тегишли маълумотларни, айниқса янги адабиётларни самарали идрок қилиш жараёнини оқилона бошқариш, нафақат билимлар ва адабиётларни ўрганиш учун тавсия этиш, балки ҳар бир манба учун кенгайтирилган изоҳларни тайёрлаш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу тингловчи ва талабаларга адабий манбалар мазмунини тўғри идрок этиш имконини беради.

Суд экспертларини ўқитишда ўқитувчилик маҳоратини оширишга ҳисса қўшадиган яна бир йўналишни қайд этиш лозим – бу криминалистика ва суд экспертизаси фанлари бўйича маърузалар ўқийдиган ўқитувчиларнинг ўзаро ҳамкорлигидир. Суд экспертизаси бўйича фанлар мустақил ўқув фани сифатида криминалистика фанидан анча кейинроқ ва фақат бир нечта олий тиаълим муассасаларида бошланганлиги сабабли айрим мавзулар ҳали-ҳануз “Криминалистика” фани доирасида, хусусан, унинг “Криминалистик техника” бўлими ўқитилмоқда. Худди шу мавзулар анчагина чуқурроқ тарзда “Суд экспертизаси” фани доирасида ўрганилиши лозим. Масалан, ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш ва уни терговчи томонидан ўтказиш тактикаси ва мутахассиснинг (экспертнинг) худди шу тергов ҳаракатида иштирок этишига оид мавзулар. Ушбу процессуал субъектларнинг ўзаро ҳамкорлиги бир-бирларини тўлиқ тушуниш асосида амалга оширилиши керак, уларнинг ҳаракатлари аниқ мувофиқлаштирилиши керак. Шунинг учун ўқитувчилар мавзуга оид маълум бир материални тингловчи ва талабаларга тақдим этиш бўйича умумий фикр ва қарашларга эга бўлишлари керак.

Ўқув жараёнининг ҳар томонлама бўлишини таъминлаш учун ўқитувчи янги эксперт усулларини, нафақат ўқув, балки илмий адабиётларни ҳам билиши, янги педагогик технологияларни ишлаб чиқишда шахсан иштирок этиши ва уларни (масалан, интерактив доскалар, мултимедиа воситаларини ва ҳоказо) ўқув жараёнларига татбиқ қилиши керак.

Суд экспертизасининг назарий ва ҳуқуқий асосларини самарали ўқитиш ва ўргатиш учун суд экспертизаларининг турлари ҳамда мутахассисликларнинг йўналишлари бўйича махсус дарсликлар, услубий ва ўқув қўлланмаларини тайёрлаш ишларини тизимли давом эттириш керак.

Бундай ўқув ва илмий нашрларни тайёрлашнинг самарали шакли бу ўқитувчи ва давлат суд экспертиза муассасаси етакчи мутахассисининг биргаликдаги ноширлик фаолияти ҳисобланади. Муайян ўқув ёки илмий асарни ёзишда бундай биргаликдаги фаолият бир-бирини муваффақиятли тўлдиради ва шубҳасиз эксперт мутахассислигининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6256-сонли Фармони асосида қабул қилинган Ҳукуматимизнинг қарорларига кўра, мамлакатимиз тарихида илк маротаба Х.Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти фаолияти ташкил этилган. Қуйидагилар институтнинг асосий вазифалари ҳисобланади:

суд экспертизаси соҳасида илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш; давлат суд экспертиза муассасалари ва нодавлат суд экспертиза ташкилотларига илмий-услубий кўмак бериш; суд-экспертлик вазифаларини ҳал қилишнинг илмий асосларини такомиллаштириш ва ягона илмий-методик ёндашувларни ишлаб чиқиш; суд, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, таълим муассасалари ва илмий ташкилотларга услубий ёрдам кўрсатиш; суд-экспертлик фаолиятига фан ва техника ютуқларини жорий этиш бўйича чораларни кўриш; суд экспертизаси соҳасидаги тизимли муаммоларни комплекс ўрганиш ва уларни ҳал этишга доир илмий асосланган таклифлар ва таъсирчан механизмларни ишлаб чиқиш; ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва судларнинг малакали суд экспертиза хулосаларига бўлган эҳтиёжларини доимий равишда ўрганиш орқали суд экспертизасининг янги турлари ҳамда услубиётларини ишлаб чиқиш ва босқичма-босқич амалиётга татбиқ этиш бўйича таклифлар киритиш; суд экспертизаси соҳасига ривожланган ахборот технологиялари ва инновацияларни кенг жорий қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш”[5].

[5] Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд-экспертиза марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти тўғрисида низом. / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд-экспертиза марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 704-сон қарори.// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.11.2021 й., 09/21/704/1079-сон; 14.07.2022 й., 09/22/385/0643-сон.

Ушбу йўналиш учун муҳим ҳисобланган “Суд экспертизалари ҳисоби тизими” ва “Электрон таълим платформаси” жорий этилиб, аҳолига суд-экспертлик соҳасига доир маълумотларни тезкор етказиш мақсадида “sud ekspert.uz” ахборот портали, экспертиза учун тақдим этилган ашёвий далилларни идентификациялаш дастури фаолиятга татбиқ этилган. Бундан ташқари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, судлар ва суд экспертиза муассасаларининг ўзаро ҳужжат айланишини ва унинг хавфсизлигини таъминлаш учун тегишли вазирлик ва идоралар билан ҳамкорлигида “E-ekspertiza” электрон ахборот тизими фаолиятимизга татбиқ этилган.

Юқорида таъкидланган амалиётчи суд экспертлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар вакиллари ҳамда ўқитувчиларнинг ўзаро ҳамкорлигининг устувор йўналишларига қуйидагилар киради:

турли хил тўпламлар, ахборот фондларини мунтазам равишда тўлдириб бориш ва фаолиятда фойдаланиш; суд экспертиза муассасаларининг амалий фаолияти учун криминалистик техниканинг янги (шу жумладан қўшма) ишланмаларини яратиш ва жорий этиш; суд экспертизаларини ўтказишнинг янги усулларини яратиш бўйича қўшма илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш; суд экспертиза муассасалари мутахассисларининг ўзаро амалиёти (стажировкаси) ва семинарларини тизимли ташкил этиш ва ўтказиш; суд-экспертлик фаолиятининг ўзаро ахборот ва услубий таъминотини амалга ошириш ва бошқалар.

Суд экспертизасининг тадқиқот объектларини тавсифлаш, излар ва шикастланишларни ўлчаш, умуман аниқ бир турдаги суд экспертизаларини ўтказишнинг ягона услубиётини ҳамда эксперт хулосасининг ягона тузилишини ишлаб чиқиш учун янги ёндашувлар талаб этилади. Шунингдек, ҳар хил турдаги объектлар (масалан, поябзал, инсон сочлари, тупроқ, бўёқ ва бошқалар) ҳақида маълумотларни ўз ичига олган “Автоматлаштирилган ахборот-қидирув тизимлари (AAQT)”ни яратиш тавсия этилади.

Юқорида таъкидланганлар инновацион технологияларни жорий этиш нафақат суд экспертизалари сифатини оширишга, самарадорлигига ва умуман суд-экспертлик фаолиятини такомиллаштиришга ёрдам беришини, балки жиноятларни очиш ва тергов қилишга ҳам ижобий таъсир кўрсатишини тасдиқлайди.

КИБЕРЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Бобомуродов Фарход Боймуротович
Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси Ягона тезкор бошқарув марказининг масъул ходими, подполковник, ю.ф.ф.д.(PhD),
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси мустақил изланувчиси
farxodbobomurodov663@gmail.com 90-977-19-09

Бугунги кунда кибержиноятларнинг ижтимоий хавфлилиги кун сайин ортиб бормоқда. Ушбу жиноятларга самарали қарши курашишда ваколатли давлат органлари фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий асосларни мустаҳамлаш талаб этилиб, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни шартли равишда икки гуруҳга бўлиб ўрганамиз. Булар: миллий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва ва халқаро ҳужжатлар.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар. Кибержиноятларга қарши курашишда жами 13 та миллий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (шундан 1 та Конституция, 3 та кодекслаштирилган қонунлар, 2 та жорий қонунлар, 2 та Президент Фармони, 3 та Президент қарорлари, 1 та ДХХни буйруғи ва 1 та Марказий банк қарори)нинг моҳияти таҳлил қилинганида биринчидан, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкий дахлсизлигини таъминланиши Конституция даражасида тартибга солинганлиги; иккинчидан, мазкур масала ниҳоятда долзарблиги ва жиддий бўлганлиги боис, унга самарали қарши курашиш учун кодекслаштирилган ва жорий қонунларнинг мазмунида жавобгарлик ва қоидалар белгиланганлиги, бироқ мазкур миллий қонунларда айрим ҳуқуқий бўшлиқлар (мисол учун жабрланувчига етказилаётган реал зарар миқдоридан келиб чиққиб жавобгарликка тортиш масаласини ҳал этиш) ҳали ҳамон мавжудлиги; учинчидан, кибержиноятларни исботлаш жараёнида электрон (рақамли) далилларни йиғишда бевосита Марказий банк ва унинг ҳудудий бўлинмалари билан ваколатли давлат органлари ҳамкорлик қилиш қонуности ҳужжатлар билан тартибга солингани ўрганишлар жараёнида маълум бўлди.

Қуйида кибержиноятларга қарши курашишда энг асосий ҳисобланган қонун мазмун-моҳиятини кўриб чиқамиз. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонунида: “телекоммуникация тармоқлари, алоқа каналлардаги тезкор-қидирув тадбирлари тизими киберхавфсизлигини таъминлаш; киберхавфсизлик ҳодисалари юзасидан тезкор-

қидирув тадбирларини, терговга қадар текширувни амалга ошириш; киберхавфсизлик соҳасидаги ваколатли давлат органи фуқаролардан маълумотни, бошқа зарур ҳужжатларни сўраши ва олиши”[1] белгиланганлиги, кибермаконда содир этилаётган жиноятларга қарши курашишда ҳуқуқий асос бўлади.

Ҳозирда Республикамизда содир этилаётган жиноятларнинг қариийб 30 фоизини кибермаконда содир этилаётган жиноятлар ташкил этмоқда. ТҚФни амалга оширувчи ИИОлари ходими кибермаконда содир этилаётган жиноятларнинг олдини олиш ва фош этишда сўров, маълумотлар тўплаш, махсус ТҚТларини ўтказишда фуқароларнинг мурожаат қилиш билан боғлиқ сиёсий ҳуқуқларини бузмаслиги, қонун доирасида уларга моддий, маънавий зарар етказган айбдор шахсларни топишлари талаб этилади. Ахборот технологиялардан фойдаланиб содир этилган жиноятларни олдини олиш ва фош этишда тезкор бўлинмаларнинг фаолиятини аппарат дастурий таъминлаш ишлари бугун қониқарсиз аҳволда. Буни, кибермаконда содир этилаётган ўзгалар мулкини талон-торож қилиш билан боғлиқ жиноятларнинг аксарият фош этилмаётганлиги билан изоҳлашимиз мумкин.

Масалан, 2020-2022 йилларда бундай жиноятлар қарийб 25 баробар ошган бўлиб, ҳозирги кунда фуқароларнинг катта миқдордаги пуллари онлайн тарзда ўғирланмоқда[2]. Эмпирик ҳужжатларни мазмунидан шу аёнки, ҳозирда кибермаконда содир этиладиган жиноятларнинг 48,5 фоизи фош этилмасдан қолмоқда. Бунинг асосий сабаби, жиноятни фош этиш билан боғлиқ излов тадбирлари етарли ташкил этилмаяпти. Идоравий назорат тўғри ташкил этилмаслиги боис, оғир ва ўта оғир турдаги фош этилмаган жиноятлар бўйича махсус иш йиғма жилдлари белгиланган талаблар асосида юритилмасдан, жиноятларни фош этиш чоралари кўрилмасдан келинмоқда[3]. ИИОлари тезкор бўлинмалари ходимлари кибермаконда содир этилаётган жиноятларга қарши курашишда сўров, маълумотлар тўплаш тезкор-қидирув тадбирлари ўтказилиши ушбу жиноятни фош этиш кўрсаткичини оширади.

Сўров ТҚТ ошкора ва ноошкора усулларда ТҚФнинг вазифасини ҳал этиш учун зарур бўлган маълумотларни тўплаш

[1] Ўзбекитон Республикасининг 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ-764-сон “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонуни // http: www.lex.uz. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 10.10.2024).

[2] https://www.xabar.uz/huquq/ Бош прокурор мамлакатимиз аҳолисига мурожаат билан чиқди (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 11.10.2024).

[3] Тошкент шаҳар прокуратурасининг 2023 йил 20 ноябрдаги 16/к-23-сонли “Қонун бузилиши, унинг келиб чиқиш сабаблари ва бунга имконият яратиб бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида”ги тақдимномаси.

мақсадида гумонланувчи, айбланувчи, жабрланувчи, гувоҳ ва бошқа шахсларга нисбатан ИИОларида терговга қадар текширувни амалга оширувчи органлар ходимлари томонидан ИИВнинг 2024 йил 26 февралдаги 101-сон “Айрим процессуал ҳаракатлар ёки бошқа тадбирларни ички ишлар органларининг маъмурий биноларида амалга ошириш тартиби тўғрисида” йўриқномасига биноан сўровхоналарда ўтказилади. Вояга етмаган шахс билан сўров ўтказилганида қонуний вакили, педагок ёки психолог иштирок этиши зарур.

Маълумотлар тўплаш ТҚТ ошкора ва ноошкора усулларда ТҚФнинг вазифаларини ҳал этишда ахборот тизимларини ўрганиш, сўровномалар юбориш орқали жисмоний ва юридик шахслар, фактлар, ҳолатлар ҳақида аҳамиятга эга бўлган ахборотни олиш, бошқа ТҚТларига оид маълумотларни умумлаштириш ва таҳлил қилиш мақсадида ўтказилади. Ушбу тадбир тезкор-қидирув қонунчилигида назарда тутилган қонунийлик тамойилига риоя қилган ҳолда амалга оширилиши лозим[4]. Тадбир расмий сўровнома асосида олиниши талаб этилганида ТҚФни амалга оширувчи орган раҳбари имзоси билан тасдиқланган расмий хат билан мурожаат қилиши шарт, оғзаки мурожаат билан маълумот олиниб, терговга қадар текширув материалларни шу маълумотга таяниб қарор қабул қилиши, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини бузилишига сабаб бўлади. Мансаб ваколатидан фойдаланиб, маълумотлар расмий сўровнома тақдим этмасдан олиниши маълумот бераётган шахснинг ҳуқуқлари бузилган деб топилади. Амалиётда банк сирига оид маълумотлар тўплаш тадбири вилоятларда терговга қадар текширув вақтида, Тошкент шаҳрида эса, жиноят иши қўзғатилгандан кейин қарор асосида амалга оширилмоқда.

Бу ҳолат ТҚФни идоравий контроль ва прокурор томонидан назорат қилинишида яъни, ушбу тадбирни ўтказишда қонун нормасини ўзи билганича қўллаши кибержиноятларнинг ошиб кетишига, оқибатида эса фуқароларнинг мулкий дахлсизлик ҳуқуқи бузилишига олиб келмоқда. Мазкур тадбирни амалга оширишда кўмаклашувчи фуқарони имкониятидан фойланилганда шахсий хавфсизлигини таъминлаш чораларини таъминлаш керак. ТҚФни амалга оширувчи субъектлар мазкур тадбирни ўтказишга таъсир кўрсатувчи ташкилий муаммоларни ҳал этишда биринчидан, расмий сўровномалар асосида шахс ҳақида маълумотномалар

[4] *Рясов А.В., Мещерин А.И.* О проведении оперативно-розыскного мероприятия «Наведение справок» // Закон и право. 2020. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-provedenii-operativno-rozysknogo-meropriyatiya-navedenie-spravok (дата обращения: 12.10.2024).

тўплаш; иккинчидан, ТҚФни амалга оширувчи орган раҳбарининг имзоси билан тасдиқланган расмий сўровнома асосида зарур мутахассисларни жалб этиш; учинчидан; ушбу тадбирга ТҚФга ошкора ва ноошкора шаклда кўмаклашувчи фуқаролар жалб этилганида уларнинг ижтимоий ва ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш чоралари кўрилиши, ТҚФда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга имкон беради.

Халқаро ҳужжатлар. Дунёда тинчликни, хавфсизликни таъминлашда давлатларнинг ва барча миллатларнинг ўзаро хамкорлигини ривожлантириш мақсадида 1945 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ташкил этилди. Ушбу халқаро нуфузли ташкилот томондан бугунги кунга қадар универсал, минтақавий, шунингдек жиноятчиликка қарши курашишда ҳамкорлик ва бошқа соҳаларда икки томонлама, кўп томонланма характердаги инсон ҳуқуқлари (ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий ва бошқ.)ни таъминлашга оид юздан ортиқ халқаро ҳужжатлар қабул қилинди.

Кибержиноятлар бўйича исботлашни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан бошқа давлатлар ўртасида халқаро ҳужжатлар қабул қилинган.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Бирлашган Араб Амирликлари Ҳукумати ўртасида “Уюшган жиноятчилик, терроризм ва жиноятчиликнинг бошқа хавфли турларига қарши кураш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида”ги битимда ҳамкорлик соҳаси сифатида “кибер жиноятлар”(2-м.)[5]; Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида “Хавфсизлик ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида”ги битимда: “томонлар хавфсизликни таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш мақсадида ахборот технологияларидан фойдаланишга оид жиноятлар ва кибержиноятчиликнинг олдини олиш ва уларга қарши курашиш, шунингдек, Томонларнинг миллий манфаатларига қарши ахборот тарқатадиган интернет-сайтлар фаолиятини аниқлаш ва тақиқлаш”(1-м)[6]; Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Беларус Республикаси Ҳукумати ўртасида “Жиноятчиликка қарши кураш

[5] Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Бирлашган Араб Амирликлари Ҳукумати ўртасида уюшган жиноятчилик, терроризм ва жиноятчиликнинг бошқа хавфли турларига қарши кураш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида битим 2008 йил 17 март, Абу Даби (Ўзбекистон Республикаси учун 2012 йил 23 мартдан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 13.10.2024).

[6] Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида хавфсизлик ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида битим 2018 йил 9 март, Душанбе (Ўзбекистон Республикаси учун 2018 йил 6 июндан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 14.10.2024).

соҳасида ҳамкорлик тўғриси”даги битимда: “ахборот технологиялари, шу жумладан, компьютер-ахбороти соҳасида жиноятлар (1-м)[7]; Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Туркманистон Ҳукумати ўртасида “Жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида”ги битимда ҳамкорлик йўналишлари сифатида: ахборот технологиялари соҳасида хавфсизликни таъминлаш” (2-м)[8]; Шанхай ташкилотига аъзо бўлган давлатлар Ҳукуматлари орасида “Жиноятчиликка қарши кураш тўғрисида”ги шартномада: “ҳамкорлик соҳаси сифатида ахборот технологиялари соҳасида жиноятлар”(2-м)[9]; Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги билан Қозоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ўртасида ҳамкорлик ҳақида битимда: “ахборот технологиялари соҳасида ҳамкорликни йўналиши”(2-м)[10]; Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Кипр Республикаси Ҳукумати ўртасида “Жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида”ги битимда: “ҳамкорлик соҳалари сифатида ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар”(2-м.)[11]; Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши курашишда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги иштирокчи давлатларининг ҳамкорлик тўғрисидаги битимда: “ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши самарали курашни таъминлашда ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши курашишда томонларнинг ўзаро келишилган ҳаракатлари муҳим зарурат эканлигига ишонч ҳосил қилган ҳолда, ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши курашишда томонларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг ҳамкорлиги учун ҳуқуқий асос яратилганлиги”(2-м.)[12]; Ўзбекистон

[7] Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Беларусь Республикаси Ҳукумати ўртасида жиноятчиликка қарши кураш соҳасида ҳамкорлик тўғрисида битим 2008 йил 19 июнь, Минск (2008 йил 24 декабрдан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 15.10.2024).

[8] Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Туркманистон Ҳукумати ўртасида жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида битим 2009 йил 25 февраль, Тошкент (Ўзбекистон Республикаси учун 2009 йил 20 ноябрдан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 16.10.2024).

[9] Шанхай ташкилотига аъзо бўлган давлатлар Ҳукуматлари ўртасида жиноятчиликка қарши курашишда ҳамкорлик тўғрисида шартнома 2010 йил 11 июнь (2012 йил 11 январдан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 17.10.2024).

[10] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги билан Қозоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ўртасида ҳамкорлик тўғрисида битим 2013 йил 14 июнь, Тошкент (2013 йил 14 июндан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 18.10.2024).

[11] Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Кипр Республикаси Ҳукумати ўртасида жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида битим 2012 йил 5 апрель, Тошкент (2015 йил 27 февралда кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 19.10.2024).

[12] Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши курашда Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги иштирокчи давлатларининг ҳамкорлик тўғрисидаги битим Душанбе, 2018 йил 28 сентябрь (Ўзбекистон Республикасида 2020 йил 12 мартдан кучга киради) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.10.2024).

Республикаси билан Испания қироллиги ўртасида “Жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида”ги битимда: “ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ҳамкорликнинг йўналишларидан бири экани”(2-м.)[13] баён этилган бўлиб, ушбу қоидаларнинг ҳуқуқий тартибга солинганлиги мазкур йўналишда халқаро ҳамкорлик қилиш учун ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Таҳлил қилинган 9 та халқаро ҳужжатларнинг мазмунида асосан “*ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар*”қоидаси ҳамкорликнинг йўналишларидан бири сифатида белгиланиб, бизнинг фикримизча, “*ахборот технологиялари соҳасидаги кибержиноятлар*” қоидаси билан ушбу халқаро ҳужжатлар мазмунига ўзгартириш киритилиши тўғри деб ҳисоблаймиз.

Фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашда ИИОлари тезкор бўлинмалари томонидан кибермаконда содир этилаётган жиноятларга қарши курашда тезкор-қидирув тадбирларни ўтказишнинг самарадорлигини оширишда қуйидагилар таклиф этилади:

биринчидан, ТҚФни амалга оширувчи органлар, Олий суд, Марказий банк ўртасида қўшма қарор ишлаб чиқилиб, банк пластик карталарини зудликда блоклаш ва ўғирланган электрон пулларни дарҳол музлатилиши ва Республикамиз ҳудудидан чиқиб кетмаслик чораларини кўриш лозим;

иккинчидан, ҳозирги кунда Республикамиз ҳудудида кибержиноятларга қарши курашиш масаласи энг долзарб муаммоларидан бири бўлганлиги боис, жисмоний ва юридик шахснинг мулкий дахлсизлик ҳуқуқи бузилишини олдини олиш лозим. Ушбу турдаги ҳуқуқбузарликлар 2019 йилда 122 та; 2020 йилда 723 та; 2021 йилда 2553 та; 2022 йилда 5277 тани ташкил этиб, тўрт йил ичида мурожаатлар сони 43 баробарга ошган. 2023 йилнинг 9 ойида 8734 та мурожаатлар келиб тушган бўлиб, фуқароларга етказилган моддий зарарнинг миқдори уч йилда 372 миллиард 800 млн. сўмни ташкил этган. Киберҳужумлар асосан қўшни давлатларнинг ҳудудида истиқомат қилаётган шахсларни хакерлик билан шуғулланиши натижасида юзага келиб, уларнинг фаолиятига тўлиқ чек қўйишда халқаро ҳамкорлик ишини амалга ошириш. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши

[13] Ўзбекистон Республикаси билан Испания Қироллиги ўртасида жиноятчиликка қарши курашда ҳамкорлик қилиш тўғрисида битим 2013 йил 5 ноябрь, Мадрид (Ўзбекистон Республикаси учун 2022 йил 10 февралдан кучга кирган) // URL: http:// www.lex.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 21.10.2024).

курашишнинг самарадорлигини оширишда Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан ривожланаётган хусусан, Жанубий Корея, Япония, Хитой, Германия, Болгария, Австрия, Қувайт, Миср, Саудия Арабистони, Кипр ва Испания давлатлари билан *“Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларга қарши курашишда ҳамкорлик тўғрисида*” битимларни қабул қилиш ва ҳамкорликда мақсадли ва манзилли чора-тадбирларни белгилаш лозим;

учинчидан, ТҚФни рақамлаштириш орқали тезкор бўлинмаларнинг кундалик иш фаолиятини онсон ва қулай бўлишига катта эътибор қаратиш, масалан барча журналларни, тезкор карточкаларни электрон шаклда юритиш ва ўзаро ёзишмаларни махсус ёпиқ локал тармоқлар асосида юборилишини йўлга қўйиш. ИИВнинг соҳавий хизматлари ҳамда бошқа давлат органлари билан логин ва парол асосида электрон почта орқали ёзишмаларни амалга ошириш керак. Статистик маълумотларнинг таҳлилига кўра, сўнгги 5 йилда Республикамиз ҳудудида кибермаконда содир этилаётган жиноятларнинг салмоғи жуда ошиб бораётганлиги туфайли, тезкорлик билан фуқароларнинг банк пластик карталарининг ҳисобидан пул ечиб олинишини зудликда тўхтатилиши учун банк муассасалари билан электрон шаклда ёзишмаларни амалга ошириш лозим, ҳозирда ушбу ҳаракатлар жиноят иши қўзғатилгандан кейин ўтказилаётганлиги тезкор ҳаракатланишга салбий таъсир кўрсатмоқда, оқибатда жабрланган фуқароларга етказилган мулкий зарар қопланмасдан қолишига олиб келмоқда.

Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш учун банк сирига оид маълумотлар тўплаш ТҚТни электрон шаклда терговга қадар текширув вақтидан бошлаб яъни, ИИОларига ариза ва хабар келиб тушган заҳоти амалга оширишни таъминлашда ИИО тезкор бўлинмаларининг қуйи тизими (шаҳар ва туманлар)да “Е ИИО ТҚФ” махсус дастурини яратиш ва шу платформа асосида банк, прокуратура ва суд органларининг ходимлари билан логин, парол асосида электрон ёзишмаларни йўлга қўйилиши, ТҚФда инсон ҳуқуқларини таъминлашда ҳар томонлама фойдали амалиёт бўлади. ТҚФда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашда ИИОлари тезкор хизматида ахборот таҳлил фаолияти самарали ташкил этилиши зарур.

Бунинг учун соҳада таҳлил иши билан шуғуланадиган тезкор ходим сунъий интелект технологияларининг имкониятларидан

унумли фойдаланишлари[14] (масалан, жиноятларнинг содир этиш вақти, шароити, жойи, усуллари, шахси ҳақида маълумотларнинг базаларини яратиш), шу орқали, ТҚФ соҳада айниқса, кибержиноятларга қарши курашишда, жамоат жойларида, хусусий, давлат объектларида, ўтган йилларда содир этилиб фош этилмасдан қолаётган мулкий турдаги жиноятларни фош этишда тўғри қарорлар қабул қилиниб, ТҚФнинг вазифалари ижобий ҳал этилишига эришилади.

Хулоса қилиб айтганда, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашда ИИОлари тезкор бўлинмалари томонидан кибермаконда содир этилаётган жиноятларга самарали қарши курашишда ушбу бўлинмаларнинг моддий базасини такомиллаштириш, ҳамкорликни тўғри ташкил этиш лозим.

СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТУШУНЧАСИ, АҲАМИЯТИ, ЗАРУРАТИ ВА РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ

Уринбоева Мухлиса Маъруфовна
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси мустақил изланувчиси

Абдуфаттоев Йўлдошали Фарходжон Ўғли
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси магистратураси тингловчиси

Аннотация: *Мақолада суд ишларини юритишда сунъий интеллектдан фойдаланишнинг тушунчаси, аҳамияти, зарурати ва ретроспектив таҳлили кўриб чиқилган. Мақолада шунингдек сунъий интеллектни суд ишларини юритишда қўллаш заруриятининг асосий омиллари аниқланиб, муайян хулосалар илгари сурилган.*

Калит сўзлар: *суд ҳокимияти, суд тизими, суд ишларини юритиш, сунъий интеллект, ҳуқуқий асос, халқаро ҳужжатлар, хорижий тажриба, такомиллаштириш.*

Аннотация: *В статье рассматриваются понятие, значение, необходимость и ретроспективный анализ использования искусственного интеллекта при ведении судебного разбирательства. Также в статье обозначены основные факторы необходимости использования искусственного интеллекта в судебном разбирательстве и сделаны определенные выводы.*

[14] *Акимов А.Б.* Жамоат хавфсизлигини таъминлашда техника воситаларини қўллашнинг ўзига хос жиҳатлари // Academic research in educational sciences. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zhamoat-havfsizligini-taminlashda-tehnika-vositalarini-llashning-ziga-hos-zhi-atlari (дата обращения: 22.04.2024).

Ключевые слова: *судебная власть, судебная система, судебная система, судебное разбирательство, искусственный интеллект, правовая основа, международные документы, зарубежный опыт, совершенствование.*

Abstract: *The article examines the concept, importance, necessity and retrospective analysis of the use of artificial intelligence in conducting court proceedings. The article also identifies the main factors of the need to use artificial intelligence in court proceedings and puts forward certain conclusions.*

Keywords: *judiciary, judicial system, court proceedings, artificial intelligence, legal basis, international documents, foreign experience, improvement.*

XXI асрда инсоният турмуш тарзининг ўзгариб бориш жараёнлари сунъий интеллект (artificial intelligence – AI) нинг реалликка айланиб, ҳаётимизга кириб келиши билан ўзининг энг юқори чўққисига чиқди. Турли технологиялар инсонларнинг меҳнатини енгиллиштириш баробарида, уларнинг қўлидан ишини олди. Дастлаб ёзишмалардаги имловий хато ва камчиликларни текширадиган ақлли ахборот технологиялари ҳаётимизга кириб келди. Бугунги кунда аэропортларда юзни таниш орқали юртимизга кириб келаётган саёҳатчиларни текшириш имкони яратилди. Технологиялар хатто борадиган манзилимизга қандай қилиб тез етиб олиш, борадиган манзилимиздаги мавжуд тўсиқлар ва тирбандликлар бўйича сўралмаган маслаҳатларни беради. Планшет ва мобил телефонимиз орқали саволларимизга самимий жавоблар оламиз, қўполлашсак бизни қўполлашмасликка чақиради.

Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги замон билан ҳамнафас бўлган ҳолда сунъий интеллект асосида “Собира Холдорова” номли махсус робот-мухбир яратди. Мазкур мухбир тўққиз тилда (ўзбек, инглиз, рус, француз, араб, хитой, немис, испан, қозоқ) расмий ахборотлар ва тезкор янгиликларни етказиб туриши, синов тарзида ишга туширилган сунъий интеллект видео репортажлар тайёрлаш кўламини босқичма-босқич кенгайтириб бориши ҳақида маълумотлар берилган.[15] Дарҳақиқат, мутахассислар ҳам сунъий интеллект медиа соҳасига шиддат билан кириб келганлигини таъкидламоқда.[16]

Сунъий интеллект — бу компьютер тизимларига ёки машиналарга одамлар каби “ақлли” вазифаларни бажариш қобилиятини бериш учун ишлатилган технологиялар ва усуллар мажмуасидир. Буларга кўпинча тушуниш, ўрганиш, хулоса чиқариш,

[15] Сунъий интеллект ёрдамида яратилган ЎзА мухбири иш бошлади // https://uza.uz/uz/posts/suniy-intellekt-yordamida-yaratilgan-oza-muxbiri-ish-boshladi_626944

[16] Сунъий интеллект қанчалик хавфли ёки фойдали? // https://kun.uz/kr/news/2024/01/09/suniy-intellekt-qanchalik-xavfli-yoki-foydali

ва қарорлар қабул қилиш киради. Сунъий интеллектнинг асосий мақсади инсон ақлига хос бўлган вазифаларни автоматлаштириш ва уларни компьютер ёки роботлар ёрдамида бажаришдан иборатдир.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 2024 йил 21 март куни “Барқарор ривожланиш учун хавфсиз, ҳимояланган ва ишончли сунъий интеллект тизимларининг имкониятларидан фойдаланиш” номли А/78/Л.49-сонли резолюцияни қабул қилди.[17]

БМТ Бош Ассамблеясининг сунъий интеллект бўйича юқоридаги резолюциясида ҳеч ким сунъий интеллектдан тинчликка таҳдид солиш ёки инсон ҳуқуқларини поймол этиш учун фойдаланишга ҳақли эмаслиги алоҳида уқтирилган. Сунъий интеллектни тартибга солиш ва инновациялар – бир-бирини инкор қилмаслиги, аксинча, ўзаро уйғун ҳамда чамбарчас боғлиқ тушунчалар эканлиги таъкидланган.

Сунъий интеллектни танқид қилувчиларнинг фикрича эса, тармоққа уланган сунъий интеллект инсон автономияси, ваколатлари ва имкониятларига таҳдид солади.[18] Технологиялар тараққиёти интернетдаги шусиз ҳам оғир вазият янада ёмонлашишига, яъни одамлар осонгина ишонадиган ғирт ёлғон ахборот ҳажмининг ҳаддан ортиқ кўпайишига олиб келади. Бунинг оқибатида жамоатчиликнинг янгиликлар ва ахборотга бўлган ишончига узил-кесил путур етади.

Бироқ шундай бўлса-да, сунъий интеллект муайян вазифаларни бажаришда инсон хатти-ҳаракатига тақлид қилишга қодир бўлган тизим ёки технология бўлиб, олинган маълумотлардан фойдаланиб аста-секин мукаммаллашиб боради. Умуман олганда сунъий интеллект формат ҳам, функция ҳам эмас, балки бу жараён бўлиб, маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш кабиларни ўз ичига олади.[19]

Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда Бинобарин, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорида “Сунъий интеллектни ривожлантириш стратегияси”ни

---

[17] https://www.undocs.org/Home/Mobile?FinalSymbol=A%2F78%2FL.49&Language=E& DeviceType=Desktop&LangRequested=False

[18] Artificial Intelligence and the Future of Humans // https://www.pewresearch.org /internet/2018/12/10/artificial-intelligence-and-the-future-of-humans/

[19] Абдуқундузова Н. Сунъий интеллект – технологик ривожланиш асоси // https://yuz.uz /news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi

ишлаб чиқиш ва 2021 йил ноябрда Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритиш назарда тутилган.[20]

Дарҳақиқат, бу борада хорижий давлатлар тажрибаси таҳили шуни кўрсатадики, масалан, Ирландиянинг Accenture компанияси томонидан олиб борилган таҳлиллар G20 рўйхатдаги давлатларда (АҚШ, Буюк Британия, Германия, Франция, Япония ва Корея Республикаси каби) 2035 йилга қадар сунъий интеллектнинг ўсиш суръати 2 маротабага ортиши таъкидланмоқда.[21] Бу албатта, ушбу давлатлар учун сунъий интеллект иқтисодий ривожланиш ва давлат бошқарувини такомиллаштиришдаги асосий воситаларидан бири эканлигини эътироф этади.

2017 йил март ойида Европа давлатларининг йирик тижорат компания раҳбарлари орасида ўтказилган сўровномада уларнинг қарийб 70 фоизи ўз фаолиятларида сунъий интеллектни кенг қўллаётганликлари ёки сунъий интеллектни қўллаш имкониятларини баҳолаётганликларини эътироф этишган.

Маълумки, бугунги кунга қадар жаҳон саҳнасида сунъий интеллектни ривожлантириш бўйича 7 та халқаро даражадаги ҳамкорлик келишувлари ва 50 дан ортиқ миллий стратегиялар қабул қилинган.[22]

2017 йилга нисбатан сунъий интеллектни ривожлантириш стратегияларини эълон қилган мамлакатлар сони 2020 йил бошига келиб 8 маротаба ортди. 2017 йил Канада, Сингапур, Бирлашган Араб Амирликлари, Финландия, Япония ва Хитой давлатларида сунъий интеллект стратегиялари ишлаб чиқилди. 2019 йилда бу рўйхатдан Италия, Тунис, Буюк Британия, АҚШ, Швеция, Мексика, Европа иттифоқи, Кения, Дания, Франция, Австралия, Корея Республикаси, Ҳиндистон ва Германия каби кўплаб бошқа давлатлар ҳам ўрин эгаллади.

Европа давлатларида сунъий интеллектни ривожлантириш стратегиялари бор бўлишига қарамай, мавжуд куч ва имкониятларни бирлаштириш ва жаҳон ҳамжамиятида юқори натижаларни қўлга киритиш мақсадида 2018 йил 10 апрель санасида 25 та Европа давлатлари Сунъий интеллектни ривожлан-тиришдаги ҳамкорлик Декларациясини имзолади.[23] Унда Европанинг сунъий интеллект

[20] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // https://president.uz/uz/lists/view/4195

[21] AI research how AI boosts industry profits and innovation

[22] HolonIQ and source government strategy and policy papers

[23] https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/news/eu-member-states-sign-cooperate-artificial-intelligence

технологияларидаги салоҳиятини ошириш, сунъий интеллектни ўзлаштириш, ижтимоий-иқтисодий глобал чақирувларга ҳамкорликда сунъий интеллект технологиялари асосида қарши курашиш ва сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий ва ахлоқий асосларни ишлаб чиқиш ва сунъий интеллект ютуқларини давлат бошқарувига йўналтириш асосий мақсад қилинган.

Сунъий интеллектнинг инсоният равнақи учун хизматини ошириш ва ривожлантириш мақсадида 2018 йил май ойида 10 та давлат иштирокида Шимолий Болтиқ ҳудудида Сунъий интеллект декларацияси имзоланди.[24] Декларацияда сунъий интеллект истиқболларидан бизнес ва давлат бошқарувида фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш мақсадида билим, кўникма ва маҳоратни ошириш; ҳудудларда бизнес ва давлат хизматлари учун намунавий хизматларни ташкил этиш мақсадида сунъий интеллектда қўлланиладиган маълумотлар очиқлигини таъминлаш; сунъий интеллектнинг қўлланилиш соҳалар ва меъёрларини белгиловчи ахлоқий ва шаффоф кўрсатмалар, стандартлар ва низомларни ишлаб чиқиш; сунъий интеллектда фойдаланиладиган барча инфратузилмаларнинг жумладан, зарурий ускуна ва қурилмалар, дастурий таъминотлар ҳамда маълумотларнинг ишончлилиги, хавфсизлиги ва даҳлсизлигини таъминлаш белгиланган.

2019 йил июль ойида Японияда G20 давлатларнинг бўлиб ўтган учрашувида “G20 Сунъий Интеллект тамойиллари” сунъий интеллектдан фойдаланишнинг тамойиллари бўйича келишув имзоланди.[25] Келишув сунъий интеллектдан фойдаланишда адолат ва шаффофлик тамойилларига таянилиши шунингдек, қонун устуворлиги, шахсий қадриятлар, тенглик ва халқаро меҳнат ҳуқуқларини ҳурмат қилишга чақиради.

Германия Федератив Республикаси сунъий интеллектни ривожлантириш эртанги кун имконият ва муваффақият эшикларининг “олтин калити” эканлигига алоҳида урғу берган ва ҳозирги кунга қадар сунъий интеллект соҳасидаги 15 та сиёсий ташаббусларни кетма-кет амалга ошириб келмоқда.[26]

2019 йил июнь ойида Америка Қўшма Штатлари (АҚШ) Миллий сунъий интеллект илмий тадқиқот ва ривожлантириш стратегик

[24] https://www.norden.org/en/declaration/ai-nordic-baltic-region
[25] https://www.g20-insights.org/related_literature/g20-japan-ai-principles/
[26] OECD.AI (2020), powered by EC/OECD (2020), STIP Compass database, accessed on 21/02/2020, http://oecd.ai.

режасини маъқуллади.[27] АҚШда бугунги кунга қадар сунъий интеллект соҳасини ривожлантиришга қаратилган жами 36 та сиёсий ташаббуслар рўйхатга олинди.

Қозоғистон Республикаси ҳозирга қадар сунъий интеллект соҳасини ривожлантиришда ўзининг миллий стратегиясига эга бўлмаса-да, бироқ Марказий Осиё давлатлари ичида Сунъий интеллект соҳасини ривожлан-тиришда дунё ҳамжамияти томонидан алоҳида эътироф этилаётган давлатдир.

2019 йилдан Назарбаев Университети томонидан дунёнинг етакчи сунъий интеллект технологиялари ечимларини ишлаб чиқувчиларини жалб этиш мақсадида, Сунъий интеллект илмий тадқиқот ва ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш жамғармаси жорий этилди.[28] Жамғарманинг асосий мақсади Қозоғистонда таълим, илмий тадқиқот, маданият, техника, инновация, бошқарув соҳалари ва бошқа манфаатли соҳаларда сунъий интеллектни ривожлантиришдан иборат.

Сунъий интеллект замонавий ҳуқуқий тизимда ўта муҳим ва кўп қиррали роль ўйнайди. Унинг таъсири ва имкониятлари турли жабҳаларда ўз аксини топади, бу эса ҳуқуқий соҳадаги амалиёт ва тадқиқотларда янги имкониятлар ва чегараларни очиб беради.

Сунъий интеллект унга кўмаклашувчи дастурлар орқали ҳуқуқий ҳужжатларни тезкор ва самарали равишда таҳлил қилиш имкониятини яратади. Масалан, ҳужжатларнинг автоматик индексацияси ва тегишли қарорлар ёки қонунлар билан боғлиқ муҳокамаларни топиш осонлашди. Бу норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш жараёнини сезиларли даражада тезлаштиради ва хато эҳтимолини камайтиради.

Айрим юрисдикцияларда сунъий интеллект алгоритмлари айрим турдаги ҳуқуқий масалаларда қарор қабул қилиш жараёнига киритилган. Масалан, шартнома шартларини автоматик баҳолаш ёки кредит беришда қарз олувчининг қарзга қайтариш имкониятларини таҳлил қилиш шулар жумласидандир.

Ҳозирги кунда суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятида сунъий интеллект имкониятларидан фойдаланиш масаласи ҳар кунгидан кўра долзарб бўлиб келмоқда. Сунъий интеллект имкониятларидан суд ишларини юритиш жараёнларини автоматлаштиришда, шу жумладан, айрим турдаги ишларнинг

---

[27] https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2019/06/National-AI-Research-and-Deve-lopment-Strategic-Plan-2019-Update-June-2019.pdf

[28] https://nu.edu.kz/ru/zakupki/kf-fond-podderzhki-issledovanij-razrabotok-v-sfere-iskusstven-nogo-intellekta

дастлабки таҳлилини ўтказишда фойдаланилиши мумкин. Бу судьяларга ва прокурорларга ишлар бўйича маълумотларни тизимлаштириш ва тезкор баҳолашга ёрдам беради.

DailyMail берган ҳабарга кўра, 2019 йилнинг февраль ойида Буюк Британияда бўлган суд тинглови тарихга киради, чунки унда илк бор судланувчига сунъий интеллект, яъни робот маслаҳат бериб турди. DoNotPay компанияси яратган дунёда биринчи робот-адвокат судланувчининг смартфонида ишлайди ва мажлис чоғида мижозига ўзини ҳимоя қилиши учун нима дейиши кераклигини айтиб туради.[29]

Лекин шу билан бирга судда ишларни кўриш жараёнида сунъий интеллектни қўллаш ва унинг хавф-хатарларини ўрганиш долзарб ҳисобланади.

Шу ўринда юридик адабиётларда судларда ишларни кўриш жараёнида сунъий интеллектни қўллаш борасида турли фикрлар ва баҳс-мунозаларлар илгари суриб келинмоқда. Масалан, 2019 йилда Tashkent Law Spring халқаро юридик форумида маъруза қилган Россия Федерацияси Адвокатлар палатаси президенти Юрий Пилипенко юридик хизматлар бозори инсон билан робот ўртасида тақсимланаётгани, қатор ҳуқуқий процесслар аллақачон юристлар иштирокисиз кечаётгани ҳақида фикр юритар экан, шундай деган эди: “Никоҳ бекор қилингани ҳақидаги ҳужжатни олиш учун интернетда бир нечта “дарча”да бланка тўлдириш кифоя қиляпти. Аҳоли билан ишлайдиган кўплаб йирик корпорациялар яқин йилларда аксарият юристларини бўшатиб юборади. Масалан, банклар ипотека кредитларию шартномалар тўлдириш билан шуғулланаётган мутахассислардан воз кечиши аниқ бўлиб қолди. Биз ишимизни роботларга бериб, бекор қолмаслигимиз керак. Акс ҳолда цивилизация сифатида ҳалокатга учраймиз”.[30]

Бироқ бошқа бир манбаларда суд ишларини юритишда сунъий интеллектни жорий этиш муҳим аҳамият касб этиши, сунъий интеллект суд қарорларини чиқаришда учрайдиган хатолар сонини камайтириш орқали суд қарорларининг асослилигини янги даражага олиб чиқишга ва суд иш юкламасини енгиллаштиришга хизмат қилиши ҳақида фикрлар илгари сурилади.[31] Бошқа бир

[29] Robot lawyer takes its first court case: Hearing next month will see the defendant get advice from artificial intelligence using a smartphone app // https://www.dailymail.co.uk/sciencetech /article-11599805/Robot-lawyer-takes-case-Hearing-month-defendant-advice-AI.html

[30] Юристларнинг ўрнини роботлар эгалламоқда. Бу биз учун ҳалокатлидир // https://advokatnews.uz/xabar/1513.html

[31] Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик суд ишларини юритишни рақамлаштириш истиқболлари: миллий амалиёт ва хорижий тажриба таҳлили // Ўзбекистон Республикаси Олий суди расмий сайти. https://old.sud.uz/0811-3/

мутахассисларнинг фикрича, ахборот технологиялари ва сунъий интеллект ҳозирда суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда ҳам кенг фойдаланилаётган инновацияларда ҳисобланади. Ушбу технологиялар суд ва бошқа органларнинг самарали, қонуний ва масъулиятли фаолият юритишида, уларнинг коррупцияга қарши курашда кучли қуроли сифатида фойдалана олишида муҳим рол ўйнамоқда. Уларнинг фикрича, сунъий интеллект суд ишларини кузатиш, ҳужжатларни бошқариш ва режалаштириш жараёнларини яхшилайди, манипуляция ва порахўрлик имкониятларини минималлаштиради. Сунъий интеллектга асосланган алгоритмлар судяларга далилларни баҳолашда, адолатли ва холис қарор қабул қилишни таъминлашда ҳам ёрдам бера олади.[32]

Хатто, айрим мутахассислар халқаро тажрибада сунъий интеллект қонун ижодкорлиги жараёнида ҳам фаол фойдаланиб келинаётганлигини эътироф этадилар.[33] Масалан, Нидерландия Вакиллар палатаси Speech2Write тизимини жорий қилди, бу эса Парламентнинг Ҳисобот идорасига овозни матнга айлантириш ва йиғилишларнинг ёзма баённомаларини автоматик таҳрирлаш имкониятини беради.[34] Худди шундай, 2020 йилнинг кузидан Эстония парламенти Таллин технология университети технологик ишланмалари асосида Эстониянинг Finestmedia IT компанияси томонидан яратилган HANS сунъий интеллект тизимидан ҳам фойдаланмоқда. Ялпи мажлислар стенограммаларини тайёрлаш учун нутқ ва маърузачини аниқлаш тизими қўлланилади.[35]

АҚШ Конгрессида қонун лойиҳалари, тузатишлар ва амалдаги қонунлар ўртасидаги фарқларни аниқлаш жараёнини автоматлаштириш учун сунъий интеллект технологияларидан фойдаланилади. Ушбу восита қонун лойиҳаларидаги ҳаволаларни шарҳлаши, тегишли қоидаларни чиқариши ва тузатишлар бўйича кўрсатмаларга амал қилиши мумкин.[36]

---

[32] Қодиров М.И. Ахборот технологиялари ва сунъий интеллектнинг коррупцияга қарши курашдаги ютуқлари: хорижий давлатлар илғор тажрибалари таҳлили // https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/1084/2072/1049

[33] Ҳотамов Ҳ.С. Сенат фаолияти самарадорлигини оширишда рақамли технологиялар ва инновацион ёндашувлардан фойдаланиш истиқболлари// Юрист ахборотномаси | Вестник юриста | Lawyer herald. 2023. №5. Б. 18-19.

[34] Васильева Т. А. Внедрение информационных технологий в парламентскую деятельность // Вестник Университета имени ОЕ Кутафина. – 2022. – №. 9 (97). Б.93-101

[35] Estonian parliament uses speech recognition technology to create verbatim records // e-Estonia. 24 September 2020. // URL: https://e-estonia.com/estonian-parliament-usesspeech-recognition-technology-to-create-verbatim-records.

[36] Artificial Intelligence: Innovationin Parliament // Innovation tracker. 2020. Is. 4. InterParliamentary Union. // URL: https://www.ipu.org/innovation-tracker/story/artificialintelligence-innovation-in-parliaments.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда ҳамда бошқа таҳлилларимиз сунъий интеллектни суд ишларини юритишда қўллаш заруриятининг қуйидаги асосий омиллари мавжудлиги ҳақида хулоса қилиш мумкин:

Биринчидан, самарадорликни ошириш имконияти яратилади. Сунъий интеллект жуда катта ҳажмдаги маълумотларни тез фурсатда таҳлил қилиб чиқади. Бу эса суд ишларини ўз вақтида, тезкорлик билан кўриб чиқиш ва ҳужжатларни тайёрлаш жараёнларини жадаллаштиради. Ҳуқуқий ҳужжатлар ва иш материлларини тез фурсатда топиш ва таҳлил қилиш имконияти орқали суд ишларини кўриш муддатлари қисқаради.

Иккинчидан, адолатни таъминлашга кўмаклашилади. Сунъий интеллект-нинг имкониятлари инсон омили таъсирини камайтиришга ёрдам беради. Бунинг натижасида, суд қарорлари кўпроқ объектив ва ҳаққоний бўлиши таъминланади.

Учинчидан, суднинг иш юритишида мавжуд бўлган маълумотлар ва иш материалларининг аниқлиги таъминланади. Маълумки, суд ишларини юритишда тўғри ва янгиланган маълумотлардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Сунъий интеллект алгоритмлари инсонга хос бўлган хатоларни камайтириши мумкин, бу эса суд қарорларини қабул қилишда аниқликни оширади.

Тўртинчидан, суд харажатларини камайтиришга имкон беради. Сунъий интеллектдан фойдаланиш орқали суд жараёнларини иқтисодий жиҳатдан тежамкор бўлишига эришилади. Суд ишларини юритишдаги автоматлаштириш жараёнлари инсон ресурсларига бўлган эҳтиёжни қисқартириши мумкин, бу эса суд тизими харажатларини сезиларли даражада камайтиради.

Бешинчидан, хавфсизлик ва махфийликни таъминлашга хизмат қилади. Сунъий интеллект маълумотларни шифрлаш ва ҳимоя қилиш тизимларини такомиллаштириш орқали суд ишлари билан боғлиқ маълумотларнинг махфийлигини таъминлашга ёрдам беради.

Шундай экан, хулоса қилиб айтиш мумкинки, суд ишларини юритишда сунъий интеллектни қўллаш судлар фаолиятида умумий самарадорликни ошириш, адолатни таъминлаш ва инсон омили таъсирини камайтириш учун муҳим қадам ҳисобланади.

XORIJIY MAMLAKATLARDA MAYNING VA KRIPTO AKTIVLARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY TARTIBI

Abduraxmanov Muzaffar Mamurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi tinglovchisi

Mayning tushunchasi va huquqiy tabiatini aniqlash butunlay boshqacha yondashuvlarga asoslangan bo'lishi mumkin, bu bugungi kunda turli mamlakatlar qonunchiligida kuzatiladi. Jahon amaliyotidagi bunday yondashuvlarni tahlil qilish mayningni huquqiy tartibga solishning huquqiy tabiatining turli jihatlariga qarab turli darajalarda shakllangan bir nechta qonunchilik modellarini aniqlash imkonini beradi.

Mayningning huquqiy tabiatining birinchi jihati uning ruxsat etilgan yoki taqiqlangan faoliyat mezoni bo'yicha malakalanishidir. Ushbu mezondan kelib chiqib, qonunchilik modellarining uchta guruhini ajratish mumkin. Birinchi guruh Kanada, AQSh, Avstraliya, Yaponiya, Shveytsariya, shuningdek, Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlar uchun xos bo'lgan ruxsat beruvchi mayning modelidir. Bu guruhga MDHga a’zo bir qancha davlatlarni ham kiritish mumkin, masalan, Belarus Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi. Biroq, bunday mamlakatlar ushbu faoliyat uchun ruxsat olish zarurati masalasida bir xil emas. Qozog'iston Respublikasining 2023-yil 6-fevraldagi QRQ-193-sonli "Qozog'iston Respublikasida raqamli aktivlar to'g'risida" gi Qonunining 9-moddasiga ko'ra mayning litsenziyani talab qiladi, uch yil muddatga chiqariladi va egalik huquqi ostida raqamli mayning ma'lumotlarini qayta ishlash markazi mavjudligiga qarab ikki xil bo'ladi. Belarus Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-dekabrdagi 8-sonli “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, mayning uchun maxsus ruxsat olish shart emas, shuningdek, hokimiyatning boshqa ruxsati yoki ro'yxatdan o'tish talab qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida mayning faoliyati litsenziyalanmaydi, biroq bunday faoliyat agentlik tomonidan internet tarmog‘i orqali ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlarida mayning va kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish rivojlanish bosqichida. Federal darajada kriptovalyutalarning muomalasi holati va qoidalarini belgilovchi yagona to'liq qonun hali mavjud emas. Biroq, kriptovalyuta tovar sifatida tan olingan, ya'ni u Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) va boshqa federal idoralar tomonidan soliqqa tortilishi va tartibga solinishi kerak.

Bank siri to'g'risidagi qonun (BSA): Kriptovalyuta birjalari va kriptovalyuta savdosi bilan shug'ullanadigan boshqa kompaniyalar

Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash tarmog'ida (FinCEN) ro'yxatdan o'tishlari va KYC/AML talablariga rioya qilishlari shart.

Soliq kodeksi – Kriptovalyuta operatsiyalaridan olingan daromad oddiy daromad sifatida soliqqa tortiladi. Kriptovalyuta mayninggi ham soliqqa tortiladigan hodisa hisoblanadi.

Tovar birjasi to'g'risidagi qonun – Tovar fyucherslari savdo komissiyasi (CFTC) kriptovalyuta fyuchers shartnomalarini tartibga solishi mumkin.

Hozirda 40 dan ortiq shtat kriptovalyuta va mayningni tartibga soluvchi o'z qonunlarini qabul qildi. Ushbu qonunlar quyidagi masalalarni qamrab olishi mumkin:

- Kriptovalyuta birjalarini litsenziyalash
- Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
- Soliq solish
- Pul yuvishga qarshi kurash

Kriptovalyuta mayninggi: Federal darajada kriptovalyuta mayninggi taqiqlanmagan. Biroq, ba'zi shtatlar yuqori energiya iste'moli va atrof-muhitga salbiy ta'siri tufayli mayningni cheklab qo'ygan. Masalan, Nyu-York shtati qayta tiklanmaydigan energiya manbalaridan foydalangan holda kriptovalyuta mayninggi uchun yangi ruxsatnomalar berishga ikki yillik moratoriy kiritdi. AQSh federal hukumati kelgusi yillarda kriptovalyutalar va mayningni tartibga soluvchi yanada kengroq qonunchilikni joriy qilishi kutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, kriptovalyutani tartibga solish dinamik rivojlanayotgan sohadir va qonunchilik tez-tez o'zgarishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari kriptovalyuta bozorini qonunchilik bilan tartibga solish bo'yicha ham yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, raqamli valyutaga umumiy (federal) qonunchilik va shtat qonunchiligi mavjud bo'lgan, ba'zan boshqa subyektlardan sezilarli darajada farq qiladigan AQSh huquqiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari tufayli yagona huquqiy maqom berilmaydi. Buning oqibati kriptovalyutaning naqd pulning analogi va egalarining mulki sifatida tan olinishi, boshqa hollarda bu moliyaviy vositalar sifatida tan olinishi mumkin. AQShda raqamli valyutadan foydalanish ko'lamini belgilovchi huquqiy maydonni yaratishga eng katta turtki – Silk Road anonim savdo platformasi bo'lib, huquq-tartibot idoralari tomonidan masalaning markazlashtirilmaganligi va kriptovalyuta muomalasining barcha

bosqichlarida anonimlikning yuqori darajasi tufayli shubhali tranzaktsiyalarni aniqlash qiyinligi ko‘rsatilgan[246].

Federal darajada kriptovalyuta aylanmasini huquqiy tartibga solish “Virtual valyuta biznesini yagona tartibga solish to'g'risida”gi qonun bilan ifodalanadi. Bu maslahat xarakteriga ega va davlatlar uchun huquqiy tartibga solish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi, u quyidagi masalalarga taalluqlidir: kriptovalyuta muomalasi bilan shug'ullanadigan kompaniyalarni litsenziyalash; mijozlarni himoya qilish; kiberxavfsizlikni ta'minlash; pul yuvishga qarshi kurash va boshqalar. Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash tarmog'i (FinCEN) ham mavjud [8]. Bu jinoiy daromadlarni legallashtirishga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qiluvchi organlar to'plami bo'lib, uning bir qismi Bank siri to'g'risidagi qonun (1970) - AQSh moliya institutlarining davlat organlariga pul yuvish holatlarini aniqlash va bostirishda yordam berish majburiyatini o'rnatishdan iborat. Bank siri to'g'risidagi qonun – BSA 1970-yilda kriptovalyutalarning paydo bo'lishi bilan qabul qilinganligini hisobga olsak, uning normalari to'liq huquqiy tartibga solishni ta'minlay olmadi, buning natijasida FinCEN tomonidan BSA normalarini raqamli valyutalarga qo'llash imkoniyatini aniqlaydigan maxsus qo'llanma nashr etildi[247].

Ushbu xususiyatlar doirasida sud jarayoni 2013 yilda bo'lib o'tgan The US vs Faiella[248] jinoiy ishini ta'kidlash kerak. Ish syujetiga ko‘ra, ayblanuvchi Robert Faiella va Charli Shrem naqd va fiat pullarni bitkoinlarga almashtirib, ikkinchisini Silk Road foydalanuvchilarining hisob raqamlariga o‘tkazgan. Himoyachining ta'kidlashicha, Bitcoin pul emas, shuning uchun ayblanuvchilarning harakatlarini pul yuvish sifatida tan olish mumkin emas. Biroq, sud Bitcoin maqomini belgilashda Merriam Webster lug'atida pulning umumiy ta'rifiga tayandi, unda pul buxgalteriya birligi sifatida ishlasa va tovarlar va xizmatlar uchun to'lash uchun mo'ljallangan bo'lsa, har qanday narsa sifatida ifodalanishi mumkinligi ta'kidlangan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, AQShda v. Petrix[249], bu yerda ayblanuvchi mohiyatan xuddi shu harakatlarda, ya'ni pul mablag'larini o'tkazishda

[246]https://www.wired.com/images_blogs/threatlevel/2012/05/Bitcoin-FBI.pdf Виртуальная валюта Биткойн: уникальные возможности его использования представляют различные проблемы для сдерживания незаконной деятельности [Электронный ресурс]: Отчет ФБР о криптовалютах от 24.04.2012 г

[247]Кто и как регулирует криптовалюты в США. // Сетевой журнал «IHODL» [сайт]. https://ru.ihodl.com/analytics/2018-12-18/kto-i-kak-

[248]Материалы дела The US v. Faiella // Law of cryptocurrency [сайт]. URL https://www.lawofcryptocurrency

[249]Материалы дела № 15-CR-227A The US v. Petrix // Электронная библиотека судебных решений США «LEAGLE» [сайт]. URL: https://www.leagle.com/decision/infdco20161202c43

vositachilik harakatlarida (fiat pul - Bitcoin) ayblangan, ammo bu holatda sud ayblanuvchi tarafini oldi va Bitcoinni pul vositasi sifatida tan olmadi.

SEC (AQSh Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi) v. Trendon T Shavers[250]. Sud jarayonida, Bitcoin Saving and Trust platformasi asoschisi, sudlanuvchi Trendon T. Shevers tez qaytarilishi va yuqori foiz stavkalari bahonasida bitkoinlarga investitsiyalarni jalb qilgani ma’lum bo‘ldi.

Keyin u o'z sarmoyasini firibgarlik yo'li bilan qaytarib olish uchun Ponzi sxemasidan foydalangan. Sud jarayoni doirasida sudlanuvchi bitkoinlar AQSh qonunlari bilan tartibga solinadigan narsa emasligini ham aytdi. Biroq, sud bunday investitsiyalar, ular amalga oshirilgan shakldan qat'i nazar, qimmatli qog'ozlar sifatida tan olinishi kerak degan xulosaga keldi.

AQSh Ichki daromad xizmati 2014 yilda nizom e'lon qildi, unga ko'ra Bitcoin mulk sifatida belgilanadi va konvertatsiya qilinadigan raqamli valyutani sotish yoki almashtirish, shuningdek, tovarlar va xizmatlar uchun to'lash uchun foydalanish soliq oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. Bo’yin tovlagan taqdirda, aybdor amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi. Soliq miqdorini aniqlash uchun kriptovalyutaning sotish vaqtidagi AQSh dollaridagi qiymati hisobga olinadi[251].

Shunday qilib, Qo'shma Shtatlarda kriptovalyutalarning huquqiy maydoni bir sub'ekt hududidan boshqasiga sezilarli darajada farq qiladi. Federal qonunchilik mavjud bo'lmaganda, kriptovalyutalarning aylanishini juda batafsil tartibga solish AQSh darajasida amalga oshiriladi. Jinoiy ishlarda bunday tartibga solishni qo'llash masalalariga kelsak, bu yerda biz kriptovalyutaning huquqiy maqomining aniq ta'rifi bilan u amaldagi jinoyat qonunchiligiga osongina mos kelishini tasdiqlaymiz. Bu holda, asosan, virtual valyutaning iqtisodiy xususiyatlari hisobga olinadi, axborot xususiyatlari esa ikkinchi ahamiyatga tushadi.

Kriptovalyuta muomalasi doirasini belgilovchi qonunchilikni ishlab chiqqan birinchi mamlakatlardan biri **Yaponiya** hisoblanadi. 2014-yilgacha ushbu yo'nalishda qonunchilik bazasini yaratish uchun aniq shartlar yo'q edi, ammo 2013-yilda Tokiyoda joylashgan Mt.Gox ochiq savdo platformasining qulashi va uning ochiq joylarida taxminan 47% "sof" Bitcoin operatsiyalarining amalga oshirilishi Yaponiya hukumatini kriptovalyutalar bilan savdo qiluvchi kompaniyalar va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kriptovalyutalar uchun huquqiy

[250]Материалы дела №23090 SEC v. Trendon T. Shavers [Электронный ресурс]: URL: https://www.sec.gov/litigation/litreleases/2014/lr23090.htm

[251] Кто и как регулирует криптовалюты в США. // Сетевой журнал «IHODL» [сайт]. URL https://ru.ihodl.com/analytics/2018-12-18/kto-i-kak-

bazani ishlab chiqish bo'yicha ishlarni boshlashga undadi. Ushbu sa'y-harakatlarning natijasi qonunlar to'plamini yaratish bo'ldi, unga ko'ra Bitcoin birjalari faoliyati Moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA) orqali litsenziyalanishi kerak. Birjani ro'yxatdan o'tkazishning asosiy shartlari 10 million iyen (taxminan 88 ming AQSh dollari) miqdoridagi kapitalning mavjudligi, shuningdek, har yili moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va muntazam audit o'tkazish majburiyatidir. Shu bilan birga, kriptovalyuta bilan operatsiyalar 8% soliqqa tortiladi. Bitcoin, boshqa virtual valyutalar singari, qonuniy ravishda valyuta hisoblanmaydigan to'lov vositasi maqomini oldi, boshqacha aytganda, ular aktivlarga tenglashtirildi.

2017-yilda raqamli valyutalarning holati o‘zgardi va 1-apreldan Yaponiyada raqamli valyuta qonuniy to‘lov vositasi sifatida tan olindi, bu esa ular bilan bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha 8 foizlik soliq tugatilishini anglatardi. Biroq keyinchalik ushbu valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi treyderlar uchun 15 foizdan 55 foizgacha soliq belgilandi[252].

Shu bilan birga, fuqarolarning xavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan kriptovalyuta birjalari uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni nazarda tutuvchi qonun e'lon qilindi, xususan, bular kiberxavfsizlik darajasini oshirish, birja aktivlari va mijozlarning aktivlarini ajratish, shuningdek, shaxsiy identifikatsiya tizimini tashkil etish kabilardan iborat edi. Shuningdek, yangi talablar kompaniyalarning pul yuvishga qarshi global tizimga o‘tishini, shu jumladan anonim kriptovalyutalardan foydalanishdan butunlay voz kechishni ham o‘z ichiga oldi[253]. 2020-yil aprel oyida Yaponiyada yangi qoidalar kuchga kiradi, ular kriptovalyutalar holatiga va kriptobirjalarning ishlash tartibiga ham ta'sir qiladi. Xususan, raqamli valyutalarni kriptoaktivlar sifatida tan olish rejalashtirilmoqda[254] . Kriptovalyutani tartibga solish siyosatining kuchaytirilishi mamlakat iqtisodiyotini ta'minlash bilan bog’liq. Chunki kriptovalyutani tartibga soluvchi qonun qabul qilinishidan oldin ham ko’pgina operatsiyalar amalga oshirilgan. Qonun qabul qilingach, davlat aktivlarining bir qismi raqamli formatga ega bo’ldi. Birjalar xavfsizligi doimiy tashvishlarga sabab bo’lgan. 2018-yil boshida Yaponiyadagi eng yirik kriptobirjalardan biri *Coincheck* xakerlar hujumiga uchradi, natijada hujumchilar jami 500 million dollarlik kriptovalyutani o'g'irlab ketishdi.

[252] Япония признала криптовалюты законным платежным средством. // Российская газета [сайт]. URL: https://rg.ru/2017/04/01/iaponiia-priznala-

[253] Восток - дело тонкое: криптовалюты в Японии. // Сетевой журнал CoinSpot [сайт]. URL: https://coinspot.io/law/asia-and-africa/vostok-delo-tonkoe-

[254] Япония приняла новое законодательство в области регулирования криптовалют. // Сетевой журнал ForkLog [сайт]. URL: https://forklog.com/yaponiya-prinyala-novoe-zakonodatelstvo-v-oblasti-

Ikkinchidan, kriptovalyutalar muomalasiga qo‘shimcha cheklovlar Yaponiyada pul yuvish holatlari ko‘payganligi sababli o‘rnatilmoqda. Shunday qilib, Yaponiya Milliy politsiya agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda mamlakatda kriptovalyutalar orqali pul yuvishning 7 mingga yaqin holati qayd etilgan, bu o'tgan yilga nisbatan o'n baravar ko'pdir[255].

Jinoiy harakatlarni jinoiy-huquqiy baholashga kelsak, u Yaponiyaning amaldagi Jinoyat kodeksi bilan to'liq qamrab olingan va kriptovalyutaga nisbatan kodeksga maxsus o'zgartirishlar kiritilmagan. Bunday xatti-harakatlar 2017-yildan boshlab, kriptovalyutalarning davlat hududida qabul qilingan huquqiy holatiga asoslanadi, ular qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olingan va tegishli ravishda soliqdan ozod qilingan; jinoyat huquqi siyosati ularni boshqa ishonchli pul bilan teng asosda ko'rib chiqadi[256]. Shu munosabat bilan, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lgan kriptovalyutalar, shu jumladan pulning xususiyatlari va kompyuter ma'lumotlari xususiyatlari, yapon amaliyotida faqat kriptovalyutaning qiymat xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ularda kriptovalyuta bilan bog'liq jinoyatlar mulkka qarshi jinoyatlar deb tasniflanadi.

Estoniya kriptovalyuta bozori uchun haqiqiy “jannat”dir. Yevropaning kichik mamlakati o'z hududida kriptovalyuta aylanishiga nisbatan qulaylik nuqtai nazaridan darhol yetakchi o'rinni egallamadi. Dastlab Estoniya Markaziy banki raqamli valyutalarni moliyaviy piramidalarga tenglashtirib, odamlarni ulardan foydalanishdan tiyilishga chaqirdi. Estoniyada kriptovalyuta bozorining rivojlanishiga turtki bo'lgan birinchi qadam Yevropa sudining 2015-yil 22-oktyabrdagi qarori bo'lib, uning ma'nosi bitkoinlarni ishonchli valyutalarga almashtirish bo'yicha operatsiyalarni Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun QQSdan ozod qilishdir. Bu qaror Devid Xedkvist va Shvetsiya soliq politsiyasi[257] o‘rtasidagi huquqiy nizoni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilingan.

Ish materiallaridan ma'lum bo'lishicha, Xedkvist Internetda boshqa valyutalar uchun Bitcoin’ni almashtirish punktini tashkil etishga qaror qilgan va shuning uchun Soliq qonuni komissiyasiga murojaat qilgan, u yerda ular unga ushbu operatsiyalar QQSga tortilmasligini tushuntirgan. Shvetsiya soliq politsiyasi bunga rozi bo'lmadi va Oliy ma'muriy sudga murojaat qildi. Ikkinchisi tushuntirish talab qildi, u yerda kriptovalyuta almashinuvi operatsiyalari nihoyat soliqdan ozod qilindi, chunki Yevropa

[255] В Японии в 10 раз участились случаи отмывания денег при помощи криптовалют. // Сетевой журнал ForkLog [сайт] https://forklog.com/v-yaponii-v-

[256] Шарапов Р.Д., Минин Р.В., Капаева Е.О. Криптовалюта: уголовно-правовой аспект // Юридическая наука и правоохранительная практика 2 (44) 2018 г С. 45

[257] Дело Хэдквист против Шведской налоговой полиции https://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?docid=170305&doclang=EN

Ittifoqi qoidalariga ko'ra, valyuta ayirboshlash operatsiyalari, banknotlar va tangalar uchun soliq undirish taqiqlanadi. Xuddi shu sud kriptovalyutani tovarlar yoki xizmatlar sifatida emas, balki to'lov vositasi sifatida tasniflaganligi sababli, ushbu qoida u bilan tuzilgan bitimlarga nisbatan qo'llaniladi.

Estoniyada kriptovalyutalarni yaratish yo‘lidagi navbatdagi qadam jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. 2017-yil 27-noyabrda kuchga kirgan mazkur aktga ko‘ra, raqamli valyuta bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish Estoniya moliyaviy razvedka boshqarmasidan ikki turdagi litsenziyadan birini olish orqali mumkin: 1) virtual qiymatlarni naqd (fiat) mablag'larga almashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi provayder; 2) Virtual qiymat hamyon xizmati provayderi.

Ushbu faoliyat, Estoniya sud amaliyotiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatidan boshqa narsa emas - ya'ni muqobil to'lov usullari xizmatlarini ko'rsatish. Bundan kelib chiqadiki, ikkinchisini amalga oshiruvchi shaxslar litsenziya olishlari va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun talablariga rioya qilishlari shart[258]. Aks holda, ushbu talablarni buzgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, moddaga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Estoniya Respublikasi Jinoyat kodeksining 148[259], noqonuniy tadbirkorlik, shuningdek, boshqa moddalar, shu jumladan noqonuniy ravishda olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq moddalar.

Shunday qilib, mamlakatda kripto-biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarga qaramay, soliqqa tortishning yo'qligi va yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishning juda oddiy tartibi ko'rsatilgan qonunchilikka rioya qilish talablari juda qattiq. Bundan tashqari, yaqinda Moliyaviy nazorat organi boshqaruvi raisi Kilav Kesslerning kriptovalyutalardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish bo'yicha muhokamalar doirasida hukumatlararo moliyaviy harakatlar bo'yicha ishchi guruhi (FATF) yig'ilishida e'lon qilingan bayonotidan kelib chiqib,), tokenlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki boshqa yo‘l bilan bog‘langan shaxslar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish taklif qilinmoqda. Boshlang'ich

[258] Ефимова Н. А. К вопросу о регулировании первичного размещения монет (ICO) и криптовалюты в зарубежных странах: опыт Эстонии // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведенья № 5. 2018. С. 66 Уголовный Кодекс Эстонской Республики // Российский правовой портал: библиотека Пашкова https://constitutions.ru/?p=446

[259] Недолго музыка играла: криптовалютчиков в Эстонии хотят задавить пошлинами. // Новостное агентство «Sputnik» [сайт]. URL: https://ee.sputniknews.ru/economy/20190725/17324838/kriptovaljuta-estonia-

chora sifatida ularga "bir martalik" firmalarni bozordan chiqarib tashlash uchun davlat boji miqdorini oshirish taklif qilindi[260]. Bunday bayonotlar, birinchi navbatda, kriptovalyutadan jinoiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq.

Xitoy kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish masalalarida boshqa pozitsiyani egalladi. Dastlab, Bitcoinning shakllanishi davrida Xitoy qonunchiligi dunyodagi eng ilg'or qonunlardan biri edi. Tokenlar davlat hududida huquqiy nuqtai nazardan tovar sifatida qaralgan. Raqamli valyutalar savdosi amalga oshirilgan birjalar va veb-saytlar Telekommunikatsiyalar byurosida ro'yxatdan o'tishlari va vaqti-vaqti bilan o'z faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim etishlari kerak edi. Kriptovalyuta bilan operatsiyalar oddiy tovarlar bilan bir xil qoidalarga muvofiq soliqqa tortildi.

Keyin, 2013 yilda Xitoy Xalq banki "Bitcoin moliyaviy xavflarning oldini olish to'g'risida xabarnoma"ni nashr etadi[261]. Ushbu hujjatga ko'ra, banklarga kriptovalyutalardan foydalangan holda tranzaktsiyalarni amalga oshirish tokenlar aylanishi xavfsizligi bilan bog'liq muammolar tufayli taqiqlangan. 2016 yilda Xitoy kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarini ajratdi.

2017 yildan beri Xitoy barcha kriptovalyutalarni taqiqlab qo'ydi, bu esa birjalarning savdo operatsiyalarini to'xtatishiga sabab bo'ldi. Mamlakatda raqamli valyutalar almashtirilgan P2P bozorlari asta-sekin yopiladi va shundan so'ng offshor kripto almashinuvchilari ham bloklandi. 2018 yil iyul oyida Xitoy Xalq banki raqamli valyutalar ustidan yakuniy qarorni e’lon qildi. Kriptovalyutalar orqali pul yuvishga qarshi kurashda siyosat kuchaytirilmoqda.

2019-yilda Xitoy hukumati o‘zining kriptovalyutasini yaqinda ishga tushirilishini e’lon qildi, u davlat tomonidan to‘liq ta’minlanadi va uning qat’iy nazorati ostida bo‘ldi.

Shunday qilib, kriptovalyuta sohasini huquqiy tartibga solish bo'yicha mamlakatlarni uchta guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruh mamlakatlari bu masalani hal qilish choralarini ko'rmaydi va kuzatuvchi pozitsiyasini egallaydi, shu bilan birga fuqarolarni tokenlardan foydalanish xavfi haqida xabardor qiladi: BAA, Rossiya, Shveysariya va boshqalar.

Ikkinchi guruh mamlakatlari o‘z hududida kriptovalyuta muomalasini butunlay taqiqlab qo‘ydi: Xitoy, Bangladesh, Boliviya,

[260] Уведомление о предотвращении рисков, связанных с биткойнами Китайской комиссией по регулированию ценных бумаг. http://www.csrc.gov.cn/pub/newsite/flb/flfg/bmgf/zh/gfXwjfxq/201401/t201401

[261] FATF разработает стандарты для борьбы с отмыванием денег через криптовалюты. // Электронное периодическое издание «Ведомости». https://www.vedomosti.ru/finance/news/2018/09/06/780121

Ekvador va boshqalar. Uchinchi guruh mamlakatlari kripto aktivlarning huquqiy maqomi va foydalanish tartibini belgilab, o'z hududida raqamli valyutalarning muomalasini qonuniylashtirdilar. Ular quyidagilarni amalga oshirdilar: anonimlikni istisno qilish – foydalanuvchilarni aniqlash, birja platformalarini ro'yxatdan o'tkazish (foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish kafolatlari bilan), ular tomonidan organga hisobotlarni taqdim etish, kriptovalyuta faoliyatini nazorat qilish, aylanma ishtirokchilaridan soliq undirish, shuningdek huquqbuzarlarga nisbatan jarimalar belgilash vakolatiga ega. Bundan tashqari, ushbu chora-tadbirlar, qoida tariqasida, amaldagi jinoyat qonunchiligiga mos keladi va huquqiy maqomiga qarab, jinoyatlar tasniflanadi. Umumiy elementlar asosan noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlarni yuvish, noqonuniy biznes yoki noqonuniy bank faoliyatidan iborat.

Shuningdek, kriptovalyuta, bir hodisa sifatida, ikki tabiatga – ham iqtisodiy ham axborot xarakteriga ega ekanligini qayd etiladi. Bir tomondan, u ma'lum moddiy qiymatga ega bo'lib, to'lov vositasi vazifasini bajaradi, ikkinchi tomondan, u axborot olamining hodisasi bo'lib, axborot xususiyatlariga ega (masalan, kriptovalyutaning o'zi ma'lum matematik kod). Raqamli valyutalar muomalasi uchun qonunchilik bazasini yaratgan mamlakatlarda, birinchi navbatda, iqtisodiy komponent hisobga olinadi. Kuzatuvchi maqomidagi davlatlarda, huquqiy maqom o'rnatilmagan. Jinoiy himoya choralarini belgilash bevosita ushbu fuqarolik-huquqiy maqomning belgilanishiga bog'liq.

2018-yil sentabrida FATF (Finance Action Task Force on Money Leading) 2019-yilning yozigacha kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish boʻyicha xalqaro standartlarni ishlab chiqishi haqida xabar berilgan edi[262]. Ushbu standartlar universal bo'lishi va oxir-oqibat raqamli valyutalar uchun huquqiy asosga ega bo'lmagan mamlakatlar qolmaydi, deb taxmin qilingan, ammo bu standartlar hali ishlab chiqilmagan. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda kriptovalyuta muomalasi masalalari har qachongidan ham dolzarbdir, chunki ular amaliyotda tez-tez uchrab turadi, biroq qonunchilik bazasi yoʻqligi sababli sud va sudgacha boʻlgan jarayonda huquqni muhofaza qilish masalalari yuzaga keladi.

[262] Официальный сайт Центрального банка РФ httpwww.cbr.ru/press/pr/?file=27012014_1825052.html

РАҚАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИНГ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШ ВА ФОШ ЭТИШДАГИ ЎРНИ

Кудратов Бунёд Бахтиёрович
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Рақамли криминалистика илмий-тадқиқот интитути
Рақамли терговга кўмаклашиш бўлими бошлиғи

Аннотация: *мақолада ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида содир этилган жиноятларни тергов қилишда рақамли далилларнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Рақамли далиллар — қурилмалардан олинган ва жиноятларни исботлаш, жиноятчиларни аниқлаш ёки айбсизликни тасдиқлаш учун қўлланиладиган маълумотлардир. Тергов жараёнида тизим логлари, тармоқ трафиги, электрон почта ва файл тизимларидан олинган маълумотлар муҳим аҳамиятга эга. Муаллиф рақамли далиллар билан ишлашдаги ҳуқуқий ва техник муаммоларни кўриб чиқиб, сунъий интеллект ва блокчейн технологияларининг аҳамиятини таъкидлаган.*

Калит сўзлар: *рақамли далил, тармоқ трафиги, электрон почта, тизим логи.*

Ахборот технологияларининг жадал ривожланиши ва кенг тарқалиши билан бирга, бу соҳада содир этиладиган жиноятлар сони ҳам ортиб бормоқда.

Бундай жиноятларни самарали тергов қилиш ва фош этиш учун рақамли далиллардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Хусусан, ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, улар асосан виртуал муҳитда содир этилади, трансчегаравий хусусиятга эга, тез ўзгарувчан ва юқори даражадаги анонимлик билан ажралиб туради. Бу хусусиятлар уларни аниқлашва исботлашни мураккаблаштиради.

Рақамли далиллар - бу рақамли қурилмаларда сақланадиган, қайта ишланадиган ёки узатиладиган ва суд жараёнида фойдаланиш мумкин бўлган ҳар қандай маълумотлар. Бу маълумотлар жиноят содир этилганлигини исботлаш, айбдорни аниқлаш ёки айбсизликни тасдиқлаш учун ишлатилиши мумкин. Рақамли далиллар кенг қамровли бўлиб, улар компьютерлар, смартфонлар, тармоқ қурилмалари, булутли хизматлар ва бошқа рақамли технологиялардан олиниши мумкин.

Рақамли далиллар бу турдаги жиноятларни тергов қилиш ва фош этишда муҳим рол ўйнайди. Улар жиноят изларини сақлаш, жиноятчининг шахсини аниқлаш, жиноят механизмини тушуниш

ҳамда жиноят вақти ва жойини аниқлашда ёрдам беради. Рақамли далилларнинг асосий турларига тизим логлари, тармоқ трафиги, электрон почта ва мессенжер хабарлари, файл тизими маълумотлари киради.

Тизим логлари фойдаланувчиларнинг тизимга кириш ва чиқиш вақтлари, бажарилган амаллар, хатто хабарлар ва тизим конфигурациясидаги ўзгаришлар ҳақида маълумот беради. Бу маълумотлар жиноятчининг ҳаракатларини кузатиш ва жиноят вақтини аниқлашда муҳим рол ўйнайди.

Тармоқ трафиги эса IP-манзиллар, порт рақамлари, протоколлар ва маълумотлар пакетларини ўз ичига олади. Бу маълумотлар жиноятчининг жойлашувини аниқлаш ва унинг бошқа шахслар билан алоқаларини ўрнатишда ёрдам беради.

Электрон почта ва мессенджер хабарлари хабарлар мазмуни, жўнатувчи ва қабул қилувчи манзиллари, жўнатиш вақти ва санаси, иловаларни ўз ичига олади. Бу маълумотлар жиноятчиларнинг ўзаро алоқаларини ва жиноят режаларини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга. Файл тизими маълумотлари эса файлларнинг мазмуни, файл метамаълумотлари ва ўчирилган файлларни ўз ичига олади. Бу маълумотлар жиноят далилларини топиш ва жиноятчининг ҳаракатларини реконструкция қилишда ёрдам беради.

Рақамли далилларни тўплаш ва таҳлил қилиш жараёни бир неча босқичдан иборат.

Биринчи босқичда далиллар аниқланади ва сақланади. Бунда потенциал далил бўлиши мумкин бўлган рақамли қурилмалар аниқланади, хавфсиз олиб қўйилади ва далилларнинг бутунлигини таъминлаш учун чоралар кўрилади.

Иккинчи босқичда далиллар тўпланади. Бу жараёнда рақамли қурилмаларнинг нусхалари яратилади, тармоқ трафиги қайд этиладива булутли хизматлардан маълумотлар олинади.

Учинчи босқичда далиллар таҳлил қилинади. Таҳлил жараёни маълумотларни қидириш ва фильтрлаш, шифрланган маълумотларни очиш, ўчирилган файлларни тиклаш, хронологик таҳлил ўтказиш ва маълумотлар ўртасидаги боғлиқликларни аниқлашни ўз ичига олади. Сўнгги босқичда эса таҳлил натижалари асосида ҳисобот тайёрланади. Бу ҳисобот топилган далилларнинг батафсил тавсифи, таҳлил усуллари ва қўлланилган воситаларнинг тавсифи, хулосалар ва тавсияларни ўз ичига олади.

Рақамли далиллар билан ишлашда бир қатор муаммолар юзага келади. Техник муаммолар орасида шифрлаш технологиялари,

маълумотларнинг катта ҳажми ва тез ўзгарувчан технологиялар билан боғлиқ қийинчиликлар мавжуд. Ҳуқуқий муаммолар эса далилларнинг мақбуллиги масаласи, шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқи ва трансчегаравий ҳуқуқий масалаларни ўз ичига олади. Бундан ташқари, малакали мутахассисларнинг етишмаслиги ва махсус жиҳозлар ҳамда дастурий таъминотнинг қимматлиги каби ресурс билан боғлиқ муаммолар ҳам мавжуд.

Келажакда рақамли далиллар билан ишлаш самарадорлигини ошириш учун бир қатор истиқболли йўналишлар мавжуд. Булар орасида сунъий интеллект ва машинавий ўқитиш технологияларининг қўлланилиши алоҳида ўрин тутади. Бу технологиялар катта ҳажмдаги маълумотларни тезроқ ва самаралироқ таҳлил қилиш, аномалияларни автоматик равишда аниқлаш ва мураккаб алоқаларни топиш имконини беради.

Блокчейн технологиясининг қўлланилиши ҳам истиқболли йўналишлардан бири ҳисобланади. Бу технология далилларнинг бутунлигини таъминлаш, далилларнинг келиб чиқиш манбасини кузатиш имконияти ва рақамли далилларнинг ишончлилигини ошириш каби афзалликларга эга.

Булутли ҳисоблаш технологияларининг ривожланиши эса катта ҳажмдаги маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш, масофадан туриб далилларни таҳлил қилиш ҳамда халқаро ҳамкорликни осонлаштириш имконини беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, рақамли далиллар замонавий жиноятларни тергов қилиш ва фош этишда муҳим рол ўйнайди. Улар турли хил манбалардан олиниши мумкин ва кенг қамровли маълумотларни ўз ичига олади. Рақамли далиллар билан ишлаш махсус билим ва кўникмаларни, шунингдек махсус дастурий ва аппарат воситаларидан фойдаланишни талаб қилади. Бундан ташқари, рақамли далилларни тўплаш ва таҳлил қилиш жараёнида ҳуқуқий ва этик меъёрларга қатъий риоя қилиш зарур. Рақамли технологияларнинг ривожланиши билан бирга, рақамли далилларнинг аҳамияти ва уларни тўплаш ҳамда таҳлил қилиш усуллари ҳам доимий равишда такомиллашиб бормоқда.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛГАН ФИРИБГАРЛИКНИ ФОШ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Каримов Ваҳобжон
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни
муҳофаза қилиш академияси
профессори, ю.ф.д.
Таштемиров Анвар Алиқулович,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси,
Маъмурий ҳуқуқ кафедраси доценти.
E-mail: *anvartoshtemirov05031979@gmail.com*

Аннотация: *Мақолада ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этиш билан боғлиқ масалалар назарий, ҳуқуқий томонидан таҳлил қилиниб, жиноят процесси, криминалистика ва тезкор-қидирув соҳасидаги мутахассислар фикрларига асосланиб ушбу жиноятларни фош этиш борасида тегишли тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар. *Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик, кибержиноят, киберфирибгарлик, ижтимоий тармоқ, ахборот макони, банк пластик картаси, электрон манзил.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы, связанные с выявлением мошенничества, совершенного с использованием информационных технологий с теоретической, правовой точки зрения, и на основе мнений специалистов в области уголовного процесса, криминалистики и оперативного расследования даются соответствующие рекомендации по выявлению этих преступлений.*

Ключевые слова. *Мошенничество, совершенное с использованием информационных технологий, киберпреступление, кибермошенничество, социальная сеть, информационное пространство, банковская пластиковая карта, электронный адрес.*

Annotation: *the article analyzes issues related to the detection of fraud committed using information technology from a theoretical, legal point of view, and based on the opinions of experts in the field of criminal procedure, forensics and operational investigation, appropriate recommendations are given for identifying these crimes.*

Keywords. *Fraud committed with the use of information technology, cybercrime, cyberfraud, social network, information space, bank plastic card, electronic address.*

Республикамизда қонун устуворлигини таъминлаш, суд-ҳуқуқ тизимини ислоҳ қилиш, шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари бузилишининг олдини олиш, қонунни бузган шахсни жавобгарликка тортиш, жиноий тажовузлар натижасида фуқаролар ва юридик шахсларга етказилган мулкий зарарларни қоплаш бўйича кенг қамровли ислоҳотлар изчил амалга оширилмоқда. Хусусан, 2022-2026

йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг еттита устувор йўналиши бўйича Тараққиёт стратегиясида “ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда содир этилаётган янги турдаги жиноятлар, шу жумладан кибержиноятларни фош этиш бўйича тезкор-қидирув фаолиятини ислоҳ қилиш, қўшимча куч ва воситаларни жалб қилиш ҳамда ушбу жиноятларга қарши курашиш жараёнларида фуқароларнинг қадр-қиммати ва эркинлигини ҳимоя қилишнинг самарадорлигини янада ошириш”[1] каби долзарб вазифалар ижросини таъминлашда ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликка қарши курашиш фаолиятини тартибга солувчи қонунчилик нормалари ва уларни амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқни қўллаш амалиётини чуқур ва танқидий ўрганиб чиқиш долзарб масалалардан биридир.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик ёки интернет фирибгарлиги деб ном олган жиноятлар кўлами кенгайиб бормоқда. Уларга қарши курашишда бугунги кунда кадрлар салоҳияти, уларнинг билим ва кўникмалари даражасига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу ўринда жиноят ҳуқуқи назариясида киберфирибгарлик тушунчаси тўғрисида турли хил ёндашувлар мавжуд. Хусусан, В.К.Барчуковнинг фикрича, киберфирибгарлик комьпютер фирибгарлиги бўлиб, у ички маълумотлардан фойдаланган ҳолда фирибгарлик ва ишончни суиистеъмол қилиш орқали ўзганинг мулкига тажовуз қилишдир[2]. Д.А.Зикованинг фикрича, киберфирибгарлик жинояти компьютер технологиялари ёрдамида фирибгарлик, ишончни суиистеъмол қилиш орқали ўзга шахснинг пул маблағларини ўзлаштириш, унинг мулкига зарар келтириш ва ушбу мулкка эга бўлиш ҳисобланади[3]. М.А.Ефремова эса, «киберфирибгарлик» тушунчасини «компьютер маълумоти орқали фирибгарлик қилиш» тушунчаси билан бир хил эканлигини ва уларнинг синоним сўзлар ҳисобланишини таъкидлайди[4].

Юқоридаги олимларнинг фикрларига қўшилган ҳолда, таъкидлаш жоизки, хақиқатан ҳам киберфирибгарлик ахборот технологиялари ёрдамида амалга оширилади ва ўзга шахснинг мулкига, уларнинг ишончига кириш ёки ишончини суиистеъмол қилиш йўли билан эга бўлишга қаратилади. Бироқ, миллий қонунчилигимизда ахборот технологиялари тизими билан боғлиқ тушунчалар ва унинг амалга оширилиш механизми тўлиқ белгилаб берилмаган, фақатгина компьютер тизими билан боғлик айрим қоидалар мавжуд эканлиги билан ифодаланади. Шунингдек, мазкур

тушунча тор доирада, яъни ахборот технологиялари ва коммуникациялари негизида кўрсатиб ўтилган.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этиш методикасини такомиллаштириш бўйича услубий тавсияларни ишлаб чиқишнинг объектив хусусияти билишнинг ўзига хос объекти (аниқроғи объектлари) ҳисобланади. Бир томондан – қонун чиқарувчи томонидан ўзганинг мулкини талон-торож қилиш ёки ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқини сотиб олиш деб белгилаган фирибгарлик, бошқа томондан – ушбу жиноий фаолият ахборот технологиялар орқали маълумотларни киритиш, ўчириш, блокировка қилиш, ўзгартириш ёки бошқа турдаги аралашув орқали амалга ошириладиган виртуал ҳаракатдир. Ахборот технологиялари орқали амалга ошириладиган маълумотларни ахборот ва телекоммуникация тармоқларида сақлаш, қайта ишлаш ёки узатиш каби фаолиятларда номоён бўладиган ва шу орқали жиноятга оид аниқ далилий маълумотлар шаклида акс эттирилган жараёндир. Айнан шу шаклда тадқиқот объекти ушбу турдаги жиноятлар тўғрисида криминалистик аҳамиятга эга бўлган маълумотларни шакллантиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу хусусиятларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

биринчидан, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган фирибгарликлар бошқа турдаги фирибгарликлардан содир этилиш усули билан кескин фарқ қилади. Жабрланувчилар фирибгарлар билан муайян вақт (3-4 кун, 10-20 кун) давомида, баъзи вақтларда узоқроқ муддат (3 ой ва ундан кўп вақт) давомида ўзаро виртуал муносабатда бўладилар. Шунинг учун ҳам жабрланувчилар жиноят содир этилгандан кейин фирибгарнинг муомиласи, гапириш оҳанги, мулоқотга киришиш усули, айрим ҳолларда ташқи кўриниш белгилари тўғрисида тўлароқ маълумот беришлари мумкин;

иккинчидан, ахборот технологиялари орқали фирибгарлик содир этувчи жиноятчилар ўзиларининг IT соҳасида чуқур билимга эгалиги, бугунги кундаги замонавий технологиялар имкониятидан фойдаланиш кўникмасининг юқорилиги, ақл-фаросати, дунёқараши, фикрлаш доираси ва хулқ-атвори билан бошқа турдаги жиноятларни содир этувчи (ўғри, талончи, безори) шахслардан кескин фарқ қилади. Улар жиноятни содир этишда ўзларининг билими ва маҳорати, айёрлиги ва чапдастлиги каби қобилиятларини ишлатиб одамларни ўзига жалб этадилар, уларда ўзларига нисбатан ишонч ва қизиқиш уйғотадилар;

учинчидан, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик баъзи вақтларда фуқароларнинг ўз ноўрин

истаклари натижасида содир этилади. Жабрланувчилар фирибгарга нисбатан ўта ишонч ва очиқ кўнгиллик билдирадилар ва шу орқали ўзларининг алданиб қолганлигини сезмай қоладилар[5].

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, нафақат ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган фирибгарликларда балки, бошқа турдаги жиноятларда ҳам жиноятчининг шахси асосий роль ўйнайди. Бу борада биз кўриб чиқаётган соҳадаги фирибгарлар эса ўз "соҳаси" нинг билимдони сифатида анча кенг имкониятларга эга шахслар ҳисобланади. Одатда, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган фирибгарликлар аосан гуруҳ таркибида амалга оширилади. Шундай экан, гуруҳдаги ҳар бир иштирокчига унинг имкониятидан келиб чиқиб, тегишли вазифалар белгиланади. Бунда энг катта "иш" ни ижтимоий тармоқ орқали (телефон, Telegram, Instagram, Whats App ва ҳ.к.) жабрланувчи билан мулоқотга киришувчи амалга оширади, шу боис фирибгарликка хос индивидуал хусусиятлар айнан гуруҳнинг ушбу иштирокчиларида намоён бўлишини кузатиш мумкин. Бошқалар эса вазифалар тақсимотини амалга ошириб уни назорат қилиб турувчи раҳбарлик, маълумотлар алмашинувини таъминловчи воситачилик, ахборот технологиялари орқали маълумотларга ишлов бериш вазифасини амалга оширувчи техник мутахассислик каби фаолият турлари билан шуғулланишлари белгиланади.

Шу ўринда, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган фирибгарлик жиноятларида жиноятчи ва жабрланувчи бир бирини кўриши шарт эмаслиги, яъни билвосита мулоқотга киришиш орқали ҳам жиноятчилар ўз мақсадларини осонгина эришаётганлиги бугунги кундаги ушбу соҳадаги энг катта муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Бундай турдаги жиноятларнинг мураккабликларидан яна бири, нафақат жиноятчи ва жабрланувчи, балки гуруҳ иштирокчилари ҳам кўпгина ҳолларда ўзаро бир бирини кўрмасдан, билмасдан, танимасдан фақатгина гуруҳ етакчисининг кўрсатмалари орқали ижтимоий тармоқларда мулоқотга киришиши натижасида уларнинг шахсини аниқлашга бўлган уринишларни имконсиз даражага тушириб қўймоқда. Албатта, бу жараёнда мулоқотни таъминлаб берувчи ижтимоий тармоқларнинг ўрни ва аҳамияти қанчалик катта эканлигини ҳис этиш мумкин.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик жиноятларининг жамият учун хавфи сўнги вақтларда янада ортиб бормоқда. Чунки, ижтимоий тармоқлар дастлаб одамлар орасида асосан мулоқот қилиш, маълумот алмашиш воситаси

сифатида хизмат қилган бўлса, ҳозирда оддий бир инсоннинг оилавий ёки кундалик харажатлари учун амалга оширадиган тўлов воситаси бўлиш билан бирга халқаро даражадаги мисли кўрилмаган миқдордаги молиявий муносабатларни амалга оширишнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилмоқда.

Ҳар қандай ҳолатда ҳам фирибгарларнинг айёрлиги, уддабуронлиги бевосита фирибгарлик жиноятини фош этишни қийинлаштиради. Шу боис тезкор суриштирувни амалга оширувчи ходимлар фирибгарларга оид ўзига хос таърифномаларни билишлари лозим. Бунда муайян гумонланаётган шахс ва жабрланувчи тўғрисидаги маълумотларни атрофлича ўрганиш талаб қилинади[6].

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликнинг криминалистик тавсифи элементлари қуйидагилардан иборат: жиноят содир қилиш тўғрисидаги дастлабки ахборотлар; фирибгар шахси; жиноятнинг содир этилишидаги шарт-шароитлар; фирибгарликнинг содир этилиш йўли, уни яшириш усуллари ва ўзига хос оқибатлари; жиноятнинг содир этилишига имкон берган сабаб ва шарт-шароитлар.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликдан жабрланган шахслар ёки уларнинг қариндошлари берган аризаларда, айрим ҳолларда эса давлат, жамоат, корхона ва муассасалардан келиб тушган мурожаатларда жиноят содир этган шахс тўғрисида етарлича маълумотлар қайд этилмайди. Шу билан бирга, жиноят ҳодисаси, унинг содир этилиш механизми, эпизодлари ва бошқа иш учун муҳим ҳолатлар тўғрисида етарлича маълумотлар бўлмайди.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликлар бўйича дастлабки маълумотларнинг таснифини аниқлаш терговчига жиноят ишини қўзғатиш ёки қўзғатишини рад қилиш тўғрисидаги масалани ҳал этишга, содир бўлган воқеанинг таърифи, жиноятни содир қилиш йўли ва уни яшириш усуллари, жиноятчининг шахси тўғрисидаги асосли гумонларни ишлаб чиқишга ёрдам беради ва натижада содир этилган жиноятни фош этиш бўйича вазифаларни тўғри баҳолаш, унинг йўналишини белгилаш ва фирибгарни қидириш ҳамда у томонидан қонуний ўзлаштирилган мулкни топишда ўзига хос аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликнинг содир этилиши кўпроқ объектив омиллар билан белгиланади[7]. Уларга тажовуз қилинаётган предмет хусусияти, унинг вақти, жойи ва жиноят содир этишнинг бошқа объектив шарт-

шароитларини киритиш мумкин. Ахборот технологиялари кенг қўлланилаётган ҳамда молиявий хизматлар истеъмолчилари билан ўзаро муносабатларда масофавий хизмат кўрсатиш каналлари кенгайиб бораётган ҳозирги шароитда ишонувчан ҳамда молиявий саводхонлик даражаси етарли бўлмаган фуқароларга нисбатан фирибгарлик ҳаракатлари кузатилмоқда. Бу каби фирибгарлик ҳолатлари банк картаси эгасининг хабарисиз унинг карта ҳисобварағидан пул маблағини ечиб олиш, пароль ва ПИН-кодларни ўғирлаш ва бошқа ноқонуний фаолият турлари билан боғлиқ[8].

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик ўйлаш учун вақт қолдирмай, турли гаплар билан чалғитиб, карта маълумотларингизни айёрлик билан қўлга киритади ёки ёлғонларига ишонтириб, пул маблағларини уларга ўз хоҳишингиз билан ўтказиб беришга ундайди. Шу сабабли, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарларнинг турли баҳоналар билан банк картадаги маълумотларини (карта рақами, ПИН-код, шунингдек, СМС-код ва бошқа шахсий маълумотлар) билиб олишга уринишларига жавоб бермаслик керак.

Агарда шахсга ўзини банк, ҳуқуқни муҳофаза қилиш идораси ёки бирон савдо ташкилоти ходими деб таништирган нотаниш фуқаролардан қўнғироқ бўлганда, уларнинг сўзларига ёки кўрсатмаларига амал қилишга шошилиш керак эмас ва шахсий маълумотларини ошкор қилмаслик керак. Ҳар қандай шароитда ҳам банк карта тўғрисидаги маълумотларни (карта рақами, ПИН-код, банк картасининг олд қисми расмлари) ҳамда ўз шахсий маълумотларини бегона фуқароларга ошкор қилиш ва юбориш мумкин эмас.

Жиноятни содир қилиш йўлини аниқлаш учун жиноятчининг тегишли малакалари даражасини белгилаш, яъни жиноятни содир этишда қўлланилган усул, тажовуз қилинаётган мулк ва унинг эгасини аниқлаш катта аҳамиятга эгадир. Жумладан, бугунги кунда ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик ўзгалар мулкини талон-тарож қилишнинг нисбатан кўп тарқалган тури бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги кунда фирибгарликнинг умумий динамикаси, унинг кўринишлари кўпайиб бораётганлиги ҳам мавзунинг долзарблигидан далолат беради. Ундан ташқари, ҳаёт кечириш учун зарур маблағларни одамларни алдаш йўли билан топаётган шахс фақат жиноятчи сифатида хавфли бўлмай, унинг қилмиши туфайли давлатга, фуқароларга моддий зарар етказилиши билан бир қаторда, фирибгарлик оқибатлари аҳолига, айниқса ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бундай ўсиш динамикаси

фирибгарликка қарши курашишнинг замонавий усулларини жорий этишни тақозо қилади.

Айни пайтда мамлакатимиз бутун дунёда авж олган жиддий иқтисодий рақобат шароитида иқтисодиётни барқарорлаштириш ва ривожлантириш йўлидан бормоқда. Замонавий ахборот-телекоммуникация тизимлари ва молия-банк секторини такомиллаштиришсиз иқтисодиётни ривожлантириш мумкин эмас, бу эса, ўз навбатида, янги технологияларни ишлаб чиқиш ва банк хизматларининг жозибадорлиги, самарадорлиги ва ишончлилигини ошириш воситаларини излашни тақозо этади[9]. Шубҳасиз, бундай воситалардан бири банк пластик картаси бўлиб, у ўзига хос, кўп функцияли банк маҳсулотидир. Замонавий тараққиёт билан бирга ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик ҳам тобора замонавийлашиб, энг сўнгги ахборот-коммуникацион технологиялар (АКТ) воситаларини қўллаган ҳолда содир этилмоқда.

Дунёда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар ҳамда рақамли иқтисодиёт ривожланиши, хусусан, мулкий характердаги битимларни онлайн интернет платформалари орқали расмийлаштиришини оммалашиши билан мулкий ҳуқуқлар дахлсизлигини таъминлашга оид қонун ҳужжатларини такомиллаштириш асосий вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Дунё иқтисодий тизимидаги жадал ўзгаришлар замирида фирибгарлик содир этиш анча осонлашди ва у дунёда латентлиги юқори бўлган жиноятлардан бирига айланди. Жумладан, PwC халқаро илмий тадқиқот маркази томонидан 2024 йилда ўтказилган тадқиқотларга кўра сўнгги 2 йил ичида дунёнинг етакчи компаниялари иқтисодий жиноятчилик натижасида кўрган зарарининг 47 фоизи фирибгарликка тўғри келиши, жорий йилда эса ушбу компанияларга 42 млрд доллар миқдоридаги зарар етказилганлиги сўнгги 20 йилдаги энг юқори кўрсаткич сифатида қайд этилган[10].

Банк карталари, турли хил молиявий “пирамидалар” ва бошқа янгича шаклдаги фирибгарлик жиноятлари унинг умумий жиноятчиликдаги салмоғини тобора ошириб бормоқда. Мисол учун, молиявий пирамида тузишда айбдор оғзаки ёки ёзма битим тузиб, ушбу битим шартларига амал қилади, битим шартлари бўйича белгиланган фоизлар ўз вақтида тўлаб борилади, битимда назарда тутилган вақт келганида пуллар тўлиқ қайтарилади.

Бу билан айбдор кўпроқ фуқароларни ўзининг жиноий “молиявий пирамида” сига жалб қилади. Бунда айбдор янгидан пул киритаётган фуқароларнинг пуллари эвазига муқаддам олинган мажбуриятларини бажариб боради.

Айбдор қабул қилиб олган пуллари учун банклар ва бошқа кредит ташкилотларига нисбатан юқори фоиз тўлаб, пулларни қайтарилишидаги қатъий интизоми эвазига ўзининг “мижозлари” ни сонини кўпайишига эришади.

Бунда фуқаролар томонидан ушбу “моливий пирамида”га кириталётган пуллар ҳеч нима билан кафолатланмаган бўлиб, пул тушуми тўхтаб қолса, моддий қимматликлар киритган барча фуқаролар ўзларини моддий қимматликларини тиклай олмайдилар, яъни мазкур фаолиятнинг охири кўплаб фуқароларни касодга учратиш билан тугайди.

Шунингдек, хизмат кўрсатиш, электрон савдо соҳаларида шу жумладан, интернет орқали авиачипталар, маиший техника ва бошқа маҳсулотларни сотиб олиш жараёнида интернет фирибгарликни содир этиш ҳолатлари кўплаб кузатилмоқда.

Фирибгарлар томонидан АКТ воситаларининг замонавий турларидан фойдаланиб жиноят содир этилган ҳолатларда қилмишни квалификация қилишда фирибгар томонидан қўлланилган замонавий воситаларни “компьютер техникаси воситаси” сифатида малакалашда вужудга келаётган муаммоларни бартараф этиш учун айнан норманинг шу қисмини қайта таҳрирдан ўтказиш лозим. Фуқароларнинг фирибгарлар таъсирига тушиб қолиш ҳолатлари йилдан йилга кўпаймоқда. Айрим шахсларнинг фирибгарликни касб этиб олиши, кўплаб инсонларни алданиб қолишга сабаб бўлмоқда.

Фирибгарликка қарши курашда энг аввало, уни олдини олиш ва барвақт аниқлаш масалалари долзарб масалалардан бири саналади. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тақдим этилган маълумотларга кўра, 2024 йилнинг 9 ойи мобайнида банк пластик карта эгаларига етказилган моддий зарар миқдори 2022 йилда 6 млрд., 2023 йилда 80 млрд., 2024 йилнинг 9 ойи давомида 286,8 млрд. сўм миқдорни ташкил этган, шундан ундирилган пул маблағлари миқдори 2022 йилда 2 млрд., 2023 йилда 9 млрд., 2024 йилнинг 9 ойи давомида 12 млрд. сўм миқдорни кўрсатмоқда. Биргина сўнгги 9 ойдаги қайтарилган маблағлар миқдори ўзлаштирилган маблағга нисбатан атиги 4,2 %ни ташкил этганлиги ҳам ачинарли ҳолатдир.

Аҳолининг ҳуқуқий билимларини оширишга доир вазифаларнинг умумий тусда белгиланганлиги ҳамда уларни амалга оширишнинг аниқ таъсирчан механизми мавжуд эмаслиги, жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш борасидаги ишларнинг самарасиз олиб борилаётганлигини кўрсатади.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликнинг содир бўлиш жараёнида жабрланувчиларнинг ўзлари кўпинча ўз ҳаракатлари билан жиноят содир этилишига сабабчи бўлиб қоладилар. Фирибгарликнинг келиб чиқишига кўпинча айрим фуқароларнинг бахиллик, очкўзлик, пулга ҳирс қўйиш, тез бойиб кетишга ва бунинг учун ноқонуний равишда маълум имтиёзларни ёки қимматбаҳо нарсаларни ўзлаштиришга ҳаракат қилишлари сабаб бўлади. Бундай «жабрланувчилар» фирибгарлик тўғрисида ички ишлар органларига хабар бера олмайдилар, фирибгарлар ҳам ушбу ҳолатни ҳисобга оладилар ва бу уларга қўл келади. Жабрланувчининг шахсини ўрганишда ва жиноят содир бўлишида, унинг роли қандай эканлигини ёдда тутиш керак, чунки у томонидан ҳам жиноят содир этиш ёки унга суиқасд қилиш имконияти бор.

Шундай қилиб, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этишда исботланиши лозим бўлган ҳолатлар мавжуд бўлиб, уларга жиноятни содир этиш усули, жиноят содир этилишида жабрланувчининг роли, фирибгарлик жиноятининг содир этилишига имконият яратган шароитлар киради.

ПРОКУРОРНИНГ НАЗОРАТ ВАКОЛАТЛАРИНИ ЎЗГАРИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР (жиноят процесси мисолида)

Иброхимов Бахтиёр Тойиржонович,
Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси мустақил изланувчиси

Ўзбекистон истиқлолга эришгандан сўнг прокурор назоратини ҳуқуқий тартибга солиш даврида сезиларли ўзгаришларга дуч кела бошлади, хусусан судга қадар иш юритиш босқичида қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасининг судлар томонидан қўлланилиши билан боғлиқ жараёнлар.[1]

Терговга қадар текширув, тезкор-қидирув фаолияти, суриштирув ва дастлабки тергов устидан суд назорати тасдиқланиши билан прокурор назорати таъқиб органларининг процессуал ҳаракатларининг қонунийлиги ва асослилигини таъминлашнинг ягона воситаси бўлмай қолди. Маълумки, ислоҳотлар, биринчи

[1] "Судга қадар иш юритиш босқичида қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасининг судлар томонидан қўлланилиши тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг Қарори, 14.11.2007 йилдаги 16-сон.

навбатда, прокурорнинг жиноят ишини қўзғатиш босқичида, суриштирув ва дастлабки тергов давридаги ўрни ва ролига таъсир кўрсатди. Бироқ, процессуал мажбурлов чораларини қўллашда прокурорнинг ваколатлари доирасидаги ўзгаришлар, прокурор жиноят иши юритувида иштирок этиши энг муҳим процессуал кафолат сифатида ўз аҳамиятини йўқотмади. Бугунги кунда, прокурор жиноят процессида асосий иштирокчиларидан бири бўлиб қолмоқда. Шу билан бирга, прокурор назорати фаолиятининг мазмун-моҳияти масалалари ҳамон илмий доирада диққат марказидадир.

Албатта, бу ислоҳотлар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Бинобарин, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 27-моддаси учинчи қисмида "Шахсга нисбатан ҳибсга олишга, қамоққа олишга ва қамоқда сақлашга фақат суднинг қарорига кўра йўл қўйилади. Шахс суднинг қарорисиз қирқ саккиз соатдан ортиқ муддат ушлаб турилиши мумкин эмаслиги белгиланиб қўйилган".[2]

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (кейинги ўринларда ЖПК) 29-моддасига биноан, эҳтиёт чораларини қўллаш ёхуд қамоқда сақлаш ёки уй қамоғи муддатини узайтириш масалалари билан боғлиқ илтимосномаларни суд томонидан кўриб чиқилади.[3]

Шунингдек, "Прокуратура тўғрисида"ги Қонуннинг 28-моддасида суриштирувчи, терговчи тақдимномасига биноан, эҳтиёт чораси сифатида қамоқда сақлаш ёки уй қамоғи ва айбланувчининг тиббий муассасада бўлиши муддатини узайтириш тўғрисида судга илтимоснома киритади.[4]

Бу тенденциялар, албатта қонун чиқарувчи томонидан қабул қилинган прокурорнинг ваколатларини чекловчи нормаларнинг ҳаммаси ҳам муайян объектив воқелик билан асосланган ва такомиллаштирилган.

Чунончи, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексининг умумий қоидаларига мувофиқ, жиноят ишларини юритиш халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этган нормаларига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг бошқа давлатлар билан тузилган шартнома ва битимларига асосланганлиги мустаҳкамлаб қўйилган.[5]

---

[2] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
[3] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
[4] Ўзбекистон Республикасининг "Прокуратура тўғрисида"ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 168-модда.
[5] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

Демак, жиноят процессининг дастлабки босқичида эҳтиёт чорасини қўллаш билан боғлиқ масалалар яъни суд фаолиятининг ҳуқуқий асоси Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқ тизимида амалга оширилган халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳам ўз ичига олади.

Мисол учун, “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги Халқаро Пактнинг 9-моддаси 3-бандида, жиноий айблов бўйича ҳибсга олинган ёки ушлаб турилган ҳар бир шахс зудлик билан судья ёки қонун бўйича суд ҳокимиятини амалга ошириш ҳуқуқи бўлган бошқа мансабдор шахс ҳузурига келтирилади ва оқилона муддатда суд муҳокамаси ўтказилиши ёки озод қилиб юборилиши ҳуқуқига эга. Суд муҳокамасини кутаётган шахсларнинг қамоқда сақланиши умумий қоида бўлмаслиги керак, бироқ озод қилиш судга келиш кафолатлари берилишига, суд муҳокамасига унинг ҳар қандай босқичига келишга ва, зарур ҳолларда, ҳукм ижро этилиши учун келишга боғлиқ қилиб қўйилиши мумкин.[6]

Эҳтиёт чоралари шахснинг процессуал чеклашнинг энг қатъий шаклидир. Эҳтиёт чораси - жиноят содир этишда гумонланаётган шахсга нисбатан келгусида жиноятни давом эттиришини олидини олиш ва жиноят процессида иштирок этишини таъминлаш мақсадида қўлланиладиган мажбурлов чораларининг бир тури ҳисобланади.

Баъзилар эҳтиёт чорасини қўллашни прокурор санкция асосида амалга ошириш зарурлиги тўғрисида фикр билдирсалар, айримлар олимлар эҳтиёт чораси суд рухсати орқали амалга ошириш жиноят процессини демократлаштириш воситаси деб билишади.[7]

Бизнинг фикримизча, миллий ҳуқуқ тизимимизга халқаро-ҳуқуқ нормаларни имплементация қилиниши, яъни судга қадар иш юритиш босқичида қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасининг судларга ўтказилиши жиноят процессида шахс ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини таъминлайдиган қўшимча процессуал воситалар ва механизмлар сифатида қараш лозим. Ушбу ваколатларни судларга берилиши, прокурор ваколатларини чекланишига олиб келадими деган савол ўринлидир. Ахир, бу масалалар прокурорнинг асосий функцияси билан боғлиққу деган фикр бизни ўйлантириб қўяди. Келинг шу мунозарали саволни атрофлича таҳлил қилиб чиқамиз.

---

[6] Ўзбекистон Республикаси мазкур Халқаро пактга Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 31 августдаги 127-I-сонли “1966 йил 16 декабрдаги фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактга қўшилиш ҳақида”ги қарорига асосан қўшилган.

[7] Шодиев Ғ.М. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи тергов ҳаракатлари устидан суд назорати: Юрид. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2010. – 5 б. Пакирдинов М.А. Санкция прокурора в досудебном производстве. // Вестник КазНУ. Серия юридическая. - № 1.- 2004.

Агар Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 55-моддаси иккинчи қисмига назар ташлайдиган бўлсак, “Ҳар кимга мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи берилган”. Яъни бузилган ўз ҳуқуқлари ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш мумкин.[8]

Шунингдек, ЖПКнинг 27-моддасига кўра, жиноят процесси иштирокчилари ва бошқа шахслар, шунингдек жиноят ишини юритишдан манфаатдор бўлган юридик шахсларнинг вакиллари белгилаб қўйилган тартибда ва муддатда терговга қадар текширув, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи мансабдор шахслар, суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья ва суднинг процессуал ҳаракати ёки қарори устидан шикоят беришга ҳақлилиги белгилаб қўйилган.[9]

Ёхуд, ЖПКининг 338-моддасига кўра, суднинг ажрими устидан эса юқори судга шикоят қилиниши.[10] Демак, судгача бўлган иш юритишда мансабдор шахсларининг қонунга хилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қабул қилган қарорлари устидан судга шикоят қилиш ва назорат қилиш кенг тарқалган ижобий қаралади.

Бизнингча, айрим прокурор ваколатларини (санкция) судга берилиши кўпроқ фуқароларнинг қонуний манфаатларини ҳисобга олганлиги нуқтаи назардан тўғридир. Негаки, прокурор кўпроқ жиноятларни очиш ва айблов вазифасини бажариш учун жавобгардир. Агар амалиётга назар ташлайдиган бўлсак, кўпроқ прокурор фаолияти қонуннинг аниқ ва қатъий бажарилишини таъминлашга қаратилган қонун қўриқчиси сифатида эмас, балки жиноят иши юритилишида айблов (тараф) натижаларидан манфаатдор бўлган шахс сифатида иштирок этади. ЖПК ва “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунларда прокурорнинг асосий вазифаси жиноят содир этган шахсни аниқлаш ва унга нисбатан қонунда назарда тутилган жазо қўлланилишини таъминлаш ҳисобланади (ЖПК 15-модда). ЖПК 33-моддасига кўра, прокурор суриштирув ва дастлабки тергов босқичларида қонуннинг бузилишини аниқлаш ва бартараф этиш учун қонунда назарда тутилган чора-тадбирларни ўз вақтида кўриши шарт ҳисобланади. Шундай қилиб, прокурорнинг асосий функцияси таъқиб қилиш ва айблов билан боғлиқ. Бундан ташқари, “Судлар тўғрисида”ги

[8] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
[9] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
[10] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

Қонуннинг 4-моддасига мувофиқ, суднинг асосий вазифалари фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари, инсон ҳуқуқлари халқаро шартномаларида кафолатланга ҳуқуқлари, эркинликлари, юридик шахсларни ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборатдир.[11] Суд ўз ваколатини амалга оширда доимо беғараз ва холис тараф этади. Демак, суд прокурорга қараганда кўпроқ фуқароларни ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш қаратилган.

Аммо, суд назорати прокурор назоратини ўрнини алмаштира олмайди. Ва, буни тасдиқлаш учун бир қанча сабабларни келтириш мумкин: **биринчидан,** *жиноят иши бўйича суриштирув ва терговнинг боришини прокурор назорат қилади яъни судгача бўлган процессда прокурор назорати жиноят иши қўзғатилган пайтдан эътиборан ва тугалланган жиноят иши судга юборилгунга қадар ёки жиноят ишини тугатиш тўғрисида қарор қабул қилингунга қадар амалга оширилади, бу эса ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш ва уларга чек қўйишга ёрдам беради*; **иккинчидан,** *прокурорга жиноий иш бўйича барча керакли маълумотлар ўз вақтида келиб тушади ва тезкорлик (таъсир чора-тадбирларни кўриш) билан ҳаракат қилиши мумкин, бунда суднинг вазифалари иккинчи ўринни эгаллайди*; **учинчидан,** *жиноят иши юритаётган мансабдор шахслар томонидан берилган маълумотлар прокурорга давом этаётган суриштирув ва тергов ҳақида тўлиқ тасаввур эга бўлади, бу эса тўғри қарор қабул қилишга ёрдам беради. Суд эса муайян жиноят ишининг моҳиятини тўлиқ тушунмаган ҳолда, эҳтиёт чораси сифатида қамоққа олишни асоссиз равишда рад этиши ёки аксинча, рухсат бериши мумкин. Буларнинг барчаси, шубҳасиз, судгача бўлган иш юритишда назоратининг сифатига, хусусан, қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллашга таъсир қилади*; **тўртинчидан,** *суд назорати суд фаолиятининг ўзига хос хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, фақат вақти-вақти билан амалга оширилиши мумкин, мисол учун жиноий таъқиб қилувчи органларнинг хатти-ҳаракатлари ва қарорлари устидан шикоятни кўриб чиқишда ёки айрим процессуал ҳаракатларга рухсат беришда* (масалан, ҳибсга олиш).

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қамоққа олишга санкция бериш ҳуқуқи судларга ўтказилишининг ижобий ва салбий томонларни таҳлил қиламиз: 1) биз юқоридаги параграфларда таъкидлаганимиздек, қамоққа олиш санкция бериш ҳуқуқи судларга ўтказилиши судга қадар иш юритишда судда тарафларда

[11] "Судлар тўғрисида"ги ЎзР Қонуни, 28.07.2021 йилдаги ЎРҚ-703-сон.

тортишувчанлик принципи юзага келади яъни тарафларда тенг имкониятлар юзага келади (фикр билдириш, далилларни тақдим этиш). Бундай ҳолда таъқиб томонда, суднинг розилигини олиш учун асосли ва етарли тақдим этиш учун кўпроқ ҳаракат қилишга тўғри келади, суд эса, холис ва беғараз иштирокчи сифатида тарафларни тинглайди ва қарор қабул қилади; 2) қамоққа олиш сакция судларга берилиши салбий оқибатларга олиб келиши мумкин, негаки судгача бўлган даврда эҳтиёт чорасини кўллаган судья, келгусида худди шу ишни кўриб чиқиши мумкин, бу туман миқиёсида кўп учрайдиган ҳолат, агар судга бўлган даврда судья нотўғри мажбурлов чораларини қўллаганлигини аниқласа ёки хато йўл қўйганини билса, унда суд муҳокамасида судьяда холислик ва беғаразлик масалаларига шубҳа уйғотади, бундай ҳолатда хато йўл қўйганини билса, ҳар қандай судья судланувчини айбдор деб ҳукм чиқаришга ҳаракат қилади. Айниқса, суд тизимида корпоративлик мавжуд (дўстона муносабат, курсдош, устоз ва шогирд анъаналари, симпатия, боғлиқлик, коррупция ва бу ҳолат жиноят процесс иштирокчилар ўртасида шубҳа туғдирмаслик лозим) ва бу салбий таъсирини олдини олади. Қамоққа олиш эҳтиёт чораси қўлланилиши шахснинг айби тўғрисидаги хулосани олдиндан белгиламайди (Конституция 28-модда), жиноят ишини юритаётган мансабдор шахс (суриштирувчи, терговчи) фақат далилларни тўплайди ва тақдим этади ва бу амалий жиҳатдан судьянинг ҳукм чиқаришдаги холислигига таъсир қилмаслиги керак. Шу мақсадда, агар миллий жиноят процессуал қонунчилигимизга тергов судьяси институтини жорий қилинсагина, бундай ҳолатни истисно қилиш мумкин. Ва, бу суд тизимига салбий таъсир ўтказмайди; 3) прокурор таъқиб орган бўлган учун суриштирувчини, терговчинига (эҳтиёт чорасини қўллаш тўғрисидаги илтимосномани) қўллаб-қувватлаши мумкин.

Келинг, шу процессуал ҳаракатлар механизмини таҳлил қилиб чиқамиз. Бу процессуал ҳаракат ЖПК 243-моддасида батафсил ёритилган. Айтиш мумкинки, дастлаб суриштирувчи, терговчи шахсга нисбатан қамоққа олиш тўғрисидаги эҳтиёт чорасини қўллаш учун тегишли қарор қабул қилади. Бунда, суриштирувчи, терговчи шахсга нисбатан қамоққа олиш тўғрисидаги эҳтиёт чорасини қўллашда прокурорни четлаб ўтиши мумкинми деган савол туғилади, яъни суриштирув ва дастлабки тергов ҳаракатини ўтказишга рухсат сўраб мустақил равишда судга мурожаат қилишга ҳақлими, албатта хақли эмас, негаки суриштирувчи ва терговчи фақат прокурорнинг розилиги билан судга тегишли илтимоснома билан мурожаат қилиш мумкин. Бошқа қилиб айтганда, суриштирувчи ва терговчи

томонидан берилган илтимоснома фақат прокурорнинг ижобий қарори билан судга юборилиши мумкин. Суд (судья) қамоққа олиш тўғрисидаги илтимоснома олгандан якка тартибда тегишли материалларни ўрганиб ва тарафларни иштирокида кўриб чиққандан сўнгина у ёки бу қарорни қабул қилади.

Юқоридагилар шуни англатадики, шахснинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи суриштирув, дастлабки тергов ҳаракатини амалга ошириш тўғрисидаги қарорни қабул қилишда учта субъект – (суриштирувчи) терговчи, прокурор ва суд иштирок этаётганлигини англатади, уларнинг ҳар бири бу жараёнда ўзига хос рол ўйнайди.[12]

Мисол учун, (суриштирувчи) терговчи – дастлабки тергов ҳаракатларида жиноят ишини қўзғатишга фактик асослар мавжудлигини, далилларни тўплаш ва текшириш нуқтаи назардан ҳаракат қилади (ЖПК 43, 46[1]-боб).

Прокурор – суриштирувчи ва терговчи томонидан қабул қилинган қарорнинг қонунийлиги ва асослилигини (тўғри баҳоланганлигини текширади) текшириш (қўшимча далилларни сўраши мумкин) мажбуриятидан ҳаракат қилади (ЖПК 243-моддаси тўртинчи қисми).

Суд – суриштирувчи, терговчи томонидан жиноятга оид тўпланган фактик далилар ва прокурор суриштирувчи, терговчи томонидан қабул қилинган қарорнинг қонунийлиги ва асослигини текширгандан сўнг, холис ва беғараз тараф сифатида қамоққа олиш ёки уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш ҳақидаги ёки уни қўллашни рад қилиш тўғрисидаги ажримини қабул қилади (ЖПК 243-моддаси бешинчи ва олтинчи қисмлари).

Шундай қилиб, қуйидаги асосий хулосаларга келишимиз мумкин:

1. Қамоққа олиш тўғрисидаги эҳтиёт чораси қўллашни прокурор ваколатларига ўтказилиши дастлаб Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва халқаро умумэътироф этилган нормаларига зид келади, деб хулоса қилишимиз мумкин, чунки Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида энг юқори юридик кучга эга бўлган ҳужжат ҳисобланади ва давлатимизнинг асосий қонунидир.

[12] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

2. Шахсларларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи қарорлар ва ҳаракатлар суднинг ҳуқуқий табиатига хос эмас, чунки қамоққа олишга санкциялар судга айблов характерини беради ҳамда ваколат бериш орқали судьяга илгари тергов жараёнида ўзи қабул қилинган қарорга қарши чиқиш ноқулай ҳолатга мажбур қилади ва бу одил судловни амалга оширишда холислик ва беғаразлик принципининг бузилишига олиб келади. Бундан ташқари, судгача бўлган босқичларида прокурорга қараганда судья доимий ва тезкор назоратни таъминлай олмайди. Бу ўз навбатида, суд назорати дастлабки тергов жараёнида қарорлар қабул қилиш самарадорлигини пасайишига олиб келади.

3. Суд назорати прокурор назоратини алмаштирмади, балки шахс ҳуқуқ ва эркинликларининг процессуал кафолатлари тизимини, шу жумладан, ушбу ҳуқуқ ва эркинликларни чекловчи суриштирув ва тергов ҳаракатлари бўйича қарорлар қабул қилишда манфаатларини ҳимоя қилади. Кўринишидан, бундай суриштирув ва тергов ҳаракатларини ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилишнинг амалдаги тартиби прокурорнинг ушбу қарордан четлаштирилмаганлигини (прокурорнинг розилиги олинади) таъкидлаш учун барча асослар беради.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ОРҚАЛИ СОДИР ЭТИЛГАН ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИ ФОШ ЭТИШДА ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ

Анвар Алиқулович Таштемиров
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси,
Маъмурий ҳуқуқ кафедраси доценти.
E-mail: *anvartoshtemirov05031979@gmail.com*

Аннотация*:Ушбу мақолада ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этишда тезкор хизмат ходимларининг соҳавий хизматлар билан хамкорлик масалалари, ўзига хос жиҳатлари, мавжуд муаммолар ёритилиши билан бирга, ҳамкорлик доирасида етакчи мутахассисларнинг фикр ва мулоҳазаларига асосланиб ушбу жиноятларни фош этиш бўйича тегишли хулосалар берилган.*

Калит сўзлар: *Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик, кибержиноят, киберфирибгарлик, ижтимоий тармоқ, ахборот макони, банк пластик картаси, электрон манзил, аккаунт.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы взаимодействия сотрудников оперативной службы с профильными службами в*

раскрытии мошенничества, совершённого с использованием информационных технологий, их особенности и существующие проблемы. Кроме того, на основе мнений и размышлений ведущих специалистов в рамках сотрудничества даны соответствующие выводы по раскрытию данных преступлений.

Ключевые слова: *Мошенничество, совершенное с использованием информационных технологий, киберпреступление, кибермошенничество, социальная сеть, информационное пространство, банковская пластиковая карта, электронный адрес, аккаунт.*

Annotation*: This article examines the issues of cooperation between operational service officers and specialized services in uncovering fraud committed using information technologies, their specific features, and existing problems. Additionally, based on the opinions and reflections of leading specialists within the framework of cooperation, relevant conclusions on solving these crimes are provided.*

Keywords: *Fraud committed with the use of information technology, cybercrime, cyberfraud, social network, information space, bank plastic card, electronic address, account.*

Бугунги кунда, Республикамизда аҳолини сифатли ва хавфсиз телекоммуникация ва интернет хизматлари билан таъминлаш борасида бир қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Айниқса, бу борада соғлом интернет-муҳитига эга ахборотлашган жамиятни ривожлантириш, миллий сайтларни кўпайтиришга алоҳида эътибор берилган. Шу билан бир қаторда, шахсларни интернет хуружларидан ҳимоя қилиш, ахборот олиш ва тарқатиш маданиятини тарғиб қилиш, тармоқ хавфсизлигини таъминлаш юзасидан кўплаб чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Оммавий ахборот воситалари орқали мунтазам равишда интернет тармоқларидан фойдаланиш қоидалари, веб-макондаги хавф ва фирибгарликларга қарши курашиш усуллари тушунтирилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Киберхавфсизлик Маркази ходимлари иштирокида АОКАда ўтказилган матбуот анжуманида, бугунги кунда Ўзбекистонда 25 млн. нафардан ортиқ интернет фойдаланувчилари мавжуд. Ўтказилган таҳлил натижалари бугунги кунда мамлакатда кибержиноятчиликнинг ўсиш тенденцияси кузатилаётганлиги, сўнгги 3 йилда кибержиноятлар сони бир неча бараварга ошиб кетган ҳақида маълумотлар берилди. Матбуот анжуманида қайд этилишича, кибержиноятчиликнинг қуйидаги турлари кўп содир этилаётганлиги маълум қилинган, булар:

– фирибгарлар пластик карта фойдаланувчиларига келган СМС-хабарномадаги кодларни тўловни амалга ошириш, ютуқни бериш каби баҳоналар орқали эгаллаб, ундаги маблағларни ўзлаштириши;

– шахсий маълумотларни эгаллаш ва уларни ошкор қилиш билан қўрқитиб товламачилик қилиши (кибертовламачилик);

– ижтимоий тармоқда зўрлик ишлатиш билан қўрқитиши, ҳақорат, суицид ҳолатлари (кибербуллинг) ва бошқалар[1].

Бугунги кунда таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатимизда интернет тармоқларидан фойдаланиб асосан “ўғирлик”, “фирибгарлик”, “туҳмат”, “ҳақорат”, “товламачилик” каби ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши кузатилмоқда. Айрим ривожланган мамлакатларда эса, “Ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш”, “Ўзини ўзи ўлдиришга ундаш”, “Хат-ёзишмалар, телефонда сўзлашув, телеграф хабарлари ёки бошқа хабарларнинг сир сақланиши тартибини бузиш”, “Урушни тарғиб қилиш”, “Фарзандликка олиш сирини ошкор қилиш”, “Порнографик маҳсулотни тайёрлаш, олиб кириш, тарқатиш, реклама қилиш, намойиш этиш”, “Зўравонликни ёки шафқатсизликни тарғиб қилувчи маҳсулотни тайёрлаш, олиб кириш, тарқатиш, реклама қилиш, намойиш этиш” ва бошқа шунга ўхшаш жиноятларнинг ҳам ижтимоий тармоғи орқали содир этилаётганлиги аниқланган.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этишда ИИОлари соҳавий хизматларининг ўзаро ҳамкорлик фаолияти ушбу йўналишдаги вазифалар самарадорлигида муҳим аҳамиятга эга жиҳатлардан бири ҳисобланади. Айниқса, тезкор хизмат вакилларининг тергов органлари билан ахборот алмашув, биргаликда тезкор қидирув чора-тадбирларини амалга ошириш, маълумотлар тўплаш ва уларни таҳлил этиш борасидаги ўзаро ҳамкорлик фаолиятини ушбу турдаги жиноятларни қисқа фурсатларда фош этиш тизимининг муҳим таркибий қисми дейиш мумкин.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда тезкор хизмат вакили, терговчининг терговга қадар текширувни амалга оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикасининг зарурлиги бир қатор объектив омиллар билан боғлиқ бўлиб, улар қуйидагиларда ўз ифодасини топган:

1) ҳамкорлик қилувчи субъектлар фаолиятининг криминалистик тактикасининг қоидаларига амал қилиш аҳамиятга эгалиги;

2) ҳамкорлик тактикасини қўллаётган субъектлари фаолиятининг воситалари, усуллари ва ҳуқуқий базаси ўзаро фарқ қилиши;

3) ички ишлар органларининг суриштирувчи ва терговчиларининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлар билан ҳамкорлик қилиши зарурлиги.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни очишга қаратилган тергов-тезкор гуруҳи таркибида тезкор ходимнинг вазифалари сифатида қуйидагиларни таъкидлаш мумкин, яъни ушбу турдаги жиноятлар содир этилишнинг дастлабки босқичида ўтказилган тезкор-қидирув тадбирлар натижасида жиноят фош этилмаса, кейинги босқичида ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирлари амалга оширилади. Кейинги босқичда ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирлари терговчи томонидан жиноят иши қўзғатилгандан сўнг тегишли йиғмажилдлар доирасида амалга оширади.

Ҳар бир фош этилмаган ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни очиш учун тергов-тезкор гуруҳини тузиш бўйича буйруқ чиқарилади. Гуруҳга барча соҳавий хизматлардан жумладан тезкор йўналишдан ҳам алоҳида тезкор вакил жалб этилади. Тергов-тезкор гуруҳи аъзолари раҳбарият олдида жиноятни фош этиш юзасидан қилинган ишлар бўйича доимий равишда ҳисобот бериб боради. Гуруҳ таркибида тезкор ходимнинг асосий вазифаси “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 4-моддасига асосан жиноятчи шахсни аниқлаш ҳамда унинг жиноий фаолиятини фош этишдан иборат бўлади[2].

Тезкор ходим жиноятни фош этиш бўйича тегишли йиғма жилдни юритади ва йиғма жилд бўйича тезкор-қидирув тадбирлар режасини ишлаб чиқади. Режада жиноятни фош этиш бўйича жиноят содир этилиш усули ҳамда дастлабки босқичда ўтказилган тезкор-қидирув тадбирлар натижасида олинган маълумотлар асосида тегишли тусмоллар илгари сурилади. Тусмолларни текшириш юзасидан тегишли тезкор-қидирув тадбирлар, уларни ўтказувчи шахслар ҳамда ўтказиш вақти белгилаб берилади. Соҳавий хизматлар билан ҳамкорлик масалаларига алоҳида эътибор қаратилади.

Ички ишлар органлар суриштирувчи ва терговчиларнинг иш натижалари ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда уларнинг терговга қадар текширувни амалга оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси, ушбу жиноятларни тез ва тўла очишга, жиноят ишларини ҳар томонлама, тўла ва холисона тергов қилишга, дастлабки тергов сифатини яхшилашга, жиноят содир этган ҳар бир

шахсни адолатли жазога тортишга, жиноят учун жазонинг муқаррарлигини таъминлашга, дастлабки тергов даврида қонунийликка қатъий риоя қилиниши таъминлаш ва риоя этишга шунингдек ҳамкорлик фаолиятининг изчил йўлга қўйилганлигига боғлиқ ҳисобланади.

Ҳамкорликни ташкил этишда янги усул ва услубларнинг қўлланилиши, самарали олиб борилиши, ҳамкорлик интизомини яхшилайди ва ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда ҳамкорлик тактикаси орқали муваффақиятли бажарилишига замин яратади.

Бизнинг фикримизча ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси икки босқичда амалга оширилади.

Биринчи босқичда: суриштирув, терговни режалаштириш (жиноят ҳақидаги хабарни қўлга киритгандан сўнг); суд-ахборот технология ёки суд-компьютер экспертизани тайинлаш, ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш; бошқа кечиктириб бўлмайдиган тергов ҳаракатларини ўтказиш; жиноятни содир этган шахсни аниқлаш ва ушлаш.

Икинчи босқичда: далилларни тергов харакатлар орқали йиғишни давом эттириш; гумон қилинувчи, айбланувчи тариқасида ишга жалб қилиш ва ишни якунлаш.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси ҳам ушбу соҳа олимлари томонидан ҳамкорликнинг давомийлигига кўра 2 та катта гуруҳга бўлинади, булар:

1) терговга қадар текширув материалларига кўра жиноят ишини қўзғатиш давридаги ҳамкорлик;

2) жиноят иши терговчининг иш юритувига ўтганидан ва жиноят иши қўзғатилгандан кейинги даврдаги ҳамкорлик[3].

Бу турдаги жиноятлар бўйича ҳамкорлик дастлабки босқичда объектив равишда навбатчилик қисмининг ҳамкорлиги билан ҳам қўшилиб кетади яъни жиноят ҳақидаги хабар навбатчилик қисмга келиб тушгач, дарҳол у суриштирувчи, терговчи ва терговга қадар текширувни амалга оширувчи органларга маълумот етказади. Бу ҳолатда навбатчилик қисми ташкилий-таъминловчи рол ўйнайди.

Шунингдек, ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикасининг давомийлигига ва ташкил этилишига кўра қуйидаги шакллари мавжуд:

– кундалик (жорий ёки доимий);

– вақти-вақти билан амалга ошириладиган (оралиқ);

– узоқ муддатга мўлжалланган (бирон-бир иш ёки фаолият жараёнида ташкил этиладиган);

– доимий (мунтазам равишда олиб бориладиган);

– фавқулодда ташкил этиладиган.

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлик тактикасининг асосий йўналишларидан бири – бу тергов ва тезкор-қидирув тусмолларини ҳамда жиноятни иссиқ изидан очиш бўйича келишилган режани ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Бу турдаги жиноятлар билан боғлиқ ҳамкорлигининг асосий йўналишларидан яна бири – бу жиноят тўғрисидаги хабарларга ўз вақтида эътибор қаратиш, тергов-тезкор гуруҳларининг ҳодиса жойига зудлик билан чиқиш, ҳодиса жойини сифатли кўздан кечиришни ва имкони борича кўпроқ далиллар йиғишни таъминлашдан иборат.

И.М.Нурбеков томонидан жиноятларини тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси жиҳатларини жиноятларни қўзғатиш ва тергов қилиш жиҳатларига оид масалалар ўрганилган[4].

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлигини ташкил этиш ўзининг айрим жиҳатлари эга бўлиб, улар қуйидагилардан иборат: тергов қилиш босқичларида уларнинг ўртасида мажбуриятларнинг тақсимланиши; тергов ва процессуал харакатларни режалаштириш; суриштирув ва дастлабки терговнинг турли босқичларида ҳамкорлик шаклларини қўллаш[5].

Т.А.Паутова томонидан жиноятларини тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси нуқтаи назаридан ўрганилган ва ҳамкорликнинг қуйидаги босқичлари кўрсатиб берилган: жиноят иши қўзғатишдан бошлаб то жиноят содир этган шахс аниқлангунга қадар бўлган босқич; жиноят содир этган шахсни айбланувчи тариқасида ишга жалб этилган давргача бўлган босқич; айбланувчини биринчи марта сўроқ қилишдан бошлаб то дастлабки терговнинг тугатилишига қадар бўлган босқич[6].

Юқорида кўрсатилган ҳолатлар дастлабки терговга қадар текширув муҳимлигини белгилайди. Бунда Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлик тактикаси талабларини ҳисобга олган ҳолда юзага келиши керак, булар жумласига:

1) қонунийликка риоя қилиш;

2) текширувнинг тўлиқлиги;

3) ҳужумкорлик таъминлаш;

Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни тергов қилишда суриштирувчи, терговчининг терговга қадар текширувни амалага оширувчи органлари билан криминалистик ҳамкорлиги тактикаси жиноят-процессуал қонунга нисбатан таянган субординациявий фаолият бўлиб, терговга қадар текширувни амалга оширувчи органлари томонидан суриштирувчи, терговчининг топшириқларини бажаришга қаратилган ва тегишли мақсадлар, вазифалар ва кучлар, чораларни ўтказишнинг вақти ва шакли бўйича келишилган ҳамда содир этилган ёки содир этилаётган жиноятни очишга, жиноят содир этган шахсни жавобгарликка тортиб, жабрланувчи ва фуқаровий даъвогарга нисбатан келтирилган зарарни бартараф этишга қаратилган фаолият тушунилади.

Ушбу турдаги жиноятларга қарши курашиш, уларнинг содир этилишининг олдини олиш, содир этилган жиноятларни ўз вақтида фош этиш, шунингдек фуқароларнинг бузилган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳамда етказилган моддий зарарнинг қопланишини таъминлаш мақсадида, қуйидагилар таклиф этилади, булар:

Доимий равишда, банк пластик карталари билан боғлиқ пул ўғирлиш ва фирибгарлик ҳолатлари юзасидан келиб тушган ҳар бир мурожаатларни текширув натижаси бўйича унинг қонунийлиги ва

жазо муқаррарлигини таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси ИИВ тизимида республика миқёсида банк пластик карталари билан боғлиқ содир этилаётган пул ўғирлаш ва фирибгарлик ҳолатлари, интернет ижтимоий тармоқлари орқали жиноят содир этиб келаётган ҳамда ушбу турдаги жиноятларни содир этишга мойил шахслар рўйхатининг ягона базасини шакллантириш, ушбу шахслар тўғрисида маълумотларнинг вилоятлараро алмашинувини ва тезкор ишлар олиб борилишини йўлга қўйиш;

- Ҳозирги кундаги ахборот – коммуникация технологиялари соҳаси бўйича мутахасислар тайёрлаб бераётган олий ва ўрта-махсус таълим ўқув юртлари талабалари ва уларнинг битирувчилари томонидан мазкур турдаги жиноятларни содир этилишини олдини олиш мақсадида уларни ҳуқуқий онгини шакллантириш, талабалар онгида интернет тармоқлари орқали жиноят содир этилиши қонунчилик билан тақиқланганлиги ва тегишли жавобгарликни келтириб чиқариши юзасидан илмий асосланган ягона мафкуравий йўналиш ишлаб чиқиш;

- Барча таълим муассасаларида Интернет тармоғи ахборот ресурсларидан унумли фойдаланишларини кўникмасини ташкил этиш учун “Хавфсиз Интернет”, “Интернет маданияти” мавзуларида ўқув машғулотлари ташкил этиш;

- Фуқароларда ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликнинг жабрланувчисига айланиб қолмаслик юзасидан профилактик-огоҳлантирув тадбирларини олиб боришда блогер ва ижтимоий тармоқларда кенг аудиториясига эга бўлган шахслардан кенг фойдаланиш;

- Жиноятлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасаларнинг айрим турдаги жиноятлар профилактикасига, бу турдаги жиноятларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этишга, айрим тоифадаги шахсларни аниқлаш ва уларга профилактик таъсир кўрсатишга қаратилган “Хавфсиз Интернет” махсус тадбирларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этиш.

- Аҳоли орасида ҳуқуқий тарғибот ишларини олиб бориш жиноятларнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этади. Бунда ваколатли органлар томонидан меҳнат, вояга етмаганлар каби жамоалар ўртасида ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликнинг олдини олиш борасида тушунтиришлар, хусусан, маърузалар ўқиш, давра суҳбатлари уюштириш, тарғибот

буклетлари тайёрлаш тарқатиш катта самара беради. Ушбу тарғибот тадбирларида фуқароларда интернет тармоқлари орқали содир этилдиган жиноятларнинг салбий оқибатлари, келиб чиқиш сабаблари ва бу борада шахсларнинг хушёрлигини ошириш борасида турли вазифалар амалга оширилиши муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, жиноятлар профилактикасини амалга ошириш нафақат давлат органларининг, балки шу жамиятнинг аъзоси ҳисобланган ҳар бир инсоннинг вазифасидир. Энг аввало, ўзимиз, оила аъзоларимиз ва жамият олдидаги масъулиятни доимо ҳис қилиб яшаш, атрофдаги ҳодисаларга бепарволик билан муносабатда бўлмаслик, тинч ва осуда ҳаётимизнинг қадрига етиб яшаш барчамизнинг кундалик ҳаёт тарзимизга айланиши зарур.

ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИНИ КОНТАКТСИЗ УСУЛДА ЎТКАЗИШНИ АНИҚЛАШ ВА ФОШ ЭТИШ БЎЙИЧА ЎТКАЗИЛАДИГАН ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Очилов Илёс Абдураимович
Ўзбекистон Республикаси ИИВ
академияси мустақил изланувчиси

Аннотация. *Мақолада гиёҳвандлик воситаларини қонунга хилоф равишда контактсиз усулда ўтказиш билан боғлиқ жиноий фаолиятни ҳужжатлаштиришнинг асосий йўналишлари кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *тезкор-қидирув фаолияти, гиёҳвандлик воситалари, контактсиз ўтказиш, Интернет тармоғи, ҳужжатлаштириш.*

Аннотация. *В статье рассмотрены основные направления документирования преступной деятельности по незаконному сбыту наркотических средств бесконтактным способом.*

Ключевые слова: *оперативно-розыскная деятельность, наркотические средства, бесконтактный сбыт, сеть Интернет, документирование.*

Summary. *The article describes the main directions for documenting criminal activity on illegal sale of drugs by contactless means, provides recommendations for conducting operational investigative action. The author concludes that each stage of documenting the contactless method of illegal sale and purchase of drugs has its own specific goals that determine the organization and tactics of operational investigative measures.*

Key words: *operatively-investigative activity, narcotic drugs, contactless sales, Internet, documentation.*

Кўриб чиқилаётган мавзунинг долзарблиги шундан иборатки, сўнгги йилларда аҳоли ўртасида гиёҳвандлик муаммоси деярли глобал офатга айланиб, давлатнинг миллий хавфсизлигига таҳдид солмоқда. Жиноятчилик таҳлили шуни кўрсатадики, 2023 йилда Жиноят кодексининг XIX бобида қайд этилган жиноятлар, яъни, гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ёки уларнинг аналоглари, кучли таъсир этувчи моддаларнинг қонунга хилоф равишда муомаласи билан боғлиқ 8461 та жиноят содир этилган бўлиб, бу кўрсаткич 2022 йилга (7312 та) таққослаганда 11,6 фоизга ошган[1]. Таҳлилларга кўра охирги йилларда гиёҳвандлик воситаларини ўтказиш (ЖКнинг 173-моддаси) билан боғлиқ жиноятлар сонининг ошиб бориши кузатилмоқда. 2023 йилда содир этилган бу турдаги жиноятларнинг 28 фоизи (3012 та) гиёҳвандлик воситаларини қонунга хилоф равишда ўтказиш билан боғлиқ ҳолда содир этилган.

Гиёҳвандлик воситаларини қонунга хилоф равишда ўтказиш билан боғлиқ жиноятларни аниқлаш ва фош этишнинг мураккаблиги шундаки, улар ноаниқлик шароитида, ҳар икки томоннинг розилиги билан содир этилади. Бунда жабрланувчи томоннинг мавжуд эмаслиги, мазкур жиноятнинг латент қилмишлар қаторига киришини билдиради. Шу боис, ушбу жиноятларни аниқлаш ва очишнинг самарали усуллари сифатида назорат остида олиш ва бошқа тезкор-қидирув тадбирларини (кейинги ўринларда – ТҚТ деб юритилади) ўтказишни келтириш мумкин.

Гиёҳвандлик воситаларини ноқонуний ўтказишни фош этиш мақсадида назорат остида олиш ТҚТнинг ўтказишни ташкил этиш ва тактикаси ҳамда унинг натижадорлиги бир қатор омилларга боғлиқ бўлиб, улар орасида гиёҳвандлик воситаларини жиноятчилар томонидан контактсиз усулда ўтказиш амалиёти кенг тарқалган. Ушбу усулдан фойдаланган ҳолда гиёҳвандлик воситаларининг, айниқса синтетик гиёҳвандлик воситаларини ноқонуний ўтказишда кейинги пайтларда жиноятчилар Интернет ва ахборот-телекоммуникация воситаларидан фойдаланиш амалиёти ошиб бормоқда.

Бугунги кунда вояга етмаганларни жалб қилган ҳолда ҳамда телекоммуникация тармоқларидан ва Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш орқали гиёҳвандлик воситаларининг, улар

[1] Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг Ҳуқуқий статистика ва тезкор-ҳисоб маълумотлар маркази маълумотлари.

аналогларининг ва психотроп моддаларнинг қонунга хилоф муомаласи ортиб бораётганлиги муносабати билан ушбу ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлик чораларини кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 273-моддаси учинчи қисми “телекоммуникация тармоқларидан, шунингдек Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиб содир этилган бўлса” деган мазмундаги “д” банди билан тўлдирилди[2]. Ушбу Қонун билан гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларни телекоммуникация тармоқларидан ва Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш орқали қонунга хилоф равишда муомалага киритганлик учун жавобгарлик чоралари кучайтирилди.

Гиёҳвандлик воситаларини ноқонуний ўтказиш билан боғлиқ фаолият ташкилотчилари интернетдан фойдаланиб, бугунги кунда нафақат гиёҳванд воситалар сотувчиси ва уларни истеъмол қилувчилари ўртасидаги бевосита алоқадан, балки уюшган гуруҳнинг барча иштирокчиларининг ўзаро учрашувларидан ҳам қочишади. Бу омил, бир томондан, харидорга дори воситаларини харид қилиш тартибини имкон қадар соддалаштиришга, иккинчи томондан, гиёҳванд воситалар сотувчисининг хавфсизлик даражасини оширишга имкон беради. Яъни, бундай воситаларни тарқатишнинг бу усули контактсиз (алоқасиз) деб аталади.

Таъкидлаш жоизки, кейинги йилларда гиёҳвандлик воситаларини телекоммуникация тармоқларидан, шунингдек Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиб ноқонуний ўтказиш хавфи кучайганлигини ҳам қайд етиш лозим бўлиб, бу усулни қўллаш орқали чексиз кенг доирадаги одамларга, шу жумладан, вояга етмаганларга салбий таъсир кўрсатиш имконияти янада ортади.

Гиёҳвандлик воситаларини “назорат остида олиш” ТҚТни ўтказиш орқали сотишнинг контактсиз усулини ҳужжатлаштиришда, ушбу тадбирни ўтказишнинг умумий қоидаларига риоя қилинади. Уни амалга оширишнинг ўзига хослиги шундаки, сотиб олинган гиёҳвандлик воситалари учун тўловни амалга оширишда нақд пулсиз тўлов тизими қўлланилади, харидор ва сотувчи ўртасида тўғридан-тўғри алоқа мавжуд бўлмайди.

[2] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 5 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодексларига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига гиёҳвандлик воситаларининг, улар аналогларининг ёки психотроп моддаларнинг, шунингдек кучли таъсир қилувчи ва заҳарли моддаларнинг қонунга хилоф муомаласига қарши курашишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-971-сон Қонуни 1-моддаси.

Гиёҳвандлик воситаларини контактсиз сотиш усулини ҳужжатлаштириш учун “назорат остида олиш” ТҚТни ўтказишнинг дастлабки босқичида фақат дори мавжудлиги ва уни сотиш фактини тасдиқлаш мумкин, аммо уни ўтказишни ташкил этишда иштирок этган шахслар доирасини аниқлашнинг имкони бўлмайди. Шу сабабли, ушбу босқичда гиёҳванд воситаларни сотиш билан шуғулланадиган шахсларни, улар ишлатадиган телекоммуникация қурилмаларини, уюшган гуруҳ аъзоларининг жойлашган манзилларини аниқлашга қаратилган комплекс ТҚТни амалга ошириш зарур.

Ҳозирги кунда, гиёҳвандлик воситаларини контактсиз усулда сотаётган шахсларни аниқлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ИИВ Жиноят қидирув департаменти таркибида кибержиноятчиликка қарши курашиш маркази фаолият олиб бораётган бўлиб, Марказ ходимлари томонидан бу каби жиноятларни аниқлаш мақсадида Интернет орқали мониторинг ишлари олиб борилмоқда. Турли хил қидирув дастурларига (масалан, Yandex, Rambler, Google ва бошқалар) сўровлар юбориш орқали Интернетда гиёҳванд воситаларни таклиф қилувчи шахсларнинг сайтлари ва алоқа маълумотлари (код номлари, мобил телефон рақамлари) аниқланади. Шундан сўнг, гиёҳванд воситалар савдоси билан шуғулланувчи шахсларнинг идентификация маълумотларини, улар фойдаланадиган техник воситаларни, шу жумладан гиёҳванд воситаларни сотиш ва сотиб олиш учун яратилган веб-сайтларларни аниқлашга қаратилган кейинги ТҚТни ўтказиш учун тармоқ ресурсида кўрсатилган шахс билан алоқа ўрнатилади. Жиноий ҳаракатларни ҳужжатлаштириш мақсадида дори воситаларини харид қилиш учун маблағлар киритилиши лозим бўлган электрон ҳисоб (электрон ҳамён) ҳақидаги маълумотларни олиш ва уларни ўрганиш чоралари кўрилади.

Амалиёт тажрибасидан маълумки, жиноятчилар кўпинча рўйхатдан ўтиш учун фақат мобиль телефон рақамини кўрсатиш орқали амалга ошириладиган банкдаги ҳисоб рақами (ҳамён)дан фойдаланадилар. Шу билан бирга, уяли алоқа операторларининг виждонсиз вакиллари томонидан СИМ-карталарни тегишли рўйхатдан ўтказмасдан сотиш ҳолатларини ҳисобга олиш керак. Электрон ҳамённи виртуал рўйхатдан ўтказмасдан, гиёҳванд воситалар савдоси билан шуғулланувчи шахслар, ўз шахси ҳақидаги маълумотларни яширишга, шунингдек, кўрсатилган ҳисоб рақамларига пул маблағларини аноним тарзда ўтказишга муваффақ бўлишади. Бу ҳолат гиёҳванд воситалар савдосига алоқадор

шахсларни аниқлаш ва жавобгарликка тортиш жараёнини анча мураккаблаштиради. Пул ўтказмалари ҳақидаги маълумотларни ўрганиш ва кейинчалик уларнинг эгасини аниқлаш учун банкга сўров юборишдан иборат бўлган “маълумотлар тўплаш” ТҚТни ўтказиш керак бўлади[3]. Банкдан олинган маълумотларнинг батафсил таҳлилини ўтказгандан сўнг, қуйидаги тадбирларни режалаштириш ва амалга ошириш лозим:

- жиноятчилар томонидан қўлланиладиган телефон рақамлари аниқланганидан сўнг, улар ёрдамида қуйидаги ТҚТ, жумладан, телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш, улар орқали узатиладиган ахборотни олиш; абонентлар ёки абонент қурилмалари ўртасидаги боғланишлар тўғрисида ахборот олиш, IMEI-телефонларни аниқлаш, уларни активлаштириш; гиёҳвандлик воситалари учун маблағлар ўтказиладиган банк карталари рақамларини аниқлаш тадбирлари ўтказилади. Ушбу босқичда гиёҳвандлик воситаларини сотиш билан шуғулланган шахсларни аниқлаш ва уларнинг фаолиятига раҳбарлик қилаётган тезкор ходим, жиноий фаолиятини ҳужжатлаштириш самарадорлигини ошириш учун ТҚТни режалаштириш ва ўтказиш бўйича ваколатли давлат органи бўлинмалари билан яқин ҳамкорликни йўлга қўйиши зарур.

- кейинги босқичда гиёҳванд воситалар савдоси билан шуғулланувчи шахсларнинг жиноий фаолиятини ҳужжатлаштириш жараёнида банк карточкалари, ҳисоб рақамлари, уларнинг эгалари аниқланиб, гиёҳвандлик воситалари учун тўлов сифатида олинган маблағлар ҳаракати назорат қилинади;

- ҳужжатлаштиришнинг кейинги йўналиши жиноий гуруҳнинг сони, тузилиши ва аниқланган иштирокчилар тўғрисида илгари олинган маълумотларни таҳлил қилишдир. Жиноий фаолиятга алоқадор шахслар аниқлангандан ва ҳужжатлаштирилгандан сўнг, “назорат остида олиш” ТҚТни ўтказиш режалаштирилади.

Гиёҳвандлик воситаларини контактсиз ўтказиш ҳолатини аниқлашга қаратилган “назорат остида олиш” ТҚТни ўтказишда қуйидаги бир қатор талабларга риоя этилиши зарур:

– телекоммуникация тармоқларида (веб-сайт, форумларда) гиёҳвандлик воситасининг номи ва нархи кўрсатилганлигига оид аниқ таклифлар аниқланганидан сўнг, “назорат остида олиш” ТҚТни

[3] Қаранг: Каримов В. Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунига илмий-амалий шарҳ: Масъул муҳаррирлар Э.Т. Юлдашев, Е.В. Коленко. – Тошкент, 2021. – Б. 120-122.

ўтказиш жараёнида зудлик билан харидорнинг (тезкор ходимнинг) ҳаракатларини ҳужжатлаштириш, яъни. таклиф этилаётган гиёҳвандлик воситасини сотиб олишга харидорнинг розилиги ҳақида сотувчига юборилган хабар электрон ташувчида скриншот ёрдамида ёзиб олиш чоралари кўрилади.

– сотувчидан ижобий жавоб олинганидан сўнг, тўлов терминали орқали пул маблағларини ўтказиш факти қайд этилади ва ушбу терминал жойлашган жой кўрсатилган ҳолда пул маблағларини киритиш тўғрисидаги квитанция олинади ва илова қилинади;

– сотувчидан маълум жойда гиёҳвандлик воситасининг яшириб қўйилганлиги тўғрисида хабар олингандан сўнг, унинг аниқ манзили (сақлаш жойи) “назорат остида олиш” ТҚТ далолатномасида батафсил қайд этилади;

– тадбир давомида харидор ва сотувчи ўртасидаги барча ёзишмалар электрон алоқа воситасида (компьютер, смартфон, ноутбук) сақланиши керак;

- харидор ва сотувчи ўртасида алоқа ўрнатилган компьютернинг хавфсизлиги таъминланади (жиноят ишини тергов қилиш доирасида исботлаш жараёнида фойдаланиш учун).

Кейинчалик, “назорат остида олиш” ТҚТни муваффақиятли ўтказиш учун ваколатли давлат органи, тезкор-қидирув бўлинмалари кучлари ва воситаларидан комплекс фойдаланиш ва ўтказилган гиёҳвандлик воситалари учун тўлов сифатида олинган молиявий маблағлар ҳаракатини кузатиш билан бир вақтда амалга ошириш зарур. Кузатув жараёнида гиёҳвандлик воситаларини ўтказишни ҳужжатлаштириш билан боғлиқ барча ҳаракатлар хронологик тартибда қайд этилади. Гиёҳвандлик воситаларни сотувчиларнинг ноқонуний фаолиятини қайд қилиш учун махсус техник воситалар қўлланилади.

Ўтказилган ТҚТнинг натижалари, жиноят ишини қўзғатиш ва улардан исботлаш жараёнида далил сифатида фойдаланиш масаласи ҳал қилинади. Ушбу материаллар тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган раҳбарининг қарори асосида, "Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида" қонуни талаблари[4] ва тезкор-қидирув фаолияти натижаларини суриштирув органига, терговчига ёки прокурорга тақдим этиш тартиби тўғрисидаги Йўриқномага[5] биноан юборилади.

[4] Ўзбекистон Республикасининг «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Қонуни 19-моддаси.

[5] Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, Президент давлат хавфсизлик хизмати, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Давлат божхона қўмитаси ва

Мазкур вазифаларни ҳал этиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонуни 14-моддасига ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятчиликка қарши курашишнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашни, ТҚТни ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда кибермаконда ўтказилиши белгилашни назарда тутувчи ўзгартиришларни киритилиши[6], бу соҳадаги жиноятларни аниқлаш ва фош этиш самарадорлигини оширади.

Кейинчалик терговчи ТҚТ материаллари асосида жиноят ишини қўзғатиш тўғрисида қарор қабул қилади. Амалиёт шуни кўрсатадики, контактсиз тарзда гиёҳванд воситаларни сотиш фактлари бўйича қўзғатилган жиноят ишлари бўйича тергов ҳаракатларини ўтказиш муайян ўзига хос хусусиятларга эга. Жиноий фаолиятга оид далилларни олиш учун қуйидагиларга қаратилган тергов ҳаракатларини ўтказиш зарур:

- олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатини ўтказиш чоғида ушланган шахслардан барча телекоммуникация воситаларини (мобил телефонлар, смартфонлар, планшетлар, ноутбуклар, компьютерлар, СИМ-карталар, флеш-карталар, қаттиқ дисклар ва бошқа ахборот сақлаш ташувчилари), шунингдек, Интернет хизматлари кўрсатишга доир шартномалар, пароллар, мобил телефонлар учун ПИН-кодлар, мобил алоқа ва Интернет хизматлари учун тўлов квитанцияларини олиб қўйиш чоралари кўрилади;

– олиб қўйиш ва тинтув жараёнида ушланган шахслардан банк карталари, банк ҳисобварақларини очиш тўғрисидаги ҳужжатларни аниқлаш ва олиб қўйиш;

– банк муассасаларидан банк карталари ҳисобварақлари орқали пул маблағларининг айланиши тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган ҳужжатларни олиб қўйиш[7];

- ТҚТни ўтказувчи тезкор бўлинмалар ходимларидан гиёҳванд воситалар сотувчиси билан ёзишма ва алоқалар олиб борилган телефонлар, компьютерларни олиб қўйиш (амалиётда тезкор ходимлар томонидан ТҚТни ўтказиш жараёнида қўлланилган барча техник воситалари, электрон ташувчиларда қайд этилган

Электрон технологияларини ривожлантириш марказининг 2021 йил 31 августдаги қарорининг 4-боби.

[6] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 13 мартдаги “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига жиноятчиликка қарши курашиш курашиш бўйича фаолиятнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартишлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-920-сон Қонуни.

[7] Қаранг: Каримов В. Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунига илмий-амалий шарҳ: Масъул муҳаррирлар Э.Т. Юлдашев, Е.В. Коленко. – Тошкент, 2021. – Б. 121.

ёзишмаларнинг скриншотлари қонунда белгиланган тартибда терговчига исботлаш жараёнида фойдаланиш учун топширилади);

– гиёҳвандлик воситаларининг қадоқланган ўрамларда (“яширин жойда”) топилган намуналарини, кейинчалик ушланган шахсларнинг биологик намуналари билан таққослаш учун олиб қўйиш;

– ушланган шахслар фойдаланаётган абонент рақамларининг кирувчи ва чиқувчи боғланишлари тўғрисидаги маълумотларни мобил операторлардан олиш ва ўрганиш.

Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ёки уларнинг аналогларини қонунга хилоф равишда юқорида кўрсатилган воситалар ва тармоқлардан фойдаланган ҳолда ўтказишда айбдор деб топиш учун шахс ушбу жиноятнинг объектив томонини ташкил этувчи воситалар ва тармоқлардан фойдаланиш билан боғлиқ хатти-ҳаракатларни содир этганлигини аниқлаш зарур. Гиёҳвандлик воситаларини ўтказиш билан боғлиқ сўзлашувларда телефон алоқасидан фойдаланишнинг ўзи малакавий белги сифатида тан олинмайди.

Яхши режалаштирилган ва олдиндан тайёргарлик кўрилган “назорат остида олиш” ТҚТ натижалари гиёҳвандлик воситаларини қонунга хилоф равишда ўтказиш бўйича жиноят иши қўзғатилиши учун асос бўлиши мумкин. Ҳозирги кунда “назорат остида олиш” ТҚТни гиёҳвандлик воситаларини ўтказиш учун шахснинг гиёҳвандлик воситаларни сотишга алоқадорлигидан дарак берувчи аниқ ва объектив маълумотлар олинганидан кейин тезкор ишлов жараёнида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб қуйидаги хулосалар чиқаришимиз мумкин: шахсда гиёҳвандлик воситаларни ноқонуний ўтказишга тайёргарлик кўрилаётганлиги ва қасднинг мавжудлигидан дарак берувчи аниқ маълумотлар бўлмаган ҳолларда тезкор маълумотларни текшириш мақсадида “назорат остида олиш” ТҚТни ўтказишни тақиқлаш тўғрисида ТҚТни ташкил этиш ва тактикасини тартибга солувчи идоравий-меъёрий ҳужжатларга ўзгартиришлар киритиш, зарур деб ҳисоблаймиз.

Мобил операторларнинг СИМ-карталарни амалдаги қонунчиликка риоя этилмаган ҳолда тегишли рўйхатдан ўтказмасдан сотганликлари учун мобил операторларнинг жавобгарлигини кучайтириш зарурдир. Эслатиб ўтамиз, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги қарори билан мамлакатда мобил қурилмаларни ИМЕИ-кодларини

рўйхатга олиш тизими жорий этилди. Тизим оператори сифатида “Ўзбекистон телекоммуникациялари тармоқларини бошқариш республика маркази” белгиланди[8]. Бундан кўзланган мақсад, мобил қурилмаларни ИМЕИ-кодларини рўйхатга олиш тизимини жорий этиш орқали электрон ҳамёнлардан фойдаланиш ва электрон пул маблағларини аноним ўтказиш учун уяли алоқа тармоғи абонентларини аноним рўйхатга олишни бекор қилиш ҳисобланади. Шунингдек, фойдаланувчининг шахсий маълумотларини тасдиқламасдан, абонент рақамларини ижарага бериш хизматларини таклиф қилувчи сайтларни блокировка қилиш масаласига ҳам эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Электрон пул маблағларини ўтказиш фақат молиявий ташкилот томонидан, уяли алоқа операторидан маълумотларни сўраш орқали, пул жўнатувчи шахс олдиндан аниқлангандан кейин амалга оширилиши керак. Ушбу ҳаракатлар банкда ҳам, алоқа операторида ҳам мавжуд бўлган жисмоний шахс ҳақидаги маълумотларни (тўлиқ исм, паспорт серияси ва рақами, телефон рақами) тасдиқлаш имконини беради. Бундай ўзаро алоқа учун абонент маълумотларини текшириш учун ахборот тизимини яратиш керак бўлади.

Шу муносабат билан, таъкидлаш жоизки, бугунги кунда юқоридаги каби ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш самарадорлигини ошириш мақсадида бундай қилмишларни фош этишда қўлланиладиган махсус техник воситаларни амалиётга кенг жорий этиш зарурияти мавжуд. Шу боис, бу борада ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирларида қўлланиладиган техник воситаларни республика ҳудудига олиб киришда телекоммуникациялар операторларига солиқ ва божхона имтиёзлари бериш, яъни уларни солиқ солишдан ва божхона божини тўлашдан озод қилиш бўйича амалдаги солиқ ва божхона қонунчилигига тегишли ўзгартишлар киритишга оид чора-тадбирлар белгилаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Қонунчиликка таклиф этилаётган бундай имтиёзлар, шубҳасиз, тезкор-қидирув тадбирларида қўлланиладиган техник воситаларни республика ҳудудига олиб киришшда фойдаланиш тартибини ҳамда тезкор-қидирув тадбирлари самарадорлигини оширишга ҳизмат қилади.

[8] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасида мобил қурилмаларни ҳисобга олиш тизимини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги № 828-сон қарори.

Ушбу чора-тадбирлар гиёҳвандлик воситаларининг муомалага киритилиши билан боғлиқ бўлган молиявий активларнинг контактсиз амалга оширилган ҳаракати устидан самарали назоратни амалга ошириш, гиёҳвандлик воситаларни сотиб олувчилардан воситачиларга пул ўтказмаларини кузатиш, жиноий гуруҳлар аъзолари томонидан пул маблағларини вақтинча сақлаш учун фойдаланиладиган банк ҳисобварақлари реквизитларини белгилаш, гиёҳвандлик бизнесидан олинган маблағларнинг ўтишнинг бутун занжирини аниқлаш имконини беради.

ОБЛАЧНЫЕ ДАННЫЕ: ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Кахрамонов Азизбек Собирович
Преподаватель кафедры Криминалистики и судебных экспертиз Правоохранительной академии Республики Узбекистан
E-mail: azekmr@gmail.com

Аннотация. *В статье раскрыты основные стадии производства исследования облачных данных и включает в себя краткую обзорную информацию о ключевых аспектах данной области, включая рекомендации и требования при производстве экспертизы облачных данных.*

Ключевые слова: *Облачные технологии, облачное хранилище, экспертиза, компьютерно-техническая экспертиза, метаданные, цифровые доказательства.*

Annotatsiya: *maqolada bulutli ma'lumotlar tadqiqoti o'tkazishning asosiy bosqichlari yoritib berilgan va ushbu sohaning asosiy jihatlari, shu jumladan bulut ma'lumotlari ekspertizasi bo'yicha ekspertga qo'yiladigan tavsiyalar va talablar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *bulutli texnologiyalar, bulutda saqlamoq, ekspertiza, kompyuter-texnik ekspertiza, metama'lumotlar, raqamli dalillar.*

Abstract: *the article reveals the main stages of cloud data forensics production and includes a brief overview of the key aspects of the field, including recommendations and requirements for the cloud data forensics examiner.*

Keywords: *cloud technology, cloud storage, forensics, computer forensics, metadata, digital evidence.*

Облачные технологии стали неотъемлемой частью современного бизнеса и повседневной жизни. Компании и частные лица все больше переносят свои данные и приложения в облако для повышения доступности, масштабируемости и удобства использования [1].

Однако, с этим ростом популярности облачных решений, возникают новые вызовы в области безопасности и производства экспертизы цифровых устройств.

Экспертиза облачных данных — это процесс анализа и исследования информации, которая хранится в облачных хранилищах, с целью выявления и документирования цифровых доказательств, имеющие значения для расследования и раскрытия преступления. Облачные данные могут быть критически важными в расследованиях различных преступлений, включая компьютерные атаки, киберпреступления, финансовые махинации и другие.

Процесс экспертизы облачных данных включает в себя следующие этапы исследования:

Определение целей и необходимых данных: сначала необходимо определить цели экспертизы и какие конкретные данные потребуются. Это может включать в себя поиск файлов в виде текстовых сообщений, фото видео аудио файлов, электронной почты и других типов информации.

Сбор облачных данных: под сбором облачных данных понимается процесс сбора информации и цифровых данных, хранящихся в облачных системах хранения информации. Эксперты сначала должны определить, какие облачные службы использовались, чтобы хранить информацию. Это может быть Google Drive, Dropbox, Microsoft OneDrive и другие. Затем идёт процесс получения и извлечения данных с доступом к соответствующим учетным записям. Это может включать в себя загрузку файлов, доступ к базам данных или извлечение конкретной информации при необходимости.

Контакт с облачными провайдерами: Эксперты, при необходимости, могут связаться с провайдерами облачных услуг и запросить доступ к данным. Провайдеры могут предоставить копии данных или доступ к учетной записи.

Анализ метаданных: это изучение и интерпретация метаданных, связанных с цифровыми файлами, документами или информацией. Метаданные, по сути, являются информацией о цифровых данных и позволяют получить ценные сведения о различных аспектах описываемого ими содержимого. Метаданные могут включать в себя такие сведения, как дата создания, авторство, тип файла, история версий и т.д. Метаданные, такие как даты и времена доступа, заголовки электронных сообщений, IP-адреса и др., могут предоставить важные сведения о том, как и когда данные были использованы или изменены.

Извлечение и анализ контента: Эксперты могут извлекать и анализировать содержимое облачных файлов, текстовых сообщений, электронной почты и других видов информации, чтобы найти доказательства или свидетельства преступлений.

Восстановление удаленных данных: это процесс восстановления информации или файлов, которые были ранее удалены с устройства хранения данных или системы. Если какие-либо данные были удалены или скрыты, эксперты с применением специальных технических средств могут попытаться восстановить их, чтобы выявить данные, имеющие значения для следствия или суда.

Аутентификация и целостность данных: Аутентификация и целостность - два фундаментальных аспекта обеспечения безопасности и надежности цифровых данных. Они играют решающую роль в защите данных от несанкционированного доступа и фальсификации.

Под целостностью понимается уверенность в том, что цифровые данные не были изменены или подделаны несанкционированным образом в процессе хранения, передачи или обработки. Обеспечение целостности данных необходимо для поддержания достоверности и точности данных. Одним из методом обеспечения целостности данных является Хеш-функция. Хеш-функции генерируют из данных строки символов фиксированной длины (хэши). Даже небольшое изменение в данных приведет к значительному изменению хэша [2].

Подготовка экспертных заключений: Подготовка экспертного заключения — это тщательный и зачастую трудоёмкий процесс. Он требует четкого и систематического подхода, а также объективности, точности и профессионализма. Экспертные заключения являются важнейшим инструментом, помогающим судам и следственным органам, разобраться в сложных технических или узкоспециальных вопросах [3].

Эксперты по экспертизе облачных данных играют важную роль в исследовании и анализе цифровых доказательств в различных сферах, включая правоохранительную деятельность, кибербезопасность и корпоративное расследование. Для успешного проведения исследования в области облачных данных, необходимо соответствовать определенным требованиям и обладать определенными навыками и квалификацией: Образование (наличие степени бакалавра в областях, таких как информатика, вычислительная техника, кибербезопасность, цифровая

криминалистика или информационные технологии). Наличие сертификата, подтверждающее компетентность к производству данного вида экспертизы. Техническая квалификация – умение пользоваться инструментами и программным обеспечением цифровой криминалистики. А также имеет важное значение наличие аналитических навыков, навыки решения проблем, этическое и профессиональное поведение и опыт в данной сфере [4].

Выполнение этих требований и постоянное совершенствование своих навыков и знаний является необходимым условием для того, чтобы стать квалифицированным экспертом в области цифровой криминалистики. Кроме того, эксперты должны обеспечивать соблюдение всех законодательных требований и правил при сборе, анализе и исследовании данных. В настоящее время эта область становится все более важной, поскольку облачные хранилища становятся широко используемыми и все больше информации переходит в облачные хранилища.

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА РЕАБИЛИТАЦИЯ ЭТИШ СОҲАСИДА ПРОЦЕССУАЛ ВА ПРОКУРОР НАЗОРАТИ (қиёсий таҳлил)

Шодиев Ғулом Махаммatович
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
марказ катта прокурори ю.ф.н., доцент

ЖПКга кўра ҳозирги вақтда жиноят ишини судга қадар юритиш жараёнида, шу жумладан шахсни реабилитация этиш асосларига кўра жиноят ишини тугатиш устидан назорат бўйича яхлит тизим йўқлигини таъкидлаш ўринли.

Ҳозирги кунда жиноят ишини судга қадар иш юритишни амалга оширувчи органлар фаолияти, уларнинг қонунларга риоя этилиши устидан назоратни амалга оширувчи прокурор назорати ва процессуал назоратнинг мазмуни ўртасидаги боғлиқлик ва фарқли жиҳатлар тўғрисида саволлар туғилиши табиий.

Профессор Г.Абдумажидовнинг таъкидлашича дастлабки терговни олиб борувчи органлар фаолиятини такомиллаштириш масалалари доирасида, жиноят иши бўйича процессуал раҳбарлик тўғрисида фикр юритган[1], доцент, А.Х.Раҳмонқулов, “Дастлабки терговда тергов бўлинмаларининг раҳбарлари маъмурий-ташкилий

[1] Абдумажидов Г. Расследование преступлений (Процессуально-правовое исследование). – Т., 1986. – С.77.

функциялардан ташқари, амалда процессуал функцияларни ҳам бажарадилар, чунки хизмат бўйича унга бўйсунувчи терговчиларнинг иши процессуал фаолиятдан иборатдир... Тергов бўлинмаси бошлиғининг зиммасига терговчиларнинг жиноят ишларини тергов қилиш фаолиятидаги ҳолатларни тўла ва холисона текширишнинг тўлалиги ва ҳар томонламалигини таъминлаш бўйича қонунда белгиланган чораларни кўриш, яъни процессуал раҳбарлик қилиш вазифаси юкланади. Бу эса идоравий-процессуал контролда намоён бўлади[2]", профессор, Д.М.Миразов "ЖПКда белгиланган ваколатлар доирасида идоравий процессуал контроль, прокурор назорати, суд контроли ва жамоатчилик контроли шаклида суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан процессуал ҳаракатларни амалга ошириш ва тегишли қарорларни қабул қилиш, суриштирув, дастлабки терговни амалга ошириш, судда кўриб чиқиш ва ҳал этишда жиноят-процессуал қонунчиликда белгиланган тартиб-таомилларга риоя этилишини ташкиллаштириш, кузатиш, текшириш, назорат қилиш, зарур ҳолларда таъсир ўтказиш, бекор қилиш, чора кўришдан иборат усулларнинг мажмуидир. Процессуал контролнинг субъектлари бўлиб суриштирув органи бошлиғи, тергов тузилмасининг раҳбари, прокурор ва суд ҳисобланади"[3] деб такидлайдилар.

Юқоридаги олимларнинг билдирган фикрларидан келиб чиқиб судгача бўлган жараёнда жиноят ишини юритишга ваколатли бўлган органлар ва мансабдор шахсларнинг фаолияти устидан олиб бориладиган назорат кўринишларини таҳлил қилсак, амалдаги ЖПКда белгиланганидек судгача жиноят ишларини юритиш суриштирув ва дастлабки тергов шаклида амалга оширилади, ЖПКнинг 35-моддасига кўра жиноят иши бўйича дастлабки терговни прокуратура, ички ишлар органларининг ва давлат хавфсизлик хизматининг терговчилари олиб борадилар.

Шунингдек, ЖПК 38-моддасига кўра:

Жиноят ишлари бўйича суриштирув:

1) ички ишлар органларининг;

2) Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг;

---

[2] Раҳмонқулов А.Х. Миразов Д.М. Дастлабки тергов. Дарслик. – Т., 2013. –Б.21-25.

[3] Д.М.Миразов, "Дастлабки тергов идоралари устидан контроль ва назоратни такомиллаштиришнинг назарий ташкилий ва процессуал жиҳатлари" ю.ф.д илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация. 2015 йил, 46 бет.

3) Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюросининг ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг;

4) Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг;

5) Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг суриштирувчилари томонидан амалга оширилади.

Бироқ, жиноят процессида шахсни реабилитация этиш соҳасида назоратни амалга оширувчи прокурор, тергов ва суриштирув органларининг раҳбарлари ўртасидаги ваколатларнинг қайта тақсимланишини кўрсатадиган Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексида мавжуд бўлган нормалар билан боғлиқ, уларни амалга ошириш муаммоларини ўрганиш долзарб ҳисобланади.

ЖПКнинг 33-моддасига кўра Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори ва унга бўйсунувчи прокурорлар суриштирув ва дастлабки тергов босқичларида Ўзбекистон Республикаси қонунларининг аниқ ва бир хилда ижро этилиши устидан назоратни амалга оширади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 33-моддаси 2-қисмида прокурор суриштирув ва дастлабки тергов босқичларида қонуннинг бузилишини, ким томонидан содир этилганлигидан қатъи назар, бартараф этиш учун қонунда назарда тутилган чора-тадбирларни ўз вақтида кўриши шарт деб белгиланган, юқоридаги нормага асосан прокурорга дастлабки тергов ва суриштирув ўтказилишига сезиларли таъсир кўрсатишга имкон беради. Суриштирувчи, суриштирув органи раҳбари ёки терговчи, тергов органи раҳбари томонидан йўл қўйилган қонун бузилишларини бартараф этиш воситаси сифатида уларнинг ноқонуний ёки асоссиз қарорларини бекор қилиш ваколати берилган, шунингдек кодекснинг 382-моддасида белгиланган тартибда қонунда назарда тутилган ҳолларда терговчи ёки суриштирувчининг ишни тугатишига розилик беради.

Бош прокурорнинг 2016 йил 22 февралдаги “Жиноятчиликка қарши кураш, суриштирув, дастлабки тергов ва тезкор-қидирув фаолиятида қонун устуворлигини ҳамда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоясини самарали таъминлаш тўғрисида”ги 129-сонли буйруғига биноан, Ўзбекистон Республикаси прокуратура органларининг жиноятчиликка қарши кураш борасидаги асосий

вазифалари – терговга қадар текширув, суриштирув, дастлабки тергов ва тезкор-қидирувни амалга оширувчи органларнинг бу борадаги фаолиятини назорат қилиш ва мувофиқлаштириш, терговга қадар текширув ва дастлабки терговни олиб бориш орқали қонун устуворлигини таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини, жамият ва давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларини, Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузумини ҳимоялаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактика қилишдан иборат эканлиги таъкидланган.

Шу билан бирга, ЖПКнинг 37-моддага кўра эса, тергов бошқармаси, бўлими, бўлинмаси, гуруҳининг бошлиғи ва унинг ўринбосари ўз ваколатлари доирасида жиноятларни очиш ва уларнинг олдини олиш юзасидан терговчиларнинг ўз вақтида ҳаракат қилишини назорат этадилар, жиноят ишлари бўйича дастлабки терговни тўла, ҳар томонлама ва холисона олиб бориш чораларини кўрадилар.

Xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Internet global xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, ma’lumotlar himoyasi sohasidagi muammolarni faqat milliy darajada hal etib bo‘lmaydi. Davlatlararo hamkorlik, ma’lumotlar almashinuvi va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari takomillashtirishni talab etmoqda.

Professor J.Smith ta’kidlaganidek, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi nafaqat texnik, balki kompleks huquqiy masala bo‘lib, u davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Bu fikr mavjud muammolarni hal etishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar zarur. Birinchi navbatda, shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunni xalqaro standartlarga, xususan Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) talablariga moslashtirish lozim. Bu milliy qonunchiligimizni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish va ma’lumotlar himoyasining samarali mexanizmlarini joriy etish imkonini beradi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish va qabul qilish ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu reglamentlar ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatishning minimal texnik talablarini belgilashi lozim. Shuningdek, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiy talablarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Javobgarlik choralarini kuchaytirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qayta ko‘rib chiqish, jarima miqdorlarini oshirish va yangi turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash zarur. Bu choralar preventiv ta’sir ko‘rsatishi va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishi lozim.

Institutsional mexanizmlarni rivojlantirish yo‘nalishida ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha maxsus vakolatli organ tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu organ monitoring va nazorat funksiyalarini amalga oshirishi, shuningdek ma’lumotlar himoyasi sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy rol o‘ynashi kerak.

Kadrlar malakasini oshirish masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ma’lumotlar himoyasi sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab borish tizimini yaratish zarur. Bu maqsadda maxsus o‘quv dasturlari, treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yoʻnalishida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xususan, xalqaro shartnomalar bazasini kengaytirish, huquqni muhofaza qilish organlari oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash lozim.

Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAV vakillarining bu sohada faol ishtirokini ta'minlash lozim. Bu ma'lumotlar himoyasi tizimining shaffofligini oshirish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasidagi mavjud muammolarni hal etish va bu sohani yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash masalasi zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ma'lumotlar almashinuvi koʻlamining ortishi va kibertahdidlarning kuchayishi bu masalani yanada dolzarblashtirmoqda.

Tadqiqot natijalariga koʻra, bugungi kunda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasida bir qator jiddiy muammolar mavjud. Xususan, huquqiy bazaning yetarli darajada takomillashmaganligi, ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarining zamonaviy tahdidlarga mos kelmasligi va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samarali ishlamasligi shular jumlasidandir.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi yoʻnalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi boʻyicha milliy strategiyani ishlab chiqish zarur. Bu strategiya uzoq muddatli maqsad va vazifalarni, ustuvor yoʻnalishlarni va amalga oshirish mexanizmlarini oʻz ichiga olishi lozim.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama formatda amalga oshirilishi, xalqaro standartlarni joriy etish va tajriba almashishni oʻz ichiga olishi kerak.

Uchinchidan, ma'lumotlar himoyasi sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim. Bu soha uchun yuqori

malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning bilim va koʻnikmalarini muntazam yangilab borish tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Toʻrtinchidan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur. Fuqarolik jamiyati institutlari va OAV vakillarining bu sohada faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amalga oshirilishi shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasidagi mavjud muammolarni hal etish va bu sohani yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ZAMONAVIY IQTISODIY SUD ISH YURITUVIDA SUN'IY INTELLEKT ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHNING PROTSESSUAL SHAKLLARI

Davletova Karomatjon Xudayberganovna,
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: maqolada hozirgi zamon iqtisodiy sud ishlarining yurituvida axborot-texnologiyalari imkoniyatlari va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning protsessual shakllari tahlil etiladi. Unda sun'iy intellekt (SI)ning sud tizimidagi rolini, shuningdek, uning ijobiy va salbiy jihatlari yuzasidan huquqshunos olimlarning fikrlar tahlil etiladi. Maqolada shuningdek, sud-huquq tizimlarida sun'iy intellektdan foydalanish boʻyicha Yevropa axloqiy Xartiyasi talablari, sud tizimiga sun'iy intellektni jory etish boʻyicha ijobiy tajribaga ega boʻlgan Estoniya tajribasiga e'tibor qaratilgan. Maqola, shuningdek, sun'iy intellektni amaliyotda joriy qilishning huquqiy asoslarini va qonuniy tartibga solishning zarurligini muhokama qiladi. Mazkur tadqiqot sud hokimiyati ixtisosligi doirasida tadqiqot ishi olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar, sud tizimi boʻyicha ekspertlar va amaliyotchilar hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan qiziquvchilar uchun dolzarb va muhim ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: sud hokimiyati, odil sudlov, iqtisodiy protsess, axborot texnologiya, sun'iy intelekt, axborot xavfsizligi, shaffoflik, sudning mustaqilligi, takomillashtirish.

Abstract: the article analyzes the procedural forms of utilizing information technology capabilities and artificial intelligence (AI) elements in contemporary economic judicial proceedings. It examines the role of artificial intelligence in the judicial system and analyzes legal scholars' opinions regarding its positive and negative aspects. The article also highlights the requirements of the European Ethical Charter on the use of AI in judicial systems, with particular attention to Estonia's experience, which serves as a positive example of integrating AI into the judiciary. Furthermore, the article discusses the legal foundations and necessity of regulating the implementation of AI in practice. This research is of critical importance and

relevance for researchers conducting studies within the scope of judicial specialization, judicial system experts and practitioners, as well as individuals interested in modern information and communication technologies.

Keywords: judiciary, justice, economic process, information technology, artificial intelligence, information security, transparency, judicial independence, improvement.

Аннотация: в статье анализируются процессуальные формы использования возможностей информационных технологий и элементов искусственного интеллекта (ИИ) в современных экономических судебных разбирательствах. Рассматривается роль искусственного интеллекта в судебной системе, а также анализируются мнения правоведов относительно его положительных и отрицательных сторон. В статье уделено внимание требованиям Европейской этической хартии по использованию ИИ в судебных системах, а также опыту Эстонии, которая демонстрирует положительный пример внедрения ИИ в судебную деятельность. Кроме того, обсуждаются правовые основы и необходимость нормативного регулирования внедрения ИИ на практике. Данное исследование представляет актуальность и значимость для научных исследователей, работающих в области судебной специализации, экспертов и практиков в области судебной системы, а также для тех, кто интересуется современными информационно-коммуникационными технологиями.

Ключевые слова: судебная власть, правосудие, экономический процесс, информационные технологии, искусственный интеллект, информационная безопасность, прозрачность, независимость судов, совершенствование.

Hozirgi kunda sir emaski, sun’iy intellekt davlat organlari, shu jumladan, sud tizimi faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish sud jarayonining samaradorligi, aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2023 — 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi doirasida odil sudlovni ta’minlashning ustuvor vazifalaridan biri sifatida sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma’lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutilganligi ham bejiz emas.[307]

[307] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/6358976

Odil sudlov samaradorligi bo‘yicha Yevropa komisiyasining 31-yalpi majlisida qabul qilingan (Stratsburg, 2018 yil 3-4 dekabr) “Sud-huquq tizimlarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha Yevropa axloqiy Xartiyasi va ular atrofidagi voqeliklar” nomli hujjat qabul qilingan. Ushbu Xartiya bilan tez rivojlanayotgan sun’iy intellekt tizimlaridan milliy sud tizimlarida foydalanish masalasida ijro etuvchi hokimiyat organlari, qonun chiqaruvchilar va sud hokimiyati vakillari amal qilishlari mumkin bo‘lgan tamoyillar tizimi yaratildi. Xartiyada sud tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi beshta asosiy tamoyili ko‘rsatilgan:

• Asosiy huquqlarga rioya qilish tamoyili: sun’iy intellektga asoslangan vositalar va xizmatlarni ishlab chiqish va qo‘llashda asosiy huquqlarga muvofiqlikni ta’minlash;

• Nodiskriminatsiya tamoyili: shaxslar yoki guruhlar o‘rtasida kamsitishlarning rivojlanishi yoki kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik;

• Sifat va xavfsizlik tamoyili: sud qarorlari va ma’lumotlarini qayta ishlashda sertifikatlangan manbalar va ko‘p fanli asosda ishlab chiqilgan modellardan xavfsiz texnologik muhitda foydalanish;

• Ochiqlik, xolislik va ishonchlilik tamoyili: ma’lumotlarni qayta ishlash usullarini ochiq va tushunarli qilish, tashqi audit o‘tkazish imkoniyatini ta’minlash;

• Foydalanuvchi tomonidan nazorat qilish tamoyili: buyruq berish usulidan voz kechish va foydalanuvchiga bilimli ishtirokchi sifatida o‘z tanlovini nazorat qilish imkoniyatini berish.[308]

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishning asosiy tendensiyalari va jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, sun’iy intellekt davlat boshqaruvining turli sohalarida, jumladan transport boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va huquq-tartibotda faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishning asosiy tendensiyalarga quyidagilar kiradi:

- rutin jarayonlarni avtomatlashtirish;
- katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish;
- natijalarni prognoz (bashorat) qilish.

[308] European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ). European ethical Charter on the use of Artificial Intelligence in judicial systems and their environment Adopted at the 31st plenary meeting of the CEPEJ (Strasbourg, 3-4 December 2018) // https://www.europarl.europa.eu/cmsdata/196205/COUNCIL%20OF%20EUROPE%20-%20European%20Ethical%20Charter%20on%20the%20use%20of%20AI%20in%20judicial%20systems.pdf

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, masalan, Singapur va Estoniya sudlarida sun’iy intellektdan foydalanish ishlarni ko‘rib chiqilishini tezlashtirmoqda va sud xatolari sonini kamaytirmoqda.

Bugungi kunda Estoniyaning sud tizimi Yevropadagi eng samarali tizimlardan biri sifatida tan olingan bo‘lib, avtomatlashtirilgan sud jarayonlari va elektron aloqa vositalari bilan ajralib turadi.

Yuridik adabiyotlarda kelajakda texnologiyalar sudyalar va advokatlarning barcha vazifalarini almashtirishi mumkinmi, degan savol ko‘p muhokama qilinayotgan bir davrda Estoniya tajribasi bu borada o‘zining ijobiy tajribasi bilan yuqoridagi masalalarga yechim sifatida baholanmoqda. Estoniya tajribasiga ko‘ra, texnologiyalar huquqiy tizimni qo‘llab-quvvatlash uchun joriy etilmoqda va bu sohadagi mutaxassislarni inson aralashuvini talab qiluvchi muhim masalalarga e’tibor qaratishga imkon beradi.

Estoniyada sudlarni raqamlashtirish jarayoni uchinchi sanoat inqilobi oxiridayoq boshlangan edi. Axborot texnologiyalari inqilobi sud tizimini tezkor, samarali va barcha fuqarolarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish tizimiga aylantirish uchun ajoyib imkoniyat yaratmoqda.

Estoniya hukumati 2005 yilda e-File tizimini ishlab chiqishni boshlagan bo‘lib, shundan buyon elektron odil sudlov (e-justice) tizmir sezilarli darajada rivojlandi. Fuqaro xavfsiz tasdiqlash jarayonidan o‘tib, e-justice platformasiga kirishi bilan har qanday ishni onlayn ravishda taqdim qilishi mumkin bo‘ldi. Ma’lumotlar sudda ko‘rib chiqilayotgan ish bilan bog‘liq muassasalar o‘rtasida bo‘lishiladi va sudlar tegishli hujjatlarni ko‘rib chiqishni boshladi. Bu jarayon “bir marta kiritish” siyosatiga asoslanadi, ya’ni davlat ma’lumotlar bazalarida takroriy ma’lumotlar yo‘q.

E-File platformasi orqali sudlar fuqarolarga turli hujjatlarni yuborishi mumkin, xabarnomalar esa sudyalarni barcha fayllarning muvaffaqiyatli yetkazilganligiga ishonch hosil qiladi. Har bir hujjatga vaqt belgisi qo‘yiladi va xavfsiz elektron imzo bilan ta’minlanadi. Shuningdek, maxfiy ma’lumotlar sudlar tomonidan shifrlanishi mumkin, bu esa uchinchi shaxslarning ma’lumotlarga kirishini oldini oladi. Bu esa Estoniya e-justice modelini ishonchli va xavfsiz xizmatlar tizimi sifatida tanitishga yordam berdi.[309]

Bugungi kunda Estoniyada sudyalar soni so‘nggi 20 yil davomida o‘zgarmagan, biroq sud ishlarining soni ikki barobar oshgan. Buning asosiy sabablaridan biri sud tizimi samaradorligiga turli omillar, shu

[309] Artificial intelligence as the new reality of e-justice // https://e-estonia.com/artificial-intelligence-as-the-new-reality-of-e-justice/

jumladan, nizolarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash imkonini beruvchi texnologiyalar rivojlanishi muhim rol o‘ynadi.[310]

Sud tizimi samaradorligiga bo‘lgan bosim kelajakda kamayishi ehtimoli juda oz va aksincha, ortishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun sudlarni nizolarni tezroq hal etishga va yuklamani kamaytirishga yordam beradigan yechimlarni izlab topishda doimiy harakat zarur. Bu kabi yechimlarning ichida iqtisodiy sud ishlarini yuritishga sun’iy intellekt elementlarini keng joriy etish, IT kompaniyalari uchun avtomatlashtiruvchi tizimlarni ishlab chiqish kabi muhim vazifalarning yuklatilishi muhim hisoblanadi.

Binobarin, hozirgi kunda, Estoniya IT kompaniyalari sudyalar va advokatlarning ko‘p vaqt talab qiluvchi vazifalarini avtomatlashtirish bo‘yicha ish olib bormoqda. Sun’iy intellekt odatiy sud jarayonlari va vazifalari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa sudyalar va advokatlarning soatlab vaqtini tejaydi.

Ko‘pchilik: “Sud jarayonlarini tezlashtirish yaxshi, lekin bu yechimlar juda qimmatga tushmaydimi?” deb so‘rashi mumkin. Lekin aslida, Estoniya sud tizimi Yevropada eng past kishi boshiga to‘g‘ri keladigan budjet bilan faoliyat yuritmoqda.

2015 yilning 16-20 noyabr kunlari O‘zbekiston sud tizimi xodimaridan iborat delegatsiya sud tizimida informatsion texnologiyalarni joriy etishdagi o‘ziga xos tajribani o‘rganish maqsadida Estoniyaga tashrif buyurgan edi. Estoniya elektron hukumatni rivojlantirayotgan mamlakatlar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Umumiy soni 1 million 300 ming kishini tashkil etuvchi Estoniya aholisining 38 foizi, ya’ni 500 ming kishi, davlat xizmatlarini to‘lig‘icha elektron shaklda oladi. Misol tariqasida, 2013 yilda soliq deklaratsiyalarining 95 foizi internet orqali taqdim etilgan; barcha doktor retseptlari elektron tarzda yuborilgan. Sud-huquq tizimida esa, Estoniya da’vogarlar hamda ularning vakillari sud da’volarini elektron tarzda taqdim etish va sudga kelib tushgan da’voning holatini kuzatib turish imkoniyatini beruvchi “E-Toimik” onlayn ma’lumot tizimini joriy etgan. Mazkur tizim barcha instansiyadagi sudlar, politsiya mahkamasi, sud ijrochilari va advokatlar kabi boshqa manfaatdor tomonlar orasida o‘zaro ma’lumot almashuvini ta’minlaydi. Misol uchun, yolg‘iz ona aliment undirish yuzasidan sud binosiga tashrif buyurmasdan uydan turib murojaat qilish imkoniyatiga ega.

[310] Net Group. Artificial Intelligence: A Substitute or Supporter of Judges? // https://aastaraamat.riigikohus.ee/en/artificial-intelligence-a-substitute-or-supporter-of-judges/

Tashrif doirasida Estoniya tajribasidan quyidagi ikki asosiy saboq oʻrganildi:

a) Elektron sud tizimini yaratish uzoq muddatli va uzluksiz jarayon boʻlib, sud boshqaruvi elektron tizimlarini sudyalar, sud xodimlari va sud foydalanuvchilarining talablari asosida doimiy takomillashtirish talab etiladi;

b) Sudlarning turli instansiyalari va boshqa hukumat idoralarining elektron tizimlari bilan oʻzaro bogʻliqligini doimiy kengaytirib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir hafta davom etgan Estoniyaga tashrifdan orttirilgan bilim va koʻnikmalar asosida E-SUD tizimini modernizatsiyalash va sud boshqaruvi mexanizmlarini yangilashga qaratilgan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan edi:

Ma'lumot almashuvi bayonnomalarini qayta koʻrib chiqish va takomillashtirish, sudlarning turli istansiyalari va boshqa hukumat idoralari oʻrtasida ma'lumotlar almashuvini samarali va oʻz vaqtida ta'minlash maqsadida E-SUD tizimiga qoʻshimcha modullar ishlab chiqish orqali sudlarning turli istansiyalari va hukumat idoralarining ma'lumot tizimlarinining oʻzaro mutanosibligini ta'minlashga oid mavjud oʻzaro ma'lumot almashuvi mexanizmlarini mukammallashtirish;

Soddalashtirilgan sudlov tartibini joriy etish, jumladan sudga kelib tushgan da'volarni rasmiy sud tinglovisiz koʻrib chiqishga qaratilgan Fuqarolik-protsessual kodeksiga oʻzgartirishlar kiritish;

Sudning funksional tahlilini oʻtkazish hamda mazkur tahlil natijalariga asoslangan holda, sudyaning asosiy ishiga qoʻshimcha yuklatilgan faoliyatidan ozod etish maqsadida, fuqarolik ishlar boʻyicha sudda eksperiment tariqasida sudya yordamchisi va sud boshqaruvchisi kabi ikki qoʻshimcha lavozimni joriy etishni sinab koʻrish;

Sudyalar mustaqilligini va xolisligini ta'minlash maqsadida E-SUD tizimida fuqarolik ishlari boʻyicha sudyalarga sudlov ishlarni tasodifiy ravishda taqsimlash funksiyasini ishlab chiqish va joriy etish.[311]

Yuridik adabiyotlarda sud faoliyatida zamonaviy axborot-texnologiyalaridan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish va uning ijobiy-salbiy jihatlari borasida turli bahs-munozaralar ilgari surib kelinadi. Xususan, M.M.Mamasiddiqovning fikricha, "...sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sudlarda elektron hujjatlar aylanishini tezlashtiradi, sudlar faoliyati toʻgʻrisidagi axborotlarni toʻplash, ishlash, tizimlashtirish va saqlanishini

[311] USAID Ўзбекистон суд тизимига фуқаролик суд тизимида электрон ҳукуматни жорий этишга оид илғор тажрибани ўрганишда кўмак кўрсатмоқда // https://uz.usembassy.gov/uz/usaid-supports-uzbek-judiciary-in-learning-e-governance-best-practices-in-civil-justice-sector-uz/

ta’minlaydi, axborot tizimi yordamida elektron vositalar orqali sudga murojaat qilish imkoniyatining berilishi esa sud orqali himoya qilish uchun qulayliklar yaratadi, axborot tizimi orqali elektron shaklda sud muhokamasi ishtirokchilarini xabardor qilish va ularga sud hujjatlarini hamda boshqa xatxabarlarni yuborish imkoniyatini yaratadi, bular oxir-oqibat odil sudlovning samarasini oshirishga, uning tezkorligi va qulayliligini ta’minlashga xizmat qiladi”.[312]

S.S.G‘ulyamov va A.S.Sidiqovning fikricha, zamonaviy axborot texnologiyalarini sud tizimiga faol va tezkor joriy etish quyidagilarga erishish imkonini beradi: adolat tizimining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, qonuniy himoya huquqini amalga oshirish, ishlar va nizolarni ko‘rib chiqish muddatlarini optimallashtirish, tugallanmagan ishlar sonini qisqartirish va hujjatlarni yo‘qotish holatlarini bartaraf etish. Bundan tashqari, sud faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish sud hokimiyatining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlardan biri bo‘lib, ma’lumotlarga qulay va tezkor kirish imkoniyatini yaratish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi.[313]

E.K.Sabirov esa o‘zining dissertatsiya ishida sud-huquq islohotlarini axborot bilan ta’minlashning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish to‘g‘risidagi taklifni ilgari surgan.[314]

O.A.Stepanov va D.A.Basangovning fikricha, sun’iy intellekt platformalari sud pretsedentlarini[315] tahlil qilish va eng optimal yechimlarni taklif etishga yordam beradi.[316] A.S.Sokolkinaning fikricha, iqtisodiy protsessda sun’iy intellekt ishdagi mavjud dalillarni baholash va qarorlar chiqarishda inson hissiyotlari va biryoqlama qarashlarni istisno qilib, obyektiv yondashuvni ta’minlaydi.[317] Yana bir huquqshunos olim S.A.Kurochkinning fikricha, sun’iy intellektdan foydalanish iqtisodiy ishlarning ko‘rib chiqilish vaqtini qisqartirib, sudyalarga murakkab

---

[312] Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик назоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. –Тошкент, “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2019. –61 б.

[313] Гулямов С.С., Сидиков А.С. Ўзбекистоннинг рақамли иқтисодиёти ривожланиши шароитида иқтисодий суд ишларини юритишни рақамлаштириш ва виртуаллаштириш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили No 1. 2020 й. 39 б.

[314] **Qarang:** Сабиров Э.К. Судлар фаолияти очиқлигини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари // Юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси. Илмий раҳбар юридик фанлари доктори, профессор М.М.Мамасиддиқов. -Тошкент, 2021. – 10 б.

[315] Precedents - бўлиб ўтган, муайян ишни суд органлари томонидан кўриб чиқишда бошқа судлар томонидан айнан шунга ўхшаш иш бўйича илгари чиқарилган қарорнинг қўлланилиши // Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат // https://lex.uz/dictionary?word=ПРЕЦЕДЕНТ

[316] Степанов О.А., Басангов Д.А. О перспективах влияния искусственного интеллекта на судопроизводство // Вестник Томского государственного университета. 2022. № 475. С. 229–237.

[317] Соколкина А.С. Искусственный интеллект в арбитражном процессе / Молодой ученый. 2022. № 48 (443). -С. 334-336.

masalalarga diqqat qaratish imkonini beradi va ularning yuklamasini kamaytiradi.[318]

Darhaqiqat, bizning fkrimizzcha ham iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning asosiy maqsadlari va vazifalari, eng avvalo odil sudlovning tezkorligi va sifatini oshirish hisoblanadi. Sudda ish ko'rishning shaffofligi va nizolashayotgan taraflarning teng huquqliligini ta'minlash orqali sudlar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning xavfini kamaytirish imkoni yaratiladi.

Sun'iy intellekt sudda odatiy va takroriy ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu borada inson mehnatini yengillashtirish imkonini beradi. Masalan, davlat bojlarini nazorat qilish, ishni sud muhokamasiga tayinlash, xizmat xat-xabarlarini yetkazish va chaqiruv xatlarini tayyorlash kabi jarayonlar sun'iy intellekt orqali tezlashtirilishi mumkin.[319]

Bunda sun'iy intellekt asosiy qarorlarni tayyorlash uchun pretsedentlar va katta ma'lumotlarda qonuniyatlarni aniqlashga qodir. Bu sudyalarga bahslarning ahamiyatini aniqlash va ularga yetarli e'tibor qaratish uchun ko'proq vaqt beradi. Sun'iy intellekt qonunlarni va ijtimoiy mezonlarni hisobga olishda insonning jo'shqin fikrini to'ldiradi, biroq uni almashtirmaydi.

Biroq shunday bo'lsa-da, elektron odil sudlov tizimi butun davlat elektron yechimlardan qanday foyda olishi mumkinligini namoyish etmoqda. Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi elektron hamkorlik kuchli bo'lsa, texnologik yechimlar orqli turli qog'ozbozlik kamayadi, davlat reyestrlaridagi barcha tegishli ma'lumotlarning ishonchli va mukammal ko'rinishiga erishish ta'minlanadi, sudlar va fuqarolar o'rtasidagi byurokratik to'siqlar kamayadi va nihoyat, bu kabi yechimlar ham fuqarolar, ham davlat rasmiylari uchun vaqt va mablag'ni tejaydi.

Yuridik adabiyotlarda olimlar iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sun'iy intellektni qo'llash bilan bog'liq ayrim muammolar va xavf-xatarlar haqida ham ogohlantirmoqda. Masalan, sun'iy intellekt algoritmlarining shaffof emasligi bilan bog'liq masala shular jumlasidandir. I.L.Bednyakov va N.A.Razveykinaning fikricha, ko'plab sun'iy intellekt algoritmlari "qora quti" hisoblanadi, bu ularning qaror qabul qilish logikasini tushunishni qiyinlashtiradi va jarayon ishtirokchilarida ishonchsizlik keltirib

[318] Курочкин С.А. О перспективах применения искусственного интеллекта в гражданском и арбитражном судопроизводстве. Арбитражный и гражданский процесс № 02/2023.

[319] Net Group. Artificial Intelligence: A Substitute or Supporter of Judges? // https://aastaraamat.riigikohus.ee /en/artificial-intelligence-a-substitute-or-supporter-of-judges/

chiqaradi.[320] L.V.Sherbachevaning fikricha, texnologiyalarning nomukkammalligi ayniqsa murakkab va standart bo‘lmagan holatlarda noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.[321] V.V.Momotov o‘z asarida sun’iy intellektni sud tizimiga joriy etish uning ishtirokida qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik hamda protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta’minlash kabi muammolarni ko‘taradi.[322] O.A.Stepanov va D.A.Basangovlar yuqoridagi muammolarning yechimi sifatida xalqaro tajribani hisobga olish va ushbu sohada normativ tartibga solishni rivojlantirish zarurligini qayd etadi.[323]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy sud ishlarini yuritishida sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish odil sudlovning samaradorligi va ochiqligini ta’minlash imkoniyatini beradi. Biroq, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun huquqiy standartlarni ishlab chiqish, algoritmlarning shaffofligini ta’minlash va albatta, sudyaning mustaqilligini saqlab qolish muhimdir. Shundagina sun’iy intellekt odil sudlovning maqsadlariga erishishda samarali vositaga aylanishi mumkin.

Undan tashqari, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sun’iy intellektdan foydalanish sudda ish ko‘rishning asosiy tamoyillarini buzmasligi va shu maqsadda qat’iy protsessual nartibga solinishi kerak. Binobarin, sun’iy intellekt ishni mazmunan hal qiluvchi sudyaning ichki ishonchini mustahkamlashi va to‘ldirishi mumkin, lekin ularni almashtirmasligi kerak. sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan tavsiyalar faqat yordamchi vosita bo‘lib qolishi, yakuniy qaror esa sudya tomonidan qabul qilinishi zarur.

---

[320] Бедняков И.Л., Развейкина Н.А. Возможности применения искусственного интеллекта в судопроизводстве. Вестник СЮИ// https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-primeneniya-iskusstvennogo-intellekta-v-sudoproizvodstve?utm_source=chatgpt.com

[321] Щербачева Л.В. Проблемы осуществления искусственного интеллекта в судопроизводстве. Международный научно-исследовательский журнал. 2024. № 2 (140).

[322] Момотов В.В. Искусственный интеллект в судопроизводстве: состояние, перспективы использования. Вестник Университета имени Е.В. Кутафина. МГЮА. 2021. №5. -С. 188-191.

[323] Степанов О.А., Басангов Д.А. О перспективах влияния искусственного интеллекта на судопроизводство // Вестник Томского государственного университета. 2022. № 475. С. 229–237. // https: cyberleninka.ru/article/n/o-perspektivah-vliyaniya-iskusstvennogo-intellekta-na-sudoproizvodstvo?utm_source=chatgpt.com

MAYNING VA KRIPTO AKTIVLARNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Abduraxmanov Muzaffar Mamurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi tinglovchisi

Hozirgi vaqtda kriptovalyutalar sarmoya kiritish uchun istiqbolli obyektdir. Shuning uchun kriptovalyutalarni yaratish va mayning tadbirkorlik faoliyatining yangi yo'nalishiga aylanmoqda.[324] Mayningning huquqiy tabiatini aniqlash, shunga o'xshash hodisalar - bank faoliyati, qimmatli qog'ozlar emissiyasi, markaziy banklar tomonidan pul muomalasi bilan taqqoslash asosida ushbu faoliyat turining xususiyatlarini huquqiy tartibga solish asoslarini aniqlash imkonini beradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda mayning kriptovalyuta platformalarining ishlashini ta'minlash uchun yangi elementlarni shakllantirish bo'yicha faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Ya’ni mayning kriptovalyutalarni yaratish bilan bevosita bog'liq, ammo kriptovalyutalar mayning doirasidan tashqarida ham yaratilishi mumkin.

Kriptovalyuta bozorining jadal rivojlanishi va mayningning tobora ommalashib borishi ushbu faoliyatni tartibga solish uchun keng qamrovli huquqiy bazani ishlab chiqishni talab qildi. Ushbu bo’lim mayning va kripto-aktivlarning huquqiy asoslarini tahlil qilish, tartibga solish yondashuvlari bo'yicha keng istiqbolni ta'minlash uchun milliy va xorijiy tajribalarni solishtirishga qaratilgan.

Mayning - bu Bitcoin va boshqa bir qancha kriptovalyutalar ekotizimida yangi tangalar yaratish va blokcheynlarni tekshirish va himoya qilish uchun ishlatiladigan jarayon. U butun dunyo bo'ylab blokcheynlarni - kriptovalyuta tranzaktsiyalarini hujjatlashtiradigan virtual daftarlarni tekshiradigan va himoya qiluvchi kompyuterlarning keng, markazlashmagan tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Hisoblash quvvatiga hissa qo'shgani uchun tarmoqdagi kompyuterlar yangi tangalar bilan taqdirlanadi. Bu yaxshi aylanma amaliyot: maynerlar blokcheynni qo‘llab-quvvatlaydi va himoya qiladi, blokcheyn ularni tangalar bilan taqdirlaydi, tangalar maynerlarni blokcheynni qo‘llab-quvvatlashga rag‘batlantiradi.

Kripto-aktivlarning huquqiy maqomi bo’yicha xorij tajribasini tahlil qilsak. 2015-yil noyabr oyida Yevropa sudi Bitcoinni tovar emas, hech bo'lmaganda soliq nuqtai nazaridan valyuta (to‘lov vositasi) sifatida

[324] Коростелев М.А. Правовой режим электронных денег в гражданском законодательстве: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2014. 218 с.

koʻrish kerakligi haqida qaror chiqardi. Shunday qilib, an'anaviy fiat valyutalari uchun Bitcoin sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'iga tortildi. Norvegiya, Finlyandiya va Germaniyada kriptovalyuta kapital/daromad solig'i kabi soliqqa tortiladi. Avstriyada kriptovalyuta soliq organlari tomonidan nomoddiy aktiv sifatida qabul qilinadi va uni qazib olish operatsion faoliyat hisoblanadi. Qo'shma Shtatlarda kriptovalyutalar mulk hisoblanadi va bunday valyuta bilan barcha operatsiyalar soliqqa tortiladi.[325] Bir qator mamlakatlarda kriptovalyuta muomalasi taqiqlangan. Bularga Jazoir, Boliviya, Vetnam, Misr, Iroq, Marokash, Nepal, BAA, Pokiston kiradi. Bahrayn, Bangladesh, Xitoy, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Indoneziya, Eron, Quvayt, Litva, Aomin, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Tayvan va Tailandda kriptovalyutalarga yashirin taqiq amal qiladi.

Yevropa Ittifoqida kriptovalyuta Yevropa Markaziy banki tomonidan konvertatsiya qilinadigan, markazlashmagan virtual valyuta sifatida tavsiflangan. Hozircha kriptovalyutani toʻgʻridan-toʻgʻri tartibga soluvchi hujjat yoʻq, shuning uchun Yevropa banklariga kriptovalyutalarning qonuniy rejimi oʻrnatilgunga qadar ular bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan bosh tortish tavsiya qilingan. Biroq, kriptovalyutalar bilan bog'liq ba'zi muammolarni hal qilishga urinishlar allaqachon boshlangan[326]. Jumladan, 2017-yilda Yevropa Ittifoqining jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi direktivasiga kriptovalyutadan olingan daromadlarni legallashtirish va foydalanish xavfini kamaytirish maqsadida oʻzgartirishlar kiritildi.

Yevropa Ittifoqi kripto-aktivlar bozorini (Market of Cripto-Actives) tartibga solish kabi qonunlar orqali yagona me'yoriy-huquqiy bazani yaratish ustida ishlamoqda. MiCA reglamenti: Ushbu taklif etilayotgan reglament kripto-aktivlar uchun emissiya, savdo va saqlash xizmatlarini qamrab oluvchi keng qamrovli asos yaratishga qaratilgan. Pul yuvishga qarshi kurash (Anti Money Laundering): Yevropa Ittifoqi kriptovalyuta birjalari va hamyon provayderlarini oʻz ichiga olgan holda AML qoidalarini kengaytirdi va ulardan Mijozni bilish (Know Your Client) talablariga rioya qilishni talab qildi.

Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (GDPR): GDPR kripto sektorida shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashga ta'sir qiladi va

[325] Кучеров И.И., Кҳаванова И.А. Налогове последствия исполъзования алътернативнйкҳ платезҳнйкҳ средств (теоретико-правове аспектй) [Тах Сонсекуэнсэс оф Усинг Альтернативе Меанс оф Паймент (Тҳеоретисал анд Легал Аспестс)] // Вестник Пермского Университета. Журидическиэ Науки - Перм Университй Ҳералд. Журидисал Ссиэнсэс. 2017. Иссуэ 35. Пп. 66-72.

[326] https://nplaw.ru/blog/detail/evropeyskiy-parlament-prinyal-zakonoproekty-o-regulirovanii-kriptovalyuty/

kompaniyalar foydalanuvchi ma'lumotlarini qanday boshqarishiga ta'sir qiladi.

Yevropa Ittifoqida kriptovalyuta Yevropa Markaziy banki tomonidan konvertatsiya qilinadigan, markazlashmagan virtual valyuta sifatida tasniflangan. Hozircha kriptovalyutani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga soluvchi hujjat yo‘q va shuning uchun Yevropa banklariga kriptovalyutalarning qonuniy rejimi o‘rnatilgunga qadar ular bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan bosh tortish tavsiya qilindi. Biroq, kriptovalyutalar bilan bog'liq ba'zi muammolarni hal qilishga urinishlar allaqachon qilingan. Shunday qilib, 2017 yilda jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida kriptovalyutadan foydalanish xavfini kamaytirishga qaratilgan Yevropa Ittifoqining Pul yuvishga qarshi direktivasiga o‘zgartirishlar kiritildi.

Bir qator davlatlar kriptovalyutalarga xususiy pul va to‘lov vositasi sifatida munosabatini shakllantirdilar. Bunday yondashuv, masalan, kriptovalyutalar bo'yicha qonunchilik shakllanish bosqichida bo'lgan Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan. Germaniyada kriptovalyuta (xususan Bitcoin) ham kapital sifatida soliqqa tortiladigan xususiy pul shakli sifatida tan olingan va Germaniya bank qonunchiligiga muvofiq Bitcoin hisob birligi sifatida tan olingan. Ispaniyada, 2014 yilda, qonunga ko'ra, kriptovalyuta qimor biznesiga nisbatan elektron to'lov vositasi sifatida tasniflangan va kriptovalyutalar bilan operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligi aniqlangan. Shveytsariyada kriptovalyuta chet el valyutalari bilan bir xil darajada va kriptovalyutalar bilan operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shu bilan birga, kriptovalyutalar bilan operatsiyalar jinoiy yo'l bilan olingan pullarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi va kriptovalyutalar bilan bir qator operatsiyalar uchun ularni amalga oshirish uchun litsenziya olish talablari mavjud. Estoniyada ham batafsil huquqiy tartibga solish mavjud emas va kriptovalyuta muqobil to'lov vositasi sifatida tan olingan[327].

Shveysariya o'zini kripto-do'st yurisdiksiya sifatida ko'rsatdi, aniq qoidalar va qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarni ishlab chiqdi. Shveysariya moliya bozorini nazorat qilish organi kriptoaktivlar uchun batafsil ko'rsatmalar beradi va tokenlarni uchta toifaga ajratadi: to'lov tokenlari, foydali tokenlar va aktivlar tokenlari.

Kripto vodiysi deb nomlanuvchi Zug kantoni qulay soliq siyosati va qonuniy ravshanlik bilan blokcheyn startaplari uchun qulay muhitni taklif

[327] Егорова Мария Александровна Понятие и правовое регулирование криптовалюты в зарубежных странах // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2019. №2-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-pravovoe-regulirovanie-kriptovalyuty-v-zarubezhnyh-stranah (дата обращения: 13.10.2024).

etadi. Bundan tashqari Shveytsariya banklarga kripto-aktivlarni moliya tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirib, kriptovalyuta kompaniyalariga xizmatlar taklif qilish imkonini beradi. Ayrim mamlakatlarda kriptovalyuta aktiv/mulk hisoblanadi. Misol uchun, Isroilda soliq xizmati loyihasiga ko'ra, kriptovalyuta soliqqa tortiladigan aktiv sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Norvegiya ham kriptovalyutani soliqqa tortiladigan mulk deb hisoblaydi. Kriptovalyuta bir qancha afzalliklarga ega. Ilgari ma'lum bo'lganidek, kriptovalyutalarning asosiy xususiyatlarini aniqlashda ular markazsizlashtiriladi va shuning uchun ular bilan operatsiyalar o'ta xavfsizdir: kriptovalyutalarni egallab olish uchun tajovuzkorlar nafaqat bitta serverni, balki ko'plab kompyuterlarni buzishi kerak. Ushbu tizim shuningdek, davlat yoki banklar tomonidan tranzaktsiyalarni bloklashni imkonsiz qiladi, buning natijasida tranzaktsiyalarning katta qismi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Transchegaraviy kriptovalyuta operatsiyalari fiat valyuta operatsiyalaridan farqli o'laroq, bir zumda amalga oshiriladi. Masalan, Bitkoin kabi kriptovalyutaning yana bir afzalligi shundaki, uning inflyatsiyasi mutlaqo prognoz qilinishi mumkin: aytilishicha, jami 21 million bitkoin chiqariladi va ayni paytda muomalada allaqachon 16,5 million bitkoin mavjud. Shuningdek, kriptovalyutaning yana bir xususiyati uning anonimligidir[328].

Butun dunyoda kriptovalyutaning tabiati va huquqiy maqomini aniqlashga yondashuv tubdan farq qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin: kriptovalyutalar pul, mulk sifatida e'tirof etiladi, yoki ular butunlay taqiqlanadi va aksincha, hukumat emissiyasi uchun rejalashtirilgan. Muayyan davlat uchun qaysi yondashuv eng to'g'ri bo'lishini aniqlash juda qiyin va rasmiylar kriptovalyutaning barcha afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda tartibga solishni tanlashda murosaga kelishga harakat qilmoqdalar.

Jahon amaliyotida kriptovalyutani qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olish istiqbollari allaqachon mavjud bo'lganligi sababli, nazariy jihatdan bu holda kriptovalyutani valyuta qiymati sifatida tasniflash mumkin bo'ladi. Biroq, hozirgi vaqtda dunyoning hech bir davlatida bunday yondashuv ishlab chiqilmagan va ba'zi axborot resurslari kriptovalyuta hech qachon qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olinmasligini ta'kidlaydi.

Bitcoinning dastlabki yillarida oddiy uy kompyuteriga ega bo'lgan har bir kishi mayning bilan shug’ullanishi mumkin edi. Ammo blokcheyn

[328] Егорова Мария Александровна Понятие и правовое регулирование криптовалюты в зарубежных странах // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2019. №2-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-pravovoe-regulirovanie-kriptovalyuty-v-zarubezhnyh-stranah (дата обращения: 13.10.2024).

o'sishi bilan uni saqlash uchun zarur bo'lgan hisoblash quvvati oshdi. Ko'p jihatdan 2024 yilda bitta bitkoinni mayninggi uchun zarur bo'lgan hisoblash quvvati 2009-yilga (birinchi bitkoin bloklari qazib olingan vaqtga) qaraganda ancha yuqori - taxminan 6 baravar ko'p. Bu so’nggi 15 yil ichida qazib olish qiyinligining eksponensial o'sishi tufaylidir. Natijada, bitkoin qazib olish ko'p yillar davomida havaskorlar uchun odatda foydali bo'lmagan. Deyarli barcha mayning faoliyati endi ixtisoslashgan kompaniyalar yoki resurslarini birlashtirgan odamlar guruhlari tomonidan amalga oshiriladi. Ixtisoslashgan kompyuterlar har bir yangi bitkoin tranzaksiyasini tekshirish va qayd etish hamda blokcheyn xavfsizligini ta’minlash uchun zarur hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Blokcheyn tekshiruvi katta hajmdagi hisoblash quvvatini talab qiladi, uni maynerlar ixtiyoriy ravishda taqdim etadilar.

Bitcoin qazib olish katta ma'lumotlar markazini boshqarishga o'xshaydi. Kompaniyalar mayning uskunalarini sotib oladi va uni ishlatish (va saqlash) uchun zarur bo'lgan elektr energiyasini to'laydi. Buning foydali bo'lishi uchun olingan tangalarning qiymati ushbu tangalarni qazib olish narxidan yuqori bo'lishi kerak. Tarmoqdagi har bir kompyuter “xesh” deb nomlanuvchi 64 xonali o‘n oltilik sonni birinchi bo‘lib taxmin qilishga intiladi. Kompyuter qanchalik tez taxmin qila olsa, mayner mukofot olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. G'olib blokcheyn daftarini barcha yangi tasdiqlangan tranzaksiyalar bilan yangilaydi – shu bilan zanjirga barcha tranzaksiyalarni o'z ichiga olgan yangi tasdiqlangan "blok" ni qo'shadi – va yangi zarb qilingan bitkoinning oldindan belgilangan miqdoriga ega bo'ladi. (O'rtacha, bu har o'n daqiqada sodir bo'ladi.) 2024-yil aprel holatiga ko'ra, mukofot har bir blok uchun 3,125 bitkoinni tashkil qiladi va har bir yangi bitkoin qazib olish qiyinligi oshgani sayin, boshqa bitkoinlar qazib olinmaguncha mukofot kamayib boraveradi. Bitkoinlarning maksimal mumkin bo'lgan soni - 21 million. Oxirgi blok nazariy jihatdan 2140-yilda shakllanadi. Shu paytdan boshlab, maynerlar endi mukofot sifatida yangi zarb qilingan bitkoinlarga tayanmaydilar, aksincha, tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun olinadigan to'lovlarga tayanadilar. Yangi tangalarni muomalaga chiqarishdan tashqari, mayning Bitcoin (va boshqa ko'plab kriptovalyutalar) xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. U blokcheynni tekshiradi va himoya qiladi, bu kriptovalyutalarga uchinchi tomon nazoratiga muhtoj bo'lmasdan, markazlashtirilmagan tarmoq sifatida ishlashga imkon beradi. Va bu maynerlar uchun tarmoqqa o'z

hisoblash quvvatlarini qo'shishni talab qiladi[329]. Bir qator mamlakatlarda kriptovalyuta muomalasi taqiqlangan. Bularga Jazoir, Boliviya, Vyetnam, Misr, Iroq, Marokash, Nepal, BAA, Pokiston kiradi. Bahrayn, Bangladesh, Xitoy, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Indoneziya, Eron, Quvayt, Litva, O'mon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Tayvan va Tailandda kriptovalyutalarga yashirin taqiq amal qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Bitcoinni huquqiy tartibga solishning yagona kontseptsiyasi aniqlanmagan. 2014 yilda Nyu-York moliyaviy xizmatlar departamenti kriptovalyutalar mavzusiga murojaat qilib, "raqamli valyuta" va "elektron pul" tushunchalaridan foydalangan. Bir qator shtatlarda (Vashington, Nyu-York, Janubiy Karolina, Jorjiya, Pensilvaniya, Nyu-Xempshir, Nyu-Meksiko), kriptovalyuta aylanishiga ruxsat beriladi; boshqa shtatlarda bu masala hal qilinmagan. Kanadada kriptovalyutalarni barter operatsiyalari qoidalariga muvofiq to'lash uchun foydalanishga ruxsat beriladi, ular qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olinmaydi; Kanada daromad agentligi kriptovalyutani soliqqa tortish uchun raqamli tovar sifatida tavsiflaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bitcoinni huquqiy tartibga solishning yagona konsepsiyasi aniqlanmagan. 2014-yilda Nyu-York moliyaviy xizmatlar departamenti kriptovalyutalar mavzusiga murojaat qilib, "raqamli valyuta" va "elektron pul" tushunchalaridan foydalangan. Bir qator shtatlarda (Vashington, Nyu-York, Janubiy Karolina, Jorjiya, Pensilvaniya, Nyu-Xempshir, Nyu-Meksiko) kriptovalyuta muomalasiga ruxsat berilgan, boshqa shtatlarda esa bu masala hal etilmagan. Amerika Qo'shma Shtatlari kripto-aktivlar va qazib olish bo'yicha tarqoq tartibga soluvchi yondashuvga ega, turli agentliklar bozorning turli jihatlarini nazorat qiladi[330].

Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) – SEC dastlabki tanga takliflarini (ICO) tartibga soladi va ba'zi kripto-aktivlar qimmatli qog'ozlar sifatida tasniflanishi yoki tasniflanmasligini aniqlaydi.

Tovar fyucherslari savdo komissiyasi (CFTC) – CFTC Bitcoin va boshqa kriptovalyutalarni tovar sifatida tasniflaydi, shu bilan fyuchers va derivativlar savdosini nazorat qiladi. Ichki daromad xizmati (IRS) – IRS kriptovalyutalarni soliq maqsadlarida mulk sifatida ko'radi, tranzaktsiyalar va mayning faoliyati to'g'risida hisobot berishni talab

[329] https://www.coinbase.com/ru/learn/crypto-basics/what-is-mining#:~:text=Mining%20is%20the%20process%20that,ledgers%20that%20document%20cryptocurrency%20transactions

[330] Егорова Мария Александровна Понятие и правовое регулирование криптовалюты в зарубежных странах // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2019. №2-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-pravovoe-regulirovanie-kriptovalyuty-v-zarubezhnyh-stranah (дата обращения: 13.10.2024).

qiladi. Shtatlar qoidalari – Nyu-York kabi shtatlar kriptovalyuta bizneslarini nazorat qilish uchun BitLicense kabi maxsus qoidalarni amalga oshirdilar.

Kanadada kriptovalyuta tovar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish uchun ruxsat etiladi, u qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olinmaydi; Kanada daromad agentligi kriptovalyutani soliqqa tortish uchun raqamli tovar sifatida tavsiflaydi. Bir qator davlatlar kriptovalyutalarga xususiy pul va to‘lov vositasi sifatida munosabatini shakllantirdilar. Bunday yondashuv, masalan, kriptovalyutalar bo'yicha qonunchilik shakllanish bosqichida bo'lgan Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan. Germaniyada kriptovalyuta (xususan Bitcoin) ham kapital sifatida soliqqa tortiladigan xususiy pul shakli sifatida tan olingan va Germaniya bank qonunchiligiga muvofiq Bitcoin hisob birligi sifatida tan olingan. Ispaniyada 2014-yilda kriptovalyuta qonuniy ravishda qimor biznesiga nisbatan elektron to'lov vositasi sifatida tasniflangan. Kriptovalyutalar bilan operatsiyalar qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmasligi aniqlandi. Shveysariyada kriptovalyutalar xorijiy valyutalar bilan bir xil darajada va kriptovalyutalar bilan operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shu bilan birga, kriptovalyutalar bilan operatsiyalar **jinoiy yo'l bilan olingan pullarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.** Kriptovalyutalar bilan bir qator operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziya olish talablari mavjud. **Estoniyada** ham batafsil huquqiy tartibga solish mavjud emas va kriptovalyuta muqobil to'lov vositasi sifatida tan olingan. Isroilda, soliq xizmati loyihasiga ko'ra, kriptovalyuta soliqqa tortiladigan aktiv sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Norvegiya ham kriptovalyutani soliqqa tortiladigan mulk deb hisoblaydi[331].

Xitoy kriptovalyutani tartibga solishga qat'iy yondashdi va kripto bilan bog'liq ko'plab faoliyatlarni samarali ravishda taqiqladi. Xitoy hukumati moliyaviy beqarorlik va firibgarlikning oldini olish uchun kriptovalyuta almashinuvi va ICO-larni taqiqladi. Xitoy atrof-muhit muammolari va moliyaviy xavflarni bahona qilib, mahalliy **mayning** operatsiyalarini to'xtatishga o'tdi. Xususiy kriptovalyutalarga qarshi kurashga qaramasdan, Xitoy o'zining markaziy banki raqamli valyutasini – Digital Yuanni faol ravishda rivojlantirmoqda.

Yaponiyada kriptovalyutalardan to‘lov vositasi sifatida foydalanish mumkin, kriptovalyutalarni sotib olish va sotish uchun platformalar

[331] Егорова Мария Александровна Понятие и правовое регулирование криптовалюты в зарубежных странах // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2019. №2-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-pravovoe-regulirovanie-kriptovalyuty-v-zarubezhnyh-stranah (дата обращения: 13.10.2024).

faoliyati litsenziyalanadi. Yaponiya kriptovalyutalarni qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olgan va yaxshi belgilangan me'yoriy-huquqiy bazaga ega bo'lgan kam sonli davlatlardan biridir. To'lov xizmatlari to'g'risidagi qonun –kriptovalyuta almashinuvini tartibga soladi, bu ularni Moliyaviy xizmatlar agentligida ro'yxatdan o'tishni va qat'iy operatsion standartlarga rioya qilishni talab qiladi.[332]

Yaponiyada kriptovalyutalardan to‘lov vositasi sifatida foydalanish mumkin, kriptovalyutani sotib olish va sotish bo‘yicha platformalar faoliyati litsenziyalangan. Moliyaviy vositalar va birja qonuni – kripto derivativlari savdosini qamrab oladi va uni an'anaviy moliyaviy vositalar bilan bir xil tartibga soluvchi soyabon ostiga olib keladi. Yaponiya iste'molchilarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirdi, shu jumladan ayirboshlash uchun kapital talablari va mijozlar va kompaniya aktivlarini ajratish. Singapur me'yoriy hujjatlarga muvofiqlikni ta'minlash bilan birga innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlagan holda muvozanatli yondashuvni amalga oshiradi. To‘lov xizmatlari to‘g‘risidagi qonun – to‘lov tizimlari, jumladan kriptovalyuta almashinuvi va hamyon provayderlari uchun litsenziyalar olish va AML/KYC qoidalariga rioya qilishni talab qiluvchi me’yoriy asosni taqdim etadi.

Singapur Monetar Authority (MAS) – kripto sanoati bilan faol hamkorlik qiladi, ko'rsatmalar chiqaradi va mas'uliyatli rivojlanishni rag'batlantirish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qiladi. Singapurda startaplarga kripto sektorining o‘sishiga yordam beruvchi sinov muhiti qo‘llanilib, nazorat ostidagi muhitda innovatsion mahsulotlarni sinab ko‘rish imkoni yaratilgan. Yaponiya va Shveysariya kabi davlatlar aniq me'yoriy-huquqiy bazani yaratish uchun faol qadamlar qo'ymoqda,

Amerika Qo'shma Shtatlari esa reaktiv yondashuvga ega bo’lib, bozor o'zgarishlariga javoban normalar ishlab chiqadi. Xitoy esa kripto-aktivlar sanoatining o'sishini cheklash choralarini qo’llaydi. Singapur va Shveysariya kabi yurisdiksiyalar ruxsat beruvchi bo’lib, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, Proaktiv va ruxsat beruvchi tartibga solish muhiti bozor o'sishiga yordam beradi, biznes va investorlarni jalb qiladi. Yaponiya va Shveysariya o'zlarining kripto sektorlarida sezilarli rivojlanishga erishdilar. Singapurda tartibga soluvchi sandboxlar va qo'llab-quvvatlovchi siyosat kompaniyalarga tartibga solinadigan doirada tajriba o'tkazishga imkon berish orqali innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Yurisdiksiyalar bo'ylab nomuvofiq qoidalar tartibga soluvchi arbitrajga olib kelishi mumkin, bu yerda korxonalar qulayroq muhitga

[332] Япония признала криптовалюты законным платежным средством. // Российская газета [сайт]. URL: https://rg.ru/

ko'chib o'tadi, bu esa tartibga solish harakatlariga putur yetkazishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasining tez rivojlanayotgan tabiati tartibga soluvchilar uchun ishlanmalar bilan hamqadam bo'lishni talab qiladi va tegishli qoidalarni ishlab chiqishda qiyinchiliklar tug'diradi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilarni himoya qilish va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash butun dunyo bo'ylab tartibga soluvchilar uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, proaktiv va ruxsat beruvchi tartibga solish yondashuvlari bozor o'sishi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi, cheklovchi choralar esa rivojlanishni to'xtatib qo'yishi mumkin. Global kripto bozori rivojlanishda davom etar ekan, xalqaro hamkorlik va qoidalarni uyg'unlashtirish muammolarni hal qilish va sanoatning barqaror o'sishini ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun dastlab ma’muriy javobgarlik, agar bir yil ichida yana sodir etilsa jinoiy javobgarlik vujudga keladi. Kiritilgan oʻzgartirishga koʻra, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 1554-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi va mazkur huquqbuzarlikni sodir etish kripto-aktivlarni hamda mazkur huquqbuzarliklarni sodir etish qurollarini musodara qilib, oʻn besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga yoki ushbu Kodeksga muvofiq oʻziga nisbatan ma’muriy qamoq qoʻllanilishi mumkin boʻlmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oʻttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi. Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish esa, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻttiz baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Shuningdek, mazkur qilmishni ma’muriy javobgarlikka tortilgan keyin shaxs tomonidan bir yil ichida takroran sodir etilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Jinoyat kodeksining 2788-moddasiga koʻra, Kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, oʻtkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish yoxud kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilgan boʻlsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum

qilish bilan jazolanadi. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug‘iga 1-ilova bo‘lgan «Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari deganda, jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayirboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tushuniladi. Xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya faqat O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — yuridik shaxslariga beriladi. Xizmatlar provayderlari faoliyatining turlari quyidagilardan iborat: – kripto-birja; – mayning-pul; – kripto-depozitariy; – kripto-do‘kon.

Xizmatlar provayderlari faoliyatining har bir turi bo‘yicha alohida litsenziya beriladi. Bundan tashqari, JKning 2788-moddasining 2-qismida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun og‘irroq jazo belgilangan bo‘lib, agar yuqorida keltirilgan harakatlar a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan; b) ko‘p miqdorda; v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Shuningdek, JKning 2788-moddasining 3-qismiga ko‘ra Kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish yoxud kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish juda ko‘p miqdorda; xizmat mavqeyidan foydalangan holda; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jinoyat qonunchiligimizda yuqoridagi qilmish bilan bog‘liq rag‘batlantiruvchi norma ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI, XITOY VA KOREYA MISOLIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI

Abdufattoyev Yo‘ldoshali Farxodjon O‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi tinglovchisi

Sun’iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan tizim yoki texnologiya bo‘lib, olingan ma’lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun’iy intellekt format ham, funksiya ham emas, balki bu jarayon bo‘lib, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Sun’iy intellekt zamonaviy huquqiy tizimda o‘ta muhim va ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Uning ta’siri va imkoniyatlari turli jabhalarda o‘z aksini topadi, bu esa huquqiy sohadagi amaliyot va tadqiqotlarda yangi imkoniyatlar va chegaralarni ochib beradi.

Sun’iy intellekt unga ko‘maklashuvchi dasturlar orqali huquqiy hujjatlarni tezkor va samarali ravishda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, hujjatlarning avtomatik indeksatsiyasi va tegishli qarorlar yoki qonunlar bilan bog‘liq muhokamalarni topish osonlashdi. Bu normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va xato ehtimolini kamaytiradi.

Ayrim yurisdiksiyalarda sun’iy intellekt algoritmlari ayrim turdagi huquqiy masalalarda qaror qabul qilish jarayoniga kiritilgan. Masalan, shartnoma shartlarini avtomatik baholash yoki kredit berishda qarz oluvchining qarzga qaytarish imkoniyatlarini tahlil qilish shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda sud va huquqni muhofaza qilish faoliyatida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalasi har kungidan ko‘ra dolzarb bo‘lib kelmoqda. Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan sud ishlarini yuritish jarayonlarini avtomatlashtirishda, shu jumladan, ayrim turdagi ishlarning dastlabki tahlilini o‘tkazishda foydalanilishi mumkin. Bu sudyalarga va prokurorlarga ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni tizimlashtirish va tezkor baholashga yordam beradi.

Darhaqiqat, sudyalarning ish yuklamasining ko‘pligini hozirgi kunda ham sud tizimidagi og‘riqli muammo sifatida ko‘rsatish mumkin. Binobarin, mamlakatimiz aholisi soni kundan-kunga ko‘paymoqda. Sudyalarning shtatlar soni esa aholining o‘sish su’ratiga qarab mutanosib ravishda belgilanmagan. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, birgina 2022

yilda jinoyat ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudida 58.697 ta jinoyat ishi, 539.686 ta ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar 562.304 ta, iqtisodiy sudlar 277.865 ta, ma’muriy sudlar 15.347 ta ishni ko‘rib chiqqan. Ushbu raqamlarni o‘rtacha oylik ish hajmiga nisbatan hisoblaydigan bo‘lsak, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudining bir sudyasi bir oyda 181 ta ishni, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudining sudyasi 269 ta, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudining sudyasi esa 163 ta ishni ko‘rib chiqishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xorijiy davlatlar (AQSH, Xitoy, Kanada)ning hamda Yevropa Ittifoqi qonunchili tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda ham “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish va mazkur Qonunda quyidagi asosiy elementlar o‘z aksini topishi haqida xulosa qilish mumkin:

1. Xavflarni tasniflash. Sun’iy intellekt (SI) to‘g‘risidagi qonunlar SI tizimlarini ular ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf darajasiga ko‘ra tasniflashi lozim. Shu o‘rinda sog‘liqni saqlash, transport, sud va huquq-tartibot organlarida SIdan foydalanadigan tizimlar yuqori xavfli tizim sifatida tasniflanadi. O‘rta va past xavfli tizimlarga nisbatan kamroq talablar qo‘yilsa-da, ular asosan shaffoflik va xavfsizlik standartlariga javob berishi talab etiladi.

2. Shaffoflik va tushunarlilik. SI to‘g‘risidagi qonunning asosiy qoidalaridan biri algoritmlarning tushunarliligi va shaffofligiga bo‘lgan talabdir. Foydalanuvchilar va nazorat organlari SI qanday qarorlar qabul qilayotganini tushunishlari kerak.

3. Etika va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik. Ko‘plab mamlakatlar kamsitish, ayirmachilikning oldini olish va adolatni ta’minlash maqsadida SI etikasi to‘g‘risidagi majburiy qoidalarni o‘z qonunlariga kiritish chorasini ko‘rmoqdalar. Bu o‘z navbatida algoritmlarning irq, jins, din yoki boshqa belgilar bo‘yicha har qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik asosida ishlab chiqilishini o‘z ichiga oladi.

4. Ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilarning javobgarligi. Qonunchilik SIdan foydalanish uchun javobgarlik ishlab chiquvchilar, operatorlar va oxirgi foydalanuvchilar o‘rtasida aniq taqsimlanishini talab qiladi.

5. Xalqaro hamkorlik. SIni tartibga solishning muvofiqlash-tirilgan standartlarini ishlab chiqishda ushbu prinsip muhim rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish zarurati jamiyat va davlat hayotida zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, ularning turli hayot sohalariga ta’siri va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zaruriyati bilan bog‘liq

bo‘ladi. SI zamonaviy iqtisodiyot, huquqiy tizim, sog‘liqni saqlash, transport va boshqa sohalarning tobora muhim qismiga aylanmoqda. Ammo aniq me’yoriy hujjatlarning yo‘qligi inson huquqlarining buzilishi, texnologiyalardan noetik foydalanilishi va ijtimoiy tengsizlikning yuzaga kelishi kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish. SI tizimlari shaxsiy hayot va inson huquqlariga katta ta’sir o‘tkazishi mumkin. Masalan, yuzni tanib olish tizimlari shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini buzishi, qarorlar qabul qilish algoritmlari esa kamsitishga sabab bo‘lishi mumkin. SI to‘g‘risidagi qonun fuqarolarni bunday xavflardan himoya qilish va asosiy huquqlarini himoya qilish uchun zarurdir. Jumladan, SI tizimlari tomonidan katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash tizimlari shaxsiy huquqqa oid ma’lumotning sizib chiqishi yoki uning qonunga xilof ravishda foydalanilishini oldini olish uchun nazorat qilinishi kerak.

Nazoratsiz SI tizimlari kredit berish yoki sud ishlarini yuritish kabi sohalarda xato qarorlar qabul qilishi mumkin. Qonun o‘z navbatida algoritmlar orqali kamsitishning oldini olish choralarini nazarda tutishi kerak.

Qolaversa, SI jamiyatning etik normalariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, SI jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan va etik standartlarga rioya qilinishini kafolatlaydigan qonunlar juda zarur. Bu kabi Qonun SIning jamiyat uchun ma’naviy jihatdan qabul qilinmaydigan qarorlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi.

SI tizimlari jamiyat uchun o‘z faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va foydalanilishi kerak.

SI bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri bu “qora quti” algoritmlari bo‘lib, unda foydalanuvchilar va hatto ishlab chiquvchilar ham tizim qanday qarorlar qabul qilishini tushuntirib bera olmaydi. SI to‘g‘risidagi qonun oshkoralikni ta’minlash uchun juda muhim.

SI tizimlari foydalanuvchilari uchun, ayniqsa, tibbiyot yoki sud tizimi kabi muhim sohalarda qarorlar qabul qilish sabablarini tushunishlari borasida imkoniyatga ega bo‘lishi kerak.

Davlat idoralari va kompaniyalar SI tizimlarining ishlash prinsiplari haqida axborot berishlari lozim, bu ishonchsizlikni oldini olish va jamoat nazoratini ta’minlashga xizmat qiladi.

Aniq qonunlarning mavjud bo‘lmasligi SI tizimlari orqali sodir etilgan xatolar yoki shu orqali yetkazilgan zarar uchun kim javobgar ekanini noaniq bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli SI to‘g‘risidagi qonunda

ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilarning javobgarligi aniq belgilashi kerak. Bunda SIdan foydalanishda xatolar yoki suiiste'molliklar natijasida jabrlanganlar kompensatsiya olishlari mumkin bo‘ladi.

Qonunchilik SI tizimlarining, ayniqsa, muhim infratuzilmalarda qo‘llanilayotgan tizimlar xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha talablarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

SI bu global texnologiya bo‘lib, xalqaro tartibga solish va huquqiy normalarning muvofiqlashtirilishini talab qiladi. Muvofiqlashtiril-magan qonunlarsiz davlatlar SIning chegaralararo faoliyati bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin. Qolaversa, milliy qonunchilik xalqaro normalar bilan muvofiqlashtirilishi kerak, shunda huquqiy bo‘shliqlardan qochish va SIni samarali boshqarish mumkin bo‘ladi.

Sun'iy intellekt haqidagi qonunning tuzilishi, odatda, SIdan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan turli boblardan iborat bo‘lib, mamlakatlar va ularning huquqiy tizimiga qarab o‘zgarishi va turlicha bo‘lishi mumkin. Biroq asosiy elementlar umumiy bo‘lib qoladi. Xalqaro tendensiyalar va Yevropa Ittifoqi sun'iy intellekt to‘g‘risidagi qonunni (Artificial Intelligence Act) kabi loyihalar asosida SI haqidagi qonunning tuzilishini taxminiy strukturasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Kirish.

Qonunning maqsadi: Qonunning maqsad va vazifalarini belgilash, masalan, xavfsizlik, shaffoflik va SIdan foydalanish uchun javobgarlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va SI sohasidagi innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash.

Qo‘llanish sohasi: Qonun qaysi SI tizimlariga nissbatan tatbiq etilishini aniqlash (masalan, mamlakat hududida qo‘llaniladigan barcha SI tizimlari yoki faqat yuqori xavfli tizimlar).

Ta'riflar: Qonunda ishlatiladigan tushunchalar, jumladan, “sun'iy intellekt”, “algoritm”, “yuqori xavf”, “o‘rta va past xavf”, “ishlab chiquvchi”, “foydalanuvchi” va boshqalarning ta'rifi.

“Sun'iy intellekt to‘g‘risida”gi qonun zamonaviy huquqiy makonda yuz berayotgan bahs-munozaralarning eng muhim mavzularidan biridir. Bunday qonunni ishlab chiqish xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida sun'iy intellekt (SI)dan foydalanishni huquqiy tartibga solish zaruriyati bilan bog‘liqdir. Ko‘plab mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar SIni nazorat qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqmoqdalar, ayrimlarida bu kabi qonun amal qiladi.

Xalqaro darajada sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish borasida shuni ta'kidlash kerakki, hozida Yevropa Ittifoqi sun'iy intellekt

to‘g‘risidagi qonunni (Artificial Intelligence Act) ishlab chiqmoqda. SIni tartibga soluvchi birinchi kompleks qonunchilik hujjati sifatda ushbu qonunning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar nazarda tutilmoqda:

Qonun SI tizimlarini xavf darajasiga qarab quyidagi toifalarga ajratishni taklif qiladi:

- yuqori xavfli tizim;
- cheklangan xavfli tizim;
- minimal xavfli tizim.

Yuqori xavfli SI tizimi qat’iy talablarga javob berishi va majburiy sertifikatlanishi talab etiladi. Shuningdek, Qonunda asosiy e’tibor kamsitish, ayirmachilikning oldini olish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Masalan, jamoat joylarida biometriya orqali shaxsni aniqlash uchun SIdan foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi. SI ishlab chiquvchilari va foydalanuvchilari xatolar va SI tizimlaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan zarar uchun to‘liq javobgar bo‘ladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) 2019 yilda SI prinsiplarini ishlab chiqdi va bu ko‘plab mamlakatlarda SIni tartibga solish uchun asos bo‘ldi. Bu prinsiplar innovatsiya va o‘sishni inson huquqlarini hurmat qilgan holda ta’minlash; SI tizimlari uchun javobgarlik va shaffoflikni ta’minlash; jamiyatga SI yetkazadigan zararlar va xavflarning oldini olishn tashkil qiladi.

Sun’iy intellekt bo‘yicha xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, masalan, AQSHda federal darajada yagona sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonuni mavjud emas. Biroq 2020 yilda AQSH SI texnologiyalarini rivojlantirish va uning etik foydalanishini ta’minlashga qaratilgan milliy strategiyani e’lon qildi. AQSHda mavjud qonunchilik SIdan mudofaa, sog‘liqni saqlash va xavfsizlik kabi sohalarda foydalanishni tartibga soladi. Biroq hozirda AQSHda biznes va davlat tashkilotlarida SIdan foydalanishda kamsitish, ayirmachilikka yo‘l qo‘ymaslik, shaffoflik va javobgarlik bo‘yicha etik prinsiplar ishlab chiqilmoqda.

Xitoy hozirgi kunda ma’lumotlar va xavfsizlikka oid masalalar bo‘yicha SIni tartibga solish bo‘yicha qonunchilikni ishlab chiqish borasida faollik ko‘rsatmoqda.

2022 yilda Xitoy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va ishlab chiquvchilarning etik javobgarligiga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etdi. Xitoyning “Ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni SIdan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ko‘plab SI tizimlari katta miqdordagi shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlaydi.

Kanadaning “Raqamli xartiya” (Digital Charter) to‘g‘risida”gi qonuni 2019 yilda Kanada hukumatining raqamli iqtisodiyot va internetdagi ma’lumotlarning himoyasiga oid qonunchilik tashabbuslari doirasida qabul qilingan bo‘lib, mazkur Qonun SIni qisman tartibga soladi va davlat tuzilmalarida SIdan foydalanish qoidalarini tartibga soladi.

Kanadaning “Raqamli xartiya to‘g‘risida”gi Qonuni quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlarning maxfiyligi va himoyasi.

Ma’lumotlar to‘plash va ishlash: Ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashda shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va himoyasini ta’minlash.

Ma’lumotlarning nazorati: Fuqarolarga o‘z ma’lumotlari bo‘yicha nazoratni oshirish imkoniyatini berish.

2. Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish.

Shaxsiy ma’lumotlarga rioya qilish: Shaxsiy ma’lumotlarning qanday yig‘ilishi, saqlanishi va foydalanilishiga oid qoidalarni belgilash.

Ma’lumotlardan foydalanishda ochiqlik: Ma’lumotlarning qay tarzda foydalanilishi va qanday maqsadda ishlatilayotganligi to‘g‘risida ma’lumot berish.

3. Texnologiyalar va axloqiy standartlar.

Sun’iy intellekt va algoritmlar: Sun’iy intellekt va algoritmlarning axloqiy standartlarga muvofiq ishlatilishiga rioya qilish.

Texnologik xavfsizlik: Raqamli texnologiyalar va tizimlar xavfsizligini ta’minlash va zarar keltiruvchi xatolardan himoyalash.

4. Fuqarolarning huquqlari.

Shaxsiy ma’lumotlar huquqlari: Fuqarolarga o‘z shaxsiy ma’lumotlariga oid to‘liq ma’lumot olish, ularni o‘chirish yoki o‘zgartirish huquqi berish.

Shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash: Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarining himoyasini ta’minlash.

5. Javobgarlik va sanksiyalar.

Rioya qilmaslik uchun jazolar: Ma’lumotlar himoyasi qoidalariga rioya qilmaganlik uchun sanksiyalar va jazo choralari.

PROSPECTS OF USING MODERN TECHNOLOGIES IN THE CRIMINAL PROCEEDINGS

Azamova Gulbakhor Azamovna
Master's student of Law Enforcement Academy

Abstract: the article scientifically analyzes issues related to the use of modern innovational technologies, in particular the capabilities of artificial intelligence (AI), at the pre-trial stage of criminal proceedings. Several achievements and shortcomings that can be achieved as a result of the development of artificial intelligence models in criminal proceedings are studied, in which the author gave her suggestions and recommendations.

Keywords: *artificial intelligence, Criminal Procedure, proof, decision making, evidence collection, forecasting.*

Annotatsiya: Maqolada jinoyat ishlarini yuritishning sudgacha bo'lgan bosqichida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan, xususan, sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq masalalar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Jinoyat ishlarini sudgacha yuritish bosqichida sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqish natijasida erishilishi mumkin bo'lgan bir qancha yutuq hamda kamchiliklar prognoz qilinib, bu borada muallif o'z taklif va tavsiyalarini berib o'tadi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, jinoyat protsessi, isbotlash, qaror qabul qilish, dalillarni to'plash, prognoz qilish.*

Аннотация: В статье научно проанализированы вопросы, связанные с использованием современных инновационных технологий, в частности, возможностей искусственного интеллекта (ИИ) на досудебном этапе уголовного судопроизводства. В уголовном процессе прогнозируется ряд достижений и недостатков, которые могут быть достигнуты в результате разработки моделей искусственного интеллекта, в связи с чем автор дает свои предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, уголовный процесс, доказывание, принятие решений, сбор доказательств, прогнозирование.*

Introduction

In recent years, significant measures have been implemented in our country to develop and expand the application of artificial intelligence (AI) systems. Specifically, in the **"Development Strategy of New Uzbekistan in 2022-2026**[333]" specific tasks have been outlined for the successful implementation of AI in our country through the development of the **"Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies in 2023–2030.**[334]**"** Additionally, the Presidential Decree No. PQ-5234 dated August 26, 2021, **"On Measures to Introduce a Special Regime for the Use of Artificial**

[333] https://www.imv.uz/media/document_files/uzbekistan-report-development-strategy-2022-2026-final-november-2022-pdf.pdf

[334] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, www.lex.uz.

Intelligence Technologies,[335]" and other relevant documents emphasizes the need to enhance digitalization processes in the republic.

The New Uzbekistan Strategy emphasizes the integration of modern information and AI technologies in combating corruption, developing mechanisms for the digitization of the enforcement system, and, broadly, conducting scientific research to gradually incorporate AI systems into the existing legal framework in the judiciary and legal sectors.

Each year, official bodies host numerous organizational, educational-methodological, and scientific discussions on the challenges and opportunities of using AI systems in various fields such as healthcare, education, industry, construction, public administration, and science. The potential of AI technologies is also given particular attention in the legal field. This focus is driven by the fact that legislation processes, legal interpretation, and law enforcement activities are among the areas that could be significantly influenced by computer and information technologies, particularly AI systems.

Artificial intelligence is the process of creating systems capable of acting in a way that is recognized as intelligent by humans[336]. From this perspective, it can be assumed that such systems aim to develop computer functions related to human intelligence, such as reasoning, learning, and problem analysis. Considering the imperfection of human intellectual activity, artificial intelligence may play a very significant role in people's lives. In other words, artificial intelligence is the human capability applied within the realm of computer and information technologies. This concept serves as the foundation for addressing the issue of artificial intelligence in criminal procedure.

Numerous studies on this topic encompass not only general law but also criminal procedural law[337]. However, artificial intelligence in criminal procedure is not a solution in itself. The study and application of artificial intelligence and its capabilities in law, including criminal law, require independent and comprehensive research, which, in principle, should remain under the supervision of legal professionals. Creating algorithms to solve

---

[335] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича махсус режимни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5234-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий баъзаси, www.lex.uz.

[336] Джонс, М. Т. Программирование, искусственного, интеллекта, приложениях. ДМК-Пресс, 2018 ISBN · 978-5-94074-746-8 ; Страниц – 312, 15 с

[337] Власова С.В. К вопросу о приспосабливании уголовно - процессуального механизма к цифровой реальности // Библиотека криминалиста. Научный журнал. 2018. № 1. С. 9 - 18; Апостолова Н.Н. Искусственный интеллект в судопроизводстве // Северо - Кавказский юридический вестник. 2019. № 3. С. 135 - 141; Хисамова З.И., Бегишев И.Р. Уголовная ответственность и искусственный интеллект: теоретические и прикладные аспекты // Всероссийский криминологический журнал. 2019. Т. 13. № 4. С. 564-574; Понкин И.В., Редькина А.И. Искусственный интеллект с точки зрения права // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки. 2019. № 1. С. 91 - 109; Информационные технологии в уголовном процессе зарубежных стран. Монография. Коллектив авторов. Под ред. С.В. Зуева,М., 2020. 216 с.

problematic situations necessitates specialized knowledge in mathematics, engineering, linguistics, management, psychology, and information technologies, as well as the legal expertise to adapt these algorithms to specific fields of science. The success of studying artificial intelligence capabilities in criminal procedure will largely depend on utilizing such interdisciplinary knowledge.

Thus, introducing artificial intelligence systems into criminal procedure without adequate information technology support may seem unreliable. In such a situation, for a specialist, the priority lies not in the systems themselves but in advancing the fields where artificial intelligence systems can be applied. It is also essential to consider that the latter cannot exist without the former. So, how can artificial intelligence systems be utilized in criminal procedure?

To date, many forms of implementing the use of artificial intelligence have been proposed by scholars and practitioners. Specifically, we can discuss the forms of utilizing this system to develop crime predictions, organize investigation and forensic examination processes, systematize evidence, and support final decisions. These systems enhance the efficiency of law enforcement operations through automation, significantly reduce the time required to make decisions in specific legal situations, and improve the quality and development of those decisions.

Since any intelligent system is the result of consolidating all available knowledge in a specific field, its application within the scope of our topic deserves special emphasis. For example, through expert systems, concentrated knowledge from various domains of human intelligence is applied to solve standard situations, and the recommendations provided by artificial intelligence have an advisory nature. Decision-making, however, remains within the purview of humans.

At this point, it is worth highlighting the primary goals of using artificial intelligence in criminal proceedings, particularly in perceiving and systematically presenting information. Scholars have already studied the following main directions for applying artificial intelligence in criminal procedure.

To date, many forms of implementing the use of artificial intelligence have been proposed by scholars and practitioners. Specifically, we can discuss the forms of utilizing this system to develop crime predictions, organize investigation and forensic examination processes, systematize evidence, and support final decisions. These systems enhance the efficiency of law enforcement operations through automation, significantly reduce the time required to make decisions in specific legal situations, and improve the quality and development of those decisions.

Since any intelligent system is the result of consolidating all available knowledge in a specific field, its application within the scope of our topic deserves special emphasis. For example, through expert systems, concentrated knowledge from various domains of human intelligence is applied to solve standard situations, and the recommendations provided by artificial intelligence have an advisory nature. Decision-making, however, remains within the purview of humans.

At this point, it is worth highlighting the primary goals of using artificial intelligence in criminal proceedings, particularly in perceiving and systematically presenting information. Scholars have already studied the following main directions for applying artificial intelligence in criminal procedure.

Considering that the process of investigating crimes is often represented in scientific studies as an information system or model, it is through such a model that directions for integrating artificial intelligence into criminal investigations are formed. For instance, **Perrot P.** proposes three scenarios for the application of artificial intelligence systems in the work of French police investigators:

- **Modeling future crimes;**
- **Modeling the behavior and thinking of the offender;**
- **Modeling the behavior and thinking of the investigator[338].**

It seems that the first point directly follows from the second, making its differentiation somewhat redundant. However, this system provides valuable insight into the dichotomy of behavior (activities) and thinking for both investigators and offenders, reflecting the binary structure of criminalistics as a field.

The capabilities of artificial intelligence, particularly artificial neural networks, can be applied in the following more detailed directions:

1. **Assessment of the initial information on the criminal case** in order to put forward simple and complex investigative versions, to determine the directions of their verification.

2. **Modeling of the crime event and its trace pattern** based on incomplete data and previous *"experience"* covering a large array of criminal cases. Such an information model can be both informative and probabilistic in nature. As an example, the **VALCRI** *(Visual Analytics for Sense-making in Criminal Intelligence)* project developed in the UK allows optimizing search, search and evidentiary activities based on registration data[339].

---

[338] *Perrot P.* What about AI in criminal intelligence? From predictive policing to AI perspective // European Police Science and Research Bulletin. 2017. № 16. P. 73.

[339] Analytical Provenance for Criminal Intelligence Analysis // Valcri white paper series. VALCRI– WP–2017–009 / ed. by B. L. William Wong. 2017. 1 jan. URL: http://valcri.org/our- content/uploads/2017/02/VALCRI-WP-2017-009-Provenance3.pdf

3. **Identification of serial signs** in conditions of information insufficiency and a proposal to verify promising investigative versions. For example, in the case of the murder of a man in exact area committed with extreme cruelty, it is necessary to determine the verification actions aimed at establishing similar crimes committed in the same locality recently, taking into account the facts of causing harm to health of various degrees of severity. In this case, the range of possible suspects loses its universality and it is reduced to a defined special group. For example, not only near-criminal communities (of a neo-Nazi or other nature) should be checked for involvement in a crime, but also any places where people capable of committing a crime with an appropriate motive can gather, such as hand-to-hand and knife combat courses. historical reconstruction clubs, religious gatherings, etc.)[340].

4. **Assessing the sufficiency of collected evidence** for filing charges or forwarding the case to the prosecutor.

5. **Working with social networks, web cache, search engine index and other software devices.** Thus, monitoring the source of a fake or extremist message is one of the most pressing tasks of modern criminology[341]. At the same time, as A. **Pershin A.N.** notes, the modern investigator lacks the authority to collect evidence in network information systems, which is partially compensated by instructions to the inquiry body[342]. Perhaps intelligent systems will be able to resolve this contradiction.

6. **Predicting future crimes** based on analyzing the characteristics of committed crimes, including their locations, the social profiles of involved individuals, and media reports. From 2012 to 2018, *New Orleans* (USA) implemented a **project called "Palantir**,"[343] which collected information about city residents, such as their social circles, workplaces, movements, and social media activities. Based on this data, AI analyzed the social landscape to identify potential future criminals and their victims. However, the lack of regulatory frameworks for such initiatives hinders their real-world integration. Although **Palantir** successfully identified *80% of firearm offenders*, none of these crimes were prevented. Meanwhile, the European Union has shown a tendency to roll

---

[340] См. *Бахтеев Д. В.* Признаки серийности и их воздействие на выдвижение типовых следственных версий при расследовании убийств // Раскрытие и расследование преступлений серийных и прошлых лет: материалы Международной научно-практической конференции (Москва, 16 марта 2017 года) / под общ. ред. А. И. Бастрыкина. М.: Московская академия Следственного комитета Российской Федерации, 2017. С. 59–63.

[341] Андрей Николаевич Сретенцев К вопросу о возможностях искусственного интеллекта в решении задач криминалистической науки // Государственная служба и кадры. 2023. №4. (дата обращения: 18.12.2024).

[342] Pershin A.N. Digital rights persons carrying out a preliminary investigation. *Courier of Kutafin Moscow State Law University (MSAL))*. 2021;(2):108-115. (In Russ.) https://doi.org/10.17803/2311-5998.2021.78.2.108-115

[343] Nikulin, D.. (2022). Artificial intelligence and digitalization in forensics. Interexpo GEO-Siberia. 5. 33-36. 10.33764/2618-981X-2022-5-33-36.

back video surveillance projects with *facial recognition* functions due to privacy concerns[344].

Having studied the results of the process, it can be said that our analysis is aimed at the fact that artificial intelligence systems, in principle, must prove themselves in the implementation of these functions. Consequently, they should focus on proving a criminal case and making criminal procedural decisions. In this case, the stages of detection, opening and investigation of crimes imply the implementation of various criminal procedural decisions and organizational actions. In addition, the process of implementing them through artificial intelligence involves optimizing all available forces and tools, including information, recommendation, and advisory features. For example, the subjects of expertise and criminalistics can be used very successfully in the process of proving and making decisions. The knowledge expressed in the form of rules, such as *"if such a fact exists, then such an act has occurred, or such a reason suits for this Act"*, which is the basis of the examination, is suitable for automation and allows imitation of a person. This in turn creates the conditions for artificial intelligence to provide advice and recommendations that the investigator will be able to properly organize the investigation and assess the state of the investigation. The main tasks carried out using such systems can be:

– determination of possible investigative directions (formation of versions of events taking into account various sources of Information), selection of the most likely directions;

– give the user recommendations on further actions (conducting quick search activities, authenticating the facts that need to be checked correctly organizing investigative actions, etc.).

It should also be borne in mind that when solving these tasks, researchers note that it is impossible to do this without the presence of certain additional elements in the melody[345]:

– system of standard models of investigative actions;
– a system of tactical methods that ensure the optimality of investigative actions;
– traditional forms of a system of logical methods that optimize standard investigative actions;
– a system of heuristic methods for organizing investigations[346].

---

[344] *Степаненко Д. А., Бахтеев Д. В., Евстратова Ю. А.* Использование систем искусственного интеллекта в правоохранительной деятельности // Всероссийский криминологический журнал. 2020. Т. 14. № 2. С. 206–214.

[345] Афанасьев А. Ю. Афанасьев А.Ю. Введение в уголовно-процессуальную науку. М. Тим Джонс; Пер. с англ. Осипов А. И. М.: ДМК Пресс, 2021. С. 572.

[346] Миронова О. А. Эвристический метод обучения в развитии творчества // Известия ТулГУ. Гуманитарные науки. 2011. №3-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/evristicheskiy-metod-obucheniya-v-razvitii-tvorchestva (дата обращения: 20.12.2024).

As an example, it requires the development of standard algorithms of proof and decision-making in the criminal proceedings, which are included in the expert system. Depending on the specific input, based on its characteristics, the expert system selects an algorithm suitable for its actions, based on the tasks of the subject of activity for the detection, opening and investigation of crimes. For example, an expert system based on the rules of Criminal Procedure and forensic characteristics of a criminal procedure for an investigator or Inquirer about a message from the death of a person conducts a type-specific analysis of the data and offers him an algorithm consisting of standard actions and standard procedural decisions to prove. Accordingly, such a system will help the subject of criminal investigation, the correct assessment of the criminal phenomenon, the choice and execution of the appropriate algorithm of actions for the host, prove and make decisions.

Conclusion

Before summing up, we should not neglect some fundamentally significant challenges arisen in the process of implementing artificial intelligence advantages in the criminal proceedings, especially, in the pre-trial stage. Below, we will discuss the challenges categorizing them in three main aspects.

Incomplete representation of crimes: currently, neither crime descriptions nor forensic characteristics of offenses are fully defined. Some of them remain latent or are ambiguously outlined, making comprehensive analysis difficult.

Lack of concrete algorithms in criminal proceedings: in the realm of criminal justice, the absence of specific algorithms for proving and decision-making is a notable gap. Developing such algorithms for each type of crime is a complex task. In practice, reliance on standard algorithms may be the only feasible approach.

Absence of interdisciplinary collaboration: on one hand, there is a lack of interdisciplinary efforts to identify the critical legal knowledge required for integrating artificial intelligence into criminal proceedings. On the other hand, experts in this field often consider AI applications solely within the confines of their specific objectives, which hinders the broader consistency needed for effective implementation.

In conclusion, it is worth saying that introducing artificial intelligence systems into criminal proceedings holds the potential to optimize all aspects of the process in the future. However, this will require coordinated and systematic efforts from a wide range of scientists and practitioners, rather than relying on the contributions of individual researchers. Moreover, leveraging all available tools and resources will not suffice to overcome the challenges without incorporating advancements from disciplines beyond jurisprudence into the AI implementation process.

СУДДА ИШ КЎРИШНИНГ ОЧИҚЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Сабиров Эркинжон Кучкарбаевич, ю.ф.ф.д. (PhD),
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси мустақил изланувчиси

